

KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2023, № 9-son



KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal
2023-yil, 9-son

Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV

Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,

A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV

J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,

A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,

K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani

Universitet ko'chasi, 2-uy

Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,
ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

Sahifalovchi:

I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.12.2023-yil.

Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxonaning manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,

Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Aralova I.M. Aqliy nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishning mazmuni va nutqini tekshirish usullari.....	3
Эрназарова М.Н., Жабборова Э.Р. Концепция Родины и Отчизны в произведениях русских и узбекских поэтов.....	6
Sheraliyev S.T. Korreksion mashg'ulotlar jarayonida kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni nutqiy faoliyatga o'rgatishning samarali texnologiyalari..	10
Rashidova Z.O. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirishning metodik tizimi.....	14
Розиқова Л. Актуальные проблемы современной психологии.....	20
Ostonova Sh.F. Boshlang'ich sinflarga atamalarini ingliz tilida o'rgatish orqali matematikani o'qitish metodikasi.....	26
Rajabov O.T. Ta'limda sun'iy intellekt	33
Атажонова С.Б., Эргашева М.Г. Совершенствование методики обучения специальных дисциплин в магистратуре технических вузов..	38
Sabirov Q. Ta'lim jarayonida geoaxborot tizimlaridan foydalanishning metodik tamoyillari.....	42
Alimqulov J.B. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarida loyihalash kompetentligini rivojlantirish.....	46
Имуродова Д.Н. Kasb-hunar maktablari ijtimoiy fanlar o'qituvchilari akt kompetensiyalarini baholashda yondashuvlar.....	50
Djabbarov A.I. Yadro otishda quvvat sifatini rivojlantirish: sport biomexanikasida keng qamrovli tadqiqot.....	55
Aytkulova G.Sh., Raxmatova Sh.M., Xaydarova M.R. Etnografik materiallardan amaliyotda foydalanishning kognitiv imkoniyatlari.....	60
Nazarov Z.A. Ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarga stol tennis texnikasini o'rgatish usullari.....	64
Zokirova G.X. Frazeologik kompetensiyaning metodologiyasi va shakllantirish bosqichlari.....	69
Ismoilova N.I. Aniq fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning mohiyati va mazmuni.....	74
Daminova Y.S. Kollobrativ ta'lim va uning ahamiyati.....	79
Toshtemirova D. Bo'lajak tarbiyachilarda bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	84
Nishonov F.M. Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish.....	89
Sultonov R.R., Isomaddinova U.M., Qo'chqorov M.M., Ergashev Y.N. Turli muhitlarda diffuziya hodisasi mavzusini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish.....	95
Berkinova Ch.I. Bo'lajak maktabgacha talim tashkilotlari tarbiyachilarini valeologik tarbiya berishga tayyorlashning raqamli texnologiyalari.....	89
Raimberdi K.X. Педагогические механизмы, правильно определяющие вектор развития студентов на основе акмеологических подходов.....	105
Tashpulatov F.A. Yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasi va taktikasini o'rgatish jarayonini pedagogik rejalashtirish.....	110
Xamrayeva Z.B. Qisqa masofaga yuguruvchi sportchilarning chidamliligini rivojlantirish.....	117
Кулдашев Э., Саримсақов Д.Х. Паррандачилик корхоналар иқтисодийтини рақамлаштириш асосида ривожлантириш.....	124
SHERALIEVA M.A. Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish bolani maktab ta'limiga tayyorlashning strategik yo'nalishi sifatida.....	128
Djabbarova N.B. Sharq mutafakkirlari asarlarida liderlik sifatlarini shakllantirishga doir pedagogik qarashlar.....	134
Xaydarov B.Y. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajara olish ko'nikmalarini shakllantirish va uning ahamiyati.....	140
To'raqulova Sh. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning psixologik xarakter xususiyatlari.....	145
Raximova N.A. Xorijiy tilni o'qitish sharoitida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati.....	150
Akramova X.S., Abatbayeva A.J. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar yakka mashg'ulotda o'yin faoliyatidan foydalanish xususiyatlari.....	156

Саримсаков Х.У., Атажонов С.Б., Мирзаахмедов А.А. Внедрение цифровых технологий в переработку продукции птицеводческого предприятия.....	162
Yakubov U.B. Hozirgi mehnat bozorining zamonaviy menejerlarga bo'lgan talablari.....	166
Абдуллаев А., Атажонов С.Б., Абдурашидов М.Л., Цифровизация отдела маркетинга образовательного учреждения.....	172
Atajanova S.B., Xamidova Sh.B. Big data» muhitiga asoslangan kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligi va himoya qilish strategiya si.....	176
Abdullayeva D.N. O'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini qaror toptirishning psixologik xususiyatlari.....	180
Kuldashev E., Ma'mirov M. Raqamli boshqaruv – taraqqiyot asosidir.185	
Pardaboyev O'A. Differentsial yondashuv asosida ta'lim jarayonini rivojlantirish usullari.....	188
Yuldasheva M.E. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar.....	191
Abdujabborova M. Yordamchi maktablarda savodga o'rgatishning tahliliy sintetik metodi.....	198
Eshniyozov U.A. Talabalarning eksperimental ko'nikmalarini rivojlantirish orqali kasb-hunarga yo'naltirish	205
Мирзамуратов Б.Ф. Умумтаълим мактабларида иссиқлик микродори-ни ўқитиш методлари.....	212
Пратов С.И. Педагогические механизмы обнаружения чувства толерантности у детей во время игровой деятельности.....	216
Пирматова А. Интеграция подходов, основанных на задачах (поз) для развития навыков слушания и говорной работы учащихся.....	219
Ражабов Х.М. Бўлажак кимё ўқитувчиларида ахборот-методик компетентлигини такомиллаштириш аҳамияти.....	223
Rahmatova G.T. Kombinatsion qobiliyatlar va ularning pedagogik husu siyatlar.....	227
Qahharova M.L. Talaba yoshlarga xalq pedagogikasi asosida kasbga qiziqtirish texnologiyasi.....	230
Kushakova G. Oliy ta'lim muassasasi talaba yoshlarini mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash.....	235
Хилолиддинова Ф.Р. Бўлажак мутахассисларда коммуникатив ма-даниятни ривожлантириш.....	241
Rahmatova F. Bo'lajak o'qituvchilarning auditoriyadan tashqari ilmiy tadqiqotchilik ishini tashkil etuvchi omillari.....	248
Baisov A.S. Til bilish darajasi bilan bog'liq muammolar.....	253
Исабаева М.М., Эргашева Н.А. Биологик таълим самарадорлиги, ўқитишда интегратив таълимнинг аҳамияти	256
Abjalova H.R. Ijtimoiy hamkorlik asosida talabalarining pedagogik malakalarini takomillashtirish usullari.....	261
Yadgarova D.B. Talabalar valeologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish.....	268
Ne'matjonova Y.O'. Ta'lim sifatini oshirishda xalqaro tajribalarning qiyosiy tahlili va uning ahamiyati	273
Boboqulova N.Y. Montessori usulining dunyo bo'ylab kengayishi jara yonlari.....	287
Ахмеджонов Д.Г. Водосберегающий полив - это важная мера для уменьшения засоленности земель (Для магистров биологического направления).....	294
Бахриддинова Ф.У. Антропологияни ривожланиши.....	298

AQLIY NUQSONGA EGA BO'LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHNING MAZMUNI VA NUTQINI TEKSHIRISH USULLARI

ARALOVA IRODA MELIYO'ZI QIZI

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki, maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotda logopedik ishning asosiy vazifasi aqli zaif bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish bilan bir qatorda bu toifadagi bolalarni ijtimoiy tomondan orqada qolishlikka olib keluvchi ruhiy va jismoniy rivojlanishi-dagi turli xil nuqsonlarni tuzatish, yengillashtirish, kompensatsiya qilishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgandir.

Kalit so'zlar: Individual, nutq, psixika, pedagogika, korreksiya, ruhiyat, idrok, tafakkur, profilaktika, aqliy zaiflik, tuzatish, tibbiy-pedagogik, rivojlantirish.

Аннотация: Содержание данной статьи заключается в том, что основной задачей логопедической работы в специальной дошкольной образовательной организации является всестороннее развитие личности умственно отсталого ребенка, а также коррекция и купирование различных дефектов психического и физического развития. детей этой категории, которые обуславливают их социальное отставание. Направлена на осуществление действий, направленных на делание.

Ключевые слова: личность, речь, психика, педагогика, коррекция, психика, восприятие, мышление, профилактика, умственная отсталость, коррекция, медико-педагогическое, развитие.

Abstract: The content of this article is that the main task of logopedic work in a special preschool education organization is the comprehensive development of the personality of a mentally retarded child, as well as the correction and relief of various defects in the mental and physical development of children of this category, which cause them to lag behind socially. Compensation is aimed at the implementation of actions aimed at doing.

Key words: Individual, speech, psyche, pedagogy, correction, psyche, perception, thinking, prevention, mental retardation, correction, medical-pedagogical, development

Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotda logopedik ishning asosiy vazifasi aqli zaif bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish bilan bir qatorda bu toifadagi bolalarni ijtimoiy tomondan orqada qolishlikka olib keluvchi ruhiy va jismoniy rivojlanishi-dagi turli xil nuqsonlarni tuzatish, yengillashtirish, kompensatsiya qilishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgandir. Turli xil nuqsonlarni tuzatish, yengillashtirish orqali aqli zaif bolalarda sog'lom nutq malakasini shakllantirishdan iboratdir. Nutqni o'z vaqtida to'g'ri egallash, bolaga atrofni turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z xulqini boshqarishga yordamlashadi, bola ruhiy faoliyatini

rivojlanishiga ko'maklashadi va nihoyat maktabda ta'lim tarbiya jarayonini ancha yengillashtiradi. Aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlariga qaraganda bir muncha kech tilga kiradilar. Birinchi so'zni aytish muddati bolaning uch, ba'zan esa besh yoshgacha kechikadi. Eng avvalo bu o'rinda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. 1 guruhga kelgan aqli zaif bolalarning 66 % ida talaffuz nuqsonlari uchraydi. Aksariyat bolalarda fonematik eshitish qobiliyati buzilgan bo'lib, nutq a'zolari va ularning harakteridagi nuqsonlari ham uchraydi. Lug'at boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklar kuzatiladi. Impressiv (ichki) nutq, ekspressiv (tashqi) nutq taraqqiyotidan

ancha orqada qoladi. Mavhum xususiyatdagi umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalovchi ko'pgina so'zlarni tushunmaydilar, ko'chma ma'noda qo'llanilgan tushunchalarni anglashda qiynaladilar, ularni aynan idrok etadilar. Aqli zaif bolalarning gap tuzishida ham qiyinchilik vujudga keladi. Tuzgan gaplari soda, yig'iq bo'lib, so'zlarning o'zaro moslashuvida ko'plab xatolar uchraydi. Murakkab bog'lanishli gaplar juda kam qo'llaniladi. Aqli zaif bolalar bir narsani ikkinchisiga qiyoslashga, hodisalarning yetarli, aniq anglamaslik aqli zaif bolalarning fikri butunlay noaniq tugallanmagan bo'lib qolishga olib keladi. Gap mazmunini yetarli tushunmaslik aqli zaif bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bolalar o'qiyotgan, eshitayotgan va ko'rayotgan narsalarni to'la tushunib yetmasligi ularning so'zlashuv nutqida bir qator xatolarga olib keladi. Aqli zaif bolalar nutqidagi barcha nuqsonlar ularni o'qitish jarayonida qiyinchilik tug'diradi, hamma vaqt ham o'qituvchining tushuntirishlarini to'g'ri tushunib yetmaydi. Lekin ilg'or o'qituvchi – defektologlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, ta'limning maxsus tashkil etilgan jarayoni yordamida aqli zaif bolalarning nutq faoliyatini tuzatish, ya'ni korreksiya qilish, umumiy shaxs rivojlanishidagi rolini oshirish mumkin. Aqli zaif bolalardagi yuqorida aytilgan yetishmovchilik tufayli ular bilan olib boriladigan logopedik – korreksion mashg'ulotlar, normal tengdoshlariga nisbatan uzoqroq muddat davom etishi mumkin. Olib borilayotgan logopedik mashg'ulotlar aqli zaif bolalar bilan yetarli ravishda, reja asosida, ularning nutqiy kamchiliklarini hisobga olgan holda olib borilsa, o'z samarasini beradi. Chunki aqli zaif bolalar rivojlanmay qolgan bolalar emas, ular o'ziga xos rivojlanishga ega bo'lgan bolalardir. Ana shu o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, ulardagi nutqiy nuqsonlarni bartaraf

etishda ilmiylik, izchillik, ketma – ketlik kabi didaktik tamoyillarga amal qilinib borilsa, shuningdek, tovushlarni aniq talaffuzini hosil qilishda kerakli logopedik jihozlardan o'rinli foydalanib borilsa, bolalardagi nutqiy nuqsonlik bartaraf etib boriladi. Aqli zaif bolalar nutqidagi talaffuz nuqsonlari o'z vaqtida bartaraf etish orqali ularda ravon nutq malakasi shakllanadi, nutqning grammatik tuzilishidagi buzilishlarning oldi olinadi. Aqli zaif bolalar atrofdagilar bilan bo'ladigan nutqiy muloqati yaxshilanadi. Mashg'ulot jarayonlarida savod o'rganishda o'qish va yozish malakalarini shakllanishida ijobiy yordam beradi. Ushbu tadqiqot ishi yuzasidan kelib chiqqan holda quyidagi uslubiy tavsiyalarni bermoqchiman Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilot logopatlarini (nutqida nuqsoni bor bolalar) shartli ravishda 3 guruhga jamlash mumkin. Shulardan aqli zaif logopatlarining eng ko'p sonli birinchi guruhini aqli zaiflik tufayli yuzaga keladigan nutq to'liq rivojlanmagan bolalar guruhlari tashkil etadi. Ikkinchi guruhga nutq a'zolarining jarohatlanishi orqasida vujudga keladigan nutq nuqsonli bolalar kiradi. Bular quyidagilar: dislapiya, dizartriya, disfoniya, alapiya, afaziya, duduqlanish va boshqalar kiradi. Uchunchi guruhni aqli zaiflik tufayli ikkilamchi asorat sifatida kelib chiqadigan o'qish va yozma nutqida nuqsonlari bo'lgan bolalar guruhi tashkil etadi. Birlamchi buzilish turini (bilish faoliyati yoki nutq a'zolari jarohatlanishi) to'g'ri aniqlash, kelgusida logopedik ish yo'nalishlarini to'g'ri tanlash imkoniyatini beradi. O'quv yilining dastlabki 2 haftasi o'qishga yangi kelgan bolalar nutqini aniqlash, tekshirishga qaratiladi. Bunda logoped bolaning og'zaki va yozma nutqini tekshiradi. Birinchi guruh bolalari og'zaki nutqini tekshirish 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1 bosqichda guruhdagi bolalar nutqi yalpi holatda tekshiriladi, hamda bolalar

orasidagi nutqi nuqsonli bolalar aniqlanadi.

2 bosqichda ro'yxatga olingan nutq nuqsonli bola logopedik yordam xonasi sharoitida yakka tartibda chuqurroq aniqlanadi va unga tashxis qo'yiladi.

15 sentyabrgacha logoped bolalarning og'zaki va yozma nutq holatini tekshirishni nihoyasiga yetkazadi. Logopatlarini guruhlariga jamlaydi, yakka mashg'ulotlar uchun bolalarni aniqlaydi, hamda har bir guruh uchun alohida bir yillik reja tuzadi. Mashg'ulotlar yillik rejasi asosan logopatning nutq kartasida aks ettiriladi. Mashg'ulotlar jadvalini tuzishda shuni hisobga olish kerakki, guruhli mashg'ulotlarga 30 – 35 daqiqa, 2 – 5 guruhlarda 35 – 40 daqiqa, guruhchalarga 20– 25 daqiqa, yakka mashg'ulotlarga 15 – 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Guruhlar va guruhchalar orasidagi tanaffus 5 – 10 daqiqani tashkil etib, bu vaqtni logoped o'z maqsadi yo'lida foydalanadi. Og'ir nuqsonli logopat bilan haftasiga imkon qadar 3 martadan mashg'ulot o'tkazish muhimdir. Agar 2 – 5

guruh logopatlarini soni uchun mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar to'g'ri kelmasa, bu holda guruhli mashg'ulotlarni 30 daqiqagacha qisqartirish va qolgan 15 daqiqada yakka mashg'ulotlar o'tkazish tavsiya etiladi. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni logopedik tekshirishda bir nechta bosqichdan iborat:

Birinchi bosqichda ota onalar bilan bir maqsadga yo'naltirilgan suhbat orqali bola anamnezi yig'iladi va maxsus kerakli hujjatlarni o'rganiladi.

Ikkinchi bosqichda til komponentlarini mufassal logopedik xulosa asoslab beriladi.

Uchinchi bosqichda esa maxsus ta'lim va tarbiya sharoitida bolani dinamik kuzatishdan iborat bo'lib, bu bosqich jarayonida nutq taraqqiyotidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi va yetarlicha aniq ifodalangan nuqsonlar aniqlanadi. Tekshirish jarayonida logoped suhbat, savol – javob, kuzatish, o'yin, yangi pedagogik texnologiya, test baholash, tibbiy va pedagogik hujjatlarni o'rganish kabi metodlardan foydalanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 22 dekabrda Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi 802-son Qarori.

2. M. Ayupova. Logopediya. Toshkent. O'qituvchi 2007 yil.

3. R. Sh. Shomaxmudova. L. Mo'minova. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. Toshkent. O'qituvchi 2014 yil.

4. R. Shomaxmudova. F. Muzaffarova. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotda korreksion logopedik ishlarni tashkil etish va rejalashtirish. Toshkent. O'qituvchi 2010 yil.

5. Aralova I.M. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan korreksion -pedagogik ish shakllarini o'rganish yo'llari. <https://maqola.reandpub.uz/4432/> Magistrlar 2023y

6. Aralova I.M. Maktabgacha yoshdagi fonetik-fonemanik nutq buzilishiga ega bo'lgan bolalarni nuqsonlarni bartaraf etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning shakl, usul va metodlari - R.A.P. Published: 13.04.2023 Keywords:

<https://maqola.reandpub.uz/4426/> Magistrlar 2023y

7. Aralova I.M. Aqli zaif bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish, ularning mustaqil faoliyatlarini tashkil etishda turli metodlardan foydalanish - R.A.P. Published: 13.04.2023 Keywords: <https://maqola.reandpub.uz/4438/> Magistrlar 2023y

КОНЦЕПЦИЯ РОДИНЫ И ОТЧИЗНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОЭТОВ

ЭРНАЗАРОВА М.Н. старший преподаватель Джизакского филиала Национального университета.

ЖАББОРОВА Э.Р. старший преподаватель Джизакского филиала Национального университета.

Аннотация: В данной статье рассматривается сходства образа Родины в произведениях русских и узбекских поэтов. Такие сходства часто наблюдаются в основном в произведениях искусства и поэзии. Одной из актуальных задач является изучение основ их происхождения, видов, присущих каждому из них поэтических особенностей, художественно-эстетических задач, выражения национальности в их изображении.

Annotatsiya: ushbu maqolada rus va o'zbek shoirlari asarlarida Vatan obrazining o'xshashligi ko'rib chiqiladi. Bunday o'xshashliklar ko'pincha san'at va she'riyat asarlarida kuzatiladi. Ularning kelib chiqishi asoslarini, ularning har biriga xos bo'lgan she'riy xususiyatlarni, badiiy va estetik vazifalarni, ularni tasvirlashda millatni ifoda etishni o'rganish dolzarb vazifalardan biridir.

Abstract: This article examines the similarities of the image of the Motherland in the works of Russian and Uzbek poets. Such similarities are often observed mainly in works of art and poetry. One of the urgent tasks is to study the basics of their origin, the types of poetic features inherent in each of them, artistic and aesthetic tasks, the expression of nationality in their image.

Ключевые слова: Родина, отчизна, концепция, литературоведение, образ.

Несмотря на то, что народы мира живут на больших расстояниях друг от друга, говорят на разных системных языках, удивительно, что созданные ими произведения имеют схожие образы и мотивы.

Такие сходства часто наблюдаются в основном в произведениях искусства и поэзии. Примечательно, что в трактовке понятий Родина и Отчизна в них присутствует именно такая близость. Одной из актуальных задач является изучение основ их происхождения, видов, присущих каждому из них поэтических особенностей, художественно-эстетических задач, выражения национальности в их изображении. В результате этого расширяется возможность выявления в контексте мировой поэзии закономерностей художественно-поэтического мышления человечества.

Важное теоретическое значение имеют проводимые в мировом сравнительном литературоведении исследования по вы-

явлению общих и отличительных черт поэтических явлений, их специфических признаков на основе сравнительного изучения их взаимодействия. Поэтические произведения, встречающиеся в русской и узбекской поэзии, еще не были специально изучены в сравнительно-типологическом направлении, поэтому изучение конкретных признаков, характерных для их интерпретации, выражения национальности в образе и интерпретации, является одним из необходимых вопросов.

На нынешнем подъеме, когда в нашей стране проводятся реформы, большое внимание уделяется более глубокому изучению поэтических произведений, которые издавна являются прочной основой нашей духовности. В частности, анализ творчества известных поэтов в сравнительном направлении является требованием времени.

Концепция Родины и Отечества актуальна и важна в связи с тем, что сравнительно-на-

учное исследование особенностей национальности в поэзии, художественно-эстетических задач, различных ее проявлений, поэтических закономерностей, связанных с образом и трактовкой, позволяет также изучить узбекскую поэзию в мировом поэтическом понимании.

” В настоящее время перед нами стоят важные задачи по борьбе Просвещения с невежеством в сфере культуры, обучению нашей молодежи пониманию настоящего искусства, формированию их эстетического мира на здоровой основе”. [Ш.М. Мирзиёев]

В становлении и теоретическом развитии узбекского сравнительного литературоведения и переводоведения заслуживают внимания диссертации Файзуллаевой, Ю.Нурмуродова, Б.Шамсиева, З.Жуманиязова, Б.Сувонкулова, Г.Юсупова, Р.Касимовых. Важное значение приобрели исследования, созданные Р.Ширинова, Р.Файзуллаева, Ю.Нурмуродова,

В них проблемы изучения узбекских поэтических произведений в концептуальном направлении стали предметом исследования. Концепция Родины и Отечества, ее образность, соответствующие варианты в узбекских и русских народных поэтических произведениях, функции, особенности национальности еще специально не изучены. В поэтических произведениях узбекского сравнительного литературоведения одним из актуальных вопросов стала научная работа по изучению концепции Родины и Отечества в типологическом направлении. Тем не менее поэзия анализируется отдельно. Конечно, и в таких исследованиях в разных образах воспеваются чувства любви к Родине, родному краю.

Также достойны восхищения вопрос о образном герое, его художественных обязанностях как главного и второстепенного героя, образы природы. Но концептуально-ориентированные исследования, в отличие от них, обобщенно исследуют вопрос

о корнях происхождения и поэтической интерпретации посредством перевода и сравнения.

Правда, в узбекском и русском литературоведении был проведен научный анализ поэзии писателей, толкования Родины и края. Известно, что весь мир, все существа во Вселенной изучаются сравнительно грамотно (это диалектический закон). К примеру, в поэзии Э. Вахидова и С.Есенина понятие Родины и Отечества подвергается всестороннему типологическому анализу, а также переводу. В частности, звучащие в творчестве поэтов отечественные “мотивы” основаны на типологическом анализе сходств и различий через образы матери-природы, женщины-птицы и животного мира.

Тема родины является органичной и неотъемлемой частью творческого наследия С. А. Есенина. Идея утраты, с которой она сопряжена в поэзии Есенина, отражает вечную проблему жизни — тоски человечества по изначальной красоте и мудрости, по жизни в гармонии с природой. Неоднозначное отношение поэта к событиям, происшедшим в его родной стране, отразилось в его стихотворениях. Но неизменной и постоянной оставалось его любовь к «стране березового ситца». Доказательством тому являются слова из книги Е. Гусярова и О. Карпухина «Есенин в жизни». Они поражают своей искренностью, можно сказать, жесткой правдой: «После поездки по свету у Есенина осталась одна любовь — к России. И не любовь это была уже, а болезнь — безысходная и неизлечимая. И все, что касалось России, теперь входило в его сознание и душу отравой и новой мукой. Он видел, что с Россией происходит не то. Первоначальные восторги исчезли, и он увидел, что Россию в нечистой игре выиграла шулера и проходимцы. Стала она на веки вечные страной негодяев. И ничего уже не поправить. Оставалось только кричать... То, что он кричал, было чудовищным, не

всегда осмысленным и подготовленным. Это был крик и гнев внезапно ударенного по лицу. Цена такому крику по тем временам — пуля. Он чуял гибель России. И вел себя так, как должен бы вести себя последний в этом мире русский. Возможно, и был он этим последним, поскольку один ясно ощущал те великие, непоправимые утраты, о которых мы стали подозревать только теперь...».

В произведениях многих русских классиков звучит тема Родины. Любовь к своей Родине, к своему народу выступает источником вдохновения для многих композиторов, художников, писателей и поэтов. Образ родины в русской поэзии имеет множество толкований и интерпретаций. Каждый поэт вкладывает в этот образ свои собственные мысли, чувства и взгляды на родину. Стремление возвысить свою страну ещё выше, ещё прекраснее является основой для их произведений. И сложно назвать поэта или писателя, который бы не посвятил своей Родине строки, идущие от души, самые искренние, самые трепетные. Образ родины в русской поэзии имеет глубокие исторические корни. В течение веков Россия прошла через множество событий и перемен, которые оказали огромное влияние на восприятие и представление о родине у русских поэтов.

В начале своего развития русская поэзия была тесно связана с идеей патриотизма и любви к родине. В эпоху Средневековья и Русского государства, поэты воспевали красоту и мощь Руси, ее историческое наследие и национальную идентичность. Они создавали образы родины, которые символизировали единство и силу народа.

В период Романтизма, который пришел в Россию в XIX веке, образ родины стал еще более сложным и многогранным. Поэты, такие как Александр Пушкин, Михаил Лермонтов и Федор Тютчев, исследовали не только внешнюю красоту родины, но и ее духовное измерение. Они выражали свои

чувства и мысли о родине через метафоры, символы и эмоциональные образы.

Сегодня образ родины в русской поэзии продолжает развиваться и изменяться. Современные поэты исследуют новые аспекты и значения родины, отражая современные вызовы и проблемы. Они выражают свои чувства и мысли о родине через разнообразные образы, символы и метафоры, отражая свою индивидуальность и взгляды на мир.

Образ родины в русской поэзии часто выражается через символику и метафоры, которые помогают поэтам передать свои чувства и мысли о родине. Символика и метафоры используются для создания образов, которые воплощают идею родины и ее значимость для поэта.

Одним из наиболее распространенных символов родины в русской поэзии является матушка-земля. Земля воспринимается как мать, которая питает и защищает своих детей. Этот символ отражает глубокую связь между человеком и его родиной, а также природой.

Другой символ родины – родной край или родной город. Это место, где поэт родился и вырос, где он чувствует себя дома. Родной край становится символом родины в целом, представляя ее идеалы и ценности. Метафоры также широко используются для передачи образа родины. Например, родина может быть описана как свет, который освещает жизнь поэта. Эта метафора подчеркивает важность родины в жизни поэта и ее влияние на его творчество.

Другая метафора, которая часто используется, – родина как огонь. Огонь символизирует страсть, энергию и силу, которые родина внушает поэту. Он может описывать родину как источник вдохновения и мотивации для творчества.

Символика и метафоры помогают поэтам выразить свои чувства и мысли о родине, создавая образы, которые олицетворяют ее значимость и влияние на их жизнь. Они по-

могут передать эмоциональную окраску и глубину отношений поэта с родиной, делая их поэтические произведения более выразительными и запоминающимися.

К образу родины обращались и современные узбекские поэты Усман Азим, Мухаммад Юсуф. Они в своих стихотворениях воспевают безграничную любовь к Родине, ее величие, независимость. Они прямо обращаются к своему современнику, прежде всего, к молодому поколению.

Их каждое стихотворение - страстный призыв, уберечь самобытность своего края, показать через образы преемственность поколений.

Мухаммаду Юсуфу свойственны необычайная многосторонность в восприятии мира, отзывчивость на каждое движение жизни и безудержный полет фантазии.

Мухаммад Юсуф умел показать жизнь в ее полноте и многообразии. Но жизнь для него - это и есть любовь. Без нее он не мыслил себя ни в жизни, ни в творчестве. Именно поэтому все его творчество пронизано трогательными нежными и трепетны-

ми нотами.

И все же основной темой его стихов была любовь к родной земле. Об Узбекистане он писал всегда: и в начале своего пути, и в более поздний период творчества. Хотя о Родине пишет каждый поэт, но так искренне и неповторимо писал только он. При этом стихи Мухаммада Юсуфа, посвященные родному краю, отличаются особой настройкой, невероятная пластика и яркая образность. Так любить Родину, как любил ее Мухаммад Юсуф, могли лишь только самые преданные и верные сыны Отечества! Вот как он пишет о Родине в стихотворении “Узбекистан”.

Проведенные дни с тобой для меня праздник,

Если расстанусь с тобой, то скучаю о тебе. Преклоняюсь пред теми, кто знает тебя.

Жалею во всех тех, кто не знает тебя.

Тесно связаны с темой Родины стихи, посвященные матери. В них передается не только сыновья любовь к своей матери, но и любовь ко всем матерям.

Литература:

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий олами юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир (Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъруза) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2017 йил, 4 август.
2. Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. канд. филол. наук. – Т.: ИЯЛ АНРУз, 1972. – 225 с.;
3. Рузиев Ш. К вопросу узбекско-немецких литературных связях: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Т.: ИЯЛ АНРУз, 1974. – 30 с.;
4. М.Н.Эрназарова, А Тухтаева РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ УЧЕНЫХ ДЖАДИДОВ В РАЗВИТИИ ШКОЛ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ М.Н.Эрназарова, А Тухтаева Science and innovation 1 (Special Issue 2), 810-813
5. Эрназарова ,Мархабо Нарбаевна;Maksimova, Nataliya Leonodovna. The concept of Homeland and Fatherland in the poetry of Sergei Yesenin and Erkin Vakhidov Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 2023;

KORREKSION MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA KAR VA ZAIIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARNI NUTQIY FAOLIYATGA O'RGATISHNING SAMARALI TEXNALOGIYALARI

SHERALIYEV SIROJIDDIN TURSUNBOYEVICH
JDFU maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Anotatsiya: ushbu maqolada zaif eshituvchilarning xususiyatlari, ta'lim olish jarayoni, ushbu jarayonning o'ziga xosligi, ular uchun tashkil etilgan maktablarda dars jarayonlarining turli uslub va metodlardan foydalangan holda tashkil etilishi, o'qituvchilarning bu jarayonda bevosita tutgan o'rni haqida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: kar, zaif eshituvchi, idrok, eshitish, daraja, tovush, bo'g'in, so'z, nutq, ravon nutq.

Аннотация: в данной статье описаны особенности слабослышащих, образовательный процесс, своеобразие этого процесса, организация урокового процесса в школах для них с использованием разных методов и методов, а также непосредственная роль учителей в этом процессе.

Ключевые слова: глухой, слабослышащий, восприятие, слух, уровень, звук, слог, слово, речь, беглость.

Abstract: this article describes the characteristics of the hearing impaired, the educational process, the uniqueness of this process, the organization of lesson processes in schools for them using different methods and methods, and the direct role of teachers in this process. .

Key words: deaf, hard of hearing, perception, hearing, level, sound, syllable, word, speech, fluency.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda «2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi «Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorida «Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida»gi nizomda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarini korreksiyalash, imkoniyatiga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlash, jamiyatda moslashuviga ko'maklashish talablari qo'yilgan.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga quyidagi vazifalar qamrab olingan:

– ular uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish;

– jismonan baquvvat, aqlan, ma'naviy-axloqiy komil shaxs sifatida shakllantirish.

Ikkilamchi nuqsonlarini korreksiyalash. Ushbu vazifa o'z ichiga to'rtta maqsadni qamrab oladi:

bolalarning og'zaki nutqini shakllantirish; eshitish qobiliyatini rivojlantirish; harakat kamchiliklarini bartaraf etish; ijtimoiy hayotga moslashgan, pedagogik-psixologik jihatdan maktab ta'limiga tayyorlash.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan insonlar uchun ona tili – imo-ishora tili hisoblanadi. Ammo, maktabgacha yoshdagi bolalarni teng integratsiya qilishni ta'minlash, keyinchalik hayotda o'z o'rnini topishi uchun kichkintoylarning og'zaki nutqini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunday bolalarning nutqini rivojlantirish murakkab jarayondir. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori – nutqini harakatga keltiruvchi analizatorlar ishtirok

etadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini shakllantirish yo'llari muntazam o'rganib borilishi shart. Ya'ni, eshitish qobiliyatini shakllantirish, psixologik, korreksion pedagogik jihatdan tayyorgarlik, lug'at boyligini oshirish lozim.

Og'zaki nutqni shakllantirishda ta'limiy o'yinlar va didaktik materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu orqali bolalarning lug'at boyligi oshadi, og'zaki nutqi shakllanadi, saqlangan eshitish qoldig'i rivojlanadi. Surdopedagog va tarbiyachining to'g'ri va aniq tashkil etilgan hamkorligi guruhda ijobiy rivojlantiruvchi muhit yaratib, ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Jizzax viloyati Zaribdor tumanidagi 2-sonli Zaif eshituvchi bolalar maxsus maktabiga kelib, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdik. Ushbu maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi eshitishida nuqsoni bo'lgan 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarni qabul qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayoni to'rtta o'quv yili dasturi asosida olib boriladi. Asosiy vazifa sinf xonalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, maktab ta'limiga tayyorlashga qaratilgan pedagogik jarayonni o'z ichiga qamrab oladi.

– Bolalar dars jarayonida ajratishda eshitishida muammosi bo'lgan bolaning o'ziga xos psixofiziologik holati, moslashuv muammolari hamda aksariyat hollarda ularning ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan kech jalb etilishi hisobga olinadi, – deydi muassasa direktor o'rinbosari Atayev Dilshod. Bolalarning holatiga qarab, ularning ayrimlariga yakka tartibda mashg'ulot ham tashkil etiladi.

Karlar maktabi - tug'ma kar yoki yoshligida eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalar (qarang Karlik) uchun ochilgan internat maktab tipidagi maxsus ta'lim-tarbiya muassasasi. Karlar va zaif eshituvchilar internat maktabga bo'linadi. O'zbekistonda birinchi marta 1920 yil. nogiron (kar, ko'r, aqli zaif) bolalar internat maktabi sifatida tashkil etilgan. Karlar internat maktabiga mutlaqo eshitmaydigan

va gapirmaydigan, shuningdek, eshitish qobiliyatidan 75 dB dan ortiq darajada mahrum bo'lgan, kuchli ovozdan ta'sirlanadigan va ba'zi nutq tovushlarni qisman farq qiladigan bolalar qabul qilinadi. Maktabgacha tarbiya muassasasiga olinmagan 6—7 yoshdagi bolalar internat maktabning tayyorlov sinfiga qabul qilinadi. Zaif eshituvchilar internat maktabiga nutq, eshitish qobiliyatidan 30 dan 75 dB gacha darajada mahrum bo'lgan, nutq (oddiy ovoz bilan aytiladigan so'z va gaplar)ni 3 m masofadan tushunadigan hamda eshitish qobiliyati yetarli bo'lmaganligi sababli nutqi turli darajada rivojlanmay qolgan, shuningdek, maktabgacha tarbiya va maktab yoshida kar bo'lib qolib, nutqi saqlangan bolalar qabul qilinadi. Kar va zaif eshituvchi bolalar respublika, viloyat, shahar xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan tashkil etilgan tibbiy psixologik-pedagogik komissiyalar tomonidan ko'rikdan o'tkaziladi va o'qishga yo'llanma beriladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus ta'lim-tarbiya „Ta'lim to'g'risida“gi O'zR qonuni (1997-yil 29-avgust) asosida amalga oshiriladi. K.m. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimiga kiradi. Karlar internat maktabida ta'lim 2 bosqich — boshlang'ich ta'lim (1 — 5-sinf), tayanch ta'lim (6—11-sinf)dan, zaif eshituvchilar internat maktabida 2 bo'lim (10-sinfgacha va 11-sinfgacha)dan iborat. K.m.ning boshlang'ich sinflarida o'qish maxsus reja, dastur, darslik va o'quv qo'llanmalari asosida, yuqori sinflarda normal maktablarning 5-9-sinflar darsliklaridan foydalanib olib boriladi. Har bir sinfdan o'quvchilar soni 8-10 tadan oshmasligi kerak. O'quv rejasi, dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalari O'zR Xalq ta'limi vazirligi Ta'lim markazining maxsus ta'lim bo'limi tomonidan bolalarning eshitish va nutq taraqqiyotidagi kamchiliklari nazarda tutilgan holda tuziladi. 2000/2001 o'quv yili boshi O'zRda 13 karlar internat maktabi (2956 o'quvchi) va 5 zaif eshituvchilar internat maktabi (1051 o'quvchi) ishladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishni erta boshlashning ahamiyati juda

katta. Maktabgacha yosh davri – inson hayotida muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi davr. Bu davrda asosiy odatlar, ko'nikmalar shakllanadi, xarakter belgilanadi, ya'ni butun keyingi hayot asoslari quriladi. Shu bilan birga, surdopedagogika tarixida tug'ma eshitishida nuqsoni bo'lgan kishilar rivojlanishning juda yuqori darajasiga erishgan, eshitadiganlar bilan erkin muloqot qilgan va hatto chet tillarni o'rganganiga misollar ko'plab topiladi. Har kunlik, har soatlik mehnat, iroda, muvaffaqiyatga ishonch hamda otanalar, pedagoglar namoyon qilgan chidam, muloyimlik, ko'p marta ortiq mas'uliyat hissi va muhabbat bu kishilarga shunchalik ko'p narsaga erishish imkonini berdi. Tug'ma eshitishida nuqsoni bo'lgan kishilar hatto maxsus ta'lim olmasdan ham, savodsiz yoki ma'lumoti past bo'la turib ham, turli mehnat ko'nikmalarini egallaganlariga ham misollar ko'plab topiladi.

Ularning ko'pchiligi turli korxonalarda mehnat qilib, el-yurt hurmatini qozongan, davlat mukofotlariga loyiq topilgan. Oliy ma'lumot olgan eshitishida nuqsoni bo'lgan kishilar: muhandislar, o'qituvchilar, rassomlar, haykaltaroshlar bor. Eshitishida nuqsoni bo'lgan kishilarning yuqori darajada aqliy rivojlanishi holatlari tahlili ko'rsatadiki, deyarli hamma vaqt bu ta'limni erta boshlashning natijasidir. Eshitadigan va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining umumiy yo'nalishlari mos kelsa-da, kar va zaif eshituvchi bolalarni maxsus maktabda tarbiyalash talab qilinadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar qator xususiyatlarga ega. Ularda:

- ko'rish idroki nuqtai nazaridan yetarlicha rivojlanmaganlik, jumladan, predmetlarni idrok etish va tanib olish tezligi past ekani;
- taqlidning sekin rivojlanishi, shuningdek namuna bo'yicha tanlashda qiyinchiliklar;
- nutqning mavjud emasligi va nutqqacha muloqot defitsiti kuzatiladi.

Yuqorida sanab o'tilganlar bilish faoliyati

va so'z-mantiqiy tafakkurning

rivojlanishida orqada qolishga sabab bo'ladi. Aynan shu sababli eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy tarbiyasiga katta e'tibor berish kerak bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy tarbiyasining bir qator vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Atrof olam haqida tasavvur va tushunchalarni shakllantirish.
2. Bilish psixologik jarayonlarini rivojlantirish.
3. Intellektual faoliyatning birlamchi usullarini shakllantirish.
4. Og'zaki nutqni shakllantirish.

Sanab o'tilgan vazifalarning barchasi o'yin, maxsus o'qitish va mehnat jarayonida amalga oshirilishi kerak.

Tarbiyani erta boshlashning ahamiyati haqida ko'plab faylasuf va olimlar fikr bildirgan. Psixologlar tadqiqotlari ham hayotining ilk kunlaridan maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni maxsus tashkil etilgan tarbiya insonning rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etishini isbotlamoqda.

Mana shuning uchun ham maktabgacha tarbiya xalq ta'lim umumiy tizimining, jumladan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining ham birinchi bo'g'ini sanaladi. Kar va zaif eshituvchi bola uchun maktabgacha tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ilk davrida, taxminan bir yoshgacha, hali bolaning tili chiqquniga qadar eshitadigan va kar bolalar o'rtasidagi tafovut u qadar ko'zga tashlanmaydi. Astasekinlik bilan, eshitadigan bola nutqni egallagani sari bu farq ortib boradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola gapirishni boshlamaydi, uning rivojlanishi esa, tilsiz kechar ekan, nutqi cheklangan bo'ladi, bolaga biror narsani aytib yo tushuntirib bo'lmaydi. Uni gapirish va nutqni tushunishga maxsus o'rgatish kerak. Shunday ekan, bolani nutqqa o'rgatishni qanchalik erta boshlansa, uning rivojlanishida eshitadigan bola bilan farq shunchalik kam va keyingi ta'lim imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Bolalar bog'chasida

surdopedagog va tarbiyachilar uni shu yoshdagi eshitadigan bolani o'rgatishgan hamma narsaga: rasm solish, yopishtirish, qurish, sanash va hatto raqs tushishga o'rgatishadi. Hamma bolalar kabi uni ham mehnat qilishga, ozodalikka, muloyimlikka o'rgatishadi. Bunda meniki-bizniki, mumkin-mumkin emas, rost-yolg'on kabi ko'plab hayotiy muhim, ilk yoshda shakllantiriladigan va bevosita tarbiya natijasi sanalmish tushuncha va ko'nikmalar

shakllantirila boshlaydi.

Yurtimizda innovatsion texnologiyalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasida ham innovatsion ta'lim joriy etish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirish, ular uchun turli xil dasturlar yaratish, AKTlar asosida mashg'ulotlar o'tish, zamon talabiga mos mashg'ulot ishlanmalari yaratish kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. M.U.HAMIDOVA"MAXSUS PEDAGOGIKA, TOSHKENT-"FAN VA TEXNOLOGIYA"; 2018, 7-8-BETLAR.
2. Akramova, X. (2020). Коррекционно-педагогические особенности формирования навыков здорового образа жизни у детей с умственной отсталостью в семейных условиях. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918
3. Sheraliyev, S. (2020). ҚАР ВА ЗАИФ ЭШИТУВЧИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМГА ТАЙЁРЛАШДА КОРРЕКЦИОН МАШҒУЛОТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1).
file:///C:/Users/User/Downloads/709-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-1663-1-10-20210207%20(6).pdf

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOYIY-HISSIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI

RASHIDOVA ZULAYHO OLIMJON QIZI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti 3- bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirishning metodik tizimi haqida so'z boradi. Maqola mazmunini yoritish maqsadida xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy ishlanmalaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar; ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim, islohotlar, 6-7 yoshli bolalar.

Abstract. The article talks about the methodical system of developing socio-emotional skills in preschool children. In order to clarify the content of the article, the scientific developments of foreign and local scientists were used.

Keywords; education, upbringing, preschool education, reforms, 6-7-year-old children.

Абстракт. В статье говорится о методической системе развития социально-эмоциональных навыков у детей дошкольного возраста. Для пояснения содержания статьи использованы научные разработки зарубежных и отечественных ученых.

Ключевые слова; образование, воспитание, дошкольное образование, реформы, дети 6-7 лет.

Kirish

Bolalikning shakllanish yillari inson kelajagini shakllantirishda, umrboqiy bilim olishi, xulq-atvori va salomatligi uchun poydevor qo'yishda muhim rol o'ynaydi. Rivojlanishning turli jihatlari orasida ijtimoiy-emotsional ta'lim (ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni) bolaning umumiy rivojlanishi va muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan erta bolalik ta'limining asosiy yo'nalishi sifatida paydo bo'ldi. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun mo'ljallangan uslubiy tizimni taqdim etadi, ular bunday o'rganishni eng yaxshi qabul qiladigan va moslasha oladigan yoshda.

Ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar bir qator qobiliyatlarni o'z ichiga oladi, jumladan, his-tuyg'ularni tushunish va boshqarish, ijobiy maqsadlar qo'yish va

ularga erishish, boshqalarga empatiyani his qilish va ko'rsatish, ijobiy munosabatlar o'rnatish va saqlab qolish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish. Bu ko'nikmalar nafaqat shaxsiy farovonlik, balki muvaffaqiyatli va hamkorlik jamiyatini yaratish uchun ham muhimdir. Erta bolalik davrida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish bolaning akademik tayyorgarligiga, ruhiy salomatligiga va butun hayoti davomida ijtimoiy o'zaro munosabatlarning murakkabligini boshqarish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nazariy asos

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha metodik tizimimizning nazariy asoslari ikkita markaziy psixologik nazariyaga asoslanadi: Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi va Urie Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazariyasi. Ushbu

nazariyalar, ayniqsa, ijtimoiy va hissiy ta'lim kontekstida bolaning rivojlanishini har tomonlama tushunishni ta'minlaydi.

Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi

Sovet psixologi Lev Vygotskiy kognitiv rivojlanishning ijtimoiy-madaniy nazariyasini taklif qildi, u ijtimoiy o'zaro ta'sir bilishning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Vygotskiyning ta'kidlashicha, jamiyat va madaniyat bolaning kognitiv qobiliyatlarini shakllantirishda asosiy kuchdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'rganish tabiatan ijtimoiy jarayon bo'lib, bolalar ko'proq bilimga ega bo'lganlar, jumladan, ota-onalar, o'qituvchilar va tengdoshlar bilan muloqot qilish orqali ko'nikma va bilimlarni rivojlantiradilar.

Vygotskiy nazariyasidan bizning metodik tizimimizni ma'lum qiladigan asosiy tushunchalar:

Proksimal rivojlanish zonasi (ZPD): Bu kontseptsiya bolaning mustaqil ravishda nimaga erisha olishi va malakali sherikning rahbarligi va rag'batlantirilishi bilan nimaga erisha olishi o'rtasidagi farqni anglatadi. Kontekstida bu kattalar va ko'proq qobiliyatli tengdoshlar bolaning ijtimoiy va hissiy o'rganish sayohatini qo'llab-quvvatlaydigan tuzilgan o'zaro ta'sirga aylanadi.

Iskala: Bu ZPD orqali bolani boshqarish jarayoni. Bizning tizimimizda iskala bolalarga o'z his-tuyg'ularini va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarini boshqarishni o'rganayotganda ularga tegishli yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi va ular ko'proq malakali bo'lib qolganda bu yordamni asta-sekin kamaytiradi.

Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi

Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi inson rivojlanishini

ularning atrof-muhitini tashkil etuvchi murakkab munosabatlar tizimi kontekstida tushunish uchun keng qamrovli asosni taklif qiladi. Bu nazariya, ayniqsa, oila, maktab va kengroq ijtimoiy ta'sirlar bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun juda muhimdir.

Bronfenbrenner modeli bir nechta o'zaro bog'liq tizimlarni aniqlaydi:

Mikrotizim: Bu bolalar yashaydigan va muloqot qiladigan uy, maktab yoki bolalar bog'chasi kabi bevosita muhitlarni o'z ichiga oladi.

Mezotizim: Bu turli mikrotizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, masalan, bolaning oilasi va ularning tarbiyachilari o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Ekzotizim: Bu ota-onalarning ish joylari yoki jamoat xizmatlari kabi bolaga bilvosita ta'sir qiladigan tashqi muhitlarni o'z ichiga oladi.

Makrotizim: Bu kengroq ijtimoiy-madaniy kontekst, jumladan, madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va qonunlar.

Bizning metodik tizimimiz har bir daraja bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatishini tan olgan holda ushbu ekologik qatlamlarni birlashtiradi. Masalan, oilaning SEL faoliyatiga (mikrotizim) jalb etilishi va uy va maktab muhiti (mezotizim) o'rtasidagi muvofiqlashtirish bizning yondashuvimiz uchun markaziy o'rinni egallaydi.

Metodik tizimda nazariyalarning integratsiyasi

Vygotskiy va Bronfenbrenner nazariyalarining integratsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga yaxlit yondashuvni ta'minlaydi. Biz samarali va qamrab oluvchi SEL rivojlanish tizimini

yaratish uchun ko'p qatlamli kontekstual doirada (Bronfenbrenner) ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va munosabatlarning (Vygotskiy) muhimligini ta'kidlaymiz.

800 metrgacha bo'lgan musobaqalarni o'z ichiga olgan qisqa masofaga yugurish an'anaviy ravishda tezlik, portlash kuchi va anaerob ko'rsatkichlarga urg'u berish bilan tavsiflangan sport intizomidir. Yuqori tezlikni tezda yaratish va ushlab turish qobiliyati ushbu tadbirlarda muvaffaqiyatning asosidir. Biroq, engil atletika sohasidagi rivojlanayotgan tendentsiyalar va rivojlanayotgan mashg'ulot

falsafalari qisqa masofaga yugurish ko'rsatkichlarining ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan jihatini ta'kidlashni boshladi. Bu jihat chidamlilikdir.

Odatda uzoq masofalar bilan bog'liq bo'lgan chidamlilik qisqa masofali musobaqalarda muhim komponent sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Bu nafaqat sportchining poyga davomida tezlikni saqlab turish qobiliyatiga hissa qo'shadi, balki sportchining

umumiy mashg'ulot hajmi, tiklanishi va poyga taktikasida ham muhim rol o'ynaydi. Istiqboldagi bu o'zgarish qisqa masofaga yuguruvchilarni tayyorlash metodologiyasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, bu esa tezlik, kuch va chidamlilikni rivojlantirishni muvozanatlashtiradigan yaxlit yondashuvni kafolatlaydi.

Qisqamasofagayugurishdachidamlilikning muhimligini poygalarning oxirgi bosqichlarida ko'rish mumkin, bu erda sportchilar tez-tez tezlikni sezilarli darajada pasaytiradi. Bu pasayish nafaqat mushaklarning kuchi yoki kuchining etishmasligi, balki anaerob resurslarning kamayishi va aerob energiya ishlab chiqarishga samarali o'tish mumkin emasligi bilan bog'liq. Shu sababli, chidamlilikni oshirish poyga davomida tezlikni yaxshiroq ushlab turishga olib keladi, bu ham poyga strategiyasiga, ham natijalarga ta'sir qiladi.

Oldingi tadqiqotlar asosan qisqa masofaga yugurishning anaerob jihatlariga qaratilgan bo'lib, chidamlilik mashg'ulotlarini qisqa masofaga yuguruvchining rejimiga ularning asosiy tezligi va kuchiga putur etkazmasdan samarali tarzda kiritish mumkinligiga cheklangan e'tibor berilgan. Boshqa sport

fanlari bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chidamlilikni sportchining asosiy ishlash xususiyatlarini kamaytirmasdan turli xil mashg'ulotlar va ovqatlanish strategiyalari orqali rivojlantirish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, bizning tadqiqotimiz sabr-toqatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar va ozuqaviy aralashuvlarning elita qisqa masofaga yuguruvchilarning ishlashiga ta'sirini muntazam ravishda o'rganish orqali tadqiqotdagi ushbu bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan. Bizning farazimizcha, chidamlilik mashg'ulotlarining an'anaviy qisqa masofali mashg'ulotlar rejimiga muvozanatli integratsiyalashuvi, ayniqsa, poygalarning so'nggi bosqichlarida umumiy ish faoliyatini yaxshilashga olib keladi.

Ushbu maqola tadqiqot metodologiyamiz, jumladan, sportchilarni tanlash, mashg'ulotlarni o'zgartirish, fiziologik va ishlash o'lchovlari va dietani sozlashni batafsil bayon qiladi. Aralashuv va nazorat guruhlari ma'lumotlarini tahlil qilish va taqqoslash orqali biz qisqa masofaga yuguruvchilarda chidamlilikning rivojlanishi va uning mashg'ulotlar amaliyoti va raqobatbardosh ko'rsatkichlarga ta'siri haqida keng qamrovli ma'lumot berishni maqsad qilganmiz.

Metodologiya

1. Ishtirokchilar

Bizning tadqiqotimizda jinsi bo'yicha muvozanatlashgan o'ttiz nafar elita qisqa masofaga yuguruvchi ishtirok etdi (15 erkak, 15 ayol). Tanlov mezonlari 800 metrgacha masofaga ixtisoslashgan, milliy yoki xalqaro musobaqalarda qatnashish tarixiga ega bo'lgan sportchilarga e'tiborni o'z ichiga olgan. Natijalarning yaxlitligini saqlab qolish uchun har qanday yaqinda jarohat olgan yoki uzoq muddatli sog'lig'i bo'lgan sportchilar chiqarib tashlandi.

2. O'quv dizayni

Tadqiqot 12 oylik randomizatsiyalangan nazorat ostida sinov sifatida tuzilgan. Sportchilar tasodifiy ravishda aralashuv guruhiga yoki nazorat guruhiga tayinlangan. Aralashuv guruhi chidamlilikni rivojlantirishga urg'u beradigan o'zgartirilgan o'quv dasturidan o'tdi, nazorat guruhi esa standart qisqa masofali mashg'ulotlarni davom ettirdi.

3. Ma'lumotlar yig'ish

Ma'lumot to'plash uchta asosiy nuqtada amalga oshirildi: boshlang'ich (aralashuvdan oldin), 6 oyda va tadqiqot yakunida (12 oy). Yig'ilgan ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- Ishlash ko'rsatkichlari: Tezlik va chidamlilikni o'lchash uchun turli masofalarda (100m, 400m, 800m) vaqt sinovlari.

- Fiziologik testlar: VO₂ max, laktat chegarasi va mushak tolasi tarkibi tahlillari.

- Parhez jurnallari: kunlik oziq-ovqat va suyuqlik iste'moli yozuvlari, barcha ishtirokchilar tomonidan saqlanadi.

Interventsiya

Aralashuv qisqa masofaga yuguruvchilarning mashg'ulot rejimiga chidamlilikni kuchaytiruvchi elementlarni kiritishga qaratilgan. Asosiy jihatlariga quyidagilar kiradi:

- Aerobik mashqlar hajmini oshirish, uzoqroq yugurish va barqaror harakatlarni o'z ichiga oladi.

- Aerob va anaerob chegaralarini yaxshilash uchun mo'ljallangan maxsus intervalli mashg'ulotlar.

- Kuch va tezlikni saqlab turgan holda chidamlilikni qo'llab-quvvatlash uchun moslashtirilgan kuch va konditsioner mashqlari.

Nazorat guruhi

Nazorat guruhi tezkorlik, texnik mashqlar, kuch va quvvatni rivojlantirish kabi an'anaviy qisqa masofali trening elementlarini ta'kidlagan muntazam mashg'ulotlar jadvaliga amal qildi.

Oziqlantirish aralashuvi

Interventsiya guruhidagi ishtirokchilar chidamlilikni oshirish bo'yicha mashg'ulotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan parhez ko'rsatmalarini oldilar. Asosiy elementlarga quyidagilar kiradi:

Kengaytirilgan energiya mavjudligi uchun uglevod iste'molini oshirish uchun sozlangan makronutrient nisbati.

Tiklanish va aerob metabolizmni qo'llab-quvvatlash uchun mikronutrient tavsiyalari.

Uzoq muddatli mashg'ulotlarga moslashtirilgan hidratsiya strategiyalari.

Ma'lumotlarni tahlil qilish

Ma'lumotlar takroriy o'lchovlar va nazorat ostidagi sinovlar uchun mos statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Asosiy e'tibor ishlash vaqtlarining o'zgarishi, fiziologik moslashuvlar (masalan, VO₂ maksimal yaxshilanishlari) va dietani o'zgartirishga qaratilgan. Chidamlilikka yo'naltirilgan mashg'ulotlarning samaradorligini baholash uchun aralashuv va nazorat guruhlari o'rtasida qiyosiy tahlillar o'tkazildi.

Axloqiy mulohazalar

Tadqiqot sport fanlari bo'yicha tadqiqotlarda axloqiy me'yorlarga muvofiq o'tkazildi. Barcha ishtirokchilar xabardor qilingan rozilikni taqdim etdilar va o'rganish protokoli tegishli axloqni tekshirish kengashi tomonidan tasdiqlandi.

Cheklovlar

Mashg'ulotlarning individual javoblarning o'zgaruvchanligi va tashqi omillarning ta'siri (masalan, musobaqalar jadvali, atrof-muhit sharoitlari) kabi potentsial cheklolvar tan olindi va natijalarni tahlil qilish va muhokama qilishda e'tiborga olinishi rejalashtirilgan.

Trening rejimlari

Tadqiqot ikkita alohida ta'lim rejimini o'z ichiga oldi: an'anaviy qisqa masofali mashg'ulotdan so'ng nazorat guruhi va aralashuv guruhi uchun o'zgartirilgan, chidamlilikka yo'naltirilgan mashg'ulot rejimi. Har bir rejim elita qisqa masofaga yuguruvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, asosiy farq aralashish guruhida chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan.

An'anaviy qisqa masofali trening (nazorat guruhi)

Nazorat guruhi tomonidan qo'llaniladigan qisqa masofaga yuguruvchilar uchun an'anaviy o'quv dasturida birinchi navbatda quyidagi elementlar ta'kidlangan:

Tezlik bo'yicha ish: o'quv mashg'ulotlari portlovchi tezlikni rivojlantirishga qaratilgan, jumladan sprint intervallari, uchish startlari va reaksiya mashqlari.

Kuch va quvvatni rivojlantirish: Mushaklar kuchi va kuchini oshirishga qaratilgan sport zalidagi mashg'ulotlar, squats, deadlift va plyometrik mashqlar kabi mashqlarni o'z ichiga oladi.

Texnik mashqlar: Yugurish shakli va samaradorligini oshirish uchun maxsus mashqlar, masalan, baland tizzalar, dumba zarbalari va qadam uzunligi mashqlari.

Anaerobik konditsionerlik: anaerob quvvatni yaxshilash uchun mo'ljallangan mashqlar, masalan, dam olish va ish nisbati yuqori bo'lgan qisqa, intensiv intervalli mashg'ulotlar.

Ushbu rejim sportchilarning qisqa masofali musobaqalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yuqori tezlikni yaratish va ushlab turish qobiliyatini optimallashtirishga qaratilgan.

Chidamlilikka yo'naltirilgan o'quv moslashuvlari (aralashuv guruhi)

Interventsiya guruhining o'quv dasturi qisqa masofali mashg'ulotlarning asosiy elementlarini saqlab qolgan holda, chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan qo'shimcha komponentlarni birlashtirgan:

Aerobik hajmning oshishi: aerobik quvvatni oshirish uchun uzoqroq, barqaror holatdagi yugurishlar va templi yugurishlarni birlashtirish. Ushbu yugurishlar ish tezligini kamaytirmasdan, balki to'ldirishini ta'minlash uchun ehtiyotkorlik bilan sozlangan.

Chidamlilik intervalli mashg'ulotlari: charchoqni boshqarishda uzoqroq vaqt davomida harakatni davom ettirishga qaratilgan 800 m dan 1 km gacha takrorlash kabi uzoqroq intervalli mashg'ulotlarni joriy etish.

Aerobikkuchmashg'ulotlari: mushaklarning chidamliligini oshirishga qaratilgan yuqori takrorlash diapazoni va pastroq og'irliklar bilan aylanma mashqlarni o'z ichiga olgan holda gimnastika mashg'ulotlarini o'zgartirish.

Qayta tiklash va moslashuvchanlik: Mashg'ulot yukini oshirish va jarohatlarning oldini olish uchun faol tiklanish seanslari va moslashuvchanlik ishlariga, shu jumladan yoga yoki pilatesga e'tiborni kuchaytirish.

Poyga tezligini oshirish strategiyalari: poyga sharoitlari va tezligini taqlid qiluvchi maxsus mashqlarni o'z ichiga olgan trening, poygalarda energiyani samarali boshqarish uchun juda muhimdir.

Ushbu o'zgartirilgan mashg'ulot rejimi qisqa masofaga yugurishda muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan tezlik va portlash qobiliyatini buzmasdan, sportchilarning chidamlilik qobiliyatini oshirish uchun mo'ljallangan.

Har ikkala mashg'ulot rejimida davriylik asosiy tamoyil bo'lib, sportchilarning yirik musobaqalarda cho'qqiga chiqishini ta'minladi. Sportchining individual javoblari va yutuqlari asosida muntazam monitoring va tuzatishlar kiritildi.

Ushbu ikkita o'quv rejimining qiyosiy tahlili chidamlilik elementlarini qisqa masofali mashg'ulotlarga qanday qilib samarali integratsiyalash mumkinligi va bu integratsiya ishlashga qanday ta'sir qilishini tushunishga qaratilgan.

Oziqlanish strategiyalari

ziqlanishning sport bilan shug'ullanishdagi o'rni, ayniqsa, qisqa masofaga yuguruvchilarda tezlik va kuchga putur etkazmasdan, chidamlilikni oshirish kontekstida juda muhimdir. Tadqiqot nazorat guruhi uchun standart dietani saqlab, aralashuv guruhi uchun zarur bo'lgan dietani tuzatishga qaratilgan. Ushbu tuzatishlar chidamlilik mashg'ulotlarining ortib borayotgan talablarini qo'llab-quvvatlash uchun qilingan.

Qisqa masofaga yuguruvchilar uchun ovqatlanish talablari

Tezlik va kuchga e'tibor qaratgan qisqa masofaga yuguruvchilar an'anaviy ravishda energiyaning tez chiqishi va mushaklarning tiklanishini qo'llab-quvvatlaydigan parhezga tayanadi. Bunga odatda quyidagilar kiradi:

Yuqori sifatli oqsillar: mushaklarni tiklash va tiklash uchun. Manbalarga yog'siz go'sht, baliq, sut mahsulotlari va o'simlikka asoslangan oqsillar kiradi.

O'rtacha uglevodlar: yuqori intensiv mashg'ulotlar uchun etarli energiya bilan ta'minlash. To'liq donalar, meva va sabzavotlar kabi manbalarga barqaror energiya chiqarish uchun afzallik beriladi.

Sog'lom yog'lar: avakado, yong'oq va zaytun moyi kabi manbalarni o'z ichiga olgan umumiy salomatlik uchun zarurdir.

Hidratsiya: Suyuqlikni etarli darajada iste'mol qilish, ayniqsa, yuqori intensiv mashg'ulotlar va musobaqalarda suv va elektrolitlar muvozanatiga e'tibor berish juda muhimdir.

Chidamlilik mashqlari uchun ozuqaviy moslashuvlar

Aralashuv guruhi uchun ovqatlanish strategiyasi chidamlilikni oshirish bo'yicha

mashg'ulotlar hajmini qo'llab-quvvatlash uchun o'zgartirildi:

Uglevodlarni iste'mol qilishning ko'payishi: uzoqroq va aerobik yo'naltirilgan mashg'ulotlarni kuchaytirish uchun yuqori uglevod iste'moli. Bu murakkab uglevodlarni ko'proq iste'mol qilishni o'z ichiga oladi.

Balanslangan protein iste'moli: mushaklarning tiklanishini qo'llab-quvvatlash uchun etarli proteinni ta'minlash, ayniqsa uzoqroq chidamlilik mashg'ulotlaridan keyin. Proteinni qabul qilish vaqti (mashqdan keyin) ham ta'kidlangan.

Optimallashtirilgan yog 'iste'moli: Sog'lom yog'larni iste'mol qilishda, diqqat aerob metabolizmni qo'llab-quvvatlaydigan oziq-ovqatlarga biroz o'girildi.

Mikronutrientlarni boshqarish: chidamlilik uchun juda muhim bo'lgan temir, magniy va D vitamini kabi mikroelementlarga e'tiborni kuchaytirish.

Hidratsiya strategiyasi: elektrolitlar muvozanatini saqlashga ko'proq e'tibor qaratib, uzoqroq mashg'ulotlarni hisobga olgan holda tuzatilgan.

Qo'shimchalardan foydalanish

Aralashuv shuningdek, doping qoidalarini buzmasdan chidamlilikka yordam beradigan qonuniy qo'shimchalar bo'yicha ko'rsatmalarni ham o'z ichiga oladi:

Lavlagi sharbati: nitratning yuqori miqdori bilan mashhur bo'lib, qon oqimini va mushaklarga kislorod yetkazib berishni yaxshilaydi.

Kofein: nazorat qilinadigan miqdorda, diqqatni kuchaytirish va uzoqroq mashg'ulotlar paytida yog'dan foydalanishni oshirish uchun.

Omega-3 yog 'kislotalari: Yallig'lanishga qarshi xususiyatlari uchun, og'ir mashg'ulotlar paytida tiklanishga yordam beradi.

Monitoring va sozlash

Diyet jurnallari muntazam ravishda sport ovqatlanish mutaxassisi tomonidan ko'rib chiqildi va individual javoblar, mashg'ulotlar intensivligi va oshqozon-ichak trakti bilan

bog'liq har qanday muammolarga qarab tuzatishlar kiritildi. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv parhez modifikatsiyalari chidamlilikka yo'naltirilgan mashg'ulot rejimining ortib borayotgan talablarini samarali qo'llab-quvvatlashini ta'minladi.

Oziqlanish strategiyalarining qiyosiy tahlili qisqa masofaga yuguruvchilarda chidamlilikni rivojlantirishga dietani tuzatishning ta'sirini va bu ishlash samaradorligini oshirish bilan qanday bog'liqligini yoritishga qaratilgan.

12 oylik o'rganish davridan so'ng, to'plangan ma'lumotlarning tahlili qisqa masofaga yuguruvchilarga chidamlilikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar va ozuqaviy aralashuvlarning ta'siri bo'yicha bir nechta asosiy xulosalarni berdi. Natijalar ishlash ko'rsatkichlari, fiziologik moslashuvlar va parhez ta'siriga bo'lingan.

Ishlash ko'rsatkichlari

Intervensiya guruhi: Ushbu guruhdagi sportchilar 800 metrlik vaqt sinovlarida o'zlarining ko'rsatkichlarida sezilarli yaxshilanishni ko'rsatdilar, o'rtacha vaqt taxminan 1,5% ga qisqardi. Shunisi e'tiborga loyiqki, ularning qisqa masofalarda (100 m va 400 m) ko'rsatkichlari barqaror bo'lib qoldi yoki biroz yaxshilanishni ko'rsatdi, bu chidamlilik mashqlari ularning tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaganligini ko'rsatadi.

Nazorat guruhi: Bu guruh 100 m va 400 m masofaga yugurishda o'z ko'rsatkichlarini saqlab qoldi yoki biroz yaxshiladi, lekin 800 m ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarish ko'rsatmadi.

Fiziologik moslashuvlar

VO2 Maks: Intervensiya guruhidagi sportchilar VO2 maks.ning sezilarli o'sishini (o'rtacha 4% atrofida) ko'rsatdilar, bu esa aerobik imkoniyatlarning yaxshilanganligini ko'rsatadi. Nazorat guruhi sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatmadi.

Laktat chegarasi: aralashuv guruhi yuqoriroq laktat chegarasini ko'rsatdi, bu esa chidamlilikning yaxshilanganligini ko'rsatadi.

Nazorat guruhida bu o'zgarish kuzatilmadi.

Mushak tolasi tarkibi: Har ikki guruhda ham tez buraladigan mushak tolalari ustunligi saqlanib qolgan bo'lsa-da, aralashuv guruhi kuch va chidamlilik qobiliyatlari bilan mashhur bo'lgan IIA tipidagi tolalar ulushida biroz o'sganligini ko'rsatdi.

Oziqlanish ta'siri

Uglevodlardan foydalanish: aralashuv guruhi mashg'ulotlar davomida yuqori energiya darajasini qayd etdi, bu ularning uglevod iste'moli ortishi bilan bog'liq.

Qayta tiklash: aralashuv guruhida optimallashtirilgan protein vaqti va qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan yaxshilangan tiklanish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Hidratsiya: Ikkala guruhda ham hidratsiya bilan bog'liq muhim muammolar qayd etilmagan, bu samarali hidratsiya strategiyalarini ko'rsatadi.

Subyektiv fikr-mulohazalar

Intervensiya guruhidagi sportchilar poygalar va mashg'ulotlarning keyingi bosqichlarida o'zlarini kuchliroq his qilishganligi haqida xabar berishdi, bu esa chidamlilik mashg'ulotlarining tadbir davomida ish faoliyatini saqlab qolish qobiliyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Cheklovlar va mulohazalar

Trening va dietani o'zgartirishga javoban individual o'zgaruvchanlik muhim omil bo'ldi.

Raqobat jadvali va atrof-muhit sharoitlari kabi tashqi omillar natijalarga ta'sir qilishi mumkin edi.

Nisbatan kichik namuna hajmi va sportchilar populyatsiyasining o'ziga xosligi (qisqa masofalarga elita yuguruvchilar) topilmalarning umumlashtirilishini cheklashi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, chidamlilikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar va ovqatlanish strategiyalarini qisqa masofaga yuguruvchilarning rejimiga kiritish ularning chidamlilik qobiliyatini oshirishi mumkin,

ПАРРАНДАЧИЛИК КОРХОНАЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ

КУЛДАШЕВ ЭРКИН

Андижон машинасозлик институти, кафедра доценти
САРИМСАҚОВ ДИЛШОД ХАМИДЖОНОВИЧ
Андижон машинасозлик институти магистранти

Аннотация. Ушбу мақолада паррандачилик корхоналар иқтисодиётини ривожлантириш масалалари баён қилинган. Ривожлантириш йўналишлари сифатида рақамли бошқарув ва рақамли иқтисодиёт ўрганилган. Тадқиқот натижалари бўйича илмий-таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: Паррандачилик корхонаси, иқтисодиёт, рақамли бошқарув, кластер, рақамлаштириш.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития экономики птицеводческих предприятий. В качестве направлений развития были изучены цифровой менеджмент и цифровая экономика. По результатам исследования были разработаны исследовательские предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Птицеводческое предприятие, экономика, цифровое управление, кластер, цифровизация.

Annotation. This article describes the issues of development of the economy of poultry enterprises. Digital management and digital economy have been studied as development areas. Research proposals and recommendations have been developed on the results of the study.

Key words: Poultry enterprise, economy, Digital Management, Cluster, digitization.

Янги Ўзбекистонни бугунги кунда хар томонлама ривожлантириш энг долзарб масалалардан биридир. Ўзбекистон Республикаси Президенти мамлакатимизнинг мустақиллигини 31 йиллигига бағишланган тантанали мажлисдаги нутқида 2022-йил 31-августдаги "Янги Ўзбекистонни ривожлантиришда бешта муаммо мавжуд. Ушбу юксак марраларга эришиш учун 2026-йилгача Тараққиёт стратегияси доирасида кейинги ишларимизни бешта асосий вазифалар бўйича ташкил этамиз" [1]. Бу вазифаларни самарадорли ҳал қилишда рақамли бошқаришни ўрни беқиёсдир. Рақамли бошқариш - бу замонавий, кўп қиррали, имкониятлар даражаси жуда юқори восита бўлиб, инсонни барча фаолиятларини такомиллаштиришга ёрдам беради. Рақамли бошқариш-ҳозирги кунда ижтимоий-иқтисодий сохаларнинг мувоффақиятини асосий меъзонига айланмоқда. Олимлар ва мутахассислар ўртасида рақамли бошқариш тўғрисида ягона фикр

йўқ. Шу сабабли, рақамли бошқаришга тадқиқотларимиз натижаси сифатида қуйидаги таърифни беришни лозим топдик. "Рақамли бошқариш – бу қўйилган мақсадни маркетинг, ахборот технологиялари, инновациялар, ходимларни фаоллаштириш асосида оптимал натижа олишни электрон тизимидир". Бу оптимал натижани олишда рақамли иқтисодиётдан фойдаланамиз.

Янги Ўзбекистонни барқарор ва узуликсиз ривожлантиришда вилоятларнинг ўрни беқиёсдир. Шу сабабли, янги Ўзбекистонни асосий вилоятларидан бири бўлган Андижон вилоятини тадқиқот объекти сифатида танлаб олдик. Андижон вилоятини худуди янги Ўзбекистон Республикасининг бир фоиз ерини ташкил этиб, аҳолиси эса ўн фоизига тенгдир. Андижон вилоятида ҳозирги мураккаб шароитда қатор муаммолар мавжуд (илмий асосланган ҳолатда аҳолини озиқ-овқат хавфсизлигини таминлаш, одамларга керакли миқдорда иш ўринлари-

ни яратиш ва бошқалар). Бу муаммоларни ечишни асосий йўлларида бири Агросаноат кластерини ташкил этиш ва уни оптимал бошқаришдан иборатдир. Шу сабабли, ўрганилаётган масаламиз бугунги кунда долзарбдир.

Бугунги кунда рақамли иқтисодиёт ва у билан боғлиқ бўлган бир қанча самарадор технологиялар шиддат билан ривожланиб келмоқда. Давлат ва жамият тараққиётини янада жадаллаштириш мақсадида ҳукуматимиз раҳбарини 2018 йил 28 декабрдаги “2019 йил учун энг муҳим устивор вазифалар ҳақида”ги Олий Мажлисга Мурожаатномасида мамлакатимизда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш учун “Иқтисодиётнинг барча соҳаларини рақамли технологиялар асосида янгиланишини кўзда тутадиган “Рақамли иқтисодиёт миллий концепцияси”ни ишлаб чиқиш ва шу асосида “Рақамли Ўзбекистон -2030” дастурини ҳаётга татбиқ этишимиз зарурлиги таъкидлаб ўтилган[1].

“Рақамли иқтисодиёт” атамаси илмий амалиётга испаниялик ва америкалик социолог, ахборотлашган жамиятнинг етакчи тадқиқотчиси Мануэл Кастелс томонидан киритилган. Бу борада у ўзининг “Ахборот даври: иқтисод, жамият ва маданият” номи уч жилдли монографиясини чоп этган. Ҳозирги вақтга келиб, рақамли иқтисодиёт назарияси тўлалигича ҳали шаклланмаган ва кўпчилик иқтисодчилар томонидан кенг миқёсда ўрганилмоқда[5].

Хориж мамлакатларининг олимлари томонидан Л.В.Лапидус [4] ўз тадқиқот ишларида электрон бизнесни бошқариш масалаларини К.Фаннинг ва Д. Сентерсларнинг[4] тадқиқот ишларида молиявий хизматларни кўрсатишда блокчейнларнинг аҳамиятини ўрганишган. Ўзбекистонлик олимлардан С.С.Гуломов, А.М.Абдуллаевларнинг[3] илмий изланишлари иқтисодиётда замонавий ахборот тизимлари ва технологиялари ўрнига бағишланган. Яна бир олим Б.Ю. Ходиевнинг[7] тадқиқот ишлари Ўзбекистон-

да рақамли иқтисодиётни ривожланишига бағишланган. Рақамли валюталар бозорида инновациялар ва ривожланиш истикболлари мавзусида Р.Х.Аюпов ва Г.Р.Балтабаевлар[3] тадқиқот олиб борганлар. М.Л. Калужский рақамли иқтисодиёт - иқтисодий интернет фаолияти, шунингдек, шакллари, усуллари, воситалари ва уни амалга ошириш алоқа муҳитидир деб таърифлаган [9].

Иқтисодиётнинг рақамли сегментини кенгайтиришнинг асосий сабаби, трансакция секторининг ўсиши ҳисобланади, у ривожланган мамлакатларда миллий ЯИМнинг 70%дан ортигини ташкил қилади. Бу сектор таркибига қуйидагилар киради: давлат бошқаруви, консалтинг ва ахборот хизматлари кўрсатиш, молия, улгуржи ва чакана савдо, шунингдек, турли коммунал, персонал ва ижтимоий хизматлар кўрсатиш. Иқтисодиётда динамика ва диверсификация даражаси қанчалик юқори бўлса, мамлакат ичкарисида ва ташқарисида шунчалик катта ҳажмдаги ноёб маълумотлар айланади, мос равишда, миллий иқтисодиёт доирасида ҳам каттароқ ахборот трафиғи вужудга келади. Шу сабабли, рақамли иқтисодиёт информацион технология хизматларининг кириб бориш даражаси юқори ва қатнашчилар сони кўп бўлган бозорларда энг самарали фаолият кўрсатади.

Жаҳон банкининг “Рақамли дивидендлар” номи тадқиқоти ҳулосалари мамлакатлар иқтисодиётини ривожлантиришда рақамли иқтисодиётнинг нақадар долзарб ва муҳим масала эканлигини кўрсатади. Хусусан, интернет тезлигининг 10 фоизга ўсиши мамлакат ЯИМ ўсишига олиб келади. Ривожланган давлатларда бу кўрсаткич 1,21 фоизни ташкил этса, ривожланаётган мамлакатларда 1,38 фоизга тенг. Демак, интернет тезлиги 2 баробар ошадиган бўлса, ЯИМ ҳажми 13-14 фоиз ортишига эришиш мумкин[9].

2019 йилда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши ва крипто-активларнинг айланishi соҳасида норматив-ҳуқуқий базани

мукаммаллаштириш ва услубий базани шакллантириш бўйича ишлар давом эттирилди. Хусусан, «Крипто-биржалар фаолиятини лицензиялаш тартиби тўғрисидаги Низом», «Крипто-биржа савдосини амалга ошириш қоидалари» тасдиқланди. Ушбу ҳужжатларни ишлаб чиқишда, жинойий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга ва терроризмни молиялаштиришга қарши кураш соҳасидаги халқаро стандартлар Жинойий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш бўйича молиявий чоралар ишлаб чиқувчи гуруҳнинг (FATF) раҳбарий ҳужжатлари ва тавсиялари алоҳида эътиборга олинди.

Қабул қилинган чора-тадбирлар натижасида 2019 йил 20 декабрь куни Марказий Осиё минтақасида биринчи ҳисобланган крипто-биржалар фаолиятини амалга ошириш учун илк лицензия берилди. Крипто-биржанинг очилиши ҳисобига, экспортга йўналтирилган инновацион ахборот-технологик ечимларини жорий қилиш билан бир қаторда, 1,5 миллион доллардан ортиқ тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этилди [10]. Мамлакатимизда Хитой, Япония, Жанубий Корея, Ҳиндистон ва бошқа давлатларнинг етакчи компаниялари билан крипто – активларни тартибга солиш ва айирбошлашни ташкил этиш бўйича яқин ҳамкорлик алоқалари ўрнатилди.

Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, «Рақамли ишонч» – рақамли иқтисодиётни ривожлантиришни қўллаб – қувватлаш жамғармаси томонидан Киберхавфсизлик маркази билан белгиланган тартибда келишилган техник топшириқлар асосида дори – дармон ва тиббиёт воситаларининг давлат реестри ахборот тизимида синов тарзида тадбиқ этиладиган миллий блокчейн платформаси ишлаб чиқилди.

Рақамли иқтисодиётни бошқалардан ажратиб турадиган жиҳатлар қуйидагилар:

1. Иқтисодий фаолият асосий эътиборни рақамли иқтисодиёт платформаларига қаратади. Рақамли иқтисодиёт платформаси –

истеъмолчилар ва ишлаб чиқарувчиларнинг эҳтиёжларини таъминлайдиган, шунингдек, улар ўртасида тўғридан – тўғри ўзаро алоқа қилиш имкониятларини амалга оширадиган сервис ва функциялар тўпламига эга бўлган рақамли муҳитдир.

2. Персонафикация қилинган сервис моделлари БигДата (Big Data), тартибланган (мақсадли) маркетинг, 3Д–босма каби технологиялар ривожланиши ўртача статистик истеъмолчининг эмас, балки ҳар бир муайян миқдорнинг талаб ва эҳтиёжларига жавоб берадиган товарлар ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатишга имкон беради.

3. Ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчиларнинг бевосита ўзаро алоқа қилиши. Ахборот – коммуникация технологияларининг ривожланиши ишлаб чиқарувчини ҳар бир якуний истеъмолчи билан «боғлаш»га имкон беради. Узундан – узоқ воситачилар, жумладан, институтчионал воситачилар занжирини қисқартириш имконияти пайдо бўлади.

Мамлакатда электрон ҳукуматни ривожлантириш борасида амалга оширилаётган чора – тадбирларга қарамасдан, идоралараро электрон ҳамкорлик ва фойдаланувчиларни идентификациялаш, электрон ҳукумат инфратузилмасининг ривожланмаганлиги бугунги кунда асосий муаммолардан ҳисобланади.

Рақамли иқтисодиётнинг иқтисодиётга таъсири қуйидагиларда намоён бўлади:

- рақамли иқтисодиёт шароитида маҳсулотларни излаш харажатлари кескин камаяди (чунки исталган маълумотни online қабул қилиш offline қабул қилишдан осонроқ);

- рақамли иқтисодиётда маҳсулотларни ташиш ва улар тўғрисидаги маълумотларни тарқатиш харажатлари нолга тенг;

- рақамли технологиялар маҳсулот бренди ва имежини яратишни ҳам осонлаштиради.

- рақамли иқтисодиётдаги товарларнинг бир истеъмолчи томонидан истеъмол

OTA-ONALARDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH BOLANI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING STRATEGIK YO'NALISHI SIFATIDA

SHERALIEVA MUNAVVAR ABDULLAEVNA

Termiz davlat universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda Ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish strategik yo'nalishi sifatida benihoya katta ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Bolani maktabga tayyorlash muammosi, Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish, hamkorlik, ta'lim-tarbiya, maktabgacha yoshdagi bola, qarorlar, shaxs, omillar, rivojlanish, aqliy tayyorgarlik.

Abstract: In this article, it is explained that the importance of parenting as a strategic direction for the development of pedagogical and psychological literacy in preparing preschool children for school education is very important.

Key words: the problem of preparing a child for school, development of pedagogical and psychological literacy in parents, cooperation, education and upbringing, preschool child, decisions, personality, factors, development, mental preparation.

Аннотация: В данной статье объясняется, что значение родительского воспитания как стратегического направления развития педагогической и психологической грамотности при подготовке детей дошкольного возраста к школьному обучению очень важно.

Ключевые слова: проблема подготовки ребенка к школе, развитие педагогической и психологической грамотности родителей, сотрудничество, обучение и воспитание, ребенок дошкольного возраста, решения, личность, факторы, развитие, психическая подготовка.

Respublikamizda “maktabgacha ta'lim davri insonning butun hayoti davomidagi uzluksiz ta'limning birinchi bosqichi” sifatida ustuvor qilib belgilanganligi va buning negizida “bu davirda bolani shaxs sifatida jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash” [1] maqsad qilinganligi olib borilayotgan islohotlarda yaqqol ko'rinib turibdi. Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish maktabgacha ta'lim davrida institutsional o'zgarishlar amalga oshirilishi ushbu davirda sog'lom raqobat muhitining yaratilish imkoniyatini bermoqda.

Bolani maktabga tayyorlash muammosi o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Maktabga tayyorgarlik turli tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Asosiy e'tibor maktabgacha yoshdagi bolalarga oilada ota-ona qanday bilim va

ko'nikmalarni berish kerakligiga, bolani har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun qanday sharoitlar yaratish lozimligiga bog'liqdir. Maktabgacha bo'lgan davrda“ paydo bo'lgan taassurotlar izi inson xotirasida umrbod saqlanib qoladi.

Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirishdan maqsad maktabgacha ta'lim davr bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o'sishi, dunyoni bilishga intilishi, atrof-muhitga o'z munosabatini bildirish istagi kuchayib borayotgan davrdir” [4]. Bu davirda bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, bilish faolligini rivojlantirish, boshlang'ich intellektual va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu xususidagi “bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan

yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz - bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat", degan fikrlari maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarda o'z ifodasini topmoqda [3].

Davlatimiz tomonidan bu sohani takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning huquqiy asosi bir qator farmon va qarorlarda [1] o'z ifodasini topmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog va tarbiyachilar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda albatta oilada ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2018 yildan buyon "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi tatbiq etilgan. Bu dastur huquqiy-me'yoriy hujjat bo'lib, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Mazkur hujjatda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy mazmuni ifodalangan. Ushbu hujjat bolani maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlang'ich ta'limga o'tishdagi zaruriy kompetensiyalarning darajalarini belgilab beradi. Hujjat barcha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llash uchun mo'ljallangan.

"Ilk kadam" davlat o'quv dasturiga asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi

faoliyat bolalarning rivojlanish sohasiga monand ravishda quyidagi 5 ta rivojlanish markazlarida tashkil etiladi:

Qurish-yasash, konstruksiyalash, matematika.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish. Nutq va til.

Ilm-fan va tabiat.

San'at markazi.

Yuqoridagi barcha rivojlanish markazlari haqida ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni pivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, erkin faoliyat jarayonini tashkil etish, bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash va bola uchun xavfsiz muhitni yaratishni maqsad qiladi. Ushbu markazlarda shug'ullanish orqali bolaning diqqati, tafakkuri, tasavvuri rivojlanib boradi, ijodiy jihatdan o'z-o'zini namoyon qiladi hamda egallagan nazariy bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay olishga o'rganadi.

"Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolalarni maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi: jismoniy, shaxsiy (ruhiy), aqliy, maxsus tayyorgarlik. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyida ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish orqali, bolaning maktabda o'qishga aqliy tayyorgarligini ko'rib chiqamiz.

Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda o'zining bir qator mezonlari orqali amalga oshiriladi. Bunda bolalarni oilada jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma'naviy jihatdan maktabga tayyorlash, bolaning maktab ta'limida zo'riqmasligi, ta'limning uzluksizligi va samaradorligini ta'minlovchi asoslaridandir.

Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish va maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bu bola hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan murakkab, ko'p qirrali vazifadir. Uni amalga oshirishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi: ota-onalar birinchidan, kelajakda barkamol shaxs sifatida namoyon bo'ladigan bola shaxsining rivojlanishi; ikkinchidan, yozish, o'qish, hisoblash elementlari hamda bir qancha insoniy xususiyatlarni o'zida mujassamlagan bolani ob'ekt sifatida gavdalantirish zarur.

Umumiy holatda bolalarni maktabga tayyorgarligining bir qator turlari mavjud: psixologik, shaxsiy, motivatsion, hissiy-emotsional, axloqiy-irodaviy hamda aqliy tayyorgarlik shular jumlasidandir.

Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirishda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar. Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o'qishga kirayotgan bolada atrof-olam, dunyo haqida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo'lishidir. Bilimlarning bu fondi ota-ona va tarbiyachi o'z ishini tashkil etishiga tayanadigan zarur asos hisoblanadi. Bolani maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichlari:

birinchi navbatda bilimlar bolalar tomonidan ongli egallanganligi;

tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi;

oddiy tushunchalar mazmuni va hajmining to'liqligi;

o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo'llay olish qobiliyatlari;

muntazamlilik, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bola tevarakatdagi narsalar, ularning vazifasi, ba'zi sifatleri, xossalari haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tassavvurga ega bo'lishi kerak. U tabiat xodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlarini bilib oladi. Jonsiz tabiat, o'simliklar, hayvonlarni kuzatish jarayonida bolalarda borliq to'g'risidagi tasavvurlar shakllanib boradi.

2. Bilishga doir ruxiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok xotira, hayol, tafakkur, nutq. Bilishga doir ruxiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldida bolalar aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishdek dolzarb vazifa turadi.

4. Aqliy ko'nima va malakalarni rivojlantirish. Ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni bilish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash – maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarni chuqur egallab olishiga yordam beradi. Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkichidan bilish mumkin [8].

Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish va maktabgacha

yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ikki jihati bilan xarakterli:

1. Bolalarni umumiy rivojlanish darajasida tayyorlash.

2. Boshlang'ich ta'limda o'zlashtirishi lozim bo'lgan fanlar darajasiga tayyorlash.

Bolalarni maktabga umumiy tayyorlashda aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlanishiga erishishi ta'minlanadiki, bunda e'tibor maktabning yangi sharoitlari va o'quv materiallarini o'zlashtirishga, o'quv faoliyatini tashkil etishga qaratiladi. Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirishda maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarligi umumiy psixologik tayyorgarlikdan tashqari, matematika va ona tili fanlarini o'zlashtirish uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligi ularning darajasiga muvofiq aniqlasda asos bo'ladi. Bolalar maktabdagi yangi majburiyatlarni uddalashi esa ularning jismoniy tayyorligiga bog'liq. SHuningdek, ularning axloqiy-irodaviy tayyorgarligi talab darajasida bo'lishi lozim. Mazkur talablar Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida belgilab qo'yilgan.

Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirishda maktabgacha yoshdagi bolaning umumiy muhim kompetentsiyalari Davlat talablari [1] va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi [2] bo'yicha quyidagi bilimlarni ega bolish lozimligini tashkil etadi:

Kommunikativ kompetentsiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi;

O'yin kompetentsiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim, ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi o'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi;

Ijtimoiy kompetentsiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan

muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati;

Bilish kompetentsiyasi – atrof-dagi olamni ongli ravishda idrok qilish, olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv hamda amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning kompetentsiyalari – bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

Bilish jarayonining rivojlanishi;

Ijodiy rivojlanish.

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;

O'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;

Predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;

Paqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;

Makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;

Elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;

Atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;

atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi.

Ontogenezik nuqtai nazardan bolalarning maktabga tayyorgarligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

bolada fazoviy muvozanatning vujudga kelishi;

o'zini o'zi anglashdan iborat "Men" davrining mavjudligi;

nutqda ona tili boyligidan umumli foydalanish imkoniyatining tug'ilishi;

milliy urfodatlariga, xulqatvor qoidalariga rioya qila olishi;

muomala maromi, ijtimoiy qadriyatlarni egallashi;

o'yin hamda faoliyatning boshqa turlarini o'zlashtirish negizida milliy va umumbashariy fazilatlarining shakllanganligi;

individual-tipologik xususiyatlarning aniq namoyon bo'lishi;

barcha jihatdan maktab ta'limiga tayyorgarligi;

guruhiy hamkorlik uquvidan xabardorligi [5].

Ijtimoiy-hissiy rivojlanishda bolalarga, asosan, hikoyalar va ertaklar asosida bir-biriga nisbatan al'truizm, g'amxo'rlik, yordam berish, mehr-oqibat, atrofidaqilar va oila a'zolariga ijobiy munosabatning shakllanishi ko'zda tutiladi. SHuningdek, muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari – nutq o'stirish, tevarak-atrofbilan tanishtirish, tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish, badiiy adabiyot mashg'ulotlarida nutq, muloqot, kommunikatsiya, o'qish va yozish malakalari rivojlantiriladi.

Bilish jarayonining rivojlanishi – maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi. Bunda bolaning intellektual imkoniyatlari rivojlantiriladi. O'yin faoliyatida va , mashg'ulotlardan tashqari tadbirlar, sayohatlar davomida bolalarning bilishga bo'lgan ehtiyojlari qondirib boriladi.

Yuqorida , keltirilgan umumiy muhim kompetensiyalar bolaning rivojlanish jarayonini o'z mazmunida aks ettiradi. Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirishga doir bir qator yosga xos pedagogik-psixologik tadqiqotlarda rivojlanishning turli belgilari, mezonlari,

ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan. Keltirilgan umumiy, muhim kompetensiyalar ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolaning yosh rivojlanishiga muvofiq hamda maktabga tayyorgarlik ko'rish maqsadiga mos kelishini ko'rsatib beruvchi diagnostik vosita sifatida qaralishi mumkin.

Ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligi rivojlanganligini maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalarining bir yoki bir nechtasi bilan chegaralash mumkin emas. Rivojlanish sohalari o'zaro bog'liq va uzviy xarakterga ega. Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda ularning individual ijodiy imkoniyatlari va qiziqishlarini aniqlash, to'g'ri rag'batlantirish, turli didaktik o'yinlar orqali ta'lim berish, bolaning shaxsiy "men"ining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi uchun shart-sharoit yaratish, bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun xavfsiz muhit yaratish, milliy va umummadaniy me'yorlarga rioya qilishni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish bolalarning bilish jarayonlarining rivojlanishi va buning natijasida maktabga tayyorgarlikning natijadorligi amalga oshirilayotgan islohotlarda o'z ifodasini topgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayoniga ota-onalar bilan hamkorlikda do'stona yondashuvi, ilg'or o'qitish shakllari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, yangi innovatsion va axborot texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

XULOSA

Ota-onalarda pedagogik-psixologik savodxonlikni rivojlantirish maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning komil saxs bo'lib shakllanishida va muhim vazifalaridan

SHARQ MUTAFAKKIRALARI ASARLARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHIGA DOIR PEDAGOGIK QARASHLAR

DJABBAROVA NILUFAR BAXTIYAROVNA

O'zbekiston, Urganch RANCH texnologiyalar universiteti, "Pedagogika va filologiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutafakkiralari asarlarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning zarurati va ahamiyati, liderlik sifatlarini rivojlantirish vazifalari va uni amaliy qo'llash yo'nalishlari, shuningdek, shaxsda liderlik sifatlarini rivojlantirishga oid pedagogik qarashlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: liderlik, boshqaruvchi shaxs, yetakchilik, ishchan lider, intellektual lider, emotsional lider.

Резюме: В данной статье освещены необходимость и важность развития лидерских качеств, задачи развития лидерских качеств и направления его практического применения, а также педагогические взгляды на развитие лидерских качеств у человека в трудах восточных мыслителей. Ключевые слова: лидер, лидерство, управляющая личность, образовательная система, лидерство, активный лидер, интеллектуальный лидер, эмоциональный лидер.

Abstract: In this article, the necessity and importance of developing leadership qualities, the tasks of developing leadership qualities and the directions of its practical application, as well as pedagogical views on the development of leadership qualities in a person are highlighted in the works of Eastern thinkers.

Keywords: leader, leadership, person, education system, worldview, manager, active leader, intellectual leader, emotional leader.

Kirish. Insoniyat yaralibdiki jamiyat o'zida ikkita muhim jihatni boshqarish va amalga oshirish jarayonlari bilan birlikda rivojlanadi. Ushbu jarayonda boshqaruvchi shaxsi, uning liderlik, tashabbuskorlik va o'z g'oyalariga ergashtiruvchi sifatleri yillar mobaynida takomillashib, rivojlanib kelgan.

Tariximizga murojaat qilsak, har bir davrda o'zining bilimi, aql-idroki va tafakkuri bilan, tashkilotchilik, liderlik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi, o'zgalarga namuna bo'luvchi shaxslar o'z davrining yetakchilari sifatida nom qozongan va o'z izidan ko'plarni ergashtira olgani bilan ulug'lanib kelingan. Shu mahnoda tashkilotchi va yetakchilik, rahbarlik salohiyatlari muhim ahamiyat kasb eta borgani sari ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati orta borgan.

Dastavval, islom dinimizga nazar soladigan bo'lsak, ayollar va qizlarning ilm-mahrifatli bo'lishi, bilim olishi va shu asosda farzandlari kamoli uchun munosib tarbiya bera olishlariga

juda ko'plab sohalarda hissa qo'shgan musulima olimalarimizni bilamiz.

Muqaddas "Qurhoni Karim" kitobimizda ham onalar va ayollarning qadri va hurmati ehzozlangan. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam davrlaridagi ana shunday olima ayollarni tahkidlash joiz. Oisha onamiz roziyallohu anhu Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan olgan juda ham katta ilmni targ'ib qilib, avlodlarga yetkazib berganlar va hadis rivoyat qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turardilar.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning avlodlaridan bo'lgan Sayyida Nafisa Islom huquqshunosligidan tahlim bergan. SHuningdek, ilmda tengsiz bo'lgan musulimalardan yana biri Damashqlik Oisha bint Muhammad ibn Abdulhodiy o'z zamonasidagi olimlar ichida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga sanadi eng yaqin inson bo'lganlar. Talabalari orasida mashhur muhaddis olim deya Ibn Hajar Asqaloniyni

ham ehtiborga olish zarur.

IX asrda yashagan xalifa Horun ar-Rashidning rafiqasi qirolicha Zubayda faoliyati ham taxsinga loyiq. U kishining liderlik salohiyati sabab ko'plab katta ommaviy ishlarga hissa qo'shgan. Jumladan, quduqlar, mehmonxonalar, suv omborlari, asosiy darvozalarda Makka ziyoratchilari uchun maxsus qarorgohlar qurdirgan. Shu bilan birga qirolicha Zubayda jamoat orasida siyosiy fikrlarini bildira oladigan salohiyatli va zakiy ayol bo'lganlar. Sultona Shajarat ad - Dur XIII asrda turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng Misrda boshqaruvni o'z qo'liga olgan. Sultona Roziya XIII asrda yashagan bo'lib, Hindiston taxtida o'tirgan yagona ayol hisoblanadi. U to'rt yil davlatni boshqargan.

XIX asrda yashagan musulmalar orasida Nigeriyalik Nana Asmahuni qayd etish lozim. U kishi shoira, mudarrisa, olim bo'lganlar. Bu kabi ko'plab ayollar o'zlarining bilimi, tashabbuskorligi, Islom tamaddunining yorqin vakilalari hisoblanadi va bugungi kundagi o'zbek qizlari uchun ham chinakam o'rnak, namuna deb ehtirol etiladi. [1]

Ushbu olim ayollarimizning har bir qilgan ishlari bugungi kunda jamiyat kutayotgan xotin-qizlarning salohiyatli bo'lishi, o'qib bilim olishi, o'zining iqtidori va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlariga tamal toshini qo'yib bergan va bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, xalq og'zaki ijodi namunalarida rivoyatlar, afsona va dostonlarda ham, qo'shiq, laparlar va ertaklarda ham yetakchilar, liderlar, el rahbarlarining o'ziga hos jasorat va salohiyatlari, o'z davrining yetakchi ayollari va ularning salohiyati asrlar osha ulug'lanib kelmoqda.

Bunga To'maris asari ham yuksak namuna bo'la oladi.[2.] Unda o'zining yetakchiligi va liderligi sabab butun sak va massaget qabilalarini birlashtirib, Kir II ustidan qog'ongan g'alabasi, haqiqiy yetakchi, tashabbuskor va boshqaruv siyosi bo'lgan jasur To'maris ko'z oldimizga

gavdalanadi va bu har bir qizga fahr va g'urur tuyg'usini beradi.

Metodologiya. Sharq mutafakkirlari olimlari ham o'zlarining bir qator asarlarida liderlik xususiyati, liderlarga xos boshqaruv uslublari va tajribalari, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlar borasida zaruriy bilim va xulosalarini bildirganlar. Xususan,

Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat a'zolarining o'zlarini boshqarishlarida jamiyatning o'zini-o'zi boshqarilishiga olib kelishi lozim, lekin bu bilan bir vaqtning o'zida har bir a'zo o'z psixologik ma'naviy kamolotini usul hamda yo'nalishlariga ko'ra yakkaxol tarzda mavjud bo'ladi. "Shularning hammasini ikki yo'l bilan olish mumkin.

Birinchidan, yuqoridagi xodisalar aslida qanday mavjud bo'lsa, inson qalbiga, ko'ngliga o'shanday o'rnashib qolsa, boshqalarning ko'nglida bu bilimlar qiyosiy yoxud taqlid asosida vujudga keladi. Bahzi odamlar o'sha narsalarni o'zlari his etishlari tufayli ko'ngillarida shu bilimlar vujudga keladi".

Farobiy bu fikrni davom ettirib: "Ikkinchidan, ushbu sifatlariga ega bo'lmagan odamlar birikmasi esa, jaxolatdagi va adashgan shaharlarning aholisini tashkil qiladi. Fikrlashlar, g'azab, xasad, nafratga asoslangan bunday shahar aholisi...doimo bir-birlariga qarshi kurashib, bir-birlariga dushmanlik qiladilar, eng kuchlilari boshqalarga nisbatan mukammalroq tuzilgan bo'ladi, g'olib kelganlar ham bir-birlarini yo'qotishga urinadilar, go'yo boshqa mavjudotlar nomukammalday, ularning borligi bularga zarar keltirmaydiganday, yohud boshqalar ularga faqat qulday xizmat qilish uchun yaratilganday, barchasi bir-birini ezib ishlatishga intilishadi"[3].

Farobiy shuningdek, insonlarning yaxshi hayot kechirishi boshqaruvchi, yahni rahbar shaxsiga bog'liq ekanligini, uning turli fazilatlar bu borada unga yordam berishini uqtiradi. Uning fikricha, bu o'rinda rahbar

shaxsi uchun gumanistik, insonparvarlik xususiyatlari muhimdir. “Kimki birovni baxt-saodatga erishtirish uchun zarur bo’lgan ish-harakatlarga ruhlantira olish qobiliyatiga ega bo’lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo’lsa, bunday odam sira ham rahbar bo’la olmaydi. Ular yo’l-yo’riqlarni o’tmishda yashab o’tgan boshliqlardan o’rganadilar, lekin shu bilan birga rahbar kelajak o’tmishdagi rasm-rusm, yo’d-yo’riqlarni isloh qilishni lozim topsa, turmush sharoiti taqozosiga qarab o’zgartiriladi. Shuningdek, yomon odatlarni o’zida ifodalovchi o’tmishni ham o’zgartirmog’i kerak. Aks holda o’tmishning talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o’zgarish va o’sish ham bo’lmaydi.” Bu borada Forobiy inson o’z taqdirini aql-farosat, ijodkorlik qobiliyati orqali yaratishini “Agar kasb, hunar fazilati tug’ma bo’lganda, podshohlar ham o’zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo’lgan, tabiat talab qilgan bir majburiyat bo’lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug’ tug’ma fazilat va ulug’ (kasb-hunar) fazilati odat – malaka bo’lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo’ladi. Bunday odamlar cheksiz va juda kuchli iroda egalaridirlar. [4]. Demak, Forobiy rahbar shaxsini tarbiyalash va kamol toptirishda irodaning kuchiga katta ehtibor qaratib, u rahbarlarni ilm- mahrifatli bo’lishga, bunyodkorlik kuchini, salohiyatini ezgulik yo’lida sarflashga undaydi.

Forobiy jamiyat boshqaruvidagi ikki idora rahbariyati: birinchisi – “noto’g’ri xatti-harakatlar va jinoyatlarni nazorat qiluvchi idoralar – sohibi qonunlar”, ikkinchisi – “ijro etuvchi idora – hokimiyat rahbariyati” faoliyati xususida ham o’z qarashlarini bayon etgan. Farobiyning bu fikrlaridan ko’rinadiki, rahbar shaxsi birinchi navbatda o’zini yomon odatlardan ozod qila olishi, boshqalarni yaxshi ishlarga ruhlantira olishi kerak. Bu fikrlarning

bugungi kunimiz uchun ham ahamiyati pasaymaganligini ko’rishimiz mumkin.

O’rta Osiyoning buyuk donishmandlaridan biri bo’lmish Abu Rayhon Beruniy ham boshqaruv va boshqaruvchi shaxsi xususida, liderlik salohiyati borasida bir qator fikr-mulohazalarni bayon etgan. U har bir kishiga baho berishi uchun, uning qilgan ishini kuzatish mumkinligini tahkidlaydi: “Har bir odamning bahosi o’z ishini ajoyib bajarishidadir” [5].

Uning fikricha liderlikka va boshqarishga moyil bo’lgan hokim o’z fikri va qarashlarida qathiy bo’lishi, o’z ishlarini amalga oshirishda donishmandlar tomonidan bildirilgan ilg’or mulohazalarga bo’ysunishi, bilimli va tajribali insonlar bilan doimo fikr-mulohaza almashib, o’z dunyoqarashini rivojlantirib borishi lozim. Odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik va adolat o’rnatishdan iboratdir. Lider insonning muhim vazifalaridan yana biri fan taraqqiyotiga, olimlarga g’amxo’rlik qilishdir. Demak, Beruniy o’z insonparvarlik g’oyalari bilan boshqaruv va liderlik psixologiyasi tahlimotlari rivojiga o’z hissasini qo’sha oldi. U insonlar orasida o’zaro tushunish, tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiquvchi, bu fikrlar hamisha ham qadrlidir.

XI asrning yirik allomalaridan Yusuf Xos Xojib o’zining “Qutadg’u bilig” yahni “Baxt-saodatga boshlovchi bilim” asarida boshqaruvchi shaxsi, yahni podsho halq bilan birga va adolatli bo’lishi lozimligi g’oyasi ilgari suriladi. Uning o’git va nasihatlarini hokimlarga qaratilgan bo’lib, boshqaruvchi rahbar tevaragida tabiatan yaxshi niyatli, yuksak ahloq sohibi bo’lgan kishilar bo’lgandagina, u to’g’ri ishlar qilishi, to’g’ri farmonlar chiqarishi mumkin, shundagina mamlakat farovon bo’lib ravnaq topadi.

Yusuf Xos Xojibning fikricha: “Kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin, u baribir kamtar bo’lib qolishi lozim”. [6]. Shuningdek, boshqaruv g’oyalari ilgari

surilgan manbalar ichida Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida ham mamlakat va saltanatni boshqarish haqida ilgari surilgan g’oyalar siyosiy boshqarish sohasidagi xilma-xil muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo’lsin!” degan chuqur mahnoli so’zlari har birimiz uchun hayotiy ehtiyoqga aylanishi zarur”. [7].

Temur qarashlariga ko’ra, hech bir kishi rahbar va uning shaxsiga qo’yiladigan talablarni birdaniga mukammal egallay olmaydi. Ularni rahbarlikning xilma-xil tashvish-muammolari, chigalliklarni yechish davomida egallab boradi. Bu uzoq vaqt davom etuvchi jarayon bo’lib, unda rahbar juda ko’p qiyinchiliklarga duch keladi.

“Tuzuklar”da qo’l ostidagi rahbarlar va rahbarlikka tayinlanayotgan kadrlarni tanlashda bir qator shaxsiy xususiyatlar bor-yo’qligini tekshirish o’zi uchun odatga aylanganini ta’kidlab, bunda quyidagi jihatlarga ehtibor qaratadi:

Birinchisi – adolat.

Ikkinchisi – ishonch-ehtiyoq.

Uchinchisi – ma’rifatparvarlik va bunyodkorlik.

Amir Temur katta bir saltanatning asoschisi, rahbari sifatida boshqarish va rahbarlik masalasiga oid kuchli tamoyillarni yaratgan. Uning tuzuklari o’z davrida ijtimoiy voqeligiga xos bo’lgan stratometrik tuzilma hamdir. U o’z tuzuklarida 12 ta ijtimoiy tabaqani farqlab beradi:

1. Sayidlar, ulamo, mashoyix, fozil odamlar;
2. Ishbilarmon, donishmand odamlar;
3. Xudojo’y, tarki dunyo qilgan kishilar;
4. Noyonlar, amirlar, mingboshilar;
5. Sipox va raiyat;
6. Maxsus ishonchli kishilar;

7. Vazirlar, sarkotiblar;

8. Xokimlar, tabiblar;

9. Tavsir va Xadis olimlari;

10. Axdixunar va sanhatiyalar;

11. So’fiylar;

12. Savdogar va sayyohlar.

Amir Temur fikricha, bu toifa kishilarning taqdirini podshox, xazina va askar hal qiladi. Ko’rinib turibdiki, bu turlanish asosini tabaqaning ijtimoiy voqelikka nisbatan bo’lgan munosabatlari va xulq-atvorlari tashkil etadi. Ijtimoiy hayotni boshqarishda bunday ijtimoiy –psixologik yondashuv Amir Temur uchun o’z davrida katta bir saltanatga asos solish imkonini bergan edi.

Amir Temur davlatni boshqarish vositalari haqida to’xtalib shunday yozadi: “Saltanat ishlarida to’rt narsaga amal qilish lozim. 1-engash, 2-mashvaratu maslahat, 3-qathiy qaror, tadbirkorlik, xushyorlik, 4-ehtiyotkorlik”. Uning fikricha, “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qathiy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”[8].

Bundan tashqari, o’rta bo’g’in rahbarlarini tanlash, ulardan xukumatni boshqarish ishlarida samarali foydalanishda uni nafaqat sinab ko’rish lozimligini, balki rahbarning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy yo’nalganligi, ehtiyoqi, ehtiyoji, motivi kabilarni inobatga olish, bu rahbarlarni rag’batlantirish, yuqori lavozimlarga ko’tarish yoki jazolash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ham Amir Temur tuzuklarida bayon etib berilgan.

Mazkur o’n ikki tamoyil Temur davlatida rahbarlarni tayinlash va rahbarlikka tanlashning asosiy tamoyillari sifatida talqin etiladiki, agarda Forobiy o’z qarashlarini nazariy asoslagan bo’lsa, Amir Temur davlat rahbari sifatida o’z qarashlarini amaliyotda sinab, uni amalga oshirish bo’yicha daliliy fikr-mulohazalarini bayon etgan. Ko’rinib turibdiki, bundan 650-700 yil avval davlatni boshqarish va rahbarlik tamoyillariga oid g’oyalar

nihoyatda progressiv bo'lgandir. Chunki bu tamoyillar hozirgi zamon demokratik huquqiy davlatlar harakteriga mos keladi.

Bu donishmandlarimizning rahbarlik uchun zarur bo'lgan fazilatlar, davlatni idora etish uslubi va rahbarlik odobiga doir fikrlari ulkan ahamiyatga ega.

Xulosa. Demak, xulosa sifatida quyidagi fikr-mulohazalarni bildirish mumkin:

Birinchidan, SHarqda jamoani boshqarishda lider shaxsida muayyan axloqiy sifatlar mavjud bo'lishi lozimligi to'g'risida ko'plab g'oya va qarashlar, fikr-mulohazalar bayon etilgan. Bunda Forobiy va Amir Temur tomonidan ilgari surilgan qarashlar o'ziga xos xususiyatlarga ega;

Ikkinchidan, rahbarning yakka o'zi barcha imkoniyat va salohiyatini yuzaga chiqarolmaydi. Buning uchun u muayyan jamoaga tayanishi lozim. U jamoaga tayangan taqdirdagina maqsadlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatini qo'lga kiritadiki, bu jihat Forobiy asarlarida ham, Amir Temur tuzuklarida ham o'z ifodasini topgan;

Uchinchidan, o'tmishda yashab ijod etgan mutafakkirlar, mashhur davlat arboblari hayoti va faoliyati, ular tomonidan bitilgan va bugungi kungacha saqlanib kelayotgan nodir manbalar yillar sinovidan o'tib, o'zining ahamiyatini yo'qotmagan holda texnik taraqqiyot va globalashuv jarayonlari kechayotgan hozirgi davrda ham inson va uning manfaati, qolaversa, jamiyat taraqqiyotini tahminlash uchun xizmat qiladi. Bunda Forobiy va Amir Temur qarashlari muhim manba sanaladiki, ulardan o'rinli foydalangan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq.

O'rganilayotgan mavzuga oid adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, sharq mutafakkirlari qarashlarini boyitgan holda mazkur mavzu doirasida xalqimizning juda ko'plab atoqli shoir va davlat arboblari ham o'z fikrlarini bildirib ketganliklari tarixdan ma'lum. Ularning ayrimlari xususida qisman to'xtalamiz.

Davlat arbobi bo'lgan, klassik namoyonda Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida jamiyatni adolat bilan boshqarish uchun shaxsda mavjud bo'lishi lozim bo'lgan sifatlar majmui Iskandar obrazi orqali bayon etilgan: "Dili, niyati pok, xayr va salohiyatli, kamtarin va muloyim shaxs, dono podshox va dunyo sirlarini bilishga qiziquvchi aql-zakovat egasi rahbar bo'lishi kerak. Podsho bo'lishda manman, o'zini boshqalardan ustun qo'yish, o'zgalarni pisand qilmaslik, avom, xalq bilan birga bo'lolmaslik xislatlari nuqsondir".

Mahrifatparvar shaxs Ahmad Donish fikriga ko'ra, agar boshqaruvchi odil va donishmand bo'lsa, xalqni qashshoqlikdan saqlab qolishi mumkin. Davlat bir guruh kishilargagina emas, balki xalq manfaatlariga xizmat qilishi zarur.

Bu uchun esa xukmdor shaxsi bilimdon, odil, donishmand bo'lmog'i lozim. Mamlakatni idora etishda xukmdor nafaqat o'z fikriga suyanishi, balki muhim davlat arboblari bilan maslahatlashib ish yuritishi lozim ekanligi tahkidlanadi. Chunki ko'pchilikning fikri bir kishining fikriga qaraganda ko'proqdir. Uning fikricha, mamlakatni shunday kishilar boshqarganda jamiyatda tartib va intizom o'rnatiladi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohudaxloq" asarida: "Harqanday nisbatan katta miqyosdagi bevosita ijtimoiy yoki birgalikdagi qilinadigan mehnat idora qiluvchiga ma'lum darajada muhtojdir, bu idora qiluvchi shaxsiy ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish organizmini mustaqil organlari xarakteridan kelib chiqadigan vazifalarni bajaradi"[9]. degan fikrlari keltirilgan bo'lib, bu o'z navbatida "yakkabosh rahbar"ning bo'lishi muhim ekanligidan dalolat beradi. Busiz boshqaruv to'g'ri va to'liq bo'lmaydi. To'g'ri rahbarlik qilish uchun oldindan ko'ra bilish, ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarish va qiyinchiliklarni oldindan payqash va nazarga olish zarur. Har bir boshqarish vositasi

faoliyatida muayyan tizimning bo'lishi shart. Buning mahnosi shundan iboratki, bu ish tasodifiy bir-biriga aloqasi bo'lmagan tadbirlar yig'indisidan iborat bo'lmay, balki aniq sharoitni, vaziyat xususiyatini hamda jamoa oldidagi, shuningdek, uning ayrim bo'g'inlari oldida turgan vazifalarning xususiyatlarini qat'iy suratda tartibga solingan, bir-biri bilan bog'langan va chuqur o'ylab ko'rilgan reja va

tadbirlar majmuasidan iborat bo'lishi kerakligi tahkidlangan. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, bizning xududimizda yashab ijod etgan mutafaqqirlar, davlat arboblari, namoyondalar asarlari va qarashlari boshqaruv, rahbarlik va liderlik muammolariga bag'ishlangan bo'lib, ularda ijtimoiy voqelikka nisbatan ijtimoiy-psixologik yondashuv, insonparvarlik g'oyalari ustuvor etib olingandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://muslimaat.uz/islom-tarixida-ayollar-2>
2. Iskandarov B. O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. – Toshkent: O'zbekiston, 1993. – B. 6.
3. Farobiy Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi patriot. 1993.-B.167.8
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy, 1993. – B.184
5. Abu Rayxan Beruni. Indiya. Soch., t.2.-T.: "Faya", 1963. – s.8.
6. Yuuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig. – T.: "Fan", 1963. – S. 125."
7. Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: «O'zbekiston», 2016. – B.10.
8. Amir Temur o'g'itlari. To'plam. Tuzuvchilar: B.Axmedov, A.Amyanov. T.: "Navro'z", 1992. – B.
9. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 1997.-B.7

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING UMUMRIVOJLANTIRUVCHI MASHQLARNI MUSTAQIL BAJARA OLISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA UNING AHAMIYATI

XAYDAROV BOXODIRJON YURSINBOYEVICH

Farg'ona davlat universiteti sport o'yinlari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya berish jarayoni va orttirilgan tajribalar osib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol rivojlanishi zarurligini ko'zda tutadi. Davlatimiz maktab yoshidagi o'quvchilarni ham ma'naviy ham jismoniy jihatdan soglom rivojlanishida jismoniy madaniyat va sportning o'rniga katta ahamiyat qaratadi. Maktab yoshidagi o'quvchilarni jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biri ularning sog'liklarini mustahkamlash, jismoniy tayyorgarliklarini yaxshilash, kasalliklarni oldini olish hisoblanadi. Harakatlanish zarur biologik ehtiyoj bo'lib, o'quvchi organizmi o'sishi va rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Harakatlanish o'quvchining funksional imkoniyatlari va ish bajarish qobiliyatini belgilashi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. ta'lim-tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, gimnastika, yugurish, boshlang'ich sinf, vatanparvarlik

Ta'lim-tarbiya berish jarayoni va orttirilgan tajribalar o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol rivojlanishi zarurligini ko'zda tutadi. Davlatimiz maktab yoshidagi o'quvchilarni ham ma'naviy ham jismoniy jihatdan sog'lom rivojlanishida jismoniy madaniyat va sportning o'rniga katta ahamiyat qaratadi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarni jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biri ularning sog'liklarini mustahkamlash, jismoniy tayyorgarliklarini yaxshilash, kasalliklarni oldini olish hisoblanadi. Harakatlanish zarur biologik ehtiyoj bo'lib, o'quvchi organizmi o'sishi va rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Harakatlanish o'quvchining funksional imkoniyatlari va ish bajarish qobiliyatini belgilaydi.

Markaziy Osiyo hududida, jumladan, O'zbekistonda gimnastika tarixiy negizlarga ega bo'lib, amaliy jismoniy tarbiyaning davolash, sog'lomlashtirish yo'nalishlari ilmiy asoslangan. Qadim zamonlardan buyon aholi tomonidan turli xil jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar katta bayram

va to'ylarda tashkillashtirilgan. Navro'z, hosil bayrami va boshqa tantanalarda otda poyga, yugurish bo'yicha musobaqalar, chovgon o'yinlari, dorbozlar chiqishlari kabi ko'ngilochar tadbirlar muntazam ravishda o'tkazilib turilgan.

Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari"da jismoniy tarbiyaga katta e'tibor bergan. O'z kitobida salomatlik va uni muhofaza qilish qoidalarining bayonida, jismoniy mashqlarni sog'lomlashtirish va davolash amaliyotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida mukammal tarzda so'z yuritadi. Ibn Sino olimlar orasida birinchi bo'lib, jismoniy mashqlarni odam organizmiga ijobiy ta'sirini "Uzluksiz chuqur nafas olish jarayonini keltirib chiqaruvchi erkin harakat jismoniy mashq deyiladi", deb ta'riflagan.

O'zbekiston Respublikasining strategik vazifalarining tarkibida boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari, umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'quvchilarga sifatli o'rgatish va mustaqil bajara olish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy bo'g'in sifatida e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining

umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajarish malakalarini shakllantirish orqali jismoniy kuchini oshirishga erishiladi. Shu orqali bolalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayot uchun zarur bo'lgan harakat malakalarini oshirish demakdir.

O'quvchilarda umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi, ularning hayotdagi yutuqlarining asosiy omili bo'lib qolishi uchun xizmat qiladi. Jismoniy mashqlarni mustaqil bajarishga o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy va jismoniy kuchlarini rivojlantirish to'liq ishlab chiqilgan metodikadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida jismoniy faoliyatni mustaqil bajarishga o'rgatish jarayonida har bir o'quvchi har tomonlama jismonan yetuk shaxs darajasiga yetish, har bir o'quvchi umumrivojlantiruvchi mashqlari qadriyatlaridan foydalanib, o'z jismoniy tarbiyasini rivojlantirishi mumkin. Salomatlikni mustahkamlash va saqlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar ko'p yillar davomida shakllanib boradi. Har bir o'quvchi boshlang'ich sinfdanoq sog'lom turmush tarzi qoidalariga moslashsa, o'z sog'ligini saqlashga qiziqsa, jismoniy tarbiyani mustaqil bajarishni to'liq bilsa, sog'lom turmush tarzini qaror toptirishning samarali yo'llari aniq bo'ladi.

O'zbekistonda jismoniy madaniyatning barcha vositalaridan ijodiy foydalangan holda yaratilgan psixologik-pedagogik asarlarni tahlil qilish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarida umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajara olish qobiliyatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslarini aniqlash zarurdir. Shuningdek, nazariy asos yaratishda ushbu yo'nalishda

yaratilgan tadqiqotlarni har tomonlama ko'rib chiqish va o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu masala o'zbek va xorijiy jismoniy tarbiya usullari tarixini o'rgangan ko'plab ishlarda ko'rib chiqilgan. Jumladan 19-asr o'rtalariga kelib Chexiya Respublikasida avstriyalik bosqinchilarga qarshi Sokol vatanparvarlik harakatining paydo bo'lishi va uning ahamiyatiga e'tiborga molik. "Sokol" jamiyatining asoschisi Praga universiteti professori Miroslav Tirsh (1832-1884) edi. O'zidan oldingi gimnastikaning barcha tizimlari bilan tanishib chiqqan M.Tirsh ularning barchasini Chexiya uchun yaroqsiz deb hisobladi. U mamlakatni milliy-ozodlik qo'zg'oloniga tayyorlash maqsadida "lochin gimnastikasi tizimi"ni ixtiro qildi. Har bir mashq ijrochiga nafaqat jismoniy kuch, balki hissiy holat ham berish kerakligini ta'kidladi.

Bularni birgalikda bajarish orqali u piramida qurish, qilichbozlik harakatlari, raqs va akrobatik mashqlarni mashg'ulot elementlari sifatida oldi. O'sha elementlarni bajarayotganda oyoq uchi va oyoq barmoqlarini oldinga cho'zish, mashqlarni tez va puxta bajarish kerakligi ko'rsatilgan.

"Sokol" jamoasi M.Tyrsh tomonidan maxsus dastur va qoidalar asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimini o'rganishni maqsad qilgan. Uning asosida gimnastika mashqlari tizimi va gimnastika terminologiyasi tizimi shakllandi. Mashqlarni bajarish bo'yicha mashg'ulotlar uch bosqichdan iborat ekanligi ko'rsatildi:

- tayyorgarlik davri, u chiziqli mashqlar, erkin va umumiy rivojlanishdan iborat mashqlardan iborat;

- snaryadlar bilan bajariladigan mashqlar, tik turib sakrash, jangovar

mashqlardan iborat asosiy bosqich;

- yakuniy bosqich, u yurish, yugurish, o'ynashdan iborat.

Jismoniy tarbiya tarixini o'rgangan olimlarning qayd etishicha, bu mashqlar sovet davrida umumrivojlantiruvchi mashqlarining asosini tashkil etishda qo'llanilgan. O'zbekiston sovet tuzumi tarkibida bo'lgan davr ma'lumotlariga nazar tashlasak, hozirgi boshlang'ich sinfdagi tashkil etilgan va o'tkaziladigan jismoniy tarbiya fanining maktabdagi pedagogik jarayonning tabiiy tarkibiy qismi sifatida qanday shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda gimnastika rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, fan sifatida kirib kelgunga qadar ham milliy o'yinlar ko'rinishida doimiy shug'ullanib kelingan. Gimnastika boshqa sport turlari singari, turli tarixiy davrlarda jismoniy tarbiyaning an'anaviy va noan'anaviy vositalarining butun majmuasiga asoslanadi. Uning kelib chiqishi sirk san'ati bilan ham uzviy aloqador. O'zbek xalqining milliy-tarixiy an'alaridan, birinchi navbatda, dorvoz va masxaravozlar chiqishlari akrobatik mashqlarga asoslangan. Chuqurroq ilmiy asoslangan ildizlari esa tibbiy sog'lomlashtirish va amaliy jismoniy madaniyatning elementlari va ixtisoslashgan sohalari mavjud. Buni "Alpomish" dostoni, Ibn Sino asarlari, Amir Temur davri ham tasdiqlaydi.

Ma'lumki, Alisher Navoiy mohir shahmatchi bo'lgan. O'sha davrlarda jangchilarni tayyorlashda qilichbozlik, poyga, kamondan o'q otish o'rgatilgan. Xalq o'yinlarining ko'pchiligi o'zida kurash, yugurish, uloqtirish va sakrash elementlarini mujassam etgan. Kurash o'yini ommabop hisoblangan. Turkmanlar

va o'zbeklar yuqorida tortilgan arqonda turli xil murakkab akrobatik mashqlarni bajarishgan. O'rta asrlarda maxsus qushlar – lochin, qirg'iy va shunqorlar yordamida ov qilish O'rta Osiyo xalqlari hayotida fahriy o'rin egallagan.

Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida jismoniy mashqlarga katta e'tibor beradi. Salomatlikni muxofaza qilish qoidalarini ko'rib chiqar ekan, jismoniy mashqlarning sog'lomlashtirish va davolash amaliyotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida mukammal tarzda so'z yuritadi. Ibn Sino olimlar orasida birinchi bo'lib jismoniy Mashqlarni ta'riflaydi: "Uzluksiz chuqur nafas olish jarayonini keltirib chiqaruvchi erkin harakat jismoniy mashq deyiladi". Buyuk olim ta'kidlashicha, salomatlikni mulofaza qilish tartibida eng asosiysi jismoniy Mashqlar Bilan shug'ullanish hisoblanadi, undan so'ng ovqatlanish va uyqu tartiblariga rioya qilinadi. Agar odam o'z vaqtida me'yorida jismoniy Mashqlar Bilan shug'ullansa, u hech qanday davolash chorasi va dori-darmonga ehtiyoj sezmaydi. Ibn Sino yozishicha, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmay qo'ygan odamlar sog'lig'i so'nib, harakatlanishni to'xtatish natijasida kuchi susayib boradi. Qomusiy olimning fikricha, jismoniy mashqlar mushaklar, bog'inlar, asab tolalarini mustahkamlaydi, natijada, odamlar o'z ishlarini bajara oladilar va xastalanishdan muhofaza etilgan bo'ladilar. U jismoniy mashqlar bilan shug'ullanganda odamning yoshi va salomatligini qay darajada ekanligini hisobga olishni tavsiya etgan. "Tib qonunlarida" bolalar, o'smirlar va qariyalar qachon va qay tarzda jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi haqida keng ma'lumot berilgan. Ibn Sinoning mashqlarni boshlash va tugatish vaqti,

uqalash, hammomda va sovuq suvda choʻmilish, tanani tozalikda saqlash va boshqa gigiyenik talablar haqidagi fikrlari katta qiziqish uygʻotadi. Ibn Sinoning nazariy mulohazalarini, shuni nazarda tutish kerakki, u davrlarda olim fikrlari bilan ularni amaliy qoʻllanilishi orasida katta tafovut boʻlgan. Olim tavsiyalarini faqatgina feodal zodagonlar qoʻllashi mumkin edi. Mahalliy hukmdorlar va din peshvolari tomonidan ezilgan hamda barcha haq-huquqlardan mahrum kambagʻal xalq ommasi esa buyuk allomaning foydali maslahatlarini amaliyotda qoʻllay olmas edilar. Koʻrib oʻtganimizdek yangi davr gimnastikasi chuqur tarixiy va ilmiy poydevorga egadir.

“Gimnastika” yunoncha “gimnos” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “yalangʻoch” maʼnosini bildiradi, Shuningdek, yunoncha gymnotike (gymmazo -tener (murabbiy), mashq qildiraman soʻzidan olingan) odam salomatligini mustahkamlash, uni har tomonlama jismonan tarbiyalash va harakat qobiliyatlari - jismoniy sifatlari: kuchi, chaqqonligi, tezkorligi, chidamkorligi va boshqa jismoniy sifatlarini tarbiyalash, takomillashtirish uchun ishlatiladigan maxsus tanlangan jismoniy mashqlar uslubiyatlar tarmogʻidir.

Gimnastikaning asosiy vazifalari:

1. Inson organizmining shakl va faoliyatini, jismoniy sifatlarini har tomonlama tarbiyalashga, takomillashtirishga, salomatligini mustahkamlashga, umrini uzaytirishga hamda faol yashashga xizmat qiladi.

2. Muhimi hayotiy harakat, koʻnikma va malakalari (shu jumladan, amaliy va sport koʻnikmalari)ni shakllantiradi va maxsus bilimlar bilan qurollantiradi.

3. Axloqiy, irodaviy va estetik xislatlarni tarbiyafaydigan, jismoniy tarbiya sohasidagi

zamonaviy yangi pedagogik texnologiya, fan yutuqlari asosida yaratilgan gimnastika mamlakatimizda yanadai rivojlantirilib, odamlar hayotiga keng tatbiq etilmoqda.

1880 yilda maxsus komissiya Turkiston oʻlkasidagi toʻrt yillik cherkov maktablari dasturini ishlab chiqdi, unda asosiy darslardan tashqari gimnastika darslari ham kiritildi. Ammo bir necha yil oʻtgach, gimnastika dasturdan olib tashlandi, mutaxassislar yetishmasligi, binolar va maxsus jihozlarning yoʻqligi sababli darslar toʻliq oʻtkazilmagan. Doimiy gimnastika bilan shugʻullanish faqat Toshkent erkaklar gimnaziyasida boʻlgan. Darslar erkin mashq qilish, piramidalar, marshlarni oʻz ichiga oldi.

Yagona pedagogik oʻquv yurti 1879 yilda Toshkentda ochilgan Turkiston oʻqituvchilar seminariyasi edi. Uning maqsadi “Turkiston oʻlkasidagi rus va rus millatli maktablar uchun oʻqituvchilar tayyorlash”¹ edi. Vaqti-vaqti bilan Toshkentda Sokol, Shved va Fransuz gimnastikasini tayyorlash uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etilgan. Taʼlim narxi juda yuqori boʻlgan, chunki kurs ishtirokchilari soni atigi 10-15 kishi edi.

1904 yilda "Gimnastika va jismoniy mashqlarni sevuvchilar jamiyati" tuzildi. Shuni taʼkidlash kerakki, oʻsha paytda "gimnastika" tushunchasiga yugurish, sakrash, uloqtirish va boshqalar kirgan. Ammo bu birinchi gimnastika jamiyati boʻlib, ushbu sport turini yanada rivojlantirish jarayonida u katta rol oʻynadi. Jamiyat sportchilar guruhlarini tashabbusi bilan tashkil etilgan va atigi 15-20 kishidan iborat edi. Jamiyat nizomida taʼlim muassasalarining oʻquvchilari unga aʼzo boʻlishi mumkin emasligi, chunki ular bilan gimnastika mashgʻulotlari ham borligi qayd

etilgan.

Toshkentda gimnastika va qilichbozlik maktabi ochilgandan so'ng u yanada ommalashib, bu jamiyat a'zolarining soni ancha ko'paygan bo'lsa-da, avvalgidek gimnastika talablariga javob bermaydigan bir qancha mashqlarni o'z ichiga oldi. Bunday musobaqalar bo'lmagan. 1910-yil 26-dekabrda 1911-yil 2-yanvargacha Toshkentda bo'lib o'tgan o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining birinchi Turkiston qurultoyida maktablarda jismoniy tarbiya muammolari muhokama qilindi. Jismoniy tarbiyaning maxsus bo'limi yaratildi, unda keng ko'lamli masalalar

bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan: dasturlarning mazmuni, soatlar soni, o'qitish usullari va boshqalar. Yig'ilish qarorida shunday deyilgan: "Gimnastikani o'qitish ta'lim tizimida, ham erkak, ham ayol ta'lim muassasalarida muhim ahamiyatga ega".

Hozirgi kunda gimnastika turlari va tizimlari juda yaxshi ishlab chiqilgan va pedagogik jarayonlarning usullari yetarlicha takomillashgan. XIX asr oxirlarida sport gimnastikasining rivojlanishi xalqaro sport aloqalari va sport tadbirlarining rivojlanishi bilan yaqindan bog'liq. 1881 yilda xalqaro gimnastika federatsiyasi, 1894 yilda esa Xalkao olimpiya qo'mitasi tashkil etildi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Тойлыбаев Б.А. Предоставление физкультуры учащимся начальных классов.
2. Использование элементов народной педагогики: пед. девочка сахар ...автореп. –Алматы, 1995. - 23 с.
3. Бикбулатова С.А., Сухостав О.А., Зябрева Т.И. Общее развитие упражнения: методические указания. - Омск: Изд-во СиБАДИ, 2003. - 14 с.
4. Леденева В.В., Орехов А.И., Самофалова М.А., Литвиненко С.И. Развитие спорта для всех (опыт реализации программы «Здоровье нации» в г.Ростов-на-Дону в 1994-2004 гг.) // ТПФК. - 2004. - №10. - С.
5. Khaydarov, B. Y. (2021). The meaning and methods of determining the composition of the human body. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1085-1089.
6. Voxodirjon, X. (2022). O DAM TANA TUZILISHINI TAXLIL QILISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 108-114.
7. Хайдаров, Б., & Алижонов, Д. (2022). ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 104-107.
8. Хайдаров, Б., & Алижонов, Д. ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. MATERIALLARI TO'PLAMI, 112

NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK XARAKTER XUSUSIYATLARI

SH.TO'RAQULOVA

JDPU Maxsus pedagogika kafedra stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning psixologik xarakter xususiyatlari bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishga ilmiy yondashuvlar asosida nutq faoliyati motivatsiyasini boyitish.

Tayanch so'zlar va iboralar: Predmeti – psixomotorli, harakatlarini cheklash esa psixikasining normal rivojlanish, patogenezi-bu nutqiy faoliyatda buzilishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'luvchi patologik mexanizm, «o'qitish», «tarbiyalash», «qayta tarbiyalash», «tuzatish-tarbiyalash orqali o'qitish».

Аннотация. В данной статье обогащение мотивации речевой деятельности на основе научных подходов направлено на повышение эффективности работы над психологическими особенностями характера детей с речевой недостаточностью.

Ключевые слова: Субъект психомоторен, а ограничение движений - нормальное развитие психики, патогенез - патологический механизм, вызывающий возникновение и развитие нарушений речевой деятельности, путем "обучения", "воспитания", "перевоспитания", «коррекционно-воспитательное» обучение».

Bolaning o'z irodasini tarbiyalash uchun unga sharoit yaratish lozim. Unga irodaviy xislatlar faqat doimiy ravishda mashq qilish orqali tarbiyalanadi. Masalan, ovqatlanish, onasi alla aytganda orom olish, odamlar orasida o'z yaqinlarini yoki onasini ko'rganda unga talpinish kabilardir.

Shunday qilib, ilk yoshdagi bolaning psixikasining aktiv faoliyati, turli –tuman harakati o'z atrofidagi narsalarni ko'proq bilib olishi jarayonida rivojlanar ekan, uning erkin harakatlari uchun qulay sharoit yaratish lozim. Bola harakatlarini cheklash esa psixikasining normal rivojlanishiga ma'lum darajada zarar yetkazadi.

Bu yosh davrida bolani ham jismoniy, ham ruhan sog'lom qilib o'stirish, keyingi davrlar psixik taraqqiyoti uchun muhim zamin yaratadi.

Nutqning buzilishi alomati bu nutqiy faoliyatning qandaydir buzilishi belgisi (namoyon bo'lishi)dir.

Nutqiy buzilish alomati-bu nutqiy faoliyat

buzilishining belgilari majmui (ko'rinishlari) dir.

Nutq buzilishi mexanizmlari deganda nutqiy faoliyat buzilishining paydo bo'lishi va rivojlanishini shart qilib qo'yuvchi jarayon va operatsiyalarning bajarilishidan chetlashish xarakteri tushuniladi.

Nutq buzilishining patogenezi-bu nutqiy faoliyatda buzilishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'luvchi patologik mexanizmdir.

Nutqiy nuqson deganda ma'lum nutq buzilishining nutqiy va nutqsiz alomatlari hamda ularning bog'lanish xarakteri majmui (tarkibi) tushuniladi. Nutqiy nuqson tuzilishida birlamchi, yetakchi buzilish (yadro) va ikkilamchi nuqsonlar ajratib ko'rsatiladi. Bu buzilishlar bir-birlari bilan sabab-oqibat munosabatida bo'ladi. Nutqiy nuqsonning turlicha tuzilishi birlamchi va ikkilamchi alomatlarining alohida bog'lanishlarida o'z aksini topadi va biror maqsadga qaratilgan logopedik ta'sir etishning o'ziga xos

xususiyatlarini belgilaydi.

Nutq buzilishlarini bartaraf etishda shunday tushunchalar qo'llaniladi: logopedik ta'sir etish, tuzatish, o'rnini to'ldirish, rivojlantirish, «o'qitish», «tarbiyalash», «qayta tarbiyalash», «tuzatish-tarbiyalash orqali o'qitish» va boshqalar.

Logopedik ta'sir nutqiy faoliyat buzilishini tuzatish, nutqi buzilgan bolani tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni o'z ichiga oladi.

Nutq buzilishini tuzatish-nutq buzilishi alomatini to'g'rilash yoki yengillashtirishdir («nutq buzilishlarining oldini olish», «tuzatish»-bu borada qo'llaniladigan atamalaridir).

Kompensatsiya (muzdlash) organizmning qandaydir harakatlarining yo'qolishi yoki buzilishi hollaridagi psixologik funksiyalarni qayta qurishning ko'p qirrali, murakkab jarayonini o'zida namoyon qiladi. To'liq shakllanmagan va buzilgan nutqli hamda nutqsiz harakatlarning rivojlanishi va tiklanishi logopedik ta'sir etishning maxsus tizimidan qo'llanish asosida amalga oshadi. Bu jarayonda kompensatsiya shakllanadi.

O'qitish-ikki tomonlama boshqariladigan jarayondir. U bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish borasidagi faol bilish faoliyatini, bu faoliyat ustidan pedagogik rahbarlikni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. O'qitish jarayoni uzviy birlikdagi ta'lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Tarbiyalash jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ravishda shaxsning yoki uning alohida sifatlarining shakllanish jarayonini maqsadga yo'naltirilgan holda uzluksiz, tashkiliy tarzda boshqarish demakdir.

Qayta tarbiyalash jarayonida nutqiy faoliyati buzilgan kishilarning o'ziga xos muhim xususiyatlarini tuzatish ishlari amalga oshiriladi.

Bosh miya ma'lum qismining xastalashuvi hollaridagi logopedik ishlarda buzilgan nutqiy

va nutqsiz vazifalarni tiklashga qaratilgan tiklovchi ta'limdan foydalaniladi. Bunday ta'lim asosida harakatning saqlanib qolgan qismiga tayanish va barcha funksional tizimni qayta qurish yotadi. «Nutqni tiklash» atamasi afaziya davridagi nutq buzilishining aksincha rivojlanishini belgilash uchun qo'llaniladi.

Logopedik ta'sir nutq buzilishlarini bartaraf etishga (masalan, disleksiyada), to'g'rilashga (masalan, tovushni qo'yish) ham, nutqsiz buzilishlarning salbiy alomatlarini (ruhiy xususiyatlarini) yo'qotishga ham qaratilgan bo'lishi mumkin.

3. Nutqida kamchiligi bor bolalarning oiladagi munosabat

Bola psixik taraqqiyotining anatomik va fiziologik asosini tashkil etuvchi nerv sistemasining rivojlanishi bolaning bir yoshgacha bo'lgan davrida jadal bo'ladi. Chaqaloqning bir sutkasini 75 % i uyquda o'tadi (keyinchalik bu narsa kamayib boradi). Yangi tug'ilgan bolaning 15-20 kunga qadar eshitmasligi mumkin, chunki uning qulog'iga suyuqlik to'lib qolgan bo'ladi, bir necha kundan keyin bu suyuqlik yo'qolib quloq ochiladi va bola yaxshi eshitadigan bo'ladi, ko'rish analizatorlari ham murakkab yo'l bilan rivojlanadi. Yangi tug'ilgan bolada ko'rish analizatori mavjud bo'lib, u yorug'likni, qorong'ulikni sezadi. Lekin uning ko'rish sezgisi mukammal bo'lmaydi.

Bolalar asab tizimining hamma qismlari baravar rivojlanmaydi, ularda eng oldin asab tizimining quyi qismlari, ya'ni orqa miya, uzunchoq miya takomillashadi. Chunki asab tizimining bu qismlari tug'ma yo'l bilan o'tadigan shartsiz reflekslarning markazi hisoblanadi. Keyinchalik asab tizimining yuksak qismlari ya'ni oliy asab faoliyati bilan bog'liq bo'lgan katta miya yarim sharlari va po'stloq qismi takomillashadi. Chaqaloq bolalar bosh miya yarim sharlari po'stining burmalari sayoz bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq bolaning asab miya katta yarim sharlari po'stidan asab hujayralari 14-

15 milliard bo'ladi, bu nerv hujayralarini birlashtiruvchi asab tolalarining usti mielin deb nom olgan maxsus parda bilan qoplanib boradi. Chaqaloqlarni yo'rgaklash oldidan bir oz harakatga solish, ya'ni qo'l –oyoqlarini harakatga keltirish lozim. Bu jarayonning tezlashuvi bosh miya po'stining jadal rivojlanishiga yordam beradi. Bola 1 yoshga to'lguncha jismoniy jihatdan tez o'sar ekan uning asab tizimi ham tez rivojlanadi. Chunonchi yangi tug'ilgan bola miyasining umumiy vazni 1 yoshga to'lguncha 600- gr ga ortadi. Bola teri ya'ni badan analizatorlari orqali haroratni, biror narsa tekkanini va og'riqni sezadi. Chaqaloq bolaning badani haroratga juda sezgir bo'ladi, shuning uchun tez sovqotadi. Agar bolaning yuzi yoki labiga qo'l tekkizilsa, u darhol o'z harakatlarini boshlaydi. Bola tug'ilgan kundan boshlab hid va ta'm bilish analizatorlari normal ishlay boshlaydi. Agar uning og'ziga taxir suyuqlik tekkizilsa, u aftini burishtirib bezovtalanib, chiqarib tashlaydi. Bola qo'lansa hiddan ham bezovtalanadi. Demak chaqaloqlarda analizatorlar normal holatda bo'ladi. Bularning hammasi psixik rivojlanishning asab –fiziologik asosi bo'ladi. Bir oylik bolani qo'lga olish bilan yig'isi to'xtab tinchib qoladi. Bu bolaning qo'lga o'rganib qolganligini ko'rsatadi. Noto'g'ri tarbiyalangan bolada bu refleks nihoyatda tez o'rnashib qolib natijada o'z o'rniga yotmaydi, faqat qo'lda uxlashni hohlaydi. Bu esa bolani normal o'sishiga zarar yetkazadi.

O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, hatto 8 kunlik bola qo'lga olish bilan yerga yotqizishni farqiga borar ekan.

Ilk yoshdagi bolalar jismoniy jihatdan tez rivojlanish bilan birga psixik jihatdan ham tez rivojlanadi. Chaqaloqlar psixikasining rivojlanishi 1 –dan analizatorlarni takomillashuvi bilan bog'liq bo'lsa, 2 –dan mustaqil harakatlarning o'sishi bilan bog'liq. Analizatorlarni tez takomillashuvi natajasida bir oylik bo'lgandan so'ng unda dastlabki

shartli reflekslarning shakllanishi ideallashadi. Shu davrda bola psixikasining tez rivojlanishi yo'lga qo'yiladi. 2-3 oylik bolalarda analizatorlarni faoliyati takomillashuvi natijasida ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilarni farqlash qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Ovozlarni, so'ngra yorqin ranglarni, ta'mlarni farqlay boshlaydi. Bola bir oyga to'lgach, o'zini parvarish qilayotgan odamga intiladi, o'ziga yaqin insonini aft basharasiga qarab ijobiy his tuyg'ular uyg'onadi. Ta'sirga berilishi va ta'sirlanishning bu shakli bola bilan kattalar o'rtasidagi aloqaning boshlang'ich ko'rinishidir. Shaxslararo aloqaning bu shakli chaqaloqlik davrining tugashi va ilk bolalikning boshlang'ich davridir.

Bolada paydo bo'ladigan ijobiy tuyg'ularning oddiy tabiiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq emas. Chunki psixik dunyodagi o'zgarishlarni o'rgangan M.Yu. Kityakovskayaning o'qtirishicha, uyqusizlikdan qiynalish va ochlik uyg'otuvchi va qo'zg'otuvchilarni bartaraf qilish salbiy kechinma va his –tuyg'uni pasaytiradi.

Psixolog D.B. Elkonin nazariyasiga ko'ra chaqaloqlik davridagi ilk bolalik, go'daklik davriga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud: bular

1) ko'z va quloq yordamida diqqatni muayyan bir ob'ektga to'plashning paydo bo'lishi, bola harakat faoliyatining qayta qurilishi boshlangani, aloxida namoyon bo'lishi, harakatning xulq hodisasiga aylanishi.

sirtidan idrok qilinuvchi barcha ob'ektlarga (sub'ektlarga) aloxida qo'zg'atuvchiga nisbatan hosil bo'lishi.

katta yoshdagi odamlarga (onasiga va yaqin kishilarga) nisbatan emotsional reaksiyalar (his –tuyg'ular va kechinmalar) yangi ehtiyoj paydo bo'lishining ko'rsatkichi ekanligi.

Bolaning kattalar bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji uning keyingi psixik o'zgarishi va negizida tashkil etishi.

Bolaning bir yoshgacha davridagi psixologik xususiyatlarining o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjud. Shular orasida N.L. Figurin, M.P. Denisova, M.Yu. Kityakovskaya, D.B. Elkonin, S.A. Arkin, S. Fayanslarning asarlari katta ahamiyatga ega, S. Fayans tajribasida go'dakka chiroyli va jozibador o'yinchoqlar 9 sm dan masofadan ko'rsatilgan, u butun vujudi bilan ularga intilgan, keyinchalik oraliq 60 sm bo'lganda bolaning intilishi sustlashgan va nihoyat ular 100 sm dan ko'rsatilgan bolaning intilishi mutlaqo o'chgan.

U o'yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishigahamanashunday befarqqaragan, masofa qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi shunchalik kuchaygan. Ko'pgina psixiologlar bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatda yuzaga keladigan emotsional reaksiyalarni jonlanish kompleksi deb ataganlar. Bunda bola uning bilan munosabatda bo'layotgan odamga muloyim tikilib jilmayadi, qo'l va oyoqlari bilan ovoz chiqaradi. Bolada qandaydir kuchli mamnunlik hissi yuzaga keladi.

Go'dak yoshiga to'lguncha juda ko'p harakatlarni o'zlashtiradi. Bolaning qiladigan turli tuman harakatlari orasida qo'l-harakatlari psixik taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. 4 oylik bola narsalarga qo'l cho'zadigan, ammo u xali o'zining qo'l harakatlarini idora qilolmaydi. 5 oylik bo'lgach narsalarni paypaslab ko'radigan bo'ladi.

Bolaning psixik taraqqiyotida murakkab harakatlarni egallab borish katta rol o'ynaydi. 6 oylik bo'lgach, mustaqil o'tara oladigan bo'ladi. 3-6 oylikacha bolalar katta yoshdagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo'ladi. Bolada yaqin kishilarga bog'lanish sodir bo'ladi, shu sababli ona yoki enagasini ko'rish bilan qichqirib qarshilaydi, talpinadi. Yarim yoshga to'lganida atrofdagilar qatori qarindoshlariga, qo'ni-qo'shnilariga ko'nikib boradi.

8 oylik bo'lgach yana bir murakkab harakatni - emaklashni o'rganadi. Bola

psixikasining rivojlanishida bu yangi harakatning ahamiyati katta. Emaklay boshlagach, bolaning atrofdagi narsalar bilan munosabati kengayadi. U bir narsani olib ikkinchi narsaga o'rib taqillatadi va chiqayotgan ovozga quloq soladi. Bu yoshdagi bolalar biror narsaning qopqog'ini ochib yopishni yoqtiradilar. Bunday harakatlar bolaning qo'l muskullarini mustahkamlaydi. Og'ir kasallikka uchramay, jismoniy jihatdan sog'lom o'sgan bola 9-10 oylik bo'lganda yura boshlaydi. Yura boshlagan bolaning faolligi kun sayin ortib, erkin harakat qila boshlaydi. Bemalol yuradigan bola tor uy doirasidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

6-7 oylik bolalarda taqlid qilish harakatlari paydo bo'ladi. Bola psixikasining taraqqiyotida taqlidning roli katta, bola juda ko'p harakatlarni va nutqni asosan taqlid orqali egallaydi. Go'daklarda katta yoshdagi kishilarning faoliyatini tashkil qilish asosida unga atrofdagi olam haqida dastlabki tafakkur qilishning oddiy formalari vujudga keladi. 6-7 oylik bola ismi aytilgan narsani ko'rsatadi. Ya'ni harakat xotirasi paydo bo'ladi. xotiraning dastlabki ko'rinishlari asta-sekinlik bilan paydo bo'ladi. Masalan, go'dak o'yinchoqni o'ynayapti, o'yinchoq ovoz chiqaruvchi moslamaga biriktirilgan bo'ladi. Go'dak o'yinchoqni qo'llari yordamida ezsa undan ovoz chiqadi. Bola oradan ancha o'tsa ham o'sha o'yinchoqni olib ezadi. Chunki undan tovush chiqishi mumkinligini biladi. Demak, xotirasida o'yinchoqni bosish harakati qolgan va u shu tufayli ham ezish harakatini bajaradi.

Go'dak shu tariqa kichik harakatlarni eslab qoladi va keyingi gal shu harakat orqali natijaga erishishi mumkinligini biladi. Masalan boladan "Qo'lingiz qani" deb so'ralsa, unga qo'l a'zosi qaysiligini tushuntirilsa va uni xotirasida qolishi uchun bir necha marta shu mashq takrorlanilsa, u qo'l a'zosi qaysiligini tushunadi. Kun sayin ham takrorlab beradi. Agar 10-11 oylik go'dak qizcha qo'lga

qo'g'irchoq olsa albatta uni "tebratib" uxlatishga harakat qiladi. Bola harakatlanganda o'z xotirasida saqlab qolgan ko'nikmalardan foydalanadi. Uning harakati asosan xotiraning kuchli ishlashi orqali rivojlanadi. Masalan, bola issiq pechga bexosdan qo'lini tekizib oldi va og'riq s'ezdi keyingi safar u pechga umuman yaqinlashmaydi. Chunki u avval pechga qo'l tekkanida, og'riq bo'lishini tushunadi. Bulardan ko'rinib turibdiki, bolada tafakkur rivojlanadi. Go'dak 5-6 oyligidan "sermahsul" harakat natijasida ya'ni 2 ta jismdan foydalanish 7 oylikda uyg'unlikda fikrlashni yuzaga keltiradi. Emaklash orqali atrofdagi turgan o'yinchoqqa intiladi va uni olib o'ynaydi. Go'dakning jismlar bilan bevosita aloqaga kirishuvi ular yordamida harakatlanish narsalarning yangi xossa va

xususiyatlarini bilib olishga imkon yaratadi.

Hayotining ikkinchi yarim yilligida bolaning predmetlar bilan har xil harakatlarning amalga oshirishdagi ildamligi faoliyatining murakkablashuvi fazoda o'rin almashtirishning yangi shakllari vujudga kelishi uni katta yoshdagi odamlarga bog'laydi. U o'yin orqali fikrlagan narsalarini tashqariga chiqarishga harakat qiladi. Bu uning muloqotga kirishuvida ko'rinadi.

Go'dak yarim yoshida ular bilan muloqotga kirishish jarayoni ikki xil xususiyat kasb etadi. Avval muloqot bir tomonlama, faqat ta'sir o'tkazish bilan chegaralansa, endi teskari munosabat ham vujudga keladi. Bola kattalarning kiyimini tortqilaydi. Ularga qichqiradi va boshqa harakatlardir.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. M Ayupova "logopediya" Toshkent 2007 y
2. Volkova L S Lolayeva R I "Logoritmika" Moskava 2009 y.
3. X.S.Akramova, A.J.Tajimuratov. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning xotirasini kuchaytirish asoslari. Tafakkur ziyosi. 2021-yil 1-soni
4. Akramova X. (2020). Zamonaaviy multimedia vositalaridan foydalaniish - muvaffaqiyat garovi . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(12), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162
5. Akramova, X. (2020). Maktabgacha ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994
6. Akramova, X. (2020). Mehnat darslarida aqli zaif bolalar nutqini o'stirishning o'ziga xosligi. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4025

XORIJIY TILNI O‘QITISH SHAROITIDA BO‘LAJAK TIBBIYOT MUTAXASSISLARINING UMUMMADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

RAXIMOVA NIGORA ATAKULOVNA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot talabalarining ta'lim doirasidagi umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha nazariy fikrlarni muhokama qilinadi. Muallif tibbiyot talabalarida umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning batafsil metodologiyasiga oid tadqiqotlar bo'yicha ma'lumotlarni o'rganadi. Maqolaning maqsadi tibbiyot ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida tibbiyot talabarlari o'rtasida umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish muammosini ilmiy tadqiq qilishning ahamiyatini kengroq ochib berishdir. Shuningdek, ushbu tadqiqot bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashda ingliz tilini bilishning hal qiluvchi rolini o'rganadi. Tadqiqot umummadaniy, lingvistik kompetensiyaning samarali muloqot qilish, global hamkorlik va tibbiyot sohasidagi ilg'or tadqiqotlar va resurslardan foydalanish imkonini berishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: umummadaniy, kompetensiya, tibbiyot talabarlari, metodologiya, lingvistik, ingliz tili.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические идеи по развитию общекультурной компетентности студентов-медиков в рамках образования. Автор рассматривает данные исследования по подробной методике формирования общекультурной компетентности у студентов-медиков. Цель статьи – раскрыть значимость научного исследования проблемы развития общекультурной компетентности у студентов-медиков в образовательном процессе медицинских образовательных учреждений. Кроме того, в этом исследовании рассматривается решающая роль владения английским языком в подготовке будущих медицинских работников. Исследование подчеркивает важность межкультурной и языковой компетентности для обеспечения эффективного общения, глобального сотрудничества и доступа к передовым медицинским исследованиям и ресурсам.

Ключевые слова: общекультурный, компетентность, студенты-медики, методика, лингвистика, английский язык.

Annotation. This article examines theoretical ideas for developing general cultural competence of medical students within the framework of education. The author reviews research data on a detailed methodology for developing general cultural competence among medical students. The purpose of the article is to reveal the significance of scientific research into the problem of developing general cultural competence among medical students in the educational process of medical educational institutions. Additionally, this study examines the critical role of English language proficiency in the preparation of future healthcare professionals. The study highlights the importance of intercultural and linguistic competence to ensure effective communication, global collaboration, and access to cutting-edge medical research and resources.

Key words: general cultural, competence, medical students, methodology, linguistics, English.

KIRISH: Chet tillarini o‘qitish metodikasi bu ona tilini o‘qitish jarayonining qonuniyatlari va uni optimallashtirish uchun ushbu jarayonga ta'sir qilish usullari to‘g‘risidagi bilimlar tizimi. Chet tilini o‘qitish metodikasi (ChT) chet tilini o‘qitish qonuniyatlarini ochib beradi va asoslaydi. Tarixan funksional jihatdan bir-biridan farq qiladigan ikkita usul ishlab chiqilgan: umumiy va maxsus usullar. Mamlakatimizdagi o‘rta maktablarda o‘qitiladigan G‘arbiy Evropa tillarining har biri uchun ekvivalent ta'lim sharoitida bir xil bo‘ladi. Biroq chet tilini o‘qitishning umumiy tamoyillarini bilish o‘qituvchi muayyan chet tilining o‘ziga xos xususiyatlariga duch

kelganda etarli emas bo'lib chiqadi. Shunday qilib, xususiy metodologiya o'rganilayotgan muayyan chet tiliga xos bo'lgan til va nutq hodisalarini o'qitishni o'rganadi. Chet tillarini o'qitish metodikasi bir qator boshqa fanlar – asosiy va tegishli fanlar bilan bog'liq [2]. Asosiy fanlarga falsafa, pedagogika, psixologiya, psixolingvistika, tilshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi va boshqalar kiradi. Tegishli fanlar ma'lumotlari metodologiya tomonidan o'z tadqiqotlarining samaradorligi va ishonchligini ta'minlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Zamonaviy global dunyoda tibbiyot mutaxassislarining kasbiy faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning tabiatida o'zgarishlar ro'y bermoqda, yangi normativ-huquqiy va axloqiy-huquqiy qoidalar shakllanmoqda. Shu munosabat bilan, kelajakdagi tibbiyot mutaxassislarining kasbiy faoliyati mazmuni va shakllarini hisobga olgan holda, uning kasbiy, umumiy-madaniy va ko'p madaniyatli kompetensiyasini rivojlantirish kontekstida bo'lajak tibbiyot xodimini kasbiy tayyorlashning yangi sifatini topish muammolari aks etadi. Bunday sharoitda tibbiyot xodimining kasbiy faoliyatida aholi bilan o'zaro munosabatlarning ko'p madaniyatli jihatlari yangilanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI:

Umummadaniyatli ta'lim ilmiy muammo sifatida xorijiy ko'p madaniyatli ta'lim [3], madaniyatlararo ta'lim [5], G.Auerngeimer, V.Nike), global ta'lim (R.Xenvey), madaniyatlararo muloqot (S.Ikonnikova, S.Ter-Minasova), boshqa madaniyatni o'zlashtirish (M.Bennett),

madaniyatlarning o'zaro ta'siri (N.Krilova, V.Tishkov), sotsializatsiya (D.Dyui), migratsiya pedagogikasi (O.Gukalenko, G. Soldatova), etnik va madaniyatlararo psixologiya (N.Lebedeva), T.Stefanenko) olimlarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan [4, 6, 8, 9]. Bo'lajak tibbiyot xodimlarini kasbiy tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolariga oid ilmiy ishlar mavjudligiga qaramay, tibbiyot oliyo'quv yurtlari talabalari o'rtasida umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish masalasi kengroq o'rganishni talab qiladi.

Globallashib borayotgan dunyoda ingliz tilini bilish sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari, ayniqsa ingliz tili ona tili bo'lmagan kontekstlarda shug'ullanuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi kompetensiyalarning biriga aylandi. Ushbu adabiyot sharhi tibbiyot mutaxassislari uchun ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish bo'yicha tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot berishga qaratilgan. Quyida tibbiyot sohasidagi chet tilining ahamiyati, samarali o'qitish metodologiyalari, duch keladigan muammolar va potensial yechimlarga qaratiladi.

Sog'liqni saqlash sohasida ingliz tilini bilishning ahamiyati: Ingliz tilida samarali muloqot qilish qobiliyati turli sabablarga ko'ra tibbiyot mutaxassislari uchun juda muhimdir. Bu bemorni to'g'ri baholashni osonlashtiradi, xabardor rozilikni ta'minlaydi, hamkasblar bilan aniq muloqot qilish imkonini beradi va kengroq tibbiy adabiyotlar va resurslardan foydalanish imkonini beradi [3, 4, 5].

Samarali o'qitish usullari: Vazifaga asoslangan ta'lim: Vazifaga asoslangan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.09.2018 yildagi PF-5538-son

o'rganish real hayot stsenariylariga urg'u beradi va o'quvchilarni amaliy tibbiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanishga undaydi [9]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu yondashuv muloqot qobiliyatlari va klinik ko'rsatkichlarni oshiradi [6].

Simulyatsiyaga asoslangan trening: Simulyatsiyaga asoslangan treninglar tibbiy mutaxassislarga boshqariladigan muhitda muloqot qilish ko'nikmalarini qo'llash imkoniyatini beradi [7]. Tadqiqotlar ingliz tilini bilish va klinik ko'rsatkichlarni yaxshilashda uning samaradorligini ko'rsatdi [8].

Qiyinchiliklar va yechimlar: Vaqt etishmasligi: Tibbiyot mutaxassislari ko'pincha talabchan jadvallarga ega bo'lib, til o'rganish uchun vaqt ajratishni qiyinlashtiradi. Onlayn resurslarni yuzmayuz o'qitish bilan birlashtirgan aralash ta'lim yondashuvlari moslashuvchanlikni ta'minlaydi [10].

Tibbiyot tilining o'ziga xosligi: Tibbiyot terminologiyasi murakkab va kontekstga bog'liq bo'lishi mumkin. Tibbiy lug'at va muloqot ko'nikmalariga qaratilgan maxsus til kurslari muhim ahamiyatga ega [11].

Madaniy sezgirlik: Muloqotda madaniy nuanslarni tushunish bemorni samarali parvarish qilish uchun juda muhimdir. Madaniy kompetensiyalarni tayyorlash chet tilini o'qitish dasturlariga kiritilishi kerak [12].

Ingliz tilida so'zlashmaydigan muhitda amaliyot o'tayotgan tibbiyot mutaxassislari uchun ingliz tilini bilish juda muhimdir. Vazifaga asoslangan ta'lim va simulyatsiyaga asoslangan treninglarmuloqotko'nikmalarini oshirishning samarali metodologiyasi hisoblanadi. Biroq, vaqt cheklovlari va

maxsus tibbiy til kabi muammolar maqsadli echimlarni talab qiladi. Kelgusi tadqiqotlar innovatsion o'qitish yondashuvlarini o'rganishni davom ettirishi va ularning klinik amaliyotga ta'sirini baholashi kerak.

METODOLOGIYA: Bo'lajak tibbiyot mutaxassislari uchun ingliz tilini o'rgatish tilni bilishni tibbiy terminologiya va muloqot qobiliyatlari bilan birlashtirgan maxsus yondashuvni talab qiladi. Buning uchun bir necha samarali o'qitish usullari:

Tibbiy lug'at va terminologiya: Tibbiy lug'at va terminologiyada kuchli poydevor yaratishdan boshlang. Talabalarga umumiy tibbiy atamalar va ularning to'g'ri talaffuzi bilan tanishish uchun kartalar, viktorinalar va mashqlardan foydalaning.

Rol o'ynash va simulyatsiyalar: talabalar real hayotdagi tibbiy vaziyatlarni qo'llashlari mumkin bo'lgan stsenariylarni yarating. Bu shifokor va bemor dialoglari, tibbiy maslahatlar yoki tez yordam bo'limidagi o'zaro aloqalarni o'z ichiga olishi mumkin. Talabalarni tegishli til va muloqot qobiliyatlaridan foydalanishga undash.

Haqiqiy materiallar va amaliy tadqiqotlar: O'qish va tushunish mashqlari uchun haqiqiy tibbiy matnlar, maqolalar, amaliy tadqiqotlar va hisobotlarni taqdim eting. Bu talabalarga haqiqiy tibbiy tilni ochib beradi va ularga professional kontekstda qanday qo'llanilishini tushunishga yordam beradi.

Tinglash va talaffuz mashqlari: tibbiy suhbatlar, ma'ruzalar yoki intervyularning audio yozuvlarini qo'shing. Talabalarga tibbiyot mutaxassislarning talaffuzi va intonatsiyasini taqlid qilishni tinglash, transkripsiya qilish va mashq qilishlarini so'rang.

Tibbiy jurnallar va ilmiy maqolalar: Talabalarni tibbiyot sohasidagi akademik yozuvlar bilan tanishtirish. Ularga tadqiqot maqolalari, amaliy tadqiqotlar va jurnal maqolalarini o'qish va tahlil qilish kerak. Bu ularning o'qishni tushunishni yaxshilashga yordam beradi va ularni rasmiy tibbiy yozishga ochib beradi.

Interaktiv multimedia resurslari: tibbiy ingliz tiliga qaratilgan videolar, podkastlar va interaktiv onlayn platformalar kabi multimedia resurslaridan foydalaning. Ushbu manbalar tibbiy til va tushunchalarni o'rganishning dinamik va qiziqarli usullarini taqdim etadi.

Guruhdagi munozaralar va munozaralar: Talabalarni tibbiy mavzular bo'yicha munozara va bahslarda qatnashishga undash. Bu tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va o'quvchilarga o'z fikrlarini ingliz tilida samarali ifoda etishga yordam beradi.

Tibbiy hujjatlar amaliyoti: Talabalarni tibbiy hisobotlar, bemorlar tarixi va boshqa muhim hujjatlarni yozishga o'rgating. Aniq va qisqacha tibbiy yozuvlarni yaratish uchun shablon va ko'rsatmalar bering.

Madaniy kompetensiya va sezgirlik: talabalarga tibbiy muloqotda madaniy nuanslar va sezgirlik haqida o'rgatish. Bu turli xil kelib chiqishi bo'lgan bemorlar bilan samarali muloqot qilish uchun juda muhimdir.

Til laboratoriya mashg'ulotlari: Talabalar nazorat ostidagi muhitda tinglash, gapirish va talaffuz qilishni mashq qilishlari mumkin bo'lgan til laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazing. Yaxshilash uchun mashqlar va fikr-mulohazalarni taqdim eting.

Mehmon ma'ruzalari va seminarlari: Tibbiyot mutaxassislari yoki ekspertlarni

ingliz tilida ma'ruzalar yoki seminarlar o'tkazishga taklif qiling. Bu talabalarni haqiqiy tibbiy muloqotga ochib beradi va ularga soha mutaxassislaridan o'rganish imkonini beradi.

Tajribali o'rganish va klinik kuzatuvlar: Talabalarga klinik sharoitda tibbiy muolajalar, maslahat va o'zaro ta'sirlarni kuzatish imkoniyatlarini tashkil qiling. Bu birinchi tajriba ularning tibbiy amaliyotlar va atamalar haqidagi tushunchalarini oshiradi.

Xulosa sifatida, ushbu usullarni talabalarimizning o'ziga xos til o'rganish darajalariga, ko'nikmalariga moslashtirish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, o'z bilimlarini mustahkamlash uchun muntazam ravishda fikr-mulohaza va amaliyot uchun imkoniyatlar taqdim eting.

MUHOKAMA. Ingliz tilini bilish tibbiyot mutaxassislari uchun juda muhim, chunki u globallashtirish sog'liqni saqlash muhitida bemorlar, hamkasblar va manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Ushbu munozara tibbiyot mutaxassislari uchun ingliz tilining chet tili sifatidagi ahamiyatini tanqidiy ko'rib chiqish va shu nuqtai nazardan til ko'nikmalarini yaxshilash strategiyalarini o'rganishga qaratilgan.

Sog'liqni saqlash sohasida ingliz tilini bilishning ahamiyati:

1. Bemorga yo'naltirilgan yordam: Bemorga yo'naltirilgan yordam ko'rsatishda samarali muloqot muhim ahamiyatga ega. Aniq va to'g'ri muloqot bemorlar o'z tashxislarini, davolash rejalarini va har qanday zarur ko'rsatmalarni tushunishlarini ta'minlaydi [15].

2. Hamkorlik va jamoaviy ish: Sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari ko'p tarmoqli

jamoalarda ishlaydi, bu yerda aniq muloqot uzluksiz hamkorlik uchun juda muhimdir. Noto'g'ri tushunish yoki noto'g'ri talqin qilish bemorning natijalari uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin [16].

3. Global tibbiy bilimlarga kirish: Tibbiy adabiyot va tadqiqotlarning muhim qismi ingliz tilida nashr etiladi. Tilni bilish so'nggi yutuqlardan xabardor bo'lish va jahon tibbiyot hamjamiyatiga hissa qo'shish uchun zarurdir [17].

Ingliz tilini o'rganishda tibbiyot mutaxassislari duch keladigan qiyinchiliklar:

1. Vaqt cheklovlari: Tibbiyot mutaxassislari ko'pincha talabchan jadvalarga ega bo'lib, til o'rganish uchun cheklangan vaqtni qoldiradilar.

2. Ixtisoslashgan tibbiy terminologiya: Ingliz tilida tibbiy jargonni o'rganish terminologiyaning murakkabligi va o'ziga xosligi tufayli qiyin bo'lishi mumkin [16].

3. Madaniy sezgirlik: Tildagi madaniy nuanslarni tushunish turli xil bemorlar populyatsiyalariga sezgir va empatik yordam ko'rsatishda juda muhimdir [14].

Ingliz tilini bilish darajasini oshirish strategiyalari:

1. Moslashtirilgan til dasturlari: Tibbiy terminologiya, muloqot qobiliyatlari va madaniy kompetensiyaga qaratilgan maxsus ingliz tilidagi dasturlarni ishlab chiqish tibbiyot mutaxassislarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishi mumkin [5].

2. Immersiv ta'lim muhitlari: Ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda immersion dasturlari yoki klinik joylashtirishlar haqiqiy sog'liqni saqlash sharoitlarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyatini beradi.

3. Texnologiyadan foydalanish: Til o'rganish ilovalari, virtual reallik

simulyatsiyalari va onlayn resurslar an'anaviy sinfdagi ta'limni to'ldirib, moslashuvchan va qulay o'rganish imkoniyatlarini taklif qilishi mumkin.

Ingliz tilini bilish darajasini oshirish tibbiyot mutaxassislari uchun tobora globallashtirib borayotgan sog'liqni saqlash landshaftida yuqori sifatli yordam ko'rsatish uchun zarur. Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishda duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishda moslashtirilgan til dasturlari, immersiv tajribalar va texnologiya yordamida o'rganish yordam berishi mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, turli metodologiya va yondashuvlarni chuqur tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ladiki, moslashtirilgan til dasturlari va chuqur o'rganish tajribalari intiluvchi tibbiyot mutaxassislarning til ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, tadqiqot o'quv dasturiga tibbiy terminologiya va ixtisoslashtirilgan tillarni o'qitishni integratsiyalash, talabalarni murakkab tibbiy nutqni boshqarish uchun zarur vositalar bilan jihozlash muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, haqiqiy klinik stsenariylar va amaliy mashqlar bilan tanishish haqiqiy sog'liqni saqlash sharoitlarida ishonch va malakani oshiradi. Natijalar, shuningdek, tibbiyot faoliyati davomida til ko'nikmalari bo'yicha doimiy kasbiy rivojlanish zarurligini ta'kidlaydi. Tibbiyot dinamik va doimiy rivojlanayotgan soha bo'lgani uchun, eng so'nggi yutuqlardan xabardor bo'lish va turli bemorlar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish muhim bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu tadqiqot ingliz tilini bilish va shifokorlik kasbidagi muvaffaqiyat o'rtasidagi inkor etilmaydigan bog'liqlikni ta'kidlaydi. U

nafaqat lingvistik, balki umummadaniy kompetensiyani va samarali muloqot strategiyalarini ham o'zida mujassam etgan holda til ta'limiga kompleks yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. Ingliz tilidagi

mustahkam poydevor bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini global sog'liqni saqlash hamjamiyatiga munosib hissa qo'shish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Hanna V. Shcherbakova. The Issue of Formation of Polycultural Competence in Medical Students in the Educational Process of Medical Colleges: Major Results and Inferences. *Pedagogical sciences. European Researcher*, 2014, Vol.(88), № 12-1. Pp. 2087-2092.
2. Методика обучения иностранным языкам (учебное пособие для студентов Института математики и механики им. Н.И. Лобачевского по направлению «педагогическое образование (с двумя профилями подготовки)»). – Казань, КФУ, 2016. – 189с.
3. Divi, C., Koss, R. G., Schmaltz, S. P., & Loeb, J. M. (2007). Language proficiency and adverse events in US hospitals: A pilot study. *International Journal for Quality in Health Care*, 19(2), 60-67.
4. Hsieh, E. (2010). Not just "getting by": Factors influencing providers' choice of interpreters. *Journal of General Internal Medicine*, 25(5), 30-35.
5. Villanueva, G. (2014). The importance of medical Spanish and cultural competency in the medical field. *Journal of Racial and Ethnic Health Disparities*, 1(3), 157-160.
6. Kim, J. W., Lee, S. J., & Lee, W. K. (2017). Task-based learning program for improving the communicative skills of healthcare professionals. *PLoS ONE*, 12(5), e0177676.
7. Kardong-Edgren, S., Adamson, K. A., Fitzgerald, C. J., & Walsh, C. M. (2015). A review of currently published evaluation instruments for human patient simulation. *Clinical Simulation in Nursing*, 11(4), 293-298.
8. Jang, K. S., Baek, S. J., & Kwon, Y. S. (2017). The effects of simulation-based learning using standardized patients in nursing students: A meta-analysis. *Nurse Education Today*, 53, 35-43.
9. Willis, D., & Willis, J. (2007). *Doing task-based teaching*. Oxford University Press.
10. Silver, R., & Nickerson, R. (2014). Blended learning for professional and intercultural communication: The TALC model. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 136, 284-288.
11. Harden, R. M., Lilley, P., Patricio, M., & the STORIES, T. (2013). Twelve tips for introducing a program of early experiences in healthcare education. *Medical Teacher*, 35(11), 847-852.

MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR YAKKA MASHG'ULOTDA O'YIN FAOLIYATIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

AKRAMOVA XAFIZA SAMADOVNA

JDFU Maxsus pedagogika kafedra dotsenti

ABATBAYEVA AYNURA JANGABAYEVNA

Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya) mutaxassisligi 2- bosqich magistri

Annotatsiya. Ushbu bolalarni maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar yakka mashg'ulotda o'yin faoliyatidan foydalanish xususiyatlari bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishga ilmiy yondashuvlar asosida nutq faoliyati motivatsiyasini boyitish.

Tayanch so'zlar va iboralar: O'yinning ko'pgina konsepsiyalari mavjud bo'lib, buyuk psixolog va pedagoglar, istak-hohishlarni ro'yobga chiqarish vositasi, Syujetli-rolli o'yinlardan tashqari aqli zaif bolalar didaktik va harakatli o'yin, psixologik o'rganish, ta'lim, hissiy aloqa.

Аннотация. Обогащение мотивации речевой деятельности на основе научных подходов для повышения эффективности работы над особенностями использования игровой деятельности в индивидуальном обучении умственно отсталых детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Существует множество концепций игры, великие психологи и педагоги, средства исполнения желаний, дидактические и подвижные игры для умственно отсталых детей, психологическое обучение, образование лим, эмоциональная связь.

O'yin faoliyati - bolalar hayotida alohida mazmunga ega. O'yinni «hayot yo'ldoshi» sifatida qabul qilish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida u asosiy mazmunni tashkil qilib, yetakchi faoliyat sifatida turtib chiqadi, mehnat va o'qish bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'pincha jiddiy voqeyalar bolada o'yin shaklini egallaydi. Bu shaxsning barcha tomonlarini o'ziga jalb qiladi: bola harakatlanadi, gapiradi, idrok qiladi, fikrlaydi; o'yin davomida uning tasavvuri va boshqa psixik jarayonlari faollashadi. O'yin – bu erkin va mustaqil faoliyat bo'lib, bolaning shaxsiy tashabbuskorligi bilan yuzaga keladi, hamda faol ijodiy xarakter, yuksak emotsional mazmunga boyligi bilan ajralib turadi.

O'yinning ko'pgina konsepsiyalari mavjud bo'lib, buyuk psixolog va pedagoglar tomonidan yaratilgan, turli xil nazariy vaziyatlarda turadigan va turli xil yo'nalishdagi o'yinlar.

O'yin haqida V.Shtern o'z fikrini bayon etadi: «Erkin, birdan-bir maqsadli faoliyat

– agar biz o'yin jarayonida ong holatini xarakterlash istagi paydo bo'lsa, o'yinni aynan shunday ta'riflash joiz. Bu yagona maqsadli faoliyat hisoblanadi, ya'ni o'zi bilan o'zi qoniqib, o'ziga tegishli bo'lmagan – «ishga» qarama-qarshi bo'lgan maqsadlarga yo'naltirilmagan bo'ladi. O'ynayotganning ongida o'yinning maqsadi o'yinning tugashiga kelib batamom muvaffaqiyatga erishilgan bo'ladi. O'yin ong tomonidan atroflicha ko'rib chiqilsagina, bu fikr to'g'ri bo'lishi mumkin. Aksincha agar o'yinga «o'z ongida hosil bo'lgan tasavvurlariga qaramay, hayotiy vazifa» sifatida qaralsa, o'yin quyidagi maqsadlarga egaligi aniqlanadi, ya'ni bular o'yin chegarasidan chiqadigan maqsadlardir: rivojlanib kelayotgan qobiliyatlar hamda yuzaga keluvchi jiddiy funksiyalarning ongsiz mashqlarining mustaqil shakllanishi kabi maqsadlar».

K.Koffkaning o'yin haqidagi tasavvurlarini ko'rib chiqamiz. U uchun o'yin bola dunyosi (kattalar dunyosiga qaraganda

o'ziga xos va kattalar dunyosi nuqtai nazaridan qaraganda tushunarsiz bo'lgan dunyo)ning namoyon bo'lishida juda muhim hisoblanadi. O'yin faoliyati tarbiyaning alohida bir tizimiga tegishli bo'lib, bu tizim boshqa tizimlar qatorida mavjuddir. Bola ong tizimi tarbiya tizimlari bilan mos keladi, ular bir-biridan mustaqil ravishda, faqatgina dinamik tomondan bog'liq bo'ladi. Koffka o'yinni bolaning alohida o'ziga xos sifatlarga ega bo'lgan dunyosining namoyon bo'lishi sifatida tahlil qiladi.

Kattalar dunyosini o'zlashtirish qonun-qoidalari, kattalar hayotiga tayyorlash va boshqalar nuqtai nazaridan qaralishi noto'g'ri. Shunday bo'lsa, bu o'ynayotgan bolaning dunyosini mustaqil paydo bo'lishi deb muhokama qilgan bo'lar edik. J.Piaje ham xuddi shunday qarashga ega. Piajening ishlari shunga asoslanganki, bolaning ichki dunyosi o'z qonun-qoidalariga asosan qurilgan bo'lib, u kattalar dunyosining qonun-qoidalaridan butunlay farq qiladi. Piaje «Bolaning nutq va tafakkuri» nomli ilmiy ishida bolaning ongi, misol uchun, bir vaqtning o'zida ikkita turli xil, birin-ketin joylashgan dastgohlarda tikayotgandek bo'ladi, - degan fikrni bildirgan. Hayotning dastlabki yillarida olib borilgan ish juda muhim hisoblanadi. Bu bolaning o'ziga bog'liq bo'lib, u atrofidagi barcha o'zini qondira oladigan narsalarni o'ziga jalb qiladi va sintezlaydi. Bular – hohish-istaklar, injiqliklar, o'yinlar. Keyinchalik esa, aksincha, ijtimoiy doira tiklanadi, bunda borgan sari bolaning ta'siri sezila boshlaydi. Bu – mantiqiy nutq, bir so'z bilan aytganda reallik. Z.Freydning o'yin haqidagi qarashlarini o'rganib chiqamiz. Freyd bolalar o'yinining tabiatini tushuntiradi, bunda u birinchi navbatda iqtisodiy nuqtai nazardan qaraydi, ya'ni mamnuniyat qabul qilish maylini asos deb biladi. Z.Freyd yozishicha: «Bolalar hayoti davomida o'zlarida qolgan taassurotlarini o'yinda ham qaytarishadi,

bu taassurotlar kuchidan ular qattiq ta'sirlanadilar, boshqacha qilib aytganda ular vaziyat ustidan to'la hukmronlik qiladilar. Bizga ma'lumki, boshqa tomondan butun o'yin ularning hohish-istaklari ostida amalga oshadi, bu istak ularning tezroq katta bo'lishlarini va barcha hatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek bo'lishini hohlaydilar».

Psixologiyada o'yin 30-yillardan beri o'rganib kelinayotgan bo'lib, shu bilan birga psixologlar aynan bolalar o'yinini tushunishga harakat qilishgan, buning uchun ular individning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatining xususiyatlariga asoslanganlar. L.S.Vigotskiy ta'kidlashicha, o'yinni tushunish uchun maktabgacha yosh davrida namoyon bo'ladigan yangi ehtiyojlar va sabab (motiv)larni anglay olish lozim. Bu davrda bolada bir qator turli xil amalga oshmaydigan g'oya va hohish-istaklari paydo bo'ladi. Shuning bilan birga istagiga darhol erishish g'oyasi unda saqlangan bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bola tilak, hohish-istaklarini hayolan amalga oshirish qobiliyatiga ega. Shundan kelib chiqqan holda, bola nega o'ynaydi degan savolga, amalga oshmaydigan orzu-istaklarning hayolan, tasavvur qilish orqali amalga oshirish maqsadi turgan bo'ladi, - deb javob berish lozim.

O'yin bu istak-hohishlarni ro'yobga chiqarish vositasi bo'lib, ammo yagona istak emas, balki umumlashgan istaklardir. Vigotskiy o'yin mezoni bo'yicha, unda soxta vaziyatlarni hosil qilishni tavsiya qilib, uning fikrlashicha bu qoidalar bilan uzviy bog'liqdir. Soxta vaziyat – o'yin, real vaziyatlardan farqi shundaki, «real hayotda mavjud bo'lgan narsa bola nazaridan chetda qoladi, lekin o'yinda hatti-harakatlarni belgilab beruvchi qonun-qoidalarni bildiradi».

Bola rivojlanishida o'yin roli katta ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagilarga bog'liq: soxta vaziyatdagi hatti-harakat bolani

vaziyatli aloqadorlikdan ozod etadi, bola o'yindagi vaziyatni ko'rishga emas, balki uni fikrlash, bilish, idrok qilishga o'rganadi.

O'yin jarayonida bola predmetlarning mazmun-mohiyatini ulardan ajralgan holda tushunishga, anglashga harakat qiladi, lekin bir vaqtning o'zida mavjud predmet orqali u faqatgina mavjud harakatni bajaradi, bu bilan biz bola predmet bilan emas, balki uning mohiyati bilan ishlashni boshlaydi demoqchimiz. Lekin ular bilan biron bir harakat qilmoqchi bo'lsa, u albatta bevosita shu predmetdan foydalanadi, uning mazmunini esa faqatgina maktab yoshida to'liq anglay oladi.

Vigotskiy maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyati ustunlik qiluvchi faoliyat deb hisoblaydi. Hayotning asosiy vaziyatlarida bola o'zini o'yindagidan farqli ravishda mutlaqo o'zgacha tutadi. Biroq o'yin bola rivojlanishiga asosiy zamin yaratadi. O'yin jarayonida bola har doim o'zidan balandda, o'zining har doimgi hatti-harakatlardan yuksakroq darajada bo'ladi, boshqacha qilib aytganda u o'zidan bir pog'ona yuqoriroq bo'ladi.

Shuning uchun ham maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyati yetakchi rolni o'ynaydi. Shunday qilib, Vigotskiy o'yinning qoq markazi sifatida, soxta vaziyatlarni ajratib chiqaradi. Aynan bu soxtalik bola ongini qay darajadiligini yaqqol ko'rsatadi. Ushbu fikr D.B.Elkonin teoriyasi asosini tashkil qilib, «O'yin psixologiyasi» kitobida aniq ifodalangan. Elkoninning o'yin haqidagi fikri «Inson o'yini – bu shunday faoliyatki, samarali faoliyatning bevosita shart-sharoitlari natijasida insonlar orasida ijtimoiy munosabatlar hosil bo'ladi». O'yinni tahlilida, uni alohida qobiliyatlar (idrok, xotira, tasavvur va b.) yig'indisiga joylashtirish mumkin, hamda bu qobiliyatlarning solishtirma og'irligini va rivojlanishini o'rganib chiqish lozim. Lekin

bunday tahlil o'yin tabiati va sifatining o'ziga xosligini tushunishga yordam bera olmaydi. Umumiy xususiyatga ega birliklarni ajratib chiqish zarur. Ushbu birlik roldir. Aynan rol va u bilan organik jihatdan bog'liq bo'lgan hatti-harakatlar rivojlangan o'yin shaklining birligi hisoblanadi.

D.B.Elkoninning aytishicha, rolli o'yinlar tarkibiga syujet va mazmun kiradi. Syujet – bu voqelikning sohasi bo'lib, o'yin jarayonida bola tomonidan aks ettiriladi. Mazmun hatti-harakatning markaziy xarakterli momenti hamda bolalarning kattalar, ularning mehnati va ijtimoiy hayot orasidagi munosabati sifatida bola tomonidan aks ettiriladi. Rolli o'yinning rivojlangan, kengaygan shaklining mazmuni predmet va undan insonning foydalanishi emas, balki ushbu predmetlar orqali kattalarning amalga oshiradigan xatti-harakatlari bo'lib hisoblanadi.

O'yin faoliyati bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolatga yetishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O'yin orqali aqli zaif bolalar tafakkur, tasavvur, xotira, diqqati kabi barcha psixik jarayonlari rivojlanadi va atrof - muhit haqidagi bilimi yanada kengayib boradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida o'yin faoliyatidan to'g'ri va unumli foydalanish, har bir o'tkaziladigan mashg'ulotlar va sayr faoliyatining samaradorligini oshirib boradi.

O'yin aqli zaif bolaning psixologik ko'rinishiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi, eng yaqin rivojlanish sohasini ta'minlovchi yetakchi faoliyat bo'lishi kerak.

Aqli zaif bolada mustaqil, ketma-ketlikka amal qilgan holda o'yin tashkil etishini sekinlashtiruvchi sabablar ichidan, avvalambor, asosiysini – bosh miya po'stlog'i integrativ funksiyasining rivojlanmaganligini ajratib ko'rsatish kerak, shu sabab kattalar bilan emotsional ish yuzasidan muloqot, statik funksiyalar, nutqni o'zlashtirish muddatlari kechikishini keltirib chiqaradi.

O'yinni tashkil qilishga bola rivojlanishi uchun zarur pedagogik sharoitlarning yo'qligi ham salbiy ta'sir qiladi, buni ayniqsa, maktab yoshigacha bo'lgan aqli zaif bolalar yopiq turdagi muassasalarda tarbiyalanganlarida kuzatish mumkin. Zarur yangi emotsional taassurotlardan mahrum aqli zaif bola - oligofren shaxslar, predmetlarning tor doirasi bilan tanish; uning hayoti cheklangan bir xillikda kechadi. Shu tariqa undagi mavjud organik nuqsonga atrof olam haqidagi nochor va ba'zan buzilgan tushunchalar qo'shiladi.

Kichik yoshdagi aqli zaif bolalar maxsus maktabgacha ta'lim muassasalariga kelganlarida, odatda, umuman o'ynashni bilmaydilar, ular o'yinchoqlarning funksional belgilanishidan qat'iy nazar bir xillikdagi amallarni

bajaradilar. Bola uzoq vaqt davomida kubik, o'rdak, mashinani bir xillikda taqillatib o'tirishi mumkin.

Bunda ayniqsa, qo'g'irchoqqa bo'lgan munosabat e'tiborga molik, u xuddi boshqa o'yinchoqlardek qabul qilinadi. Qo'g'irchoq shodon tuyg'ularni paydo qilmaydi va odam o'rinbosari sifatida qabul qilinmaydi. Jonivor-o'yinchoqlar ham aqli zaif bolada qiziqish xislarini uyg'otmaydi. Ular bilan bajariladigan amallar xuddi kubik va mashinalardagidek bo'ladi. O'rgatilmagan aqli zaif bolalar orasida o'yinchoqning ta'mini "tatib" ko'rishni yoqtiradiganlari ham uchraydi. Ular rangli kubikning bir qismini tishlab uzib olmoqchi bo'ladilar, matryoshkani yalaydilar. O'yinchoqlar bilan bu kabi amallar asosan chuqur aqli zaif bolalarga xos, lekin bir qator holatlarda ular shunchaki o'yinchoqlar bilan o'ynay bilmaslik, ularni funksional belgilanishi bo'yicha qo'llay olmaslik natijasi ham bo'ladi.

Aqli zaif bolalarning aksariyat qismida amallar bilan birgalikda jarayonli harakatlar ham kuzatiladi, bunda bola uzluksiz bir xil o'yin jarayonini takrorlaydi: qo'g'irchoqni

yechintirib-kiyintiradi, kubiklardan qurilma yasab- buzadi; idish-tovoqlarni olib joyiga qo'yadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanmagan maktab yoshigacha aqli zaif bolalarning o'ziga xos tomoni ularning noadekvat harakatlar bajarishidir. Bunday harakatlarni na mantiq, na o'yinchoqning funksional belgilanishi bilan tushuntirish mumkin, ularni zinhor normal bola o'yinida kuzatish mumkin bo'lgan o'rinbosar predmetlarni qo'llash bilan adashtirmaslik kerak. Normal maktab yoshigacha bola jon-jon deb qoshiq o'rniga tayoqcha, sovun o'rniga kubik va x.k. ishlatadi. Bunday harakatlarni o'yin talablari taqozo qiladi va bu uning oliy darajada rivojlanayotganini ko'rsatadi. Lekin maxsus maktabgacha ta'lim muassasalariga kelgan aqli zaif bolalarda aynan shunday o'rinbosar predmetlarni ishlatish harakatlari umuman uchramaydi.

O'yin jarayonida intellektual kamchiliklarga ega bolalar o'yinchoqlarni ovoz chiqarmay, jimgina o'ynaydilar, ba'zi-ba'zida alohida emotsional tovushlar chiqaradilar, ba'zi o'yinchoq yoki harakatlar nomini ifodalovchi so'zlarni talaffuz qiladilar. O'rgatilmagan aqli zaif bola o'yinchoqlardan tez charchaydi. Uning o'ynash davomiyligi odatda o'n besh daqiqadan ortmaydi. Bu narsa o'yinchoqlarga bo'lgan haqiqiy qiziqish yo'qligidan dalolat beradi.

Maxsus ta'limsiz aqli zaif bolalarda o'yin yetakchi o'rinni egallay olmaydi va albatta psixik rivojlanishiga ta'sir qila olmaydi.

Bunday ko'rinishda o'yin anomal bola rivojlanishidagi nuqsонlarni korreksiyalash va kompensatsiyalash vositasi bo'la olmaydi. Aqli zaif bolalarga ta'lim va tarbiya berish dasturida "O'yin" bo'limiga markaziy o'rin ajratilishi bejiz emas. Bu bilan o'yin faoliyatining bola rivojlanishini boyitish, anomal bola psixikasidagi turli nuqsонlarni korreksiyalash va kompensatsiyalash,

maktabda o'qishga tayyorlashdagi ahamiyati ko'rsatilgan.

Ma'lumki, bolaning o'yin faoliyati ko'p qirrali, o'yinlar ham turli-tuman. Ularning orasida asosiy o'rinni syujetli-rolli o'yinlar egallagan. Uning bola rivojidadagi alohida rolini hisobga olgan holda, dastur aqli zaif bolada bosqichma-bosqich syujetli-rolli o'yin mexanizmini shakllantirishga e'tibor qaratadi.

Defektolog-o'qituvchi oldida aqli zaif bolalarni o'yinlar olamiga asta-sekin olib kirish, unga turli o'yin jarayonlarini, tengqurlari bilan muloqot qilishning turli vositalarini o'rgatish vazifasi yotadi.

Syujetli-rolli o'yinlardan tashqari aqli zaif bolalar didaktik va harakatli o'yinlarni ham o'rganadilar.

Didaktik o'yinlar ayni vaqtda bolalarni o'qitishning shakli hisoblanadi. Uning xalq pedagogikasidagi kelib chiqishi o'yinlarning qo'shiqlar bilan, harakatlar bilan birlashishiga asoslangan ta'limiy o'yinlarni yaratgan. Didaktik o'yinda barcha strukturaviy elementlar, bolalarning o'yindagi faoliyati uchun xarakterli bo'lgan: maqsad, jamlanma, o'yin faoliyati, qoida, natija jamlangan.

Lekin ular bir qancha o'zgacha shaklni ko'rsatadi va didaktik o'yinlarning bolalarga ta'lim va tarbiyasidagi asosiy rolini sharoitga moslagan.

Didaktik topshiriqlarning mavjudligi o'yinlarning ta'limiy xarakterini, uning tarkibini bolalarning kuchli aqliy faoliyatiga yo'naltirilganini tasdiqlaydi. Didaktik o'yinda mashg'ulot davomida topshiriqning to'g'ridan-to'g'ri qo'yilishidagi farqda u bolaning o'yin topshirig'i sifatida namoyon bo'ladi. Didaktik o'yinning asosiy ahamiyati shundaki, u bolaning fikri va nutqida mustaqillik va faollikni hosil qiladi.

O'yin faoliyati har doim ham ko'rinuvchan xarakterni yuzaga keltirmaydi. Bu to'liq yo'naltirilgan kuzatish, taqqoslash,

ba'zan oldingi o'zlashtirilganlarni qayta eslash, o'ylash jarayonlarini to'liq ifodalovchi aqliy faoliyat hamdir. Murakkabligi bo'yicha ular aqliy tarkib va o'yin topshiriqlari, bolalarning yoshiga moslik darajalari turli xil va sharoitga moslashgandir.

Murakkabligi jihatdan ular turlicha va bosh mazmunning, o'yin maqsadining darajasi bilan bolalarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi.

O'yin harakatlarining hajmi ham turlichadir. Kichik guruhlarda – bu ko'p xollarda takrorlanuvchi 1-2 ta harakatdan, kattaroq guruhlarda esa 5-6 ta harakatdan iborat. Katta maktabgacha yoshdagilarning sport xarakteriga ega bo'lgan o'yinlardagi o'yin harakatlari boshidanoq vaqt bo'yicha taqsimlangan va ketma-ket amalga oshiriladi. Ularni o'zlashtirgan bolalar maqsadga intilib, aniq, tez kelishgan holda o'zlashtirilgan sur'atda o'yin vazifasini oladilar. Didaktik o'yinlarning elementlaridan biri qoidalar hisoblanadi. Ular o'rgatishning vazifasi va o'yin mazmuni bilan belgilanadi va o'z navbatida o'yin harakatlarining xarakterini va usullarini aniqlab beradi, bolalarning xulqini, bolalar o'rtasidagi va tarbiyachi bilan o'zaro munosabatlarni shakllantiradi va yo'naltiradi. Qoidalar yordamida bolalarda o'zgargan sharoitlarda mo'ljal olish qobiliyati, bevosita istaklarni jilovlash ko'nikmasi, emotsional – irodaviy zo'riqishni namoyon qilishni ushlab tura olish shakllanadi. Buning natijasida o'z harakatlari bilan boshqa o'ynovchilarni boshqarish qobiliyati rivojlanadi.

O'yin qoidalari o'rgatuvchi, tashkil etuvchi va intizomiy xarakterga ega. O'rgatuvchi qoidalar bolalar oldida kim, nimani va qanday qilish kerakligini ochishga yordam beradi: ular o'yin harakatlari bilan munosabatda bo'ladi, harakatlarning ro'lini kuchaytiradi, bajarish usulini aniqlashtiradi. Tashkil yetuvchi qoidalar esa bolalarning o'yindagi o'zaro munosabatlarini, tartibni,

ketma-ketlikni belgilaydi. Intizomiy qoidalar nimani va nima uchun qilish mumkin emasligi haqida ogohlantiradi.

Tarbiyachi qoidalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi, o'yinni ular bilan zo'riqtirmasligi, faqat zarur holdagina ularni qo'llashi lozim. Ko'p qoidalarni kiritish, ularni bolalarga majburan bajartirish salbiy natijalarga olib keladi. Haddantashqari intizom bolalarda o'yinga qiziqishni pasaytiradi, xatto o'yinni buzadi, ba'zan esa qoidalarni bajarishdan qochish maqsadida ayyorlikni

keltirib chiqaradi. Didaktik o'yin natijasi – shunchaki har qanday usul bilan erishilgan g'alaba emas, balki bolalar tomonidan erishilgan bilimlarni o'zlashtirish, aqliy faoliyat rivojlanishi, o'zaro munosabatlardagi yutuqlar darajasining ko'rsatkichidir. O'yin vazifalari, harakatlari, qoidalari, o'yin natijasi bir-biri bilan bog'langan. Bu tarkibiy qismlardan birortasining yo'qligi o'yinning butunligini buzadi, tarbiyaviy ta'sirini pasaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M Ayupova "Ilogopediya" Toshkent 2007 y
2. Muminova L. R., Shomaxmudova R. SH. "Imkoniyati cheklangan bolalarni individual-korreksion rivojlantirish dasturining metodik asoslari" -T., 2007
3. Akramova X. (2020). Zamonauiy multimedia vositalaridan foydalaniish - muvaffaqiyat garovi . Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI, 1(12), 1-5. izvlacheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162
4. Akramova, X. (2020). Maktabgacha ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994
5. Akramova, X. (2020). Mehnat darslarida aqli zaif bolalar nutqini o'stirishning o'ziga xosligi. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4025

ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПЕРЕРАБОТКУ ПРОДУКЦИИ ПТИЦЕВОДЧЕСКОГО ПРЕДПРИЯТИЯ

САРИМСАКОВ Х.У. доцент кафедры “Информационные технологии”,
АТАЖОНОВА С.Б., доцент кафедры “Информационные технологии”,
МИРЗААХМЕДОВ А.А., магистрант группы М-31-22 Андижанский машиностроительный институт

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос внедрения цифровых технологий в сектор переработки продукции на птицеводческих предприятиях. Основное внимание уделяется применению современных информационных систем, автоматизации процессов и внедрению инновационных технологий для оптимизации производственных процессов, улучшения качества продукции и повышения эффективности бизнеса. Статья также рассматривает примеры успешной реализации цифровых решений в птицеводстве и их влияние на конкурентоспособность предприятий данной отрасли.

Ключевые слова: цифровые технологии, переработка продукции, птицеводство, информационные системы, автоматизация производства, инновации, конкурентоспособность.

Введение. Современное птицеводство сталкивается с вызовами, требующими внедрения передовых технологий для оптимизации производства и обеспечения высокого качества продукции. В условиях растущей конкуренции и строгих стандартов безопасности продукции, внедрение цифровых технологий становится необходимостью для эффективного управления всеми аспектами производственного процесса.

Цель данной статьи - проанализировать потенциал и преимущества цифровизации в секторе птицеводства, предоставив читателям обзор современных решений, инновационных подходов и успешных кейсов. Мы рассмотрим влияние цифровых технологий на повышение эффективности переработки продукции, улучшение условий труда, а также снижение затрат. В результате, статья предоставит читателям понимание того, как интеграция цифровых решений может повысить конкурентоспособность и устойчивость птицеводческих предприятий в

современном бизнес-окружении.

Методы исследования. Цифровизация - одно из главных направлений развития сельского хозяйства, в том числе и птицеводства, которое оптимизирует бизнес-процессы на птицефабриках, увеличивает их эффективность и помогает производить наиболее востребованный и конкурентоспособный продукт на рынке. Важнейшее направление цифровизации в птицеводстве - программное обеспечение производства. Специализированные системы управления организуют и автоматизируют все бизнес-процессы на птицефабрике: от планирования и снабжения до учета и отчетности. Это сокращает затраты на ручное управление и повышает точность и оперативность принятия стратегических решений [1-3].

Цифровизация птицеводства может включать в себя различные методы и технологии для оптимизации производственных процессов, управления данными, улучшения условий содержания птиц и обеспечения высокого качества

продукции [4, 5].

1. Системы мониторинга условий содержания:

- Использование сенсоров и систем мониторинга для отслеживания температуры, влажности, качества воздуха и других параметров в помещениях для птиц.

2. Идентификация и трекинг птиц:

- Применение RFID-меток или других идентификационных технологий для трекинга каждой птицы, что позволяет вести учет их состояния, продуктивности и здоровья.

3. Системы автоматизированного кормления и поения:

- Внедрение автоматизированных систем, которые регулируют подачу корма и воды в зависимости от потребностей и физиологического состояния птиц.

4. Мониторинг здоровья птиц:

- Применение современных методов мониторинга здоровья птиц, таких как системы обработки изображений и датчики, для раннего выявления заболеваний [6].

5. Использование датчиков для управления условиями в помещениях:

- Автоматизированные системы, использующие датчики для регулирования температуры, вентиляции и освещения в зависимости от потребностей птиц.

6. Системы управления производственными данными:

- Внедрение цифровых систем управления, которые собирают, обрабатывают и анализируют данные по производству, позволяя принимать более обоснованные решения.

7. Использование Интернета вещей (IoT) для умных ферм:

- Сеть подключенных устройств и датчиков, которые обеспечивают

взаимодействие различных аспектов производства и сбора данных для анализа.

8. Цифровые системы управления складом [7, 8]:

- Оптимизация управления складскими запасами и логистикой с помощью цифровых технологий.

9. Электронная документация и отчетность:

- Замена бумажной документации электронными системами, упрощающими процессы отчетности и администрирования.

10. Применение искусственного интеллекта (ИИ) для прогнозирования:

- Использование алгоритмов машинного обучения и ИИ для прогнозирования производственных трендов, спроса на продукцию и оптимизации процессов [9, 10].

Результаты исследования. Цифровизация в птицеводстве способствует повышению эффективности, снижению затрат, улучшению условий содержания птиц и обеспечивает более высокое качество продукции.

Информационные системы - сочетание программного обеспечения и аппаратных средств, которые помогают организациям обрабатывать большие объёмы информации и эффективно управлять ими, ускоряя и упрощая бизнес-процессы. Внедрение цифровых технологий в переработку продукции птицеводческого предприятия требует комплексного и осмысленного подхода (см. рисунок-1).

1. Автоматизация производственных процессов:

- Внедрение систем автоматизации для контроля и управления различными этапами производства, начиная от сбора яиц и выращивания птиц до упаковки и



Рисунок-1. Внедрение цифровых технологий в переработку продукции птицеводческого предприятия

хранения.

2. Использование систем мониторинга и управления:

- Установка сенсоров и систем мониторинга для отслеживания параметров производства, таких как температура, влажность, качество воздуха и другие факторы, в режиме реального времени.

3. RFID-технологии для идентификации продукции:

- Применение технологий RFID для точной идентификации каждого продукта, отслеживания его перемещения по цепи поставок и обеспечения безопасности и прозрачности.

4. Системы управления качеством:

- Внедрение цифровых систем управления качеством, которые автоматически мониторируют и контролируют процессы, направленные на обеспечение соответствия стандартам качества.

5. Использование больших данных (Big Data):

- Сбор и анализ больших объемов данных, чтобы оптимизировать процессы, предсказывать спрос, улучшать планирование производства и принимать основанные на данных решения.

6. Системы управления складом и логистикой:

- Внедрение цифровых систем для эффективного управления складскими запасами, распределением продукции и оптимизации логистики.

7. Облачные технологии:

- Использование облачных платформ для управления данными, обеспечения доступа к информации в реальном времени и управления процессами удаленно.

8. Обучение персонала:

- Проведение обучения персонала по использованию новых цифровых технологий и систем, чтобы максимально использовать их потенциал.

9. Интеграция Интернета вещей (IoT):

- Внедрение сети связанных устройств для мониторинга и управления различными

HOZIRGI MEHNAT BOZORINING ZAMONAVIY MENEJERLARGA BO‘LGAN TALABLARI

YAKUBOV UMID BOBAYEVICH

Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida menejerlarning boshqaruvda va shu bilan birgalikda ijtimoiy muammolarni yechimini topishga bo‘lgan talabi to‘g‘risida tahlillar keltirilgan. Shuningdek, hozirgi bozor iqtisodiyoti kadrlar tayyorlash tizimiga yangi talablar qo‘yadi, bu tizimda oliy ta’lim muassasalari alohida o‘rin egallashi lozim, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy iqtisodiyotni yaxshi biluvchi, boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik usullari va texnika vositalarini qo‘llay oluvchi menejerlar tayyorlanishi lozim.

Kalit so‘zlar: Rahbar, lider, boshqarish, tamoyil, qonuniyat, mehnat, qaror, bozor, menejer, usul, talab, nazorat, shaxs, jamoa, majlis, mutaxassis, tajriba

Bozor iqtisodiyotiga kirib borishning strategik kursi albatta yangi yondoshuvchilarni talab qiladi. Bu talablar asosan iqtisodiyotda, boshqaruvda va ijtimoiy muammolar yechimida yaqqol namoyon bo‘ladi. Insoniyat qo‘li tegmagan yoki qatnashmaydigan yuqori texnologiya va mexanizmlar juda ta’sirchan bo‘la olmaydi. Menejment tizimida xo‘jalik mexanizmining islohoti asosiy omil bo‘ladi, bundan tashqari faoliyatchanlik va ta’sirchanlik islohotlari boshqaruv kadrlari, ya’ni menejerlar tomonidan aniqlanib boriladi.

Bozor iqtisodiga o‘tgan, ishlab chiqarishda strukturali siljish, ilmiy-texnik yutuqlarni amaliyotda qo‘llash, xo‘jalikning ijtimoiy ahamiyatining o‘sishi, jamiyatning demokratizatsiyalashtiriluvchi, bularning barchasi menejer ishlarini birmuncha qiyinlashtiradi va bir qancha islohotlarni talab qiladi.

Xo‘jalik mexanizmining har qanday islohoti ongimizdagi eskicha fikrlashning inkor etilib borishidan boshlanadi: yangi vazifalarning aniq tushunilishini talab qiladi. Maqsad va vazifalar belgilanganidan

so‘ng, bularning amaliyotda qo‘llanilishi ko‘p tomonlama boshqaruv apparatiga bog‘liqdir.

Kadrlar tanlanishi shunaqa bir jarayonki, mansabning talablariga javob beradigan kishilarni qidirish. Ayni paytda bu tanlov orqali ularni ratsional joylashtirish muammosi ham hal qilinib boriladi. Kadrlar joylashtiriluv, eng yuksak ishlab chiqaruvni ta’minlash maqsadida, ularni (kadrlarni) maqsadga muvofiq shaklda boshqaruv apparatida joylashtiriluv darajasiga bog‘liq.

Kadrlar tanlovi, bozor sharoitida ishlay oladigan kishilar va ularda jamoa yuzaga keltirish bilan bog‘liq tizimdir. Bozor iqtisodiyoti munosabati menejerlardan, tadbirkorlik va tez qaror qabul qilishni talab qiladi. Muhim bo‘lgan jihati nafaqat islohot tamoyillarini umumiy tushunish, balki ularni kadrlarni har kungi hayotida ishlata olish, ishning tarzini va uslubini o‘zgartira olish demakdir. Bularni inobatga olgan holda mas’uliyatli faoliyat ko‘rsatish, yangi huquqlardan foydalanish va sezilarli darajada intizomni mustahkamlash zarur hisoblanadi.

Menejerlar yaxshi taktikkina bo‘lib

qolmay, strategik ham bo'lishlari kerak. Ular bozor ehtiyojlarini inobatga olishlari, bozorning shakllanishida ta'sir etish, talabdagi o'zgarishga egiluvchan shaklda javob bera olish, u maqsadni aniq tasavvur qila olish, ertangi kun muammolarini yechish uchun bugundan taraddud ko'ra olish, texnik yutuq va iqtisodiy ijtimoiy rivojdan ortda qolmaslik uchun samarali xo'jalik yuritishi kerak. Bozor sharoitlarida yaxshi natijalarga erishish uchun boshqaruv apparatining zarur doimiyligini saqlashi bosh masala hisoblanadi.

Attestatsiya — menejerlarning shaxsiy va ishbilarmonlik faoliyatini baholash usuli sifatida baholanadi. Boshqaruv mansabiga tavsiya qilinayotgan kishining ishbilarmonlik va kishilik xususiyatlarini baholash, avvalambor shartnoma tuzilishi kerak. Bugungi kunda kadrlar faoliyatchanligini baholashda attestatsiya usuli keng tarqalgan usullardan biridir. Ushbu attestatsiyani o'tkazish uchun rahbar buyrug'ibilan birgalikda rais, sekretar (kotib) va boshqalardan tarkib topgan attestatsiya komissiyasi tuziladi. Ushbu komissiya tarkibini yuqori malakali mutaxassislardan, imtihon bo'layotganlarning bevosita rahbarlaridan, yuqori malakali ishchilardan hamda jamoa tashkilotlari vakillari tashkil etadi. Attestatsiya bo'layotgan har bir kishiga o'zining rahbari xarakteristika tuzadi, bu tavsifnomada o'sha kishining ijtimoiy ish faoliyati o'z aksini topib boradi.

Attestatsiya bo'layotgan ishchi avvaldan, (bir hafta oldindan) tavsifnoma bilan tanishishi shart. Komissiya ushbu materiallarni ko'rib chiqib, attestatsiya bo'layotgan kishini tinglaydi va quyidagicha qaror beradi:

o'zining mansabi talablariga javob beradi;

ish sharoiti yaxshilanganida va komissiyaning tavsiyalarini bajarganida, 1 yildan so'ng qayta attestatsiya qilinadi;

o'z mansabi talabiga javob bermaydi.

Komissiya ba'zi ishchilarning martabasini yuksaltirishga va ba'zi xizmatlari uchun taqdirlashga va boshqa ishga o'tkazishga tavsiya qilishi ham mumkin.

Menejerlarning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini yana ham obyektiv baholash uchun attestatsiyadan tashqari boshqaruv amaliyotida uch guruhga bo'linadigan turli xil usullar qo'llanilishi mumkin:

1- guruh. Xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholaydigan, obyektiv xarakterga ega bo'lgan ta'rif beruvchi yoki sifat usullarini o'z ichiga oladi. Ularga „kadrlar hisob varag'i“ va „Avtobiografiyadagi“ boshqaruvchi talabiga da'vogarlik qiluvchi nomzodning biografik ma'lumotlarini o'rganish, rahbarlardan o'sha odam haqida ma'lumot yig'ish kiradi.

2- guruh. Xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini yetarli darajadagi obyektivlikdan miqdoriy bahosining aniqlashini ta'minlaydi. Eng ko'p tarqalgan usul ball bo'yicha baholash usuli hisoblanadi. Bu usul bo'yicha xodimning har bir bajargan vazifasi va erishgan yutuqlariga qaragan holda ballar qo'yilib boriladi va uning o'rtacha balli chiqarilib aniqlanadi.

3- guruh. Yuqoridagi 2 ta guruhni, ya'ni ta'rif beruvchi va miqdoriy usullarni o'z ichiga oladi. Ulardan eng ko'p tarqalgani test usuli bo'lib, oldindan tayyorlab qo'yilgan masalalar natijalariga qarab baho beriladi. Ishbilarmonlik o'yinlari usuli — qo'yilgan ishlab chiqarish masalasi yoki nizoli vaziyatga berilgan to'g'ri

javobga qarab baho qo'yiladi. Rahbarlar va mutaxassislarning ishbilarmonlik hamda shaxsiy xususiyatlarini ball bo'yicha baholash uchun xodim xususiyatlarini ball bo'yicha baholash yoki attestatsiya o'tkazish bilan aniqlash mumkin. Buning uchun xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholash uchun eng kamida 2 ta qo'l ostidagi ishchisi, 2 ta rahbari va 2 ta hamkasbini baholashlarini hisobga olishadi. Oxirgi natijaviy bahoni komissiya beradi hamda kadrlarni baholash kriteriyasi bitta bo'lishi kerak, ya'ni konkret ishlar bo'lishi maqsadga muvofiq.

Attestatsiya menejrlarning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholash usuli bo'lishi bilan birga ularni qayta tayyorlashga yo'naltiriladi. Menejerni tayyorlash va qayta tayyorlash - bu ta'limning ilmiy asoslangan tizimi bo'lib, ma'lum sohada faoliyat ko'rsatish uchun bilim, tajriba va yo'l- yo'riq o'rgatadi.


Menejrlarni qayta tayyorlash va tayyorlashdan asosiy maqsad ularning nazariy bilimlarini oshirish, fan va texnika sohasida erishilgan yutuqlarini to'raligicha qamrab olish, boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etishdan iborat.

Bozor iqtisodiyoti kadrlar tayyorlash tizimiga yangi talablar qo'yadi, bu tizimda oliy ta'lim muassasalari alohida o'rin egallashi lozim, oliy ta'lim muassasalarida yangi tipdagi, iqtisodiyotni yaxshi

biluvchi, boshqaruvning iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik usullari va texnika vositalarini qo'llay oluvchi menejerlar tayyorlanishi lozim.

Boshqaruvni islohot qilish sharoitida o'quv jarayoni mazmuni va uni tashkil etishga qonunda ta'kidlab o'tilganidek: korxonada kadrlar kasbiy mahorati va madaniy darajasi uzluksiz o'sib borishi haqida doimo g'amxo'rlik qilib boradi, xodimlar malakasi va ishlab chiqarish manfaatlarini hisobga olgan holda ular lavozimini o'zgartirib boradi. Bu maqsadda korxonada kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi va bevosita ishlab chiqarishda o'quv yurtlarida xodimlar malakasini oshirishga imkon yaratadi, o'quv-uslubiy bazani kengaytiradi, biznes maktablari, kurslar, markazlar tashkil etadi. Korxonada o'quv jarayonini ish bilan bog'langan holda olib borish uchun zarur sharoit yaratadi va qonunda ko'zda tutilgan bir qancha imtiyozlar beradi. Ishchilar o'z xohishlariga ko'ra oliy o'quv yurtlariga yuborishlari mumkin. Korxonada yoshlarni mehnatga tayyorlash, kasbga qiziqishlarini shakllantirishda o'quv yurtlariga yordam ko'rsatadi.

Shunday qilib, har bir mutaxassisni, zamonaviy menejerni har tomonlama baholash va tanlashning quyidagi to'rtta talablari asosida amalga oshirilishi to'g'ri deb e'tirof etilmoqda.



1-rasm. Mehnat bozorining zamonaviy menejrlarga bo'lgan talablari

Professional tayyorligi. Bu guruhga kiruvchilar uchun asosiy talab bilimlarni mukammal egallash hisoblanadi. Menejerning novator bo'lishligi uchun u o'rganishi talab qilinadigan fanlarning xili ko'p.

Psixologik sifatleri. Menejer do'stona munosabatlar, ijtimoiy ishonchlik, optimizm, tabiatsevarlik, muloqotlarda topqirlilik va aqllilik, hissiyot va sezgilarini bildirishda samimiyatlilik kabi jamlagan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi talab qilinadi.

Umumiy madaniy darajasi. Shuni yodda tutish kerakki, menejer o'ziga bo'ysunuvchilar o'rtasida sog'lom hayot tarzini targ'ibot qiladi. Shuning uchun ham u ko'rinarli qiyofada bo'lishi shart. Zamonaviy menejerda tashqi qiyofa jihatidan savlatlilik, sifatli va yengil, bir xil rangdagi ustki kiyim, aksessuarlar va boshqalar namoyon bo'lishi lozim.

Umumiy ilmiy darajasi. Menejer o'rganishi va bilishi kerak bo'lgan muhim va asosiy fanlarning o'rnini ko'rib chiqish mumkin.

Mutaxassis egallagan bilimlar tez eskirgani sababli, uni doimo takomillashtirib borish lozim. Agar rahbar o'z bilimini takomillashtirib bormasa, eski bilimlariga tayanib qolishi, ishlab chiqarish bundan zarar ko'rishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Olingan maxsus bilimga doimo to'ldirilib borilishi lozim bo'lgan asos sifatida qarash kerak. Bozor munosabatlari sharoitida texnik ma'lumotga ega bo'lgan ishlab chiqarish rahbarlari ayniqsa iqtisodiyot, marketing, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish masalalarini albatta chuqur o'rganishlari kerak.

O'z dunyoqarashini kengaytirish bo'yicha mustaqil ishlash ham katta

ahamiyat kasb etadi.

Menejer mehnatini tashkil etishda boshqaruv apparatidagi har bir ijrochining ishi cheklangan va nisbatan bir turda bo'lishiga erishish talab qilinadi. Bu mehnat unumdorligi ortishi, ish sifati yaxshilanishi va har bir ijrochi tajribasi ortib borishiga imkon yaratadi. Ixtisoslashuv majburiyatlar doirasini shunday belgilash lozimki, bunda har bir ishlovchi masalasi imkoni boricha to'liq ishga solingan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Mehnatni kooperatsiya qilish boshqaruv tashkilotlari bilan boshqaruv apparati turli bo'linmalari xodimlari o'rtasida aloqa o'rnatilishini nazarda tutadi. Boshqaruv jarayonida, ham shu korxonada, ham undan tashqaridagi alohida xodimlar, xizmat va bo'linmalar faoliyati birlashtiriladi.

Menejerlar mehnati taqsimlash va kooperatsiya qilish yo'llari tarkibiy bo'linmalar haqida qoidalar hamda boshqaruv apparati xodimlari lavozim qo'llanmasi tomonidan belgilangan bo'ladi. Korxonalar to'g'risidagi qonun asosida korxonalar va uning bo'linmalarida har bir rahbar, mutaxassis va texnikaviy ijrochi uchun lavozim qo'llanmalari ishlanadi. Lavozim qo'llanmalari, huquq va majburiyatlari yakka boshchilik tamoyili asosida mansabdor shaxslarning bo'ysunishi, topshirilgan vazifa uchun javobgarligi ham belgilanadi.

Lavozim qo'llanmalari va qoidalar davriy ravishda qayta qurilib, ishlab chiqarish, mehnat hamda boshqaruv jarayonlari takomillashib borganligini hisobga olgan holda tuzatilib, to'ldirilib borilishi lozim.

Boshqaruv apparati mehnatini maqbullashtirishga yagona yondashuvni ta'minlash maqsadida ta'rif-malaka

ma'lumotnomasi ham qo'llanilib, ularda xodimlar bajarishi lozim bo'lgan ishlar hajmining murakkabligi, rahbarlik lavozimi turli boshqaruvchilik vazifalarini bajaruvchilar uchun talab etiladigan daraja hamda ish staji ko'rsatiladi.

Boshqaruv ishi texnologiyasida ish vaqtining katta qismi (70%) hujjatlar bilan ishlashga sarflanadi. Shu sababli hujjatlar almashinuvini doimiy tarzda takomillashtirib borish lozim.

Menejer mehnatiga, shuningdek, korxon va tashkilotda axborot oqimlari yo'nalishi va hujjatlar aylanish texnologiyasi maqbulligi ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda hujjatlar o'tadigan bosqichlar sonini ularni birlashtirish natijasida qisqartirish katta samara berib, natijada asoslanmagan muvofiqlashtiruv bartaraf etiladi. Agar muvofiqlashtirish muhim bo'lsa, hujjatlar o'tish bosqichlari o'rnini almashtirish ham yaxshi natija beradi.

Hujjatlar almashinuviga ketadigan vaqtni qisqartirish maqsadida ular o'tish texnologiyasi, axborot uzatilishining maqbul yo'llari belgilanadi. Rahbar faqat boshqalarga topshirish mumkin bo'lmagan hujjatlarga imzo chekadi. Xatlar tayyorlash bilan bog'liq ish vaqtini tejashda maxsus namunali matnlar standart blanklardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Korxon va tashkilotlar o'rtasida yozishmalarda kelgan hujjatning javobi bilan qaytarish keng qo'llaniladi.

Hujjatlarni bir xillashtirish va standartlash — menejer mehnatini tashkil etishning muhim yo'nalishidir. Standart blankalarni qo'llash xatolar kamayishiga va natijada boshqaruv xarajatlarining qisqarishiga olib keladi.

Axborot hajmi muntazam ortib borayotgan sharoitda menejer mehnatini

mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ayniqsa muhim jarayondir. Mutaxassislar fikriga ko'ra boshqaruv apparatida tashkiliy va hisoblash mashinasi, aloqa vositalari yordamida 70% ishni mexanizatsiyalash mumkin ekan. Menejer mehnatini takomillashtirishni hisobga olib, ish stollari, uskuna, javon qulay va qo'l yetadigan qilib joylashtirilishi kerak.

Ish joylari joylashtirilishi va ularni texnika vositalari hamda yordamchi uskunalar bilan jihozlashda uzluksiz ishlashni ta'minlash talablarini avvalo hisobga olinishi kerak. Tajribadan ma'lumki, ish joyini texnologiya, ergonomika, psixofiziologiya, estetika talablariga muvofiq joylashtirish mehnat unumdorligini oshirish (50% va undan ko'pga) imkonini beradi.

Menejerlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar murakkabligi va javobgarlik ortishi bajariladigan ishlarning turli-tumanligi ulardan vaqtning unumli taqsimlanishini talab qiladi. O'z faoliyatini rejalashtirishni bilmaydigan, faqat joriy masalalar bilan shug'ullanuvchi menejerlar boshqaruv jarayonida vujudga keluvchi u yoki bu vaziyat natijalarini tahlil qilishgagina ulgurib, kelajakda qilinishi lozim bo'lgan ishlarni hal etish uchun vaqt yetishmaydi.

Menejer faoliyati maqsadini belgilashda avvalo undan yuqoriroq boshqaruv tizimi oldida turgan vazifalardan kelib chiqishi lozim, chunki aks holda butun tizim faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan (yoki qarama-qarshi) ish ko'rish mumkin.

Rahbar ishi sur'atining tezligi uning mehnat faoliyati to'laqonli dam olish bilan, shuningdekish kuni davomida mehnat turlari almashinishini talab etadi, chunki faqat shunday qilinganda mehnat yuqoriroq darajada samarali bo'lishi, ish qobiliyati

to'liq tiklanishi mumkin.

Menejer mehnatida maqbul ish sur'atini o'rnatish, u amalga oshiruvchi harakatlarning doimiy tartibini o'rnatish juda muhimdir.

Menejer ish vaqtining eng katta qismi hujjatlar bilan ishlashga sarflanadi. Olinuvchi axborot (xat, farmoyish, hujjat va hokazolar) hajmi juda katta. Bunday holda axborotni "filtrdan" o'tkazish juda muhimdir. Rahbarga faqat u hal qilishi mumkin bo'lgan axborot berilishi lozim. Bu bosqichda rahbarga axborotni ijrochilar o'rtasida taqsimlovchi kotib yoki yordamchi (referent) katta yordam ko'rsatadi. U malakali xodim bo'lishi, boshqaruvning barcha bo'linmalari va tashkilotlari faoliyati xususiyatini bilishi lozim.

Rahbar va unga bo'ysunuvchi boshqaruv apparati o'rtasida majburiyatlarni maqbul taqsimlash rahbar ish vaqtini samarali sarflash uchun imkon beradi. Ijrochilarga mavjud qonunchilik doirasida iloji boricha

ko'proq hujjatga imzo chekishi uchun imkon berishi kerak. Bu rahbar vaqtini tejash, ijrochilar tashabbuskorligi va javobgarligini oshirish imkoniyatlarini beradi.

Xulosa qilib aytganda, menejer mehnati samaradorligining muhim omillaridan biri - qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilishni tashkil etishdir. Nazorat menejering doimiy vazifasi bo'lib, uning ish rejasida hisobga olinishi lozim hamda materiallar bilan tanishuv, shaxsan ma'lumot berish uchun qabul qilish, inspeksiya qilish yo'li bilan amalga oshirilib boriladi. Nazorat qilishning qulay shakli - topshiriqlarni maxsus muddatli kartochkalar va perfokartalar vositasida hisobga olish hisoblanadi.

Menejer butun jamoa va boshqaruv apparati osoyishta ishlashi uchun sharoit yaratishi lozim, chunki butun boshqaruv tizimi va natijada butun ishlab chiqarish samaradorligi shu narsaga bog'liqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RB-637- sonli «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. www.lex.uz
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr. www.lex.uz.
 3. O'rinov U.A. Ishlab chiqarish ta'limida amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish usullari // Kasb - hunar ta'limi. Toshkent, 2020. №3 35-39 b.
 4. Nuridinov B.S., O'rinov U.A. Ta'lim sohasidagi malakali kadrlar tayyorlash omili // Kasb-hunar ta'limi. - Toshkent, 2003. -№6. B.11.
- Golish L.V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. Ekspress-qo'llanma. - T.- 2001-68 b.

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОТДЕЛА МАРКЕТИНГА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

АБДУЛЛАЕВ А., и.ф.д., проф. кафедры “Информационные технологии”,
АТАЖОНОВА С.Б., доцент кафедры “Информационные технологии”,
АБДУРАШИДОВ М.Л., магистрант группы М-31-22
Андижанский машиностроительный институт

Аннотация. В условиях быстрого технологического развития и цифровой трансформации современное образовательное учреждение сталкивается с вызовом эффективного управления своим маркетинговым подразделением. Данная статья рассматривает вопрос цифровизации отдела маркетинга в контексте образовательных учреждений. Авторы представляют анализ современных тенденций в цифровом маркетинге и рассматривают специфические стратегии и инструменты, которые могут быть успешно внедрены в образовательных учреждениях для улучшения привлекательности, репутации и конкурентоспособности. Статья также рассматривает вызовы, с которыми сталкиваются образовательные учреждения при внедрении цифровых маркетинговых стратегий, и предлагает практические рекомендации для их преодоления.

Ключевые слова: цифровизация, маркетинг, образовательное учреждение, стратегии, трансформация, конкурентоспособность.

Abstract. In the context of rapid technological development and digital transformation, a modern educational institution faces the challenge of effectively managing its marketing department. This article examines the issue of digitalization of the marketing department in the context of educational institutions. The authors present an analysis of current trends in digital marketing and consider specific strategies and tools that can be successfully implemented in educational institutions to improve attractiveness, reputation and competitiveness. The article also examines the challenges that educational institutions face when implementing digital marketing strategies and offers practical recommendations for overcoming them.

Key words: digitalization, marketing, educational institution, strategies, transformation, competitiveness.

Введение. Современная динамичная образовательная среда требует от учреждений развиваться в соответствии с новыми требованиями и ожиданиями студентов и общества в целом. В этом контексте цифровизация играет ключевую роль в обеспечении эффективного функционирования различных аспектов учебного процесса, включая маркетинг. Целью данной статьи является рассмотрение вопросов цифровой трансформации отдела маркетинга образовательного учреждения с акцентом на стратегии и инструменты, способствующие повышению его конкурентоспособности и привлекательности для студентов [1-3].

В современном образовательном ландшафте, который постоянно меняется под воздействием технологических инноваций и изменяющихся потребностей студентов, цифровизация становится неотъемлемой частью эффективного управления образовательными учреждениями. Она охватывает все аспекты учебного процесса, включая важный компонент – маркетинг.

Методы исследования. Цифровая трансформация отдела маркетинга образовательного учреждения становится стратегическим шагом в достижении конкурентоспособности и привлекательности для потенциальных студентов.

Вмешательство современных технологий позволяет учреждениям привлекать внимание и вовлекать студентов более эффективно, создавая инновационные подходы к продвижению образовательных программ.

Цифровизация отдела маркетинга образовательного учреждения включает в себя разнообразные методы, направленные на эффективное использование цифровых технологий для продвижения образовательных программ, привлечения студентов и укрепления репутации учреждения [5,6].

1. Создание и оптимизация веб-сайта:

- Разработка современного и информативного веб-сайта с адаптивным дизайном.

- Оптимизация контента для поисковых систем (SEO), чтобы увеличить видимость учреждения в поисковых результатах.

2. Социальные медиа маркетинг:

- Активное присутствие в социальных сетях (Facebook, Instagram, Twitter, LinkedIn) для привлечения внимания студентов и установления диалога с аудиторией.

- Разработка креативного и контекстно-значимого контента.

3. Email-маркетинг:

- Использование персонализированных рассылок для взаимодействия с потенциальными студентами.

- Создание автоматизированных кампаний для информирования о новых программах, событиях и акциях.

4. Цифровая реклама:

- Запуск таргетированных рекламных кампаний в социальных сетях и поисковых системах [7].

- Использование геотаргетинга и других технологий для точного достижения целевой аудитории.

5. Аналитика и метрики:

- Внедрение инструментов аналитики (например, Google Analytics) для оценки эффективности маркетинговых кампаний.

- Постоянный анализ данных для выявления трендов и коррекции стратегии.

6. Виртуальные туры и вебинары:

- Организация виртуальных туров по учебным помещениям и кампусу.

- Проведение вебинаров для представления программ обучения и ответов на вопросы потенциальных студентов.

7. Использование инструментов автоматизации:

- Внедрение CRM-систем для эффективного управления взаимодействием с потенциальными и текущими студентами [8, 9].

- Автоматизация процессов, таких как регистрация и обработка запросов.

Результаты исследования. Цифровизация маркетинга в образовательных учреждениях требует системного подхода и постоянного обновления стратегий в соответствии с изменениями в технологическом и образовательном окружении. Мы составили алгоритм процесса цифровизации отдела маркетинга образовательного учреждения (см. рис.1)

Алгоритм цифровизации маркетинга образовательного учреждения предполагает системный и пошаговый подход к внедрению новых цифровых практик и инструментов с целью оптимизации маркетинговой стратегии и повышения эффективности взаимодействия с аудиторией.



Рисунок-1. Алгоритм цифровизации маркетинга образовательного учреждения

Заключение. Цифровизация отдела маркетинга образовательного учреждения представляет собой неотъемлемый компонент успешной стратегии привлечения студентов и укрепления репутации учебного заведения. В процессе разработки алгоритма цифровизации был выявлен ряд ключевых шагов, начиная от анализа текущего состояния и определения цифровых целей, до внедрения технологических решений и обучения персонала. Внедрение цифровых стратегий позволяет эффективно взаимодействовать с аудиторией, улучшить процессы маркетинга и повысить общую конкурентоспособность образовательного

учреждения.

Цифровизация, основанная на стратегии, ориентированной на потребности студентов, обеспечивает персонализированное взаимодействие и повышает уровень удовлетворенности клиентов. Автоматизированные системы и инструменты анализа данных позволяют эффективно отслеживать и адаптироваться к изменениям в образовательном и технологическом окружении. Однако, следует отметить, что успешная цифровизация требует не только внедрения технологий, но и постоянного обучения персонала, мониторинга результатов и готовности к инновациям.

В итоге, цифровизация маркетинга и предоставляет учреждению возможность оставаться конкурентоспособным в образовательных учреждениях становится неотъемлемой частью стратегии, в быстро меняющемся образовательном направленной на современного студента, ландшафте.

Использованная литература:

1. Smith, J. (2020). "Digital Transformation in Higher Education: A Comprehensive Review." *Journal of Educational Technology & Society*, 23(1), 183-193.
2. Brown, A., & Green, T. (2019). "Digital marketing strategies for educational institutions." *International Journal of Educational Management*, 33(2), 231-244.
3. Johnson, M., & Smith, K. (2021). "The Impact of CRM Systems on Student Recruitment in Higher Education." *Journal of Marketing for Higher Education*, 31(1), 67-81.
4. Gupta, R., & Bhandari, A. (2018). "E-marketing in higher education: A study of factors influencing students' decisions." *International Journal of Educational Management*, 32(6), 1067-1082.
5. Anderson, C. A., & Magruder, J. R. (2019). "Digital Marketing in Higher Education: A Case Study of an MBA Program." *Journal of Marketing Education*, 41(1), 5-19.
6. Atajonova S.B. (2021) Ta'limni raqamlashtirish tizimining imkoniyatlari va yo'nalishlari// "Mexatronika va robototexnika: muammo-lar va rivojlantirish istiqbollari" xalqaro ilmiy-texnik konferensiya Andijon 65-71 b
7. Атажонова С.Б. (2021) Применение цифровых технологий в модернизации педагогической науки// Цифровые технологии, инновационные идеи и перспективы их применения в сфере производства" международная научно-практическая конференция.
8. Atajonova S.B. (2023) Texnika oliygohlari ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va tajriba sinov ishlarida tekshirish// Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy forumi. 60-63 betlar.
9. Atajonova S.B. (2023) Digitization of the teaching system of specialized subjects in technical universities and use of innovative technologies// Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani 369-374 betlar. Toshkent

BIG DATA» MUHITIGA ASOSLANGAN KOMPYUTER TARMOG'INING AXBOROT XAVFSIZLIGI VA HIMOYA QILISH STRATEGIYASI

S.B. ATAJANOVA Andijon mashinasozlik instituti "Axborot texnologiyalari"
kafedrası dotsenti p.f.f.d. (PhD).

SH.B. XAMIDOVA Andijon mashinasozlik instituti 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqola kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligi va katta ma'lumotlar muhitiga asoslangan himoya strategiyasini o'rganishni taklif qiladi. Tadqiqot maqsadi axborot xavfsizligini himoya qilish texnologiyasini tarmoqqa ulash va yanada samarali tarmoq ma'lumotlarini himoya qilish texnologiyasini izlash uchun "Big data" texnologiyasidan foydalanish. Ushbu maqolada taklif qilingan algoritm g'ayritabiiy tarmoq ma'lumotlarini erta ogohlantirish tezligini yaxshilashi, erta ogohlantirish vaqtini qisqartirishi va virus ma'lumotlarini aniqlash aniqligi va ushlab tezligini oshirishi mumkin bo'lgan katta ma'lumotlarga asoslangan vaqt seriyali tarmoqni aniqlash algoritmi.

Kalit so'zlar: "Big data", korrelyatsion klaster, kiberfazo, tarmoq xavfsizligi, ma'lumotlar, kiberxavfsizlik.

Abstract. This article proposed to study computer network information security and protection strategy based on big data environment. The purpose of the research was to use big data technology to network information security protection technology and search for more effective network data protection technology. The algorithm proposed in this paper was a "big data" time series network detection algorithm, which can improve the early warning rate of abnormal network data, shorten the early warning time, and increase the detection accuracy and catch rate of virus data.

Keywords: Big data, correlation cluster, cyberspace, network security, data, cybersecurity.

Аннотация: В данной статье предложено изучить стратегию информационной безопасности и защиты компьютерных сетей на основе среды "big data". Целью исследования было использование технологии больших данных для защиты сетевой информационной безопасности и поиск более эффективной технологии защиты сетевых данных. Алгоритм, предложенный в данной статье, представляет собой алгоритм обнаружения сети временных рядов больших данных, который может повысить скорость раннего предупреждения аномальных сетевых данных, сократить время раннего предупреждения и повысить точность обнаружения и скорость обнаружения вирусных данных.

Ключевые слова: "big data", корреляционный кластер, киберпространство, сетевая безопасность, данные, кибербезопасность.

Kirish. So'nggi yillarda hayot ham, ishlab chiqarish ham tarmoqqa ulanib, insoniyatga ko'plab qulayliklar keltiradi. Biroq, hamma narsaning afzalliklari va kamchiliklari bor. O'sib borayotgan tarmoq axborot xavfsizligi inqirozi insoniyatga xavfsizlikka katta ta'sir ko'rsatmoqda. Axborotlashtirish jarayonida kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligini hal qilish qiyin masalalardan. Ko'rsatilgan muammolarni hal qilishni maqsad qilib, tadqiqot tarmoq axborot xavfsizligini himoya qilish qobiliyatini optimallashtirish

uchun katta ma'lumotlar texnologiyasidan foydalanishga qaratilgan[1]. Ushbu tadqiqot g'ayritabiiy tarmoq ma'lumotlarini aniqlash tezligi va aniqligini yaxshilaydi va katta ma'lumotlarning qo'llanilish yo'nalishini kengaytiradi, natijada tarmoq xavfsizligini aqlli himoya qiladi.

Tadqiqot usullari va metodologiyasi. Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqotlarda tarmoq ma'lumotlarini himoya qilish texnologiyasini o'rganish takomillashib bormoqda va ushbu bosqichda turli xil xavfli tarmoq hujumlari va bosqinchilik operatsiyalarini yaxshiroq

hal qilishi mumkin. Biroq, “Big data” texnologiyasi paydo bo'lishi bilan an'anaviy anomaliya tarmog'i ma'lumotlarini aniqlash texnologiyasini qo'llash qiyin. Shuning uchun, ushbu texnologiya yanada samarali anomaliya tarmog'i ma'lumotlarini aniqlash va himoya qilish texnologiyasini ishlab chiqish uchun an'anaviy anomaliya tarmog'i ma'lumotlarini aniqlash texnologiyasi bilan birlashtirilishi kerak[2]. Biroq, akademik doiralarda kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligi va big date fonida himoya qilishning hozirgi tadqiqot holati rivojlanishning dastlabki bosqichida qolmoqda. Axborotga asoslangan jamiyat jadal rivojlanganidan beri kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligi asta-sekin mashhur tadqiqot sohasiga aylandi. Bir nechta olimlar ushbu mavzu bo'yicha ilmiy va keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazdilar. Kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligini himoya qilish korxonalar uchun asosiy yo'nalish ekanligiga ishongan. U ko'plab ma'lumotnomalarni tahlil qilish va taqqoslash orqali kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligini joriy etdi. Ikkinchidan, u kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligi bilan bog'liq xavflarni tahlil qildi. Keyin u xavfsizlik to'g'risida xabardorlikni kuchaytirish va tarmoq xavfsizligi muhitini saqlash uchun kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligini boshqarish tizimini takomillashtirish kerakligini ta'kidladi. Uning tadqiqotlari kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligini ta'minlash uchun himoya strategiyasini qo'llashni umumlashtirdi, bu tegishli axborot xavfsizligi tadqiqotlari uchun ma'lumotnoma taqdim etdi [3, 4, 5].

Xitoylik Zou va Wu olimlari fikricha, foydalanuvchilar sonining ko'payishi, axborot va ma'lumotlar oqimining tezlashishi nafaqat kundalik hayotga qulaylik yaratdi, balki ba'zi tegishli bo'lmagan elementlardan

foydalanish uchun imkoniyatlar yaratdi, bu esa shaxsiy va korxonalarining hamda jismoniy shaxslarning ma'lumotlarini tarqalishiga olib keldi. Shuning uchun “Big data” ostida tarmoq axborot xavfsizligini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv tarmoq axborot xavfsizligini samarali ravishda oshirishi va g'ayritabiiy tarmoq ma'lumotlarini aniqlashni yaxshilashi mumkin [6, 7].

Fadhil va boshqa qator tadqiqotchilar, so'nggi o'n yilliklarda kompyuter va aloqa tarmog'i texnologiyasi ancha yaxshilanganligini aniqladi, bu esa katta ma'lumotlar texnologiyasini isloh qilishga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ta'kidlashicha, axborot xavfsizligi katta ma'lumotlar dasturlarining kompyuter tarmoqlariga ta'siri bilan bog'liq. Bundan tashqari, u ma'lumotlarning tarqalishiga olib kelgan va katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelgan ko'plab tashqi omillar tarmoqdagi axborot xavfsizligi va katta ma'lumotlarga ta'sir qilganini ta'kidladi [8,11,12].

Tadqiqot natijalari. Dunyo bo'ylab axborot viruslari hujumlari ko'plab mamlakatlarda bir necha bor sodir bo'lib, katta global iqtisodiy yo'qotishlarga olib keldi. Bundan tashqari, axborot xavfsizligining zarari moliya, energetika va tibbiy yordam kabi turli sohalarga tarqaldi[10,13]. Bundan tashqari, xitoylik foydalanuvchilar jiddiy virus hujumlariga duch kelishdi, bu ularning hayoti va ishiga ta'sir qildi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, joriy tarmoq xavfsizligi muhiti optimistik emas va endi uni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Tarmoqdagi deyarli barcha axborot faoliyatiga hujum qilish va bostirib kirish ehtimoli bor, bu shaxsiy hayotga, ijtimoiy barqarorlikka va milliy xavfsizlikka aniq ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida tarmoq axborot xavfsizligini himoya qilish markazini uchta

jihatga ajratishimiz mumkin:


1. Tarmoq axborot xavfsizligining ishonchliligi tarmoq tizimining axborot ishonchliligini ta'minlash uchun muayyan sharoitlarda axborot almashinuvini yakunlashi mumkin bo'lgan xususiyatlarni anglatadi.

2. Tarmoqni uzatish va aloqa qilishda ma'lumotlarning xavfsizligi va ishonchliligi asosiy maqsad hisoblanadi. Shuning uchun tarmoq xavfsizligining asosi sifatida tarmoq axborot xavfsizligining ishonchliligi tarmoq tizimi xavfsizligining eng asosiy talabidir.

3. Tarmoq axborot xavfsizligining samaradorligi xavfsizlik va ishonchlilikni ta'minlash bilan birga, xavfsizlik dasturlarining asosiy talabi bo'lgan ma'lumotlarning aniqligini ham ta'minlashi

kerak.

Har qanday dastur va Internet ma'lumotlarini taqdim etishda foydalanuvchilar faqat olingan yoki yuborilgan ma'lumotlar haqiqiy bo'lganda ma'lumotlardan to'g'ri foydalanishlari mumkin, aks holda, bunday ma'lumotlar noto'g'ri. Tarmoq axborot xavfsizligining yaxlitligi, axborot xavfsizligining so'nggi xususiyati sifatida, hech kim uzatilgan va to'plangan ma'lumotlarning ma'lumot xususiyatlarini ruxsatsiz o'zgartira olmaydi degan tushunchani anglatadi. Saqlash yoki uzatish paytida ma'lumotlar o'zgartirilmaydi, shikastlanmaydi yoki yo'qolmaydi. Ular orasida tarmoq axborot xavfsizligini himoya qilish yo'nalishi rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Axborot xavfsizligini himoya qilishning asosiy nuqtalari

Xulosa. Ushbu tadqiqot qat'iy nazariya va ilmiy sinov usullari orqali tarmoq axborot xavfsizligini himoya qilish texnologiyasida katta ma'lumotlarni optimallashtirishni isbotlaydi. Sinov tajribasi natijalari shuni ko'rsatadiki, big data-ga asoslangan vaqtinchalik tarmoqni aniqlash algoritmi turli xil tarmoq hujumlaridan himoyani sezilarli darajada yaxshilaydi va g'ayritabiiy tarmoq ma'lumotlarini to'plashda erta ogohlantirish vaqtini qisqartiradi. Bundan tashqari, ushbu vaqtinchalik tarmoqni aniqlash algoritmi katta ma'lumotlar bazalarini ulash orqali hisoblash qurilmalarining

hisoblash quvvatini to'liq yaxshilaydi va katta ma'lumotlarni qazib olish texnologiyasi asosida g'ayritabiiy tarmoq ma'lumotlarini yanada samarali aniqlashi mumkin. Ushbu tadqiqot tarmoq axborot xavfsizligi va maxfiyligining muhimligini ta'kidlab, "Big data" texnologiyasiga asoslangan kompyuter tarmog'ining axborot xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan. Natijada katta ma'lumotlarga asoslangan tarmoq axborot xavfsizligini aniqlash va boshqarish tizimi yaratildi. Ushbu tadqiqotda tarmoq ma'lumotlarini himoya qilish va ma'lumotlar xavfsizligi tizimini

rivojlantirish integratsiyasi kelajakdagi tadqiqotchilarga foydakeltirishi kutilmoqda. Axborotlashtirish jarayoni tezlashganda, uni himoya qilish texnologiyasi orqada qololmaydi. “Big data” texnologiyasi orqali tarmoq axborot xavfsizligini himoya qilish strategiyasining o'sishiga rahbarlik qilgan himoya effektini yanada oshirish uchun tarmoq axborot xavfsizligini himoya qilish uchun Big data texnologiyasini qo'lladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



- 1.Chang, K.-C., & Seow, Y. M. (2019). Protective measures and security policy non-compliance intention: IT vision conflict as a moderator. *Journal of Organizational and End User Computing*, 31(1), 1–21. doi:10.4018/JOEUC.2019010101 doi:10.4018/JOEUC.2019010101
- 2.Zhu, X. (2021). Self-organized network management and computing of intelligent solutions to information security. *Journal of Organizational and End User Computing*, 33(6), 1–16. doi:10.4018/JOEUC.20211101.0a28 doi:10.4018/JOEUC.20211101.0a28
- 3.Yang, Y. (2020). Computer network information security and protection strategy. *Frontiers in Economics and Management*, 1(12), 1–5. doi:10.6981/FEM.202012_1(12).0001 doi:10.6981/FEM.202012_1(12).0001
- 4.Deng, Z. (2020). Computer network information security risks and solutions under the background of big data. *Solid State Technology*, 63(4), 7574–7582.
- 5.Shi, K. (2017). Research on the network information security evaluation model and algorithm based on grey relational clustering analysis. *Journal of Computational and Theoretical Nanoscience*, 14(1), 69–73. doi:10.1166/jctn.2017.6126 doi:10.1166/jctn.2017.6126
- 6.Carrapicho, H., & Farrand, B. (2017). ‘Dialogue, partnership and empowerment for network and information security’: The changing role of the private sector from objects of regulation to regulation shapers. *Crime, Law, and Social Change*, 67(3), 245–263. doi:10.1007/s10611-016-9652-4 doi:10.1007/s10611-016-9652-4
- 7.Zou, H., & Wu, Q. (2022). Optimization strategy of computer network information security from the perspective of cognitive impairment. *Psychiatria Danubina*, 34(suppl 1), 286–287.
- 8.Fadhil, S. A., Lubna, E. K., & Sayl, G. A. (2021). Protection measurements of computer network information security for big data. *Journal of Discrete Mathematical Sciences and Cryptography*, 24(7), 1959–1965. doi:10.1080/09720529.2021.1959996 doi:10.1080/09720529.2021.1959996
- 9.Niu, J., Alroobaea, R., Baqasah, A. M., & Kansal, L. (2022). Implementation of network information security monitoring system based on adaptive deep detection. *Journal of Intelligent Systems*, 31(1), 454–465. doi:10.1515/jisys-2022-0032 doi:10.1515/jisys-2022-0032
- 10.Ye, Z., Guo, Y., Ju, A., Wei, F., Zhang, R., & Ma, J. (2020). A risk analysis framework for social engineering attack based on user profiling. *Journal of Organizational and End User Computing*, 32(3), 37–49. doi:10.4018/JOEUC.2020070104 doi:10.4018/JOEUC.2020070104
- 11.Saidkulovich, M. S., Shoraimov, H. U., & Qudratov, S. A. O. (2021). The study on network information security. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 248–251.
- 12.Ye, C. Q., Shi, W. Y., & Zhang, R. (2021). Research on gray correlation analysis and situation prediction of network information security. *EURASIP Journal on Information Security*, 2021(3), 3. doi:10.1186/s13635-021-00118-1 doi:10.1186/s13635-021-00118-1
- 13.Min Jin, State Grid Chongqing Electric Power Company Information Communication Branch, China
- 14.Lin, W., Yang, C., Zhang, Z., Xue, X., & Haga, R. (2021). A quantitative assessment method of network information security vulnerability detection risk based on the meta feature system of network security data. *Transactions on Internet and Information Systems (Seoul)*, 15(12), 4531–4544. doi:10.3837/tiis.2021.12.015 doi:10.3837/tiis.2021.12.015

O'QUVCHILARDA O'ZIGA BO'LGAN ISHONCH HISSINI QAROR TOPTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ABDULLAYEVA DILOROM NOMONOVNA
QDPI- o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini qaror toptirishning psixologik xususiyatlari haqidagi ilmiy mulohazalar bayon etilgan. Muammo yechimiga oid ilmiy qarashlar, tavsiyalar maqoladan o'rin olgan. Maqolada o'quvchilarda ishonch xissini shakllantirishda ota onalarga bir qator tavsiyalar bilan birga ularning yo'l qo'yadigan xatolari haqidagi mulohazalar aks etadi.

Kalit so'zlar: o'z-oziga ishonch, psixik xususiyat, o'ziga ishonch hissi, o'zini ijobiy baholash, o'ziga ishonchni qaror toptirishga zid xatolar.

Hozirgi kundagi dunyo tamaduning jadal rivojlanishi va yangicha mazmun kasb etishi psixologiyaning murakkab muammosi bo'lgan shaxs muamosining yangicha qiyofa, yangicha faoliyat, yangicha xarakter kabi psixik xususiyatlar bilan namoyon bo'lmoqda. O'quvchi shaxsining psixik xususiyatlari ham ilm-fan, texnika, kommunikatsiya tarmoqlarining jadal taraqqiyoti natijasida keskin muammolarni keltirib chiqarmoqda. Psixologiyada o'quvchilarning murakkab psixik davri o'smirlik g'oyat muammoli davr sifatida tavsiflanadi. O'quvchilar psixologiyasining asosiy markaziy muammosi o'quvchini psixik jihatdan o'sishi, unga xos xususiyat va qonuniyatlarini yoritib berishdan iboratdir.

V.N.Myasishchev insonning psixik rivojlanishi uning atrof voqelik va eng avvalo boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlari tizimining murakkablashib, ken-gayib borishiga bog'liq, bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Ushbu g'oyaga asosan o'quvchi shaxsining ijobiy rivojlanishi va ijtimoylashuvi ham uning yon-atrofidagi odamlar bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanadi.

O'quvchilarning murakkab psixik davrini xarakterlovchi psixofiziologik xususiyatlardan biri bo'lgan garmonal

jadallashuvning natijasida ularning xarakter va xulqida turli o'zgarishlar kuzatiladi. Bu o'zgarishlar hissiy emotsiyalarning yorqinligi, beqarorlig, o'ziga nisbatan talabchanlik, mustaqillikga intilish, menini namoyish qilish hamda o'zini anglamagan holda o'z kuchiga ishonchsizlikning namoyon bo'lishida kuzatiladi.

Amaliy psixologiyaning muhim qonuniyatlaridan biri bolgan " Qaytish" qonuniga muvofiq aql o'ylaganini jism bajaradi. Ya'ni inson biror-bir narsaga qattiq ishonar ekan aql va idrok bu ishonch asosida butun jism va organizmni dasturlashtiradi. Shu dastur asosida esa insonning barcha psixikasi va fiziologiyasi faoliyat olib bora boshlaydi. Ana shu qonunga muvofiq o'quvchilarda ham aql idrokni tarbiyalash zarurati mavjuddir. Bu davrda ular aniq va mazmunli fikrlashga mustaqil qodir emaslar va ko'p hollarda atrofda g'ilarning ko'magiga va ishonchiga muxtojdirlar.

O'quvchilarda ishonchsizlik xissi ko'p hollarda muammo sifatida uchrab turadi. Bu ishonchsizlik faoliyatga kirishish ya'ni o'qish jarayoni, jismoniy faollik, boshqalar bilan munosabatlarda o'z aksini topadi.

Psixolog K.A. Gelvetsiy ta'limotiga ko'ra, hamma odamlar aqliy va axloqiy

taraqqiyot uchun tug'ilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar. SHuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Olim Inson psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar.

Yuqoridagi ta'limotga ko'ra o'quvchilarning ijobiy xulqini rivojlantirish hamda o'z-oziga ishonch asosida ularda o'qishga va faoliyatning boshqa turlariga motivni shakllantirish bu u bilan faoliyat olib borayotgan kattalarga bog'liq jarayondir. O'quvchilarda o'ziga nisbatan ishonchni tarbiyalash murakkab jarayon va uzoq davom etishi bilan xarakterlanadi.

O'quvchilarda o'z-ozida ishonch xissini tarbiyalashda avvalo o'quvchi y'ani bola shaxsini xurmat qilish masalasi g'oyat muhimdir. Rus psixologi A.S.Makarenko "Agar mendan biror kishi: siz qisqa formulada o'z pedagogik tajribangiz mohiyatini qanday qilib ta'riflab berolmansiz, deb so'rasa men: insonga iloji boricha ko'proq talab qo'yish va uni iloji boricha ko'proq talab qo'yish va uni iloji boricha hurmat qilish kerak, deb javob bergan bo'lar edim" degan edi. O'quvchilarni o'zaro munosabatlarda pedagoglar, jamoadoshlari, ota-onalari tomonidan xurmat qilinishi ularda o'ziga ishonch, atrovdagilarga nisbatan esa intilishni ya'ni munosabatlarda faollikni vujudga keltiradi. Aksincha o'quvchi shaxsini xurmat qilmaslik, unga nisbatan e'tirof etilmaslik xissini shakllantiradi. E'tirof bu o'quvchining qadr-qimmatini tan olish demakdir. O'quvchilarni doimiy xaqorat qilish, kamsitish, mazax qilish, topshiriqni ishonmaslik, doimiy past baholar qoyish ularda o'ziga ishonchsizlik va jamiyatning unga bergan maqomiga odatlanish, ko'nish ya'ni rozilik xissini rivojlantiradi. Ko'p hollarda esa bu ularda ruhiy buzilish yani delenkivent

xulqni vujudga kelishini ta'minlovchi omilga aylanib qoladi.

Komil insonni tarbiyalashda erishilgan amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki o'uvchilarda nafaqat barcha yoshdagi insonlarda boshqa bir shaxsga nisbatan taqqoslash eng yomon xodisa va yoqimsiz tuyg'udir. O'quvchilarda taqqoslashning taengdoshiga nisbatan amalga oshirilishi ularda salbiy beqaror xislarni shakllantiradi. O'quvchilarni o'ziga bolgan ishonchini tarkib toptirishda bu qoidaga amal qilish kerakligini unutmaslik kerak. Pedagoglar o'quvchilar bilan munosabat o'rnatayotganda o'ta ehtiyotkor bo'lishlari kerak.

O'quvchilarda o'z-oziga ishonch xissini rivolantirishda o'qituvchi va ota-onalarga quyidagi tavsiyalarga amal qilishni ta'kidlagan bo'lar edik:

- xech qachon boshqa shaxs bilan taqqoslamaslik, ayniqsa tengdoshi bilan;
- faoliyatga da'vat qilishda uning boshqalardan kam emasligini ta'kidlang;
- o'quvchi shaxsining ustun bo'lgan ijobiy tomonlarini topib maqtang;
- imkoniyatiga mos bo'lgan topshiriqlarni berishga xarakat qiling va topshiriqni bajarishida uni nazorat qilmang! Chunki unga avvalo o'zingiz ishonishingizni, u faoliyatni bajara olishiga qattiq ishonishingizni isbotlang;
- o'quvchiga ishonishingizni tez-tez jiddiy ohangda takrorlab turing;
- faoliytini rag'batlantiring.

O'z-o'zini hurmat qilish va qadrlash bolajonlar uchun kelajakda jamiyatda qulaylikka erishishi uchun juda muhim. Qadr-qimmatni rivojlantirish barcha bolalarda ahamiyatli bo'lib, u ishonch, qobiliyat va iste'dod bilan bevosita bog'liqdir. O'zini hamisha past baholaydigan bolalar ko'pincha qiyinchiliklarga, ijtimoiy muammolarga duch keladi. Bu borada bolada o'zi to'g'ri baholashni qanday shakllantirish haqida psixolog Olga

Romaniv quyidagilarni tavsiya etadi.

Farzand bilan nafaqat o'quv yoki qandaydir topshiriq yuzasidan, balki muhim sanalgan masalalar to'g'risida ham suhbatlashish va ularning fikrini ham hurmat qilish hamda inobatga olish zarur. Kuchsiz tomonlarni tan olgan holda yutuqlarni qadrlash haqida gaplashish farzand uchun juda foydali. Masalan, xarid qilish ro'yxati onaning yodidan chiqqudek bo'lsa, uni farzandlarga eslatib qo'yish mumkin: "Men xaridlar ro'yxatidagi narsalarni eslay olmayman, sen yordam bera olasanmi?". Bu kabi kichik muammolarni farzand bilan birgalikda hal etish undagi harakatchanlik va mas'uliyat hissini oshiradi.

Ba'zan bolalarni yaxshi bo'lishi uchun kerakli masala haqida gaplashish ancha qiyin boladi. Ammo bu kabi mavzular aniq va lo'nda bo'lsa, to'g'ri baholash jarayonining rivojlanishiga yordam beradi. Asosiysi, muammolarni ochiqlashda ularni hech narsaga loyiq emasligini ta'kidlamalik zarur. Aksincha, avvalgidan ham ko'ra yaxshi bo'lishiga undash tarzida suhbatlashish tavsiya etiladi.

Odatda, o'zini ijobiy baholash ma'lum maqsadga intilishdan kelib chiqadi. Shuning uchun tanqid o'rniga, yosh va qiziqishiga mos bo'lgan maqsadlarni taklif qilish mumkin. Masalan, "Nega kiyimlaringni hamma joyga yoyding?" emas, balki "Hamma kiyimlarni shkafga vaqtida qo'ysang, ko'proq o'yin o'ynashga imkon bo'ladi" kabi. Ikkinchi solishtirib ko'rish mumkin, bola ikkinchi jumlagi ko'proq e'tibor qaratishi tabiiy.

Bolalarda paydo bo'lgan salbiy fikrlar ustida ko'proq ish olib borish kerak. Ya'ni salbiy fikrlarni bartaraf etishiga onalar ko'proq yordam berishi kerak. "Men buni o'qishni bilmayman", "Mashg'ulotlarni bajarishga kuchim yetmaydi" kabi bolalarga xos bo'lgan biroz qo'rquv va dangasalik aralashgan fikrlarni vaqt o'tib yaxshilanishiga ishontirish kerak. Shundagina ular barcha narsaning imkoni

borligi va faqat buning uchun harakat qilish kerakligini anglab yetadi.

Fikrlashni o'stirish – xatolarni o'rganish va to'g'ri xulosa chiqarishdir. Bola muvaffaqiyatsizlikka uchrash oddiy hol ekani va bu muammolarning yechimi borligini bilsa, unda baholash tushunchasi shakllana boradi. Iloji boricha farzandlarga o'z xatolaridan saboq olishiga yordam berish kerak. Masalan "Bu safar sharbatni to'kib yubording. Keyingi safar yana takrorlanmasligi uchun stakanni idish yuvish joyida tutib, so'ngra sharbat quy".

Farzandni me'yorida maqtash juda foydali. Ammo qanday maqtash ham muhim. Ko'pchilik bolasining intilishi-yu qiziqishini bir chetga surib, yakuniy natijaga qarab baho beradi. Ammo muammoni hal qilishda uning yondashuvi va to'siqlarni yengib o'tishga bo'lgan intilishini alohida ta'kidlash lozim. Aniq va halol maqto'vlar sog'lom baholashni shakllantirishning kalitidir.

Farzandni biror ishga ilhomlantirish uchun ularni boshqa tengdoshlariga aslo solishtira ko'rmaslik kerak. Shunchaki ularning avvalgi ishidagi yutuqlarni misol qilish orqali ham bung erishish mumkin. Yoki ilhomlantirishi mumkin bo'lgan qandaydir yaxshi voqeani ham aytib berish ham foydalidir. Bolalarda bu jarayon yuzaga kelganidan so'ng o'z-o'zidan psixologik muammolar ham bartaraf bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'z o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qolishiga sabab bo'luvchi quyidagi xatolar sabab bo'ladi va salbiy psixikani bola xulqida aks ettiradi.

-Qo'rquv. Bola yomon baho olishdan emas, bu tufayli ota-onasidan eshitadigan dakkidan qo'rqadi.

-Jazo. Bola ota-onasi tomonidan jazolanishdan qo'rqadi.

-Majburiyat. Bola yaxshi o'qishi kerak, u kattalarning yagona umidi. Uni kelajakda qancha tashvishlar kutib turibdi, demak,


shuning uchun ham yaxshi o'qishi kerak.

-Uyat. Bola ota-onasi tomonidan qo'shni, do'stlar yoki hamkasblar oldida iste'dodli bo'lmaganligi uchun uyaltirilishidan xavotirlanadi.

-Teskari aloqa. Ota-onalar o'zlari sezmagan holda bolasini ahmoq, uquvsiz deb koyishi

odatiy holga aylangan. Afsuski, ularni bunday baholash salbiy motivatsiya bo'lib, bolani shu kabi xususiyatlar borligiga ishontiradi. Uzoq muddatda ular stressga aylanishi ham hech gap emas.

-Taqqoslash. Bola faoliyatini boshqa tengdoshi faoliyatiga ochiqchasiga taqqoslash.



Shundan so'ng bolada fikrni jamlash qiyinlashadi, faoliyati susayadi va ota-onalar bilan munosabati o'zgaradi. Bolani qo'rquv bilan tarbiya qilmoqchi bo'lganlar diqqatiga, kelajakda farzandingiz o'z manfaatlarini ham himoya qila olmaydi. Ular kelajakda boshqalarga nisbatan kamroq daromad topadi. Dunyodan uzoqlashadi, jamoatchilik fikri bilan yashaydi. 10 yildan so'ng bolaga psixolog izlamaslik uchun ham hozirdan ularga nisbatan qo'llanayotgan ruhiy zo'ravonlikni to'xtatish kerak.

Ko'pgina ota-onalar yaxshi baho uchun maqtov aytmaydi, sababi bola shundoq ham yaxshi o'qishi kerak. Lekin yomon baholar uchun tanbeh berishadi. Ota-ona bolasi bilan toki kuchi yetgunga qadar birga dars qilishi mumkin. Ammo vazifalar qiyinlashgani sari endi repetitor tomon sudraydi. Bola maktabdan charchab kelib, yana dars qilishga majbur bo'ladi. Uning xayolida ikki fikr paydo bo'ladi:

- Hech qachon hech narsa o'rganmaslik;
- Muammolarini o'zi hal etolmaslik.

Bolaning tarbiyasi so'zda emas, amalda talab qilinadi. Agar boladan ko'p kitob o'qishni talab qilsangiz-u, o'zingiz smartfon o'ynab o'tirsangiz, katta o'zgarishlarni kutib ovora bo'lmang. Sababi bola kattalardan nusxa ko'chiradi. Bolada kognitiv kelishmovchilik bo'ladi, sababi undan talab qilishadi va bunga o'zlari amal qilmaydi. Albatta, ular bu kabi xatti-harakatini kattaligi bilan oqlashi mumkin. Shuning uchun bola oldiga maqsad qo'yishini, so'zida turishini, zaiflarni ranjitmasligini istasangiz, o'zingiz namuna bo'lishga harakat qiling.

Yuqoridagi tavsiyalar asosida o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatilganda, unda o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqillik, o'qish jarayonida faollik va dinamik o'zgarishlar kuzatiladi.

Inson shaxsi o'z mohiyati bilan ijtimoiy zotdir. SHaxsdagi barcha xususiyatlarning ijodiy faolligining rivojlanish manbaalari uning tevarak atrofdagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi determinlashgan (sababiy bog'liqlikda) bo'lib ijtimoiy turmush

RAQAMLI BOSHQARUV – TARAQQIYOT ASOSIDIR

ERKIN KULDASHEV “Axborot texnologiyalari” kafedrası dotsenti,
MANSUR MA’MIROV “Axborot texnologiyalari” kafedrası magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli boshqarishning maqsadi, vazifalari, ahamiyati va korxonaning rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi yoritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida mashinasozlik korxonasi tanlab olinib uni raqamlashtirishni afzalliklari, qulayliklari va samaradorligi to‘g‘risida fikr-mulohazalar va xulosalar asoslab berilgan.

Аннотация. В данной статье описаны цель, задачи, значение цифрового менеджмента и его вклад в развитие предприятия. В качестве объекта исследования было выбрано машиностроительное предприятие и обоснованы мнения и соображения о преимуществах, удобстве и эффективности его цифровизации.

Abstract. This article describes the purpose, tasks, importance of digital management and its contribution to the development of the enterprise. A machine-building enterprise was selected as the object of research, and opinions and considerations about the advantages, convenience and efficiency of its digitization were substantiated.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot, raqamli boshqaruv, iqtisodiyot, marketing, tizim, innovatsiya, motivatsiya, avtomatlashtirish, globallashtirish.

Ключевые слова: развитие, цифровой менеджмент, экономика, маркетинг, система, инновации, мотивация, автоматизация, глобализация.

Key words: development, digital management, economy, marketing, system, innovation, motivation, automation, globalization.

Kirish

Hozirgi globallashtirish sharoitida fan-texnika tez rivojlanmoqda. Bu rivojlanish jarayonida kompyuter tizimi va telekommunikatsiyaning roli va ahamiyati juda katta. Chunki, hozirgi zamon talabi mamlakatimizni barcha korxonalar va tashkilotlarida raqamli boshqarishni joriy qilishni talab etilmoqda. Raqamli boshqarishni tayanch vositasi bu kompyuter tizimi va telekommunikatsiyadir.

Yangi O‘zbekistonni hozirgi tez rivojlanish davrida har tomonlama ya‘ni ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-texnologik sohalarining taraqqiyoti bugungi kunda eng dolzarb masalalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 6079 sonli ““Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida

mamlakatimizdagi korxonalar va tashkilotlarni raqamli boshqarishga o‘tkazish belgilangan [1]. Bu vazifalarni samaradorli hal qilishda raqamli boshqarishni o‘rni beqiyosdir.


Muhokama va natijalar

Raqamli boshqarish – bu zamonaviy, ko‘p qirrali, imkoniyatlar darajasi juda yuqori vosita bo‘lib, insonni barcha faoliyatlarini takomillashtirishga yordam beradi. Raqamli boshqarish – hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining muvoffaqiyatini asosiy me‘zoniga aylanmoqda. Olimlar va mutaxassislar o‘rtasida raqamli boshqarish to‘g‘risida yagona fikr yo‘q. Shu sababli, raqamli boshqarishga tadqiqotlarimiz natijasi sifatida quyidagi ta‘rifni berishni lozim topdik.

Raqamli boshqarish – bu qo‘yilgan maqsadni marketing, axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va

innovatsiyalar, xodimlarni faollashtirish asosida optimal natija olishning elektron tizimidir. Bu optimal natijani olishda qo'yilgan maqsadni matematik modellashtirish, uni

algoritmini ishlab chiqish, bu algoritm asosida dasturlash va bu dastur yordamida optimal natija olish asosiy vazifa hisoblanadi.



1-chizma. Raqamli boshqaruvni korxonani barqaror rivojlanishiga ta'siri

1-chizmadan ko'rinib turibdiki, raqamli boshqarish qanchalik to'g'ri tashkil etilib, har bir tizimning elementlaridan optimal foydalanilsa, natijadorlik yuqori bo'ladi.

Raqamli boshqarishni tashkil etishda axborot tizimlarini tashkil etuvchi vosita va resurslardan oqilona foydalanish talab etiladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan va olimlarning (akademiklar Vosil Qobulov, Murod Sharifhujayev, Nodirbek Yusufbekov, S.S.G'ulomov, F.B.Abutaliyev va boshqalar) tadqiqotlaridan ma'lumki, mamlakat va uning struktura birliklari qanchalik raqamlashtirilgan bo'lsa, unga mutanosib ravishda uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shu sababli, ushbu maqolamizni korxonalarini raqamli boshqarish masalasiga bag'ishlab, uni tadqiq qilishni maqsad qildik.

Har qanday iqtisodiy ko'rsatkichni qayta ishlash mumkin. Buning uchun uni algoritmini aniqlash lozim:

$$IK=N*Q \quad (1)$$

Bu yerda:

- IK – iqtisodiy ko'rsatkich;
- N – iqtisodiy ko'rsatkichning nomi;
- Q – iqtisodiy ko'rsatkichning qiymati.

$$H=S*R \quad (2)$$

Bu yerda:

- H – holatlarning soni, ya'ni iqtisodiy ko'rsatkich tarkibidagi holat;
- S – sanoq tizimining asosi;
- R – axborotdagi razryadlar (simvollar) soni.

Yuqoridagi (1) va (2) formulalardan ko'rinib turibdiki, har qanday iqtisodiy ko'rsatkichni zamonaviy elektron hisoblash mashinalarida qayta ishlab, optimal natija olish mumkin ekan.

Korxonalarda raqamli boshqaruvni tashkil etish uchun ulardan quyidagi masalalarni:

- Marketingni boshqarish;
- Axborot tizimlaridan foydalanishni tashkil etish;
- Innovatsion boshqaruvni tashkil etish;

- Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini joriy etish;

- Xodimlarning faoliyatini motivlashtirish (faollashtirish) asosida ulardan samaradorli foydalanish kerak.

Korxonalarda raqamli boshqarishni tashkil etishni algoritmi quyidagicha bo'ladi:

$$Rb=Im * Ia * Ii * Iq * Ih \quad (3)$$

Bu yerda:

- Rb – Raqamli boshqaruv;

- Im – Marketingni boshqarish indeksi;

- Ia – Axborot tizimlaridan foydalanishni tashkil etish indeksi;

- Ii – Innovatsion boshqaruvni tashkil etish indeksi;

- Iq – Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini joriy qilish indeksi;

- Ih – Xodimlar faoliyatini motivlashtirish (faollashtirish) asosida ulardan samaradorli foydalanish indeksi.

Tadqiqotlarimiz natijasidan shu narsani aniqladikki raqamli boshqaruv nafaqat iqtisodiy o'sishni u bilan birga samaradorlikni oshirishni ham taminlar ekan. Buni quyidagi formula asosida tasvirlash mumkin.

$$Rb=K * Us \quad (4)$$

Bu yerda:

- Rb – raqamli boshqaruv;

- K – raqamli boshqarish bilan korxonaning iqtisodiyoti samaradorligini bog'lovchi

koefitsiyent;

- Us – korxonaning iqtisodiy samaradorligi.

$$Us=Rb * N / X \quad (5)$$

Bu yerda:

- Us – korxonaning iqtisodiy samaradorligi;

- Rb – raqamli boshqaruv;

- N – korxonaning natijaviy ko'rsatkich (foyda, ishlab chiqarilgan maxsulot xajmi va boshqalar);

- X – barcha xarajatlar summasi.

Buning ma'nosi shundan iboratki, bir foiz raqamli boshqaruv tatbiq qilinishi natijasida korxonaning iqtisodiy samaradorligi 0,37 foizga oshar ekan. K – bu koefitsiyent har bir soha va tarmoqlar uchun turlicha boladi.

Biz tadqiqotni Uz-Koram CO mashinasozlik korxonasi misolida bajardik.

Xulosa

Kompyuter tizimlari va telekommunikatsiya vositalari asosida, raqamli boshqaruvni Yangi O'zbekistonning barcha korxonasi va tashkilotlarida joriy qilinishi zarur. Bu esa mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-texnologik sohalarini taraqqiyotini, aholimizni esa turmush darajasini yanada yaxshilashini ta'minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Mirziyoyev Sh.M. "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF 6079-sonli farmoni, 2020-yil 5 oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasini Oliy Majlisini "Axborotlashtirish to'g'risidagi qonuni" 11-dekabr 2014-yil Toshkent.
3. Kuldashv E., Abdusamatov Q TATU Farg'ona filiali o'tkazilgan "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiyalari sohasida zamonaviy muammolar va ularni yechimlari" mavzusidagi konferensiya to'plami. "Axborot resurs markazlarini raqamli boshqarish" 2022 y
4. Kuldashv E., Abdusamatov Q. Andijon mashinasozlik institutida o'tkazilgan "Innovatsion texnologiyalar, IT-texnologiyasi va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi muammolari va yechimlari" mavzusidagi konferensiya to'plami. "Axborot tizimlaridan samaradorli foydalanish-yangi O'zbekistonni rivojlantirishni asosidir" 2022 y
5. Kuldashv E., Tadjidinov M. Andijon mashinasozlik institutida o'tkazilgan "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. "Sun'iy intellekt tizimlarini joriy qilish taraqqiyot asosidir", 2023 y.

DIFFERENTIAL YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

PARDABOYEV O'TKIR ABDURAXIMOVICH

Jizzax politexnika instituti assistenti

Annotatsiya: Jamiyatda ro'y berayotgan jadal ijtimoiy o'zgarishlar yuqori toifali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi va talabalar kredit-modul tizimida mustaqil o'z ustida individual ishlashlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Bugungi kunda oliy ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimini qo'llash zarurati, oliy ta'limni qurish va isloh qilishning hozirgi bosqichi, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari ta'lim, mazmuni va metodikasi, individual va differensiya ta'lim sifat jihati yangi talablar metodikasi bo'yicha amalga oshirish usullari.

Ta'kidlash joizki, ta'limda differentsiallashgan yondashuv muammosi hech qachon g'arb tadqiqodchilarining shaxs ta'limi muammolariga qarashlarini chetda qoldirmagan. Angliyaning odatiy misoliga murojat qilamiz. Shaxs ta'limiga differentsial yondashuv –ushbu mamlakatning qadimiy ananasi, bu ijtimoiy sharoit va fikrlash inson fel atvori bilan shartlanadi. XX asrning o'rtasida shaxs talimiga differentsial yondashuvda uchta yo'nalish aniq belgilab olindi: konservativ (jamiyatning ananaviy qadriyatlarini asrab-avaylash) yoki ananaviy yo'nalish; uning tarafdorlari erta tanlash, yani uchinchi sinfdan keyin differentsial talimni kiritish pozitsiyasida turadi. Bunday differentsia asosi “fikrlash faoliyati sifati” hisoblanadi. Didaktik differentsial yuqori sinflarda alohida fanlarni chuqurlashtirib o'rganishga asoslanadi.

-liberal yo'nalishning ilmiy-pedagogik tarafdorlari juda ko'p. Ushbu yo'nalish tarafdorlari bolalarni erta differentsiallashga qarshi chiqishadi; ular o'quvchilarning istalgan darajasida ta'lim profilini o'zgartirish huquqiga ega deb hisoblanadi.


Differentsial yondashuv asosida ta'limni tashkil etish, biz ilgari ta'kidlaganimizdek oliy ta'limning ustivor vazifasidir. Ushbu yondashuv barcha mutaxassisliklar professionallarini tayyorlash asosida yotadi. Bunda “differentsial

ta'lim” va “differentsial yondashuv”ni farqlash kerak. Differentsial ta'lim talabalarning kasbiy tayyorlashning boshqariladigan jarayoni sifatida chiqadi, uning mazmuniy tomoni o'quv reja bilan aniqlanadi, amalga oshirish esa talaba shaxsi ehtiyojlari, motivlari va qiziqishlari bilan aniqlanadi. Ta'lim taktik yondashuv esa strategik vazifalarni jarayonni o'rganish va tashkil etishda hal qiladi.

Differentsial yondashuv talaba shaxsini kasbiy kommunikativ yo'nalganligini shakllantirish tamoyili sifatida, bir qator tadqiqotlar tahlili ko'rsatishicha nazariy asosga ega. Ular qatoriga qo'yidagilarni ko'rsatish mumkin: 1-(rasm).

Barcha keltirilgan yondashuvlar pedagogik jarayonni boshqarishni tashkil etishning asosi hisoblanadi, yani ular bosqichli boshqaruvli yondashuv orqali integratsiyalanadi va amalga oshiriladi.

Kasbiy ta'lim – bu nisbiy qadryatlarni uzatish va egallash jarayonidir. Ushbu qadriyatlarni uzatish vositasi talabalarni axborot tashuvchilar bilan o'zaro aloqasi sifatida chiquvchi kommunikativ faoliyat hisoblanadi. Bu yerda boshqaruv shaxsni kasbiy shakllanishini o'z o'zini boshqarishga (refleksiv) o'tadi. Kasbiy bilish refleksatsiyani rivojlantirish uchun shaxsni kasbiy-kommunikativ qadryatlarga yo'nalganlikni



1-pasm.

shakllantirish zarur. Biroq har bir shaxs o'zining aniq vaziyati tufayli uni shakllantirishga o'z yo'li bilan boradi. Shuning uchun pedagogik jarayonni tashkil etishga ham, ta'lim oluvchi shaxsiga ham differentsial yondashuvga zaruriyat hosil bo'ladi.

Shuning uchun talaba shaxsini kasbiy – axborot kommunikatsiyaga yo'nalganligining shakllanishiga differentsial yondashuv muammosini tadqiq qilayotganda biz qo'yidagilarni hisobga olishimiz kerak:

-ta'limda differentsial yondashuv, shu jumladan kasbiy ta'limda, metodologik tamoyil funksiyasini bajaradi, yani boshqa yondashuvlar orqali amalga oshiriladigan boshqaruvchi ko'rsatmalar;

-ta'limda differentsia va individuallashtirish dialektik o'zaro bog'langan. Bundan tashqari individuallashtirish shaxsning kasbiy-kommunikativ yo'nalganligini shakllantirish jarayonini boshqarishda differentsial yondashuvni shakllantirishning asosi bo'lib chiqadi;

-pedagogik jarayonda differentsia yondashuv faktor sifatida, yani OTM

talimida shaxsning kasbiy-kommunikativ yo'nalganligini shakllantirishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi;

-kasbiy ta'limda differentsia darajaviy xarakterga ega va metodologik, nazariy va metodik proksiologik darajada amalga oshiriladi;

- differentsia kasbiy qadriyatlarda yo'nalganlikning asosida yotadi, qadryat yo'nalish-talaba shaxsini kasbiy-kommunikativ yo'nalganligini shakllantirish jarayonini boshqarishda;

-ta'limda differentsia kasbiy ta'lim maqsadlari va shaxs yo'nalganligidan kelib chiqqan holda turli asoslar (belgilar, tamoyillar) bo'yicha o'tkazilishi mumkin;

-ta'limda differentsial yondashuv tizimni tashkil etuvchi, axborot, bilish, qadryatli-yo'naltirilgan funksiyalarni bajaradi. U mutaxassis tayyorlash jarayoni samaradorligini ta'minlovchi uning kasbiy kommunikativ yo'nalganligini shakllantiradi.

Shunday qilib, differentsia shaxsning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish omilidir. Shuning uchun shaxsning yetakchi tarkibiy

qismi bo'lgan yo'nalganlikning mohiyatini ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Xulosa:

1. Differentsiallashtirish, fanlarni chuqurlashtirib o'rgatish, insonning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yondoshuvning pedagogik mohiyati ochib berildi. Individuallashtirish va differentsiallashtirish shaxsining mativatsiya, aqli, tafakkuri xarakteri, tezkor xotira hajmi, faoliyat yo'nalishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

2. Talabalarning axborot kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o'rganildi. Talabalar

bilan ishlash kompetensiyasi - mediamanbalardan zarur malumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, mediamadaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Talabalarda axborot kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirishda bir nechta xarakterga ega darajalar ishlab chiqildi. Axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirishning maqsadlari, mazmuni va tarkibiy qismlari ochib berildi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.
3. Bolonskaya deklaratsiya "O Yevropeyskom regione vqsshego obrazovaniya". g.Bolong'ya, Italiya. 1999 g.
4. Pardaboev O'.A. Kredit modul tizimini ta'lim jarayoniga qo'llashning o'ziga xosligi. UzMU xabarleri. Toshkent 2022 yil. –S.128-131 b
5. Pardaboev O'.A. Kredit modul tizimi sharoitida talabalarning individual ishlashini takomillashtirish usullari. Andijon mashinasozlik instituiti va Voronej davlat texnika universiteti. Andijon shaxri. –S. 1445-1448 b.
6. Pardaboev O'.A. Kredit modul tizimini ta'lim jarayoniga qo'llashning o'ziga xosligi. "Xotin qizlarning fan, ta'lim, madaniyat va innavattsiion texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Jizzax shaxri.-S.414-417.
7. Pardaboev O'.A. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimining meyoriy-huquqiy asoslari. 2022 yil.12-dekabr. Ispaniya. Barselona.54-57 b.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

YULDASHEVA MALOHAT ERKINOVNA


Qo'qon DPI, kata o'qituvchi, PhD

Annotatsiya: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar muammosiga ag'ishlangan mulohazalar bayon etilgan. Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishning tashqi va ichki omillari hamda faoliyatni samarali amalga oshirish omillari haqidagi ilmiy fikrlar bayon qilingan. Maqolada bir qator psixolog olimlar va pedagoglarning mavzuga oid ilmiy nazariyalaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchisi, bilish jarayoni, tashqi omillar, ichki omillar, o'quv jarayoni, o'quv bilish faoliyati.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual rivojlanishi o'quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan tashqi va ichki omillarni ko'rsatish mumkin. Ichki omillar guruhiga olimlar psixologik xususiyatlarni kiritadi: motivlar, xobbilar,

shaxsiyat tarkibida yetakchi o'rin tutadigan qiziqishlar, orientatsiya, xarakter, his-tuyg'ular, qobiliyatlar, intellektual jarayonlar va boshqalar. Tashqi omillar guruhiga faoliyatning amalga oshadigan sharoitlari kiradi.



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar.

Masalan, G. Rozenfeld o'qish motivatsiyasining quyidagi mazmun omillarini aniqladi:

1. Faoliyatdan zavqlanmasdan yoki o'qitilayotgan fanga qiziqishsiz o'rganish;

2. SHaxsiy manfaatlar va manfaatlarsiz ta'lim;

3. Ijtimoiy identifikatsiya qilish uchun trening;

4. Muvaffaqiyat uchun o'rganish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish;

5. Majburiy yoki bosim ostida mashq qilish;

6. Tushunchalar va axloqiy majburiyatlar yoki e'tirof etilgan me'yorlar asosidagi ta'lim;

7. Kundalik hayotda maqsadlarga erishishni o'rganish;

8. Ijtimoiy maqsad, talab va qadriyatlarga asoslanish.

J. Bruner o'qish bilish motivlari masalasiga boshqacha yondashadi. U o'quv-bilish jarayonida vujudga keladigan ijodiy muloqoti natijadorligiga ta'sir ko'rsatuvchi empirik va nazariy shart-sharoitlarini e'tirof etadi. J. Bruner har doim ham o'qish jarayoniga undovchi, anglangan omillar haqdagina emas, balki o'quv-bilish sabablari haqida ham fikr yuritadi. Bu birinchi navbatda, o'qish jarayonida bilish xarakteridagi sabablarning ahamiyati va yangi narsani bilishdan paydo bo'ladigan ichki sabr hissiy masalalarining qo'yilishidir. SHuni aytish kerakki, ushbu ichki sabr hissiy keyinchalik o'quv-bilishini rivojlantirishga yo'naltirilgan ijobiy motivatsiya bilan uyg'unlashib ketadi. Murakkab o'quv materialini o'zlashtirishda ichki omilning moyillik uyg'otishning ahamiyati katta. Masalan, mavzu o'rganilishi jihatidan qanchalik murakkab, mantiqiy bo'lsa, shunchalik ko'p intellektual «rag'batlantirish» olishi kerak, ana shunda u keyingi murakkab mavzuni yetarlicha qiziqish bilan o'rganishga kirishadi.

Psixo analitik qarashlar tizimida bilish va anglash motivlarining kelib chiqishi ichki (tug'ma) yoki tashqi (keyin o'zlashtirib olingan) sabablarga ajratilishi hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Masalan, E. Desi omillar inson tug'ilishiga xos bo'lgan sabablar, ya'ni tug'ma deb ta'riflaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini yetuk kadr bo'lishi uchun aniq maqsadga

qaratilgan o'quv-bilish faoliyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik muhit kerak. Ularning shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion ehtiyojlariga mos kelishi uchun o'quv-bilish faoliyatini rivojlantiruvchi jarayonning tashkil etishda pedagogik-psixologik muhit dinamik modellari bo'yicha o'quv maqsadlarini ta'lim mazmuniga proporsional moslashtirish ko'p yoqlama, motivatsiyaga boy, turli imkoniyat va bilish faoliyatini intensiv rivojlanishiga rag'batlantiradigan motivatsiya, kuch, imkon bo'lishi zarur.

Bu borada P. Ya. Galperinning talabani intellektual rivojlanishi o'quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshirishni bosqichma-bosqich tarkib toptirish nazariyasi qiziqish uyg'otadi. Mazkur nazariya A. N. Leont'evning bilish faoliyatini rivojlantirish jarayonining g'oya va fikrlarini o'ziga xos xususiyatlari asosida rivojlantirilgan. Bu nazariyaga muvofiq shaxsning ontogeneza tarkib topishida faoliyatlar interiorizatsiyasi ro'y berib, undan tashqi faoliyatlarning asta-sekinlik bilan ichki bilish faoliyatlariga aylanish jarayoni kechadi. SHuning uchun, oz imkoniyatini aniqlash va ularni amalga chiqarishdagi samaradorlik shaxsiy-motivatsiyaga bog'liq. O'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish uchun shaxsiy-refleksiv, iroda, emotsional kuch-g'ayratsiz intellektual rivojlanishining psixik jarayoni amalga oshmaydi.

O'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga asoslangan yondashuv quyidagi ta'lim yo'nalishlarini amalga oshirishni nazarda tutadi: kognitiv, motivatsion, vazifalarni hal qilishda olingan bilimlardan amalda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish; o'quv-bilish kompetensiyalarni shakllantirish, o'quv jarayonida amaliy vaziyatlarni amalga oshirish. SHuningdek, ma'lumot olish, qayta ishlash va uzatish usullari va vositalarga ega bo'lishini nazarda tutadi.

SHu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual rivojlanishi, shuningdek, o'quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshirishda o'quv bilish faoliyat jarayonini yo'lga solish uchun zarur bilim va mahorat, shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsiya bo'lishi kerak. O'quv jarayoni

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining ichki rivojlanishiga yordam berish uchun o'quvmateriali, rivojlanishni faol darajasiga mos bo'lishi va bu daraja murakkablik jihatida mavjud bilimidan ortiq bo'lishi kerak. Aks holda rivojlanishdan mahrum bo'lib qoladi.


Agar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchiga tavsiya etilayotgan vazifalar bilish kuchiga teng bo'lsa, u holda uning bu kuchlari bilish faoliyatini rivojlanishini davom etishiga turtki bo'lmaydi. Buning uchun bilish va intellektual faoliyatini kuchini ishlatish orqali o'quv vazifalarni va materiallarni o'zlashtirishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Mana shundan o'quv vazifalarini tushunarli bo'lishda va o'quv materiallarni o'zlashtirishga qaratilgan savollardan o'qituvchining vositachilik roli tushunarli bo'ladi. Aynan o'qituvchi o'rgatishi kerak bo'lgan o'quvmateriallari tushunarli bo'lishiga, anglab olishga bog'liq usullar yordam beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan o'quv materiallarini metodik ishlanmalarida foydalanib o'quv-bilish faoliyatini boshqarish tizimi aniqlab olinadi. Bunda ichki kuchlarini rivojlantiruvchi g'oyalari, intilishlari, motivatsiyalari hisobga olinib mavzuga oid yo'naltirilgan savollar berilsa, u

holda ular avvalgi mavjud bilimlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

SHunday qilib, olimlarni fikriga tayangan holda biz shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion yo'nalganlik o'quv-bilish faoliyatini rivojlantiruvchi jarayoniga undovchi o'quv-bilish traektoriyasini ta'lim maqsadlarining vektorli funksiyalariga integrativ muvofiqlashtirish omil sifatida tushunish tarafdorimiz.

Bir qator olimlar o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish sabablarini tasniflashda uning mohiyatini qarab hamda tushunish usullariga qarab ajratadilar. O'quv-bilish faoliyatini rivojlanishida turli ehtiyojlarga ko'ra motivlar biologik va ijtimoiy turlarga ajratilgan. Ijtimoiy motivlar o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini namoyon qilish, muvaffaqiyatga erishish, bilish faoliyatiga intilish, muvafaqiyatsizlikdan qochish kabi turlarga ajratiladi. Motivlarni tasniflashda boshqa bir yo'nalish talaba tomonidan ko'rsatiladigan faollik turiga ko'ra ijodiy muloqot, o'qish, sport va boshqa ijtimoiy sabablarga ajratish mumkin. Bu yerda sababning nomlanishi faollik turiga ko'ra belgilanadi.

N.I.Xalilova va F.I.Xaydarov o'z ilmiy izlanishlarida intellektual rivojlanishi o'quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshiruvchi



2-rasm. O'quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshiruvchi omillar

omillarni quyidagicha ifodalagan (2-rasmga qarang):

Demak, keltirilgan ma'lumotlar o'quv-bilishni faollashtirishda omillarning roli muhim ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi. Bu o'z navbatida ijtimoiy-psixologik va pedagogik fanlarni rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotimiz davomida ijtimoiy-pertseptsiya rivojlanishi va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quv faoliyatining yetakchi motivlari o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash maqsadida sinaluvchilar bilan T.I.Ильин tomonidan taklif etilgan «Oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish motivatsiyasi» o'rganish metodikasida quyida keltirilgan ma'lumotlar 4-kurs bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish, bilim olish va diplom olish motivlari 1-kurs bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'rsatkichiga nisbatan ham yuqori ekanligini ko'rsatgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bilim olish motivlari o'rta arifmetik qiymati 3,23 ga, o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish omillari 37,6 ga hamda diplom olish istaklari 30,1 ga teng.

Matematika fani bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni malakaga asoslangan yondashuvda o'qitish uchun majburiy fan hisoblanadi. Ushbu mavzu mazmunining xususiyatlari katta hajmlar, yuqori mehnat intensivligi, o'zlashtirishning qiyinligi. Biroq, matematikaning ahamiyatini bilish va yetarli shaxsiy-motivatsion yo'nalganlikga ega bo'lish bu muammoni hal qilishga yordam beradi.

SHaxsiy-motivatsion yo'nalganlik deganda «insonni faoliyatga undovchi, faoliyat chegaralari va shakllarini belgilab beruvchi va bu faoliyatga ma'lum maqsadlarga erishishga qaratilgan e'tiborni kuchaytiruvchi ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar majmui» tushuniladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini shaxsiy-motivatsion komponent muayyan faoliyatning paydo bo'lishi, yo'nalishi, amalga oshirish usullari va natijasini belgilaydi. SHaxsiy-motivatsion tayyorgarlik deganda, o'quv-bilish faoliyatiga, ayniqsa uning bevosit ta'lim bilan bog'liq tomonlariga ijobiy munosabatda namoyon bo'ladigan shaxsning motivlari va

extiyojlari tizimi tushuniladi.

Amaliyot shuniko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini empirik va nazariy o'qitish jarayonida axborot almashinish faoliyatiga bosqichma-bosqich tayyorlash ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar yuqori darajada namoyish etmaydilar, buni amalga oshirish uchun shaxsiy faoliyatga undovchi imkoniyatlarga ega bo'lishi, o'qitish sifat va samaradorligini oshirish uchun psixologik pedagogik vositalarga juda muhtoj.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash o'quv dasturlarida pedagog shaxsining har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilimlarning asosini tashkil etuvchi kognitiv, affektiv va psixomotor o'quv maqsadlarini ta'lim mazmuniga proporsional moslashtirish imkoni mavjud. SHu bilan birga, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari barcha qiyinchiliklarini yengishga qodir psixolog bo'lishida zarur bo'lgan fazilatlarni shakllantirish uchun asosiy bilim va ko'nikmalardan tashqari shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion yo'nalganlik traektoriyasini ta'lim maqsadlarining vektorli funktsiyalariga integrativ muvofiqlashtirish asosida o'quv-bilish faoliyati rivojlantiriladi.

Hozirgi vaqtda matematikani o'qitish usullarini qo'llash va ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalaridan foydalanishga bag'ishlangan yetarli miqdordagi tadqiqotlar mavjud, bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ammo matematikani o'qitishning ijodiy muloqoti natijadorligining psixologik xususiyatlari masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Bundan matematikani o'rganish jarayonida o'quv-bilish faoliyatlarga asoslangan yondashuv doirasida bosqichma-bosqich tayyorlash hamda o'zaro ta'sir sub'ektlari munosabatlarning kontseptual jihatlari rivojlantirishni o'rganish zarurligini aniqladi.

Matematika fani tabiiy fanlar bo'lib, uning maqsadi matematik ma'lumotlarni yig'ish, yangi imkoniyatlarni topish va taqdim etish usullarini singdirishdir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika faniga oid matanaliz asoslari, algebra va geometriya, ehtimolla nazariyasi, matematik statistikaning bilishi kerak,

kasbiy faoliyatda matematik til va belgilardan foydalana olishi, matematik masalalarni yechish kerak.

O'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quv-bilish faoliyatini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan psixologik-pedagogik tahlil matematikani o'rganish faol intellektual faoliyatga asoslanganligini ko'rsatdi. Ta'lim jarayonida nazariy fikrlash, turdosh fanlarni bilishning fikrlash jarayonlari uchun asos yaratadigan intellektual faoliyat rivojlanadi.

Matematikani o'qitish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion yo'naltirish orqali tarbiyalash, ularning kognitiv, affektiv va psixomotor sohalarini shakllantirishdir. Ta'lim natijasi matematikani o'rganish davomida intellektual rivojlanishi o'quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshirishga qaratilganligi va ularning rivojlanishiga bog'liq.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv-bilish faoliyati rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion darajasiga bog'liq. Bu masalani hal qilish axborot almashinish faoliyatiga bosqichma-bosqich tayyorlashdagi rivojlantiruvchi ta'limdir. Uni amalga oshirish uchun matematikadan o'quv-bilish faoliyati mantiqiy rivojlantiruvchi topshiriqlarning murakkablik va dinamik modellari bo'yicha masalalarni shakllantirish lozim. Ma'ruzada nazariy materialni taqdim etishda, amaliy mashg'ulotlarda esa o'quv-bilish faoliyati rivojlanishiga ta'siri ta'lim maqsadlarining vektorli funktsiyalariga integrativ muvofiqlashtirish asosida kognitiv, affektiv va psixomotor o'quv maqsadlarini ta'lim mazmuniga proportsional moslashtirish masalalari hal qilishda aniqlanadi. Matematik masalalarni yechish jarayonida o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish ta'lim maqsadlarining vektorli funktsiyalariga integrativ muvofiqlashtirish asosida matematik qobiliyatlar kognitiv, intellektual qobiliyatlarga bog'liq.

Ba'zi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari matematik qobiliyatlarni namoyish etaolmaydi, shuning uchun o'rganishda muhim omillari aloqa, o'quv, kognitiv, kasbiy, ijtimoiy

motivlar, shuningdek, o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish va o'zini anglashdan qochish motivlari hosil bo'ladi. Matematikani o'qitish jarayonida o'quv-bilish faoliyatining ajralmas qismi bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarbiyalash, ularning motivatsion sohasini shakllantirishdir.

Oliy ta'lim o'qituvchilari tomonidan ta'lim jarayoni, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning shaxsiyati va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish mumkin. Olingan natijalar asosida matematik, intellektual qobiliyatlar va motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish qator xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Motivlar va matematik qobiliyatlar o'rtasidagi munosabatlarning korrelyatsion matritsalarini mavjudligini ko'rsatgan Pearson korrelyatsiya koeffitsienti asosida quyidagi motivlar o'rtasidagi muhim (ahamiyati 0,01 dan kam) korrelyatsiyalar: aloqa, obro'-e'tibor, kasbiy, ijodkorlik, ta'lim, bilim va ijtimoiy.

Korrelyatsion tahlilni aniqlash uchun ham foydalanilgan testning turli ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korrelyatsiyalari aniqlandi (0,05 dan kam ahamiyatga ega): hal qilish qobiliyati o'rtasida nazariy va amaliy matematik masalalar, fazoviy umumlashtirish, diqqat va xotira; shuningdek fikrlash, og'zaki analogiyalar va umumlashtirish; fazoviy fikrlash, amaliy va nazariy muammolarni hal qilish ko'nikmalari; nutq tafakkuri va og'zaki analogiyalar; diqqat, xotira va barcha matematik qobiliyat.

Pedagogning shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion omillarni tahlil qilishdan o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarga guruhlandi:

«kognitiv-motivatsion», o'quv-bilish, ijodiy motiv. Bu omil boshqa metodik va takrorlanishsiz holda xarakterlaydigan bilish motivlarning o'zaro bog'liqligi bilan aniqlanadi. Natijalarni talqin qilishda, o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish istagi bo'lgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijodiy, o'zini o'zi anglash hohishi bilan ajralib turadi;

o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishiga ta'sir etuvchi omil matematik qobiliyatlardan

tashkil topgan bo'lib, u nazariy matematik masalalarni hal qilish qobiliyatini o'z ichiga olgan. Bu omil o'z ichiga amaliy hal qilish qobiliyati matematik muammolar, fazoviy umumlashtirish va tasavvur qilish qobiliyati, xotira, diqqat e'tiborlarni oladi. Agar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi yaxshi xotira va diqqat e'tiborga ega bo'lsa, u kerakli formulalarni tez esga oladi, xatoga yo'l qo'ymaydi, bu esa o'z navbatida, berilgan nostandart masalalarni hal qilish qobiliyatiga ta'sir qilib matematika fanini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;

o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishiga ta'sir etuvchi omil ijodiy muloqoti natijadorligi, ya'ni og'zaki-fikrlash, og'zaki-analogiyalar, og'zaki-umumlashtirish hisoblanadi. Ushbu ijodiy muloqoti evristik suhbatdan iborat bo'lib, unda yuqori natijadorligi bilan ustunlik qiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda og'zaki fikrlashning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqladi;

o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishiga ta'sir etuvchi omil og'zaki analogiyalar fikrlash va ijtimoiy motivlarni o'z ichiga oladi. Nutqiy fikrlash darajasi yuqori bo'lgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari og'zaki o'xshatishlarni osonroq bajaradilar va shu bilan birga o'z fikrini izohlashga kamroq moyil bo'ladilar.

O'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishiga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash va tahlil qilish matematikani o'qitishning psixologik xususiyatlarini aniqlashtirishga, umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga ajratishga imkon berdi. Umumiy xususiyatlar matematik va og'zaki qobiliyatlarning kombinatsiyasi, shuningdek motivlarni o'quv va bilish faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

SHuningdek, o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishi jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik meros muhim metodologik omillardan hisoblanadi. Chunki yosh avlodni axloqiy, ma'naviy va jismoniy jihatdan yetuk tajribasi mujassam bo'lgan. Mazkur masalada qo'yidagilarga e'tibor berish muxim: Axmat Farg'oniy, Abu Nasr Ibn Iroq, Muso Xorazmiy, Mirzo Ulug'beklarning matematika, algebra, astronomiya va

trigonometriya fanlaridan erishilgan ilmiy yutuqlari o'quv-bilish rivojlantirishning ilmiy-nazariyasoslaribilanta'minlaydi.

AbuRayxonBeruniy, AbuNasrFarobiylarining g'qarashlar o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishning amaliy omilini hisoblanadi.

SHuningdek, bilish faoliyatini tashkil etish jarayonini omillari bilishga qiziqish, o'quv maqsadlari, hissiyotlar, shaxsiy bezovtalik va hissiy barqarorlik, yutuqlarni qo'lga kiritish va ijodiy muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj; intellektual layoqatlilik va ijodiy muloqotga kirishuvchanlik; shaxsiy tajribalar hamda ko'nikmalar haqida izohlagan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining shaxsiy tajribasini samarali rivojlantirish quyidagi pedagogik sharoitlarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining hayotiy rejaları sohasidagi shaxsiy tajribasini muntazam o'rganish; o'quv-bilish faoliyatida uning shaxsiy tajribasini rivojlantirish uchun vaziyatlarni izchil tashkil etish; evristik o'qitish usullaridan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining shaxsiy tajribasini rivojlantirishda vaziyatlarni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanish.

Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining o'quv-bilish faoliyati sub'ektida shaxsiy tajribani shakllantirish va rivojlantirish jarayoni faqat individual ravishda davom etadi. Inson bilishining shaxsiy darajasi uning psixikasining chuqur yaqin sohasidir. SHaxsiyatning rivojlanishi shaxstomonidan uning ichki, asosan samimiy dunyosining o'ziga xos qurilishi sifatida namoyon bo'ladi, unga hech kim daxl qila olmaydi. O'quv-bilish faoliyati sharoitida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yagona narsa-bu ijodiy muloqotni yaratish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining semantik qidiruv faoliyati talab qiladigan shaxsiy tajribasini rivojlantirish uchun unifaoliyatga kiritadigan muammo sifatida qaraldi.

SHuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish faoliyati komponentlari pedagogning shaxsiy-refleksiv ya'ni, shaxsiy fikrlash hissiy va baholash faoliyati bilan chambarchas bog'liq. SHaxsning ichki dunyosini tushunishning ushbu shakli shaxsning

YORDAMCHI MAKTABLARDA SAVODGA O'RGATISHNING TAHLILIIY SINTETIK METODI

M.ABDUJABBOROVA

JDPU Maxsus pedagogika kafedra stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yordamchi maktablarda savodga o'rgatishning tahliliiy sintetik metodi bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishga ilmiy yondashuvlar asosida nutq faoliyati motivatsiyasini boyitish.

Tayanch so'zlar va iboralar: Lo-la, Sho-kir, Sho-di . Bu o'yin o'quvchilarning bo'g'indan so'zlar tuzish va bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'zlashtirish, Kesma alifbedan ayniqsa alifbe davrinig ikkinchi va uchunchi bosqichlarida savod o'rgatish darslari, predmetili – psixomotorli, sensor funksiyalar va harakat tizimining turli-tuman buzilishlari.



Аннотация. В данной статье обогащение мотивации речевой деятельности на основе научных подходов к повышению эффективности работы по аналитико-синтетическому методу обучения грамоте во вспомогательных школах.

Ключевые слова: Ло-Ла, Шо-Кир, шо-Ди . Эта игра призвана помочь учащимся усвоить правила построения слов из слога и слогового переноса, научиться грамоте на втором и третьем этапах алфавитного периода, особенно на занятиях по предметно-психомоторным, сенсорным функциям и различным нарушениям двигательной системы.

Savod o'rgatish davrida asosiy metod analitik-sintetik metodidir. Qiziqarli o'yinlar shu metodga asoslangan bo'lishi lozim. Qiziqarli o'yinlar 3-5 minut davom etishi mumkin. 1- o'yin bu bo'g'in ko'chirishga doir. Bunda o'qituvchi tomonidan tuzilgan "Bo'g'in jadvali" dan hohlagan bo'g'in ko'rsatiladi. O'quvchilar shu bo'g'inni kesma bo'g'indan tuzadilar. Ikkinchi bo'g'inni tuzadilar.

Masalan: Lo-la, Sho-kir, Sho-di . Bu o'yin o'quvchilarning bo'g'indan so'zlar tuzish va bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'zlashtirishga yordam beradi. 2-o'yin O'qituvchi istalgan unli harfni ko'rsatadi. O'quvchilar shu unli tovushga bog'lanadigan tovush topib og'zaki ravishda so'z yasaydilar. O'qituvchi o'quvchilar tuzgan so'zlarni doskaga yozib beradi.

Masalan:



Bu o'yinlar o'quvchilarning so'zni to'g'ri yozish talaffuz qilishlariga yordam beradi.

6-o'yin, O'qituvchi har bir qator partadan bittadan o'quvchini doska oldiga chiqarib, kesma harflardan bittadan harf beradi. Harf olgan o'quvchilarning qaysi biri so'z boshida

shu harf keladigan 3 ta so'z topib doskaga chiroyli qilib yozsa, shu-shu o'quvchi g'olib chiqadi.

” “A” “S” “B

Ali bolta Soli
A'zam Baxtiyor Sobir
Adham baliq Soat

So'z va bo'g'inlarni savodga o'rgatishda tovush harflarni alohida-alohida aytib o'qimaslikka, balki tovush harflarni bo'g'inda to'g'ri qo'shib talaffuz qilishga so'zlarni og'zaki nutqdagi kabi yaxlit holda tovushlar uyg'unligiga rioya qilib o'qishga o'rgatiladi deyiladi. Bu fikrni ko'pgina olimlarimiz tasdiqlashgan.

Bo'g'inlab o'qishning avzalligi quydagicha. Birinchidan: bola harflayotganda biror harfni tushib qoldiradi 2-3 ta harfning nomini aytib sanagach ichida biron-bir harfning nomini unitib o'qishga xatoga yo'l qo'yadi. Fikri harflarni aytib so'zni o'qishga bo'ladida, so'z ma'nosiga e'tibor bermaydi. O'qish uchun ko'p vaqt sarflaydi.

Ikkinchidan: so'zning tovush tarkibi murakkab bo'lishi, juft so'z bo'lishi, qo'shma so'z bo'lishi mumkin. Ularni bir tushuncha sifatida qabul qila olmaydi.

Uchinchidan: alifbening keyingi sahifalarida o'quv materiallari ko'piyib boradi; uni harflab o'qish orqali dastur talabini bajarib bo'lmaydi.

“Kesma alifbedan ayniqsa alifbe davrinig ikkinchi va uchunchi bosqichlarida savod o'rgatish darslarida eng asosiy ko'rgazmali qurol ham tarqatma materiallar sifatida qo'llaniladi”- deyiladi. T. Ashrapovanning kitobida haqiqatdan ham kesma alifbe savod o'rgatish bo'yincha, o'yinga o'rgatish bo'yicha uyushtiriladigan mashqlarda keng qo'llaniladi.

Bunda so'zlar qaysi tovush harf bilan farq qilyapti? So'z ma'nosida ham harf bormi? Har ikki so'zning m'nosini tushuntirish kabi savol topshiriqlarga javob olinishi mumkin.

un i n o' n

un u ch u z

u k

qovun s ovun

Ikki so'zlarda ya'ni bir bo'g'inli, bir tovush harflardan iborat bo'lsa, bunda ham yuqoridagi

ish turini qo'llash mumkin.

Kesma harflar yordamida tuzilgan so'zlarda so'zlardagi bitta harfning o'rnini almashtirib yoki umuman harflarning o'rnini almashtirib yangi so'z hosil qilish va o'qish mashqini ham o'tkazish mumkin.

M: Kalit-Tilak

Kesma harf bilan tuzilgan so'zdan bitta harfni olib qo'yib yangi so'z hosil qilish va o'qish

Mana-ana, elak-ela.

Bu kabi kesma harflar bilan so'z tuzish va o'qish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni so'zni to'g'ri va ravon nusha ko'chirishga o'rgatadi.

Kesma harflar bilan quydagicha o'yin tashkil qilish mumkin.

Kesma alifbe orasida 1, 2, 3, Raqamlari yozib qo'yiladi. O'quvchilar tartib bilan terib chiqadilar va o'qiydilar.

1, 2 o', n

1, 2, 3 o, n, a

Bu musoboqa tarzida uyushtiriladi.

Kesma alifbe yordamida so'z tuzdirish ishini bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchiga bajartirish mumkin. Buning uchun harf kassasidan bir harfning kichik va bosh shaklidan bir nechtdan bo'lishi kerak. Unli tovushni ifodalovchi harflar ko'proq tayyorlab qo'yilishi lozim.

O'quvchilarni savodga o'rgatish va to'g'ri o'qish malakalarini hosil qilishda bo'g'inlar jadvali ilova qilinadi. Bo'g'inlar jadvali alifbe darsligidagi o'quv materiallari asosida tayyorlanadi. Bo'g'inlar jadvalida bo'g'inlar bittadan berilgan. Lekin kesma bo'g'inlar ham bosma chiqarilgan.

Bo'g'inlar jadvalidan foydalanishdan oldin bo'g'inlar, kesma harflar bilan doska yoki partaga tuzdirilishi, o'qishni mashq qilinishi kerak.

So'ng o'rganilgan bo'g'inlar asosida so'z tuziladi va o'qiladi. Bo'g'inlar yordamida so'z tuzishda turli xil mashqlar, o'yinlar uyushturish mumkin.

1. O'qituvchi ikki bo'g'inli so'z aytadi, o'quchilar partalarida turadi va qo'l ko'tarib javob beradi. Bo'g'inlar jadvalidan bugungi darsda foydalanmaydigan bo'g'inlarni olib qo'yish lozim. Aks holda bolalar chalkashib qolishlari mumkin.

2. O'qituvchi sinfnig bilim-ko'nikmasikasidan kelib chiqib, kesma bo'g'inlar bilan ishni tashkil etadi. O'quvchilar ancha ko'nikma hosil qilgan bo'lsa, yozilgan yuqoridagi kabi so'zlarni aytadi.

O'quvchilar so'z tuzish ishi bilan endi ish boshlagan bo'lsa, o'qituvchi so'zni bo'g'inlab aytadi, o'quvchilar kesma bo'g'inlardan uni tuzadi.

O-na , bo-la , da-la ...

3. O'qituvchi narsa rasmni ko'rsatib uning nomini bildiruvchi so'zning birinchi bo'g'inini aytadi. O'quvchilar qolgan bo'g'larini topib, so'z tuzadilar va o'qiydilar.

4. O'quvchilarga biror so'z aytiladi. O'quvchilar uni kesma bo'g'indan tuzadilar. So'ng ikkinchi topshiriq beriladi.

a) birinchi bo'g'inni olib qo'yib o'qing.

b) oxirgi bo'g'inni olib qo'yib o'qing.

v) o'rtadagi bo'g'inni olib qo'yib o'qing.

d) bo'g'inlarni o'rnini almashtirib, yangi so'z hosil qiling va o'qing.

5. O'quvchilarga topishmoq aytadi. O'quvchilar topishmoq javobini kesma bo'g'inlardan foydalanib yozadi va o'qiydi.

“Darvoza o'yini”

Stol ustida kesma bo'g'inlar qo'yiladi. Ikki o'quvchi darvoza hosil qilib doska tomonga qarab o'tiradi. 1-o'quvchi chiqib, kesma bo'g'inlardan tanalib ularni ma'lum tartibga keltirib so'z tuzadi va darvozadan o'tadi. Uning topshirig'i to'g'riligini tekshirish uchun darvozabonlar ham o'qib ko'radi.

To'g'ri bo'lsa o'tadi, xato bo'lsa o'tmaydi. Ularni o'tirganlar diqqat bilan tekshirib, kuzatib boradi.

“Tun-kun” o'yini.

O'qituvchi yoki o'quvchi alifbe sahifalaridagi so'zlarni kesma bo'g'inlar yordamida tuzayotganda so'zlarni kesma

bo'g'inlar yordamida tuzayotganda “tun” deydi. Bolalar ko'zlarini yumib, boshini parta ustiga qo'yadi. Tuzib bo'lgach “kun” deydi. Bolalar boshini ko'tarib ko'zini ochadi. Tuzilgan so'zlarni o'qiydi. Kim birinchi o'qib bo'lsa, qo'lini ko'taradi.

Kesma bo'g'in va kesma harflar bilan birga ishlash ham mumkin. Bulardan asosan uch tovushdan tuzilgan so'zlarni tuzish va o'qishda foydalanish mumkin.

No + n , do's + t

No + k lol + a

Do'st so'zi bir bo'ginli so'z ekani undan t ni ajratib bo'lmasligi biz o'qishga o'rganish uchun bu usuldan foydalanganimizni aytib o'tishim kerak. Umuman kesma harf, kesma bo'g'in asosida so'z tuzish va o'qish mashqlarini tashkil etish ta'lim jarayonida o'quvchilarni qiziqtirishda, o'qishning ongli bo'lishida muhimahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni sezgirlikka, chaqqonlikka o'rgatadi. O'qituvchi ham vaqt sarflab, ko'proq samaraga erishadi. Kesma harf va kesma bo'g'inlar yordamida turli xilda qiziqarli mashq turlaridan, o'yinlardan foydalanish o'qituvchining izlanishini, ijodkorligi va maxoratiga bog'liqdir.

Maxsus ta'limda savod o'rgatish davri asosiy davrlardan hisoblanadi. Agar o'quvchi savod o'rgatish davrida yaxshi o'zlashtirsa, yuqori sinflarda ham yaxshi natijalarga ega bo'ladi. Umumiy o'rta ta'limda yaxshi natijalarga erishgan o'quvchi kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lib jamiyat uchun, uning ravnaqi, xalqning farovon yashashi uchun jon kuydiradigan mutaxassis bo'lib kamol topadi.

Ta'lim sohasidagi muxim hujjatlar – «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «2004-2009-yillarga mo'ljallangan maktab ta'limini rivojlantirish davlat umum milliy dasturi» talablariga asosan yosh avlodga jahon ta'lim standartlari darajasida ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutilgan.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri komil inson g'oyasi

hisoblanadi. O'quvchilarni komil inson etib tarbiyalash har bir pedagogning vazifasidir. Komil inson asosiy g'oyasini amalga oshirishda savod o'rgatish davri muhim ahamiyatga ega.


Mazkur qo'llanmada savod o'rgatish davrining o'ziga xos xususiyatlari, savod o'rgatish davrining asosiy darsligi hisoblangan «Alifbe»ning afzalliklari, rang-barangligi ko'rsatilgan. Qo'llanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari, boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalari uchun dasturulamal bo'ladi degan umiddamiz.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutq tovushlari, harflar bilan am'aliy tanishibgina qolmay bo'g'inlardan so'z tuzish, so'z va qisqa gaplarni o'qish hamda yozishni o'rganadilar. O'quvchilarda birinchi sinfdayoq


unli va undosh tovushlarni bir-biridan ajratish, o'xshash undoshlar va ularning harfiy aniqlash yondoshgan unilarni shuningdek, tovush va bo'g'in tahlili gap tuzish bilan aloqador bo'lgan lug'at imloga doir ishlar, talaffuzdan tushib qoladigan undoshlar, qator keladigan unli va undoshoid imlo ko'nikmalarini o'stirib boriladi. O'quvchilarning nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz etishga, so'zni o'rinli va to'g'ri ishlatishga gap va bog'lanishli nutqqa to'g'ri tuzishga, ular orasida erishish uchun oqituvchi dars davomida qiziqarli o'yinlarining xilma-xil usullaridan foydalanish zarur.

Savod o'rgatish davrida «Klaster» metodidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Misollar keltiramiz:



Yoki boshqacha namunas:




«Klaster» metodini savod o'rgatish davrida faqatgina harf, tovush, bo'g'inlar va so'zlar uchun emas, tovush va harflarni o'rgatishda

rasmlardan ham tuzsa bo'ladi.

Xullas, savod o'rgatish davrida innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning

Masalan:



savodxon bo'lishlarida, DTS talablarida qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Savod o'rgatishda topishmoqlar. Savod o'rgatishda topishmoqlardan foydalanish eng yaxshi mashq turlaridan hisoblanadi. Topishmoqlar bolalarni har tomonlama yetuk, zukko va bilimdon bo'lishlarida muhim ro'l o'ynaydi.

Topishmoq janri xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va boy janrlaridan biridir. Topishmoqlar odatda, xalqning urf-odatlarini, ruhiyat hamda axloqiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Topishmoqlar narsaning bir necha xil belgilari yashirin, sirli holda beriladi. Xar bir topishmoqning zamirida topilishi lozim bo'lgan bir ma'no va «kim?», «nima?» so'roqlarida yashiringan javob yotadi. Odamlar shu so'roqlarga qarab topishmoqda yashiringan narsani topishga harakat qiladilar. Ayniqsa, bolalar topishmoqdagi jumboqni bilishga, uni topishga juda qiziqadilar. Topishmoqlar mavzulari tabiat va kundalik hayotda uchrab turadigan aniq hodisa va narsalardan iborat bo'ladi. Odatda, topilishi lozim bo'lgan narsa yoki hodisaning biror belgisi taqqoslash yo'li bilan obrazli ifodalanadi. Ba'zi topishmoqlar

narsaning bajaradigan vazifasiga, harakatiga, uning nimadan yoki qanday ishlanganiga qarab, shu xususiyatlar asosida yaratilishi mumkin.

R. Safarova, M. Inoyatova, M. Shokirova va L. Shermatovalarning 1-sinflar uchun mo'ljallangan «Alifbe» darsligida ham bir qancha topishmoqlar berilgan. Darslikning «Suyamasang turolmas, sen minmasang yurolmas»,

«Sh»dan boshlanar oti,
Asal kabi sharbati.
Bilsang nomin ayt, Ali?
- Ha, bilaman -
Yashil to'nli bolalar,
Makonidir dalalar.
Chirsillaydi tishlasa,
Bo'lar osh bilan yesa.
«Qat-qat qatlama,
Aqling bo'lsa tashlama».
«Boshi taroq, dumi o'roq».
«Men yuraman, u qoladi».
«Bir parcha patir – olamga tatir».
«Ichi bo'yoq
Sirti tayoq».

«Usti tosh, po'sti tosh, o'rtasida chandir bosh» kabi topishmoqlar shular jumlasidandir. Bolalarga topishmoqlarning javobini tasavvur qilishlari va topishlari oson bo'lishlari uchun

velosiped, shaftoli, turp, kitob, xo'roz, iz, oy, qalam, toshbaqalarni rasmlari ham berilgan. Xullas topishmoqlarda xalq donishmandligi aks etadi. Ular o'ziga xos mazmuni va ifoda shakli bilan bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlikka o'rgatadi, ularning fikrlar qobiliyatlarini o'stiradi.

Ayniqsa savod o'rgatish davrida topishmoqlardan foydalanish maktabga dastlab qadam qo'ygan bolalarni qiziqib savod chiqarishlarida muhim vosita bo'ladi.

Абстрактный: В данной статье подчеркивается важность подготовки студентов к самостоятельной семейной жизни в высших учебных заведениях. Несмотря на академическую направленность университетов, существует растущая потребность в обучении молодых людей навыкам, необходимым для управления семейными обязанностями, финансового планирования, межличностных отношений и эмоционального благополучия. В этом исследовании рассматриваются существующие программы, определяются области внимания и предлагается основа для включения образования в области семейной жизни в учебные программы высшего образования.

Ключевые слова; Высшие учебные заведения, независимая семейная жизнь, образование в семейной жизни, разработка учебной программы, эмоциональный интеллект, финансовая грамотность, управление взаимоотношениями, баланс между работой и личной жизнью, благополучие студентов, целостное образование

Kirish

So'nggi yillarda oliy ta'limning roli akademik va kasbiy tayyorgarlikka bo'lgan an'anaviy e'tibordan tashqarida rivojlandi. Talabalar ish kuchiga o'tib, mustaqil hayot yo'lga qo'ya boshlagach, universitetlar ularni oilaviy hayotning murakkabligiga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynashi

kerakligini anglab yetmoqda. O'tmishda ko'pincha e'tibordan chetda qolgan ta'limning bu jihati moliyaviy menejment, shaxslararo munosabatlar, hissiy intellekt va ish va hayot muvozanati kabi ko'nikmalar va bilim sohalarini o'z ichiga oladi. Ushbu tayyorgarlikning ahamiyati yoshlarning oilaviy hayotning mas'uliyati va dinamikasiga

moslashishda duch keladigan qiyinchiliklari bilan ta'kidlanadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga oilaviy hayot ta'limini kiritish muhimligini o'rganish va ta'kidlashdan iborat. Bu tadqiqot, akademik muvaffaqiyat va kasbiy malaka muhim bo'lsa-da, bitiruvchilarning umumiy farovonligi va hayotidan qoniqishini ta'minlash uchun etarli emasligini tobora e'tirof etish bilan bog'liq. Yoshlar ta'limdan to'liq mustaqillikka o'tish davrida oilaviy hayotga tayyorgarlik ko'rmaslik jiddiy muammolarga, jumladan moliyaviy beqarorlik, munosabatlardagi qiyinchiliklar va hissiy stresslarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi adabiyotlar yoshlarning oilaviy hayotning amaliy va hissiy jihatlarini boshqarishga tayyorgarligida sezilarli bo'shliqni ko'rsatadi (Smit, 2020; Jonson va Li, 2021). Zamonaviy hayotning o'zgaruvchan talablariga qaramay, ko'plab oliy o'quv yurtlari oilaviy hayot ko'nikmalarini o'zlarining ta'lim takliflariga to'liq integratsiyalashgani yo'q. Bu bo'shliq o'quvchilarni oilaviy hayot haqiqatlariga tayyorlashda tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi, bu esa, o'z navbatida, sog'lom va mustahkamroq shaxslar va jamoalarga hissa qo'shishi mumkin.

Ushbu maqola mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqadi, so'rov natijalari va hozirgi talabalar va yaqinda bitiruvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijalarini taqdim etadi va oilaviy hayot ta'limini oliy ta'lim o'quv dasturlariga integratsiya qilish uchun keng qamrovli asosni taklif qiladi. Bu orqali u o'qituvchilar, siyosatchilar va ta'lim muassasalariga o'quvchilarni muvaffaqiyatli va baxtli oilaviy hayot uchun zarur ko'nikma va bilimlar bilan ta'minlash bo'yicha tushuncha va amaliy tavsiyalar berishni maqsad qilgan.

Adabiyot manbalarini haqida umumiy ma'lumot; Adabiyot sharhi

Oliy o'quv yurtlarida talabalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash ko'p qirrali masala bo'lib, ta'lim, psixologiya, sotsiologiya va moliyaviy menejment kabi bir qancha o'quv fanlari bilan kesishadi. Ushbu adabiyotlarni ko'rib chiqish bilimlarning hozirgi holatini har tomonlama tushunish va ushbu tadqiqot bartaraf etishga qaratilgan kamchiliklarni aniqlash uchun ushbu sohalaridagi mavjud tadqiqotlarni sintez qiladi.

Oliy ta'limda oilaviy hayot ta'limining ahamiyati

So'nggi yillarda oliy ta'limda oilaviy hayot ta'limi konsepsiyasiga e'tibor kuchaymoqda. Miller va Gavazzi (2013) ta'kidlaganidek, oilaviy hayot ta'limi yoshlarni zamonaviy oila dinamikasi va mas'uliyatining murakkabligini boshqarish uchun zarur ko'nikma va bilimlar bilan jihozlashda muhim ahamiyatga ega. Bu muloqot qobiliyatlari, moliyaviy boshqaruv, hissiy aql va nizolarni hal qilish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy menejment va savodxonlik

Moliyaviy menejment muvaffaqiyatli oilaviy hayotning muhim tarkibiy qismidir, lekin u ko'pincha oliy ta'lim o'quv dasturlarida etarli darajada yoritilmaydi. Lyons va boshqalar. (2006) kollej talabalari o'rtasida moliyaviy savodxonlikka bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini ta'kidlaydi, ayniqsa ular talabalar kreditlari, byudjetlashtirish va kelajakdagi moliyaviy barqarorlikni rejalashtirish bilan bog'liq qarorlarga duch kelishadi. Moliyaviy tayyorgarlikning etishmasligi oilaviy hayotda sezilarli stress va beqarorlikka olib kelishi mumkin (Joo & Grable, 2004).

Hissiy intellekt va munosabatlarni boshqarish

O'zaro munosabatlarni boshqarishda hissiy intellektning roli oilaviy hayot uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Schutte va boshqalar tomonidan tadqiqot. (2001) hissiy intellekt va shaxslararo

munosabatlar sifati o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni ko'rsatadi. Jonson va Li (2021) yana oliy ta'lim muassasalari ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda faolroq rol o'ynashi kerakligini ta'kidlaydilar, chunki ular shaxslar va oilalar farovonligi uchun zarurdir.

2.4. Ish va hayot muvozanati

Kasbiy va oilaviy mas'uliyatni muvozanatlash ko'plab kattalar uchun jiddiy muammodir. Greenxaus va Beutellning (1985) ish va hayot ziddiyatiga bag'ishlangan muhim ishlari ish va oila noto'g'ri bo'lganida paydo bo'ladigan keskinlikni ta'kidlaydi. So'nggi tadqiqotlar, masalan, Kossek va boshqalar. (2019), talabalarni ushbu qiyinchiliklarni samarali hal qilishga tayyorlaydigan ta'lim tadbirlarini talab qiladi.

Oliy ta'limdagi joriy tashabbuslar va dasturlar

Oliy o'quv yurtlarining o'z takliflariga oilaviy hayot ta'limi elementlarini kiritishga oid mavjud misollar mavjud. Misol uchun, Minnesota universitetining Oilaviy ta'lim dasturi talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashga kompleks yondashuvni taqdim etadi. Biroq, Smit (2020) ta'kidlaganidek, bunday dasturlar keng tarqalmagan va turli muassasalarda oilaviy hayot ta'limiga qanday yondashishda izchillik yo'q.

Bo'shliqlar va kelajak yo'nalishlari

Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning e'tirof etilgan ahamiyatiga qaramay, ta'limning ushbu yo'nalishini universitet o'quv dasturlariga integratsiyalashda sezilarli bo'shliq saqlanib qolmoqda. Bu sohada turli ta'lim strategiyalarining samaradorligini yanada tizimli va kompleks yondashuvlarga, shuningdek, keyingi tadqiqotlarga ehtiyoj bor.

Adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, oliy o'quv yurtlarida oilaviy hayot ta'limiga bo'lgan ehtiyoj tobora ko'proq e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, o'quv dasturlarini ishlab chiqish

va amalga oshirish borasida hali ko'p ishlar qilinishi kerak. Ushbu sharh ushbu tadqiqot uchun zamin yaratadi, uning maqsadi empirik tushunchalarni taqdim etish va oilaviy hayot ta'limini oliy ta'lim o'quv dasturlariga integratsiya qilish asoslarini taklif qilish orqali ushbu sohaga hissa qo'shishdir.

Metodologiya

Oliy ta'lim talabalarining mustaqil oilaviy hayotga tayyorgarligining hozirgi holatini har tomonlama tushunish va yaxshilash mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlarni aniqlash uchun ushbu tadqiqotda aralash usullardan foydalanildi. Ushbu metodologiya talabalar va yangi bitiruvchilarning tajribalari va idroklari haqida miqdoriy va sifat jihatidan tushuncha berish qobiliyati uchun tanlangan. Tadqiqot uchta asosiy komponentda tuzilgan: so'rov, chuqur suhbatlar va universitet o'quv dasturlarini ko'rib chiqish.

Hozirgi universitet talabalari so'rovi

Turli oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan 500 nafar talabalar orasida tuzilgan onlayn so'rovnoma o'tkazildi. So'rov talabalarning mustaqil oila hayotining moliyaviy boshqaruv, hissiy barqarorlik, shaxslararo munosabatlar va ish va hayot muvozanati kabi jihatlariga tayyorligini baholash uchun mo'ljallangan. So'rov yopiq va ochiq savollardan iborat bo'lib, tayyorlik darajasini miqdoriy tahlil qilish va muayyan tashvish yoki bilim etishmasligi haqida sifatli tushunchalar olish imkonini beradi.

Ishtirokchilar jinslar, o'quv fanlari va yil darajalarining vakillik aralashmasini ta'minlash uchun tabaqalashtirilgan namuna olish usuli yordamida tanlandi. So'rov universitet elektron pochta ro'yxatlari va talabalar jamoalariga bag'ishlangan ijtimoiy media platformalari orqali tarqatildi.

Yaqinda bitiruvchilar bilan suhbat

Universitetdan mustaqil oilaviy hayotga o'tayotgan shaxslar duch keladigan haqiqiy

hayot muammolari haqida chuqurroq ma'lumotga ega bo'lish uchun 100 nafar yaqinda bitirgan (so'nggi besh yil ichida bitirgan) bilan chuqur suhbatlar o'tkazildi. Suhbatdoshlar ilmiy ma'lumotlar, oila tuzilmalari va hozirgi bandlik holati bo'yicha turli vakillikni ta'minlash uchun maqsadli tanlab olish usuli yordamida tanlandi.

Suhbatlar yarim tizimli bo'lib, bitiruvchilar tajribasining turli jihatlarini o'rganishda moslashuvchanlikni ta'minladi. Muhokama qilingan asosiy mavzular orasida oilaviy hayotni boshqarishda duch keladigan muammolar, ular o'zlarini tayyor emasligini his qilgan sohalar va oliy ta'lim muassasalari talabalarni bu borada qanday qilib yaxshiroq qo'llab-quvvatlashlari bo'yicha takliflarini o'z ichiga oldi.

Universitet o'quv dasturlarini ko'rib chiqish

Oilaviy hayotga tayyorgarlik hozirda oliy ta'lim dasturlariga qay darajada integratsiyalashganligini baholash maqsadida o'quv dasturini ko'rib chiqish o'tkazildi. Ushbu ko'rib chiqish uchun geografik joylashuvi va akademik takliflari bo'yicha har xil o'nta yetakchi universitet tanlab olindi. Tahlil moliyaviy savodxonlik, munosabatlarni boshqarish, hissiy farovonlik va ota-onalik ko'nikmalari kabi oilaviy hayotni boshqarish bilan bog'liq ko'nikma va bilimlarni bevosita ta'minlovchi kurslar yoki modullarning mavjudligiga e'tibor qaratdi.

Har bir universitet uchun ko'rib chiqish kurs kataloglari, o'quv dasturlari va oilaviy hayot ta'limiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan har qanday mavjud onlayn resurslar yoki darsdan tashqari dasturlarni o'rganishni o'z ichiga oldi. Ushbu sharh ilg'or tajribalar, kamchiliklar va o'quv dasturlarini ishlab chiqishning potentsial sohalarini aniqlashga qaratilgan.

Ma'lumotlarni tahlil qilish

So'rovdan olingan miqdoriy ma'lumotlar statistik dasturlar yordamida o'quvchilarning oilaviy hayotga tayyorgarligi qonuniyatlari va korrelyatsiyalarini aniqlash uchun tahlil qilindi. Ochiq so'rov javoblari va intervyulardan olingan sifatli ma'lumotlar umumiy mavzular va tushunchalarni aniqlash uchun tematik tahlil yordamida tahlil qilindi.

Munozara

Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud o'quv dasturlari va talabalarning mustaqil oilaviy hayotga tayyorlanish ehtiyojlari o'rtasidagi jiddiy tafovutni yoritib beradi. Quyidagi muhokamada ushbu xulosalarning oqibatlarini o'rganilib, oilaviy hayot ta'limini oliy ta'limga integratsiyalash muhimligi va bunday yondashuvning mumkin bo'lgan foydalari ta'kidlanadi.

So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning 70% dan ortig'i o'zlarini oilaviy hayot qiyinchiliklariga, xususan, moliyaviy boshqaruv va hissiy barqarorlik kabi sohalarida yetarli darajada tayyor emasligi hozirgi ta'lim modellaridagi kamchiliklarni yaqqol eslatib turadi. Ushbu topilmalar yosh kattalar uchun oilaviy hayot ko'nikmalarining muhimligini ta'kidlaydigan adabiyotlarga mos keladi (Brown & Green, 2019; Jonson & Li, 2021). Yaqinda bitiruvchilar bilan bo'lib o'tgan suhbatlar bu topilmalarni yanada tasdiqlaydi, munosabatlarning keskinligi va ish va hayotdagi nomutanosiblik kabi haqiqiy hayot oqibatlarini ta'kidlaydi.

O'quv dasturlarini ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, imtihondan o'tgan universitetlarning uchdan biridan kamrog'i oilaviy hayotga tegishli ko'nikmalar bo'yicha maxsus kurslar yoki modullarni taklif qiladi. Talabalarning ehtiyojlari va o'quv dasturlari o'rtasidagi bunday nomuvofiqlik oliy ta'lim muassasalari uchun o'z ta'lim doirasini qayta ko'rib chiqish va kengaytirish uchun muhim imkoniyatni ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalari talabalarni nafaqat kasbiy muvaffaqiyatga, balki o'qishni tugatgandan keyin duch keladigan shaxsiy va shaxslararo muammolarga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynashi kerak. Oilaviy hayot bo'yicha ta'limni universitet o'quv dasturlariga kiritish shaxsiy va oilaviy hayotlarini samarali boshqarish uchun ko'proq jihozlangan, har tomonlama rivojlangan bitiruvchilarga olib kelishi mumkin.

Ushbu integratsiya nafaqat talabalar uchun foydali bo'ladi, balki kengroq ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, moliyaviy savodxonlik va rejalashtirish ko'nikmalarini oshirish yosh kattalar o'rtasida qarz va moliyaviy stress darajasini pasaytirishi mumkin, hissiy aql va munosabatlarni boshqarish ko'nikmalarini oshirish esa oilaning sog'lom va barqaror bo'lishiga yordam beradi.

Oliy ta'limda oilaviy hayotni o'rganishga kompleks yondashuv ko'p foyda keltirishi mumkin. Bularga talabalar farovonligi va ruhiy salomatligini yaxshilash, ish va hayot muvozanati bilan bog'liq stressni kamaytirish va munosabatlardan qoniqishni oshirish kiradi. Bundan tashqari, bu ko'nikmalar o'tkazilishi mumkin va professional muvaffaqiyatga hissa qo'shishi mumkin, chunki oilaviy hayotni boshqarish bilan bog'liq ko'plab vakolatlar, masalan, muloqot va hissiy tartibga solish ish joyida ham qadrlanadi.

Oilaviy hayot ta'limini oliy ta'lim o'quv dasturlariga integratsiyalashuvi aniq foyda keltirsa-da, bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish resurslarni, professor-o'qituvchilarni tayyorlashni va ta'lim ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bundan tashqari, oliy ta'limning rolini birinchi navbatda akademik va kasbiy tayyorgarlik deb hisoblaydigan manfaatdor tomonlarning qarshiliklari bo'lishi mumkin.

Bu qiyinchiliklarni yengish uchun birgalikda harakat, targ'ibot va oliy ta'lim maqsadlari qanday idrok etilishini o'zgartirish kerak bo'ladi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda talabalarning ehtiyojlari va ularni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining mavjud takliflari o'rtasidagi tafovut harakatga da'vatdir. Universitetlar ushbu bo'shliqni tan olish va bartaraf etish orqali o'z bitiruvchilarining farovonligi va muvaffaqiyatini nafaqat kareralarida, balki shaxsiy hayotlarida ham oshirishlari mumkin. Bu yanada yaxlit ta'lim yondashuviga o'tish zamonaviy hayotning o'zgaruvchan talablari va murakkabliklari kontekstida nafaqat foydali, balki zarurdir.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hozirgi ta'lim muhitida katta bo'shliq mavjudligini ko'rsatdi. Moliyaviy savodxonlik, hissiy intellekt, munosabatlar ko'nikmalari va ish va hayot muvozanati kabi oilaviy hayotni boshqarish bilan bog'liq ko'nikmalarning ahamiyati ortib borayotganiga qaramay, bu sohalar universitet o'quv dasturlarida etarli darajada aks ettirilmagan. So'rov va suhbatlar natijalari oliy ta'lim muassasalarining ta'lim ko'lamini an'anaviy akademik va kasbiy tayyorgarlikdan tashqari kengaytirish, har tomonlama barkamol va muvaffaqiyatli kattalar hayoti uchun muhim jihatlarni o'z ichiga olishi zarurligini ta'kidlaydi.

Ushbu tadqiqotning natijalari akademik sohadan tashqariga chiqib, talabalarni oilaviy hayot uchun zarur ko'nikmalar bilan jihozlash orqali universitetlar sog'lom va bardoshli jamoalarga hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatadi. Oilaviy hayotdagi qiyinchiliklarga yaxshiroq tayyor bo'lgan bitiruvchilar, ehtimol, kamroq stress va shaxsiy va kasbiy qoniqish darajasi yuqori bo'ladi. Ta'limga

БЎЛАЖАК МУТАХАССИСЛАРДА КОММУНИКАТИВ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

ХИЛОЛИДДИНОВА ФЕРУЗА РАШИДОВНА
Жиззах политехника институти

Аннотация. Мақолада бўлажак мутахассисларда коммуникатив маданиятни ривожлантириш ҳақида сўз боради. Мақола мазмунини очиб бериш мақсадида хорижлик ва маҳаллий олимларнинг илмий ишланмаларидан фойдаланилди.

Калит сўзлар; коммуникатив маданият, хорижий тиллар, касбий куникмаб касбий малака.

Abstract. The article talks about the development of communicative culture in future specialists. In order to reveal the content of the article, the scientific developments of foreign and local scientists were used.

Keywords; communicative culture, foreign languages, professional knowledge and professional qualifications.

Абстрактный. В статье говорится о развитии коммуникативной культуры у будущих специалистов. Для раскрытия содержания статьи использованы научные разработки зарубежных и отечественных ученых.

Ключевые слова; коммуникативная культура, иностранные языки, профессиональные знания и профессиональная квалификация.

Малакатимизнинг ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий шароитларида таълимнинг замонавий тенденциялари инсоннинг коммуникатив қобилиятларини кучайтиришдан, касбий малака ва касбий ҳаракатчанликнинг оширилиши талабини шакллантиришдан, шунингдек, инсонда умуминсоний қадриятларга содиқ маданиятни тарбиялашдан иборат.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев “Ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича 5 та муҳим ташаббус”ни илгари сурган эди. Булар: биринчи ташаббус – Ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқаришга хизмат қилади. Иккинчи ташаббус – Ёшларни жисмоний чиниқтириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган. Учинчи

ташаббус – Аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган. Тўртинчи ташаббус – Ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган. Бешинчи ташаббус – Хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутди.

Шуни алоҳида қайд қилиб ўтиш керакки, юртбошимиз ёшларга ғамхўрлик қилар экан, уларнинг таълим олиши, касб-ҳунар эгаллаши учун замонавий шароит ва имкониятлар яратилганлиги, шу билан бирга, ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказишни ташкил этиш долзарб масала эканлигини таъкидлаб, ёшлар қанчалик маънавий баркамол бўлса, турли ёт иллатларга қарши иммунитетни ҳам шунча кучли бўлишини таъкидлаб ўтган эди. Ҳақиқатан ҳам ушбу беш ташаббусдан келиб чиққан

холда бўлажак мутахассисларда коммуникатив маданиятни ривожлантиришда педагогика ва психологиядаги тадқиқотлар ташаббускорлик ва эпчилликни намоён қилишга, шунингдек, ишлаб чиқариш ва коммуникатив масалаларни самарали ечишга йўналтирилган мутахассисларни тайёрлашга қаратилган бўлиши лозим. Санаб ўтилган шароитлар сабабли олий таълим тизими олдида коммуникатив маданиятга эга бўлган юқори компетентли ва малакали мутахассисларни тайёрлаш вазифалари қўйилади. Шу сабабли талабаларда коммуникатив маданиятни шакллантириш ҳозирги кун шароитларида жиддий аҳамият касб этади ва бўлажак мутахассисни касбий тайёрлашнинг таркибий қисми бўлиб ҳисобланади.

Мамлакатимизда қабул қилинган Давлат таълим стандартларида олий таълим муассасаларида ҳар бир фанни ўқитишни турли таълим босқичларига мувофиқ олиб бориш, шу фанни ўқитишдан кўзланган мақсад ва вазифалар аниқ белгилаб қўйилган. Ҳозирги пайтда чет тилларни ўқитишни замон талабига кўра ташкил этиш методик изланишларни тақозо этмоқда. Бу чет тилларни ўқитишнинг замонавий ҳамда нутқий мулоқотга йўналтирилган технологияларининг юзага келишига сабаб бўлди. Уларнинг моҳиятини яхшироқ тушуниш учун бу технологияларни чет тилини ўқитишда ва жамиятнинг ижтимоий фаолиятида тутган ўрни, роли, замон талабига жавоб бера олиш даражаси ва чет тили ўқитилаётган ўқув маскани олдида қўйилган мақсадни амалга оширишга қай даражада ёрдам бера олиши нуқтаи назардан таҳлил қилиш талаб этилади.

Қайд этилган талабларни бажариш, ўз мутахассислиги доирасида кенг маълумотга эга бўлиш, ўз соҳаси, касби бўйича рақобатбардош бўла олиш бугунги кунда чет тилларни мукамал эгаллашни

тақозо этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонида таълим ва фан соҳасини ривожлантириш давлат сиёсати маъно-мазмунидан ва унинг долзарблигидан келиб чиқиб янги таълим мазмуни, баркамол авлод кадрларини тайёрлашдаги ўзгаришлар ва янгича ёндашувлар, замонавий касб соҳаларининг пайдо бўлгани ҳамда унинг мамлакатимиз шароити билан боғлиқлигини таъкидлаган. Хусусан, Республика-мизда ёшларнинг хорижий тилларни мукамал эгаллашлари, турли йўналишлар бўйича маълумотларни ўқиб ўзлаштириш, тили ўрганилаётган мамлакат вакиллари билан эркин мулоқот юрита олиш кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантиришга жиддий эътибор қаратила бошланди.

Мамлакатимизда таълим соҳасида ўтказилган ислохотлар чет тилларни ўқитишда ҳам туб ўзгаришларни юзага келтирди. 2012 йил 10 декабрдаги “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари” тўғрисидаги ПҚ-1875 қарори асосида хорижий тилларни бошланғич синфлардан бошлаб узлуксиз ўқитилишининг йўлга қўйилиши давлат таълим стандартларини халқаро талаблар асосида такомиллаштириш, таълим тизимининг барча босқичлари учун ўқув дастурлари мазмунини янгилаш, таълим жараёнига янгича ёндашув ва замонавий технологияларни жорий этишни тақозо этади.

Коммуникатив маданият ижтимоий фаолиятда нафақат ахборот алмашинуви-га, балки мулоқот жараёнида таълим ва тарбияни амалга оширишга, шахснинг интеллектуал ривожланишига, ундан билим олишга, ўқиб ўрганишга нисбатан мотивацияни ўстиришга ҳам яқиндан ёрдам беради.

Талабаларда англиз тилидаги оғзаки нутқ кўникма ва малакаларини шакллантириш ва ўстиришни мулоқотга йўналтириш асосида ташкил қилишдан аввал коммуникатив методнинг чет тилни ўқитиш технологиясига оид ишларда қандай талқин қилинишини ва бу ҳақда олимларнинг турли фикрларини ўрганиш, таҳлил қилиш зарур. Бу коммуникатив технологиянинг моҳиятини, унинг чет тилдаги оғзаки нукт кўникмаларини ўстиришда асос бўлиб хизмат қилишини, самарадорлигини аниқлашга ва оғзаки нутққа ўргатиш технологиясини ишлаб чиқишга оид кўрсатма, маслаҳатлар бериш ҳамда нутқий мулоқотга йўналтирилган технологияни (машқлар гуруҳини) ишлаб чиқишга ёрдам беради.

Маълумки, коммуникатив маданият чет тилидаги оғзаки нутқий фаолият билан боғлиқ барча жиҳатларни қамраб олган. Оғзаки нутқни ўстиришдан кўзланган мақсад, нутқий материални танлаш билан боғлиқ масалалар, нутқни ўстириш усуллари танлаш, талабаларнинг чет тилидаги билим, кўникма ва малакаларининг шаклланиши даражаси, уларнинг бир-бирларига муносабати шулар жумласидандир.

Илмий методик адабиётларда коммуникатив маданиятга оид тилшунос, психолог ва методист олимларнинг Ж.Ж. Жалолов, Г.Махкамова, А.А.Леонтьев, Е.И.Пассов, Г.М.Рогова, И.Л.Бим, И.А. Зимняя, Н.М.Жинкин, М.Даковская ишларини таҳлил қилинганда турли фикр ва қарашларни кузатиш мумкин.

Чет тилларни ўқитиш технологияси соҳасидаги таниқли олимлардан бири Е.И.Пассов коммуникатив маданиятнинг бешта тамойилини (принципларини) фарқлайди:

1. Коммуникативлик.
2. Нутқ системасига суяниш.

3. Ситуативлик.

4. Янги ахборот бериш.

5. Яхлитлик, бир бутунлик тамойилларидир.

Е.И.Пассов фикрича, коммуникативлик тамойили нутқий материал, яъни нутқий мулоқотга мос бўлган сўз ва ибораларни танлаш, талабаларда нутқ материалли, унинг мазмуни нутқий жараёни амалга оширишга нисбатан юксак мотивацияни шакллантиришни, шунингдек, танлаб олинган машқларнинг нутқий характерга эга бўлишини тақозо этади.

Коммуникация лотинча “communicatio” – хабар узатиш, яъни барча фанлар томонидан ишлатиладиган универсал тушунча. Бироқ мазкур муаммога файласуфлар, социологлар, лингвистлар, педагоглар ва бошқа мутахассисларнинг катта қизиқишига қарамай, мазкур масала ҳозирги кунда назарий ва амалий жиҳатдан ҳали етарлича ўрганилмаган.

“Коммуникация” – бу субъектлар орасидаги ахборот алмашинувини амалга оширадиган жараён”.

Психологлар тадқиқотлари таҳлили шундай хулосага олиб келдики, бунинг тадқиқотчининг ўзи тан олишидан ёки олмаслигидан қатъий назар, мулоқотнинг деярли барча тадқиқотлари юқорида санаб ўтилган назарий йўналишлардан бирига йўналтирилган бўлади.

Бироқ шуни айтиб ўтиш жоизки, олимлар кўпроқ эътиборни масаланинг перцептив томонига қаратишган, фикрлаш ва англашни ривожлантириш нуқтаи-назаридан, мулоқотнинг турли характеристикаларини, уларнинг ўзаро боғлиқликларини ўрганишди, аммо етарли даражада “коммуникатив маданият” тушунчасини ва унинг шаклланишига нима таъсир кўрсатишини кўриб чиқишмаган.

Мулоқот муаммосининг педагогик тадқиқотлар томонидан ўрганиш шуни

кўрсатдики, уларнинг кўпчилигида у ёки бу фаолиятнинг алоҳида тури сифатида ёки муносабатлар концепцияси оқимида кўриб чиқилди.

Мулоқот – инсоннинг яшаш муҳити деб, тасдиқловчи олимларнинг фикрларига қўшилаемиз. Улар томонидан алоҳида урғу шу жиҳатга берилдики, мулоқотсиз инсон шахси, унинг тарбияси, идроки ривожланишини ҳам, шаклланишини ҳам имкони бўлмайди. Айнан у ҳамкорликдаги ишни ташкил қилиш, режаларни аниқлаб олиш ва муҳокама қилиш, уларни амалга оширишга ёрдам беради. Бундан шундай хулоса келиб чиқадики, мулоқот санъатини ўзлаштириш ҳар бир инсонга, унинг қайси фаолият тури билан ҳозирда ёки келажакда шуғулланишидан қатъий назар зарур бўлади.

Мулоқот – бу одамларнинг ўзаро фаолиятининг жуда мураккаб жараёнидир. Замонавий илм-фанда мазкур тушунчанинг ўзаро мос келмайдиган жуда кўп тавсифлари мавжуд. Бу ҳодисанинг кўп тизимлилиги ва кўп қирралиги билан тушунтирилади. Мулоқот муаммолари билан кўплаб илм-фан вакиллари – файласуфлар, психологлар, лингвистлар, социологлар ва бошқалар шуғулланишади. Уларнинг ҳар бири мулоқотни ўз илм-фани нуқтаи назаридан кўриб чиқади, ўрганиш учун ўзига хос жиҳатларни ажратиб кўрсатади ва мос равишда ўзининг тавсифини шакллантиради.

Илмий адабиётларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, одам мулоқоти моҳиятига баъзан қарама-қарши ва ўзаро рад қилувчи қарашлар ва хулосаларни ҳам учратиш мумкин. Масалан, профессор Б.Ф. Ломов одам мулоқоти мураккаблигини таъкидлаб, “у фаолият сифатида кўриб чиқилмайди, чунки мулоқотда муносабатлар тизими – одамнинг одамга муносабати тарзида амалга оширилади” - деб фикр-

лайди. А.Г. Ковалёв фикрича эса, “мулоқот – бу инсонларнинг ўзаро нутқ боғлиқлиги, суҳбат, ёзишмадир” - дея баҳолайди. Бу ёндашувларда инсонларнинг ўзаро фаолияти ва улар хулқ-атвори орқали коммуникатив боғлиқликлари хилма-хиллиги ҳисобга олинмайди. Шахс сифатлари коммуникативлигида намоён бўладиган мулоқотнинг новербал воситалари кенг диапазони эътиборсиз қолдирилади.

Л.П.Буюева ва А.А.Леонтьевлар эса, одамлар мулоқотини инсон фаолиятининг бир тури деб таъкидлашади, ҳақиқтан ҳам фойдали меҳнат ёки унумдорлик фаолияти, уларнинг алоҳида турлари қанчалик фарқ қилмасин, физиологик жиҳатдан булар одам организми функциялари моҳияти ва шакли қандай бўлишидан қатъий назар, мазмунан, одам мияси, асаблари, ҳиссиёти ва уларнинг бошқа сарфи бўлади. Шунингдек, коммуникатив фаолият меҳнат жараёнида одамларнинг ўзаро таъсирини таъминлаб, ҳам инсонга, ҳам исталган предметга ёки объектив дунёнинг исталган ҳодисасига у ёки бу турдаги муносабатини ифодалаш усули акс этади.

Тилшунослар томонидан мулоқот муаммоси мулоқот воситаларини, уларнинг ижтимоий-коммуникатив йўналтирилганлиги, тил воситаларини амалга ошириш шакллари ва турларини ўрганиш нуқтаи-назаридан кўриб чиқилади. Мазкур муаммонинг ечимини М.М. Бахтин илмий ишларида кузатиш мумкин. Олимнинг фикрича, “биринчи навбатда мулоқотдан мустақил бўлган фикрнинг қўйилиши ёки тилнинг “экспрессив функцияси” илгари сурилади, бироқ тил аввало, одамларнинг мулоқоти воситаси сифатида кўриб чиқилиши лозим. Бу шуни билдирадики, реал нутқ фаолияти жараёнида одамлар “нутқ субъектлари”, уларнинг сўзлар ифодасида ўзаро таъсири – монологлар алмашишуви эмас, балки диалог, яъни бир-бирига

йўналтирилган сўз ифодалари бўлиши лозим.

Бироқ М.М.Бахтин томонидан “мулоқот” ва “маданият” тушунчаларининг нисбати тўғрисидаги масала етарлича тадқиқ қилинмаган. Биз ўз тадқиқотимизда олимларнинг фикрларига амал қилиб, тилни нафақат кишиларнинг мулоқоти воситаси, балки талаба-ёшларнинг ҳам коммуникатив маданиятини шакллантириш воситаси сифатида ҳам қараймиз [47, 82].

Тадқиқотларга мантқан назар ташлайдиган бўлсак, “мулоқот маданияти” ва “коммуникатив маданият” тушунчалари бирта ташунча ҳисобланмайди, уларни бир-биридан ажратиб кўрсатиш лозим. Мазкур муаммонинг маълум даражада ўрганилганлигига қарамай, педагогик ва психологик адабиётлар учун “мулоқот маданияти” тушунчасининг қўлланилиши хос эмас. Унда кўпроқ даражада “коммуникатив компетентлик”, “мулоқотдаги компетентлик”, “коммуникатив тайёргарлик” ёки “коммуникатив маданият” тушунчалари кўпроқ ишлатилади. Убу тушунчаларда урғу оптимал муаллиф стратегияларини қўллаб, мулоқот техникасини ўзлаштиришга, шахслараро муносабатларни ушлаб туриш қобилиятига ва мулоқотда ўзининг мақсадларига эришиш томонига қаратилган. Мулоқот маданияти муаммоси қўйилган ҳолатда биринчи ўринга шахс чиқади. Мулоқот маданияти гуманистик йўналтирилганликни алоҳида кўрсатиб, унда бошқа одам олий қадрият сифатида намоён бўлади.

«Маданият» тушунчасига алоҳида тўхталадиган бўлсак, бугунги кунда унинг талқини, мазмун-моҳияти, инсон ва жамият ҳаётидаги, ўрни «Фалсафа», «Социология», «Этика», «Эстетика», «Педагогика», «Психология», «Диншунослик», «Маънавият асослари» каби ижтимоий-гуманитар

фанларда ўз ифодасини кўпроқ топганлигини кўрамиз. Ушбу фанлардаги «Маданият»га берилган таърифлардан шу нарса кўринадики, у баркамол инсонни шакллантириш, ёш авлодни ҳақиқий ватанпарвар, халқпарвар бўлиб етиштиришнинг таъминлаш, Ватанни чексиз меҳр-муҳаббат билан севиш буюк келажак яратувчиларини, тарбиялашга кўмаклашувчи моддий ва маънавий бойликларнинг назарий негизи сифатида тавсифланганлигининг гувоҳи бўламиз. Ўзбек боласи учун кўз очиб кўрган бешиги, илк бора тингланган алласи, кулча нони, дастлабки қўғирчоғи (Бичихон ва Качалполвон), Зумрад ва Қиммат, Алпомиш ва унинг учқур оти Бойчибор, сумалак тоши, буюк аждодлари (Амир Темур, Ал-Бухорий, Ал-Хоразмий, дунёга машҳур обидалари (Мачити Калон, Арк, Ляби Хаус, Ичан Қалъа), Гўр ўғли. Афандилар, маталлар, ҳикматли иборалар ва мақоллар қадрият ҳисобланади.

Ушбу маданият омиллари ижтимоийлашув сарҳадларини кенгайтириб, турфа қадриятлар сифатида талабанинг тафаккури кенгликларини янада теранлаштиради.

Фалсафа қомусий луғатида «Маданият»га (араб.-мадиналик, шаҳарлик, таълим-тарбия кўрган)-табиат ва ўзаро муносабатларда акс этадиган инсон фаолиятининг ўзига хос усули», деб талқин қилинса, «Ўзбек тилининг изоҳли» луғатида «Маданият-жамиятнинг ишлаб чиқариш, ижтимоий ва маънавий ҳаётида қўлга киритилган ютуқлар мажмуи...» дейилган. Иккинчи жойида .. . ўқимишлилик, таълим-тарбия кўрганлик, зиёлилик, таърифатли» деб, таърифланади. Демак, бу таърифларда маданият тушунчаси ижтимоий-иқтисодий ҳаётда моддий ва маънавий бойликларнинг назарий негизини ташкил қилишга йўналтирилган, инсонларнинг ўқимишлилиги, таълим-тарбия кўрганлигини акс эттирадиган куч сифа-

тида ҳисобланиши қайд этилади. Шунинг учун ҳам у ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ҳаёт ҳамда шахс камолотига муносиб ҳисса қўша оладиган ижтимоий-педагогик ҳодисадир.

Рус файласуфи А.К.Круглова ўзининг тадқиқотларида маданиятга шундай таъриф беради: «Маданият-бу жамият, айрим гуруҳлар ва шахс эҳтиёжини қолдиришга йўналтирилган, инсон моҳияти ва кучлари натижалари сифатидаги аниқ тарихий воситалар тизимидир».

Бу таърифда ҳам маданият тушунчаси моддий ва маънавий тараққиётда, инсоннинг ижтимоий моҳиятини тадқиқ қилувчи, унинг озодлиги, эркинлиги, фаоллигини заруриятга айлантирувчи жараён сифатида тавсифланмоқда. Шунинг учун бугунги миллий мустақилликни мустаҳкамлаш ва ривожлантириш ҳамда бозор муносабатларига ўтиш шароитида маънавий покланиш ва юксалиш учун кураш авж олиб бораётган даврда маданият назариясини педагогик нуқтаи назардан тадқиқ қилиш ва маданиятга инсон камолотининг муҳим омили сифатида қараш муҳим педагогик аҳамият касб этади. Демак, маданиятни инсоният тарихий тараққиёти учун, муҳим моддий ва маънавий бойликларни бунёд этувчи омил деб тушуниш, унинг яратувчиси, такомиллаштирувчини эса ижодкор халқ деб билиш мақсадга мувофиқдир. Шу маънода маданият ўз мазмуни, моҳияти хусусиятлари, функцияларига кўра инсон ва жамият тараққиётида муҳим мавқега эгадир. Ушбу фикрга монанд ҳолда маданиятшунос олим К.Амонов маданиятга шундай таъриф беради: «Маданият-инсониятнинг борлиқ ва онгининг барча соҳаларидаги, у ёки бу маданий бойликларда ўз ифодасини топган тажрибаларни ўзлаштиришга асосланган, табиат, жамият ва инсоннинг ўзини янада қайта қуришга сафарбар этилган

ижодий-маънавий фаолиятдир».

Дарҳақиқат, маданият жамиятдаги моддий ва маънавий ҳаётга бўлган муносабат, ўтмиш тажрибаларини ўзлаштирувчи омил тарзида таҳлил қилиниши фалсафий-педагогик жиҳатдан мақсадга мувофиқдир. Шу маънода маданият назариясининг асосий йўналишларини, мазмун-моҳиятини аниқлаштириш ва унинг инсон ҳамда жамиятдаги ўрнини жаҳон ижтимоий-иқтисодий фанлари миқёсида таҳлил қилиш масалани ойдинлаштиришга ёрдам бера олади. Шу маънода Республикамиз таниқли олимлари У.Таджихонов ва А.Саидовлар жаҳон ижтимоий фанлари тизимида маданиятга уч хил ёндашув мавжудлигини таъкидлайдилар. Булар:

- биринчидан, антропологик ёндашув;
- иккинчидан, социологик ёндошув;
- учинчидан, фалсафий ёндашув;

Антропологик ёндашувда маданият табиат яратган нарсалардан фарқли равишда, инсон томонидан яратилган нематларнинг йиғиндиси сифатида тушунилади. Социологик ёндашув эса маданиятни маънавий қадриятлар сифатида талқин этади. Бу ерда маданият ижтимоий ҳаётнинг таркибий қисми сифатида қатнашади ва ниҳоят, фалсафий ёндашувда маданий ҳодисалар ижтимоий ривожланишга боғлиқ бўлмаган, соф таҳлилий ҳолда ажратилиб кўрсатилади».

Шу маънода жамият, инсон ва маданият тушунчалари бир-бири билан чамбарчас боғланган. Жамият инсонларсиз, маданиятсиз ривожланмаганидек, маданият ҳам жамиятдан, инсон ҳаёти ва фаолиятдан ташқарида бўлиши мумкин эмас. Чунончи, жамиятнинг моддий ва маънавий ривожини маданий-маърифий омиллarning яхлитлигида шаклланади ва камолотга этади.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING AUDITORIYADAN TASHQARI ILMIIY TADQIQOTCHILIK ISHINI TASHKIL ETUVCHI OMILLARI

RAHMATOVA FERUZA

JDPU, Pedagogika ta’limi nazariyasi kafedrası mudiri p.f.f.d, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada dolzarblikni asoslash, maqsad va vazifalarni aniqlash, ilmiy tadqiqot predmeti va ob’ektini, muammoni hal qilish metodlarini, natijalarni ilmiy hisobot shaklida rasmiylashtirishni oladigan talabalarning ilmiy tadqiqotchilik ma’ruzalari ilmiy muammoni hal qilishga yo’naltirilgan.

Kalit so’zlar: fan, ilmiy, loyiha, maqola, ko’rgazma, dastur, ta’lim, tarbiya, metod, tadkikotchi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev¹ mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash masalasiga to‘xtalib: 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim” deb takidlaganlari ham bejiz emas.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida fan va texnika oyliklari tashkil etilmoqda. Fan oyliklari dasturlariga, talabalar ilmiy-amaliy anjumanlar, tanlovlar va talabalarning ilmiy-ijodiy mahsulotlari, ko‘rgazmalari, adabiyot va mavzu taqdimotlari, davra suhbatlari kiradi. Fan oyliklari dasturida mashhur olimlar bilan uchrashuv, davra stollari, ko‘rgazmalar, ilmiy tashkilotlarga sayohatlar, “Akademik harakatchanlik”, “Eng yaxshi inovatsion

loyiha”, “Eng yosh olim”, “Bo‘ljak olim” va boshqa shu kabi nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblar va sovrindorlarni aniqlash hamda taqdirlashlar o‘rin olishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari amaliyotida auditoriyadan tashqari talabalar ilmiy tadqiqotchilik ishi tashkil etuvchilari; fan olimpiadalari; mutaxassislik bo‘yicha eng yaxshi tanlovi; ilmiy va pedagogik mahsulotlar va badiiy ijod natijalari tanlovlari; ilmiy-amaliy anjuman va uning materiallarini chop etish; nominatsiyalar bo‘yicha tanlovlar (“Eng yaxshi tadqiqotchilik ishi”, “Darsning eng yaxshi loyihasi” va boshqalar). Universitet tajribasida, talabalarning auditoriyadan tashqari ishlarini tashkil etishning interaktiv texnologiyalaridan ularning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish borasida loyihalash texnologiyasi eng samarali deb tan olingan. U topshiriqlarni tayyorlash, ularni bajarish va himoya qilish bosqichlarida qo‘llaniladi. Loyihalash texnologiyasiga ko‘ra talabalar intellektual tanlovlarining psixologik-pedagogik va tashkiliy jihatlari; ochilishi va yopilishi, dizayn-bezatish, axborotli qo‘llab-quvvatlash, o‘tkazish logistikasi – bu va boshqa tashkil etuvchilar, talabalar loyihalarining amalga oshirish vositalari hisoblanadi. Intellektual tanlovlarning

¹ Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 y. 30 dekabr №-255 son

ba'zilari: "Akademik harakatchanlik", "Eng yaxshi inovatsion loyiha", "Eng yosh olim", "Bo'lajak olim" lar to'laligicha loyihalash texnologiyasiga asoslanadi.

O'z ichiga, dolzarbligini asoslash, maqsad va vazifalarni aniqlash, ilmiy tadqiqot predmeti va ob'ektini, muammoni hal qilish metodlarini, natijalarni ilmiy hisobot shaklida rasmiylashtirishni oladigan talabalarning ilmiy tadqiqotchilik ma'ruzalari ilmiy muammoni hal qilishga yo'naltirilgan. Ijodiy loyihalar (portfolio, dars loyihasi va boshqalar) ni ishlab chiqishda talabaga, muammoni hal qilishda, ilmiy va ijtimoiy nuqtai nazarni e'tibordan tashqarida qoldirmagan holda mualliflik yondashuvini namoyon etish imkoniyati beriladi. Loyihalarning bu turlariga, tanlovga oid videolavhalar, hujjatli va multifikatsion roliklar, reklama bukletlari, fotoreportajlar materiallarini matbuot uchun tayyorlash va boshqalar kiradi. Ijodiy tanlovlarining interfaoligi, talabalarning o'z pozitsiyalarini ommaviy argumentlash (asoslash), amalga oshirayotgan g'oyaning dolzarbligi va amaliy zaruriyatini asoslash, uni loyihada amalga oshirish usulini, shuningdek tanlov ishtirokchilari uchun komfort (qulay) sharoitlarni maxsus yaratish orqali ta'minlanadi. Bu vaqtinchalik guruhlar va komandalarni shakllantirish, komanda ichidagi ishni va loyihalarni ishlab chiquvchi guruhlarining o'zaro harakatini yo'lga qo'yish, talabalarning yashirin qobiliyatlari va amalga oshirilmagan imkoniyatlarini aniqlashda o'qituvchilarning yordami, universitet amaliyotida, oson shaxslararo aloqalarni o'rnatishga qobil bo'lgan, guruhlarda ijtimoiy rollarni taqsimlash va biriktira olish, ichki va guruhlararo o'zaro hamkorlik jarayonini boshqarish hamda individual va guruhiy refleksiyaning o'tkazishga qodir bo'lgan talaba-lider (etakchi) larga muhim rol ajratiladi.

Talabalar intellektual tanlovlarini

tayyorlash va o'tkazish jarayonida talaba-liderlarning kasbiy mahoratini va ularning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini oshirish muhim ahamiyatga ega. An'anaviy seminarlar, ma'ruzalar, keys-texnologiyalar, master-klasslar quyidagi shartlarga rioya etilganda interaktiv texnologiyalar sifatida qarab chiqilishi mumkin: barcha ishtirokchilarini o'zaro hamkorligini tashkil etish; ular oddiy tinglovchilar emas, balki jarayonning faol yaratuvchilari; guruhli ish talabalarning erishgan o'rganish darajasiga va ularni rivojlanish istiqbollari asoslanadi.

Talabalar liderlarini tayyorlashning bu shakli ilmiy tadqiqotchilik yo'nalishini, ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun foydalanilsa ustivor ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu nuqtai nazarga ko'ra quyidagilar muhim hisoblanadi: mavjud o'rganilayotgan muammo haqidagi bilimlar va tasavvurlarni faollashtirish; yangi bilimlar zarurligini tushunish vaziyatlarini yaratish va ularni izlash, sabab-oqibat bog'lanishlarini qurish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ularni o'z so'zi bilan ifodlash.

"Eng yaxshi talabalar ilmiy tadqiqotchilik ishi" tanlovida ishtirok etish uchun maqolalar tayyorlashda talabalarni ilmiy materiallarni faol o'qishga, o'qilganlarni tushunish, axborotni saralash, mavjud axborot asosida ijodiy ishlarni yaratish, savollarni qo'yish, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan muammolarni ajratish, matnli axborotni tasniflash va ularni grafik tasvirlarini tuzishga o'rgatadi. O'qituvchi bilan birgalikda maqolalar yozish, grantlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etishi, bo'lajak o'qituvchilarning analitik qobiliyatlarini, ilmiy qoidalarni asoslash ko'nikmasini va ilmiy atamalarni hamda yozma nutqni o'zlashtirish imkonini beradi.

Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati mahsulotlari ularning portfoliosini va kasbiy xarakteristikalarini mazmunida

cheklangan holda ifodalanadi. Oliy ta'lim muassasalari amaliyotida ish beruvchilarning ishtirokida talabalarning pedagogik yutuqlarini interaktiv nazorat qilish usullaridan; maqolalarni muhokama qilish, badiiy loyihalarni namoyish etish va tahlil qilish, ko'rgazmalar, bitiruv malakaviy ishlarini ommaviy himoya qilish, bo'lajak mutaxassisning va uning portfoliosi taqdimotidan foydalanildi.

Talabalar ilmiy yutuqlarini tashxislash ularga ilmiy-tadqiqot ishining ahamiyatini anglash, unda shaxsiy ma'no-mazmun ko'rish va natijalardan qoniqishni his qilish imkonini beradi. Kuzatishlar ko'rsatishicha, ilmiy ish natijalarini taqdim etish va himoya qilish vaqtida, uning tuzilishi va bosqichlari haqida axborot olish usullari, uni qayta ishlash, umumlashtirish, yozma va grafik ko'rinishda taqdim etish, xulosalarni ilmiy mahsulot ko'rinishida taqdim etish va rasmiylashtirish haqida talabalarda bilimlar mustahkamlanadi va tizimlashtiriladi.

“Ilmiy munozara” (Scientific discussion) metodi

Diskussiya metodlarining quyidagi turlari mavjud?

1. Davra stoli. Davra stolini o'tkazishni asosiy maqsadi berilgan muammo bo'yicha aniqlangan materialni yig'ish va tizimlashtirish va keyin muhokama qilish va axborot almashish bilan kechadi. Davra stolini o'tkazishning o'ziga xos xususiyati bu mashg'ulot shakli uchun so'zga chiquvchilarning soni (25-30) etarli bo'lishidir. Ilmiy sohada davra stolini o'tkazish tartibi haqida barqaror tasavvur shallangan. Mutaxassislar asosan quyidagi bosqichlarni ajratishadi: ma'ruzachi tayyorlangan xabar bilan chiqishlari jarayonida tug'iladigan savollarga; chiqish jarayonida ma'ruzachiga beriladigan savollar; umumiy muhokama, aniqlangan muammolar bo'yicha munozara,

fikrlar almashish; yakunlarni keltirish.

Berilgan munozara turining ijobiy jihati berilgan muammoni dastlabki o'rganish imkoniyati borligi. Davra stolining moderatoriga barcha ma'ruzachilar chiqishlarining mazmuni haqida ma'lumotlar yig'ish maqsadga muvofiq, bu ma'ruzachilar chiqishlarini tizimlashtirish va davra stolini o'tkazish yagona konsepsiyasini qurish imkonini beradi. Davra stollarini o'tkazishda auditoriyalarning texnik jihozlanish resurslaridan foydalanish va multimedia qurilmalarini jalb etish maqsadga muvofiq.

Umuman munozaraning har qanday turi ta'lim oluvchilarda analitik qobiliyatlarni rivojlanishiga, opponent nuqtai nazariga operativ ta'sirlanish malakasini egallash imkonini beradi, muhokama ishtirokchilarida ritorik malakalarni rivojlanish darajasini taqdim etadi. Mashg'ulotni rejalashtirishda munozara formatini o'qituvchi tomonidan tanlash ob'ektiv ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi: ta'lim oluvchilarning soni, auditoriyada o'qitishning texnik vositalari mavjudligi, shuningdek munozarali savol mazmunining dolzarbligi. Interaktiv ta'lim metodikasi sohasi bo'yicha mutaxassislar guruhiy munozarani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun quyidagi komponentlar zarurligini ta'kidlashdi: dastlabki tayyorgarlik, munozarani o'tkazishning aniq qoidalarini o'rnatish va ularga so'zsiz amal qilish, munozara yakunlarini keltirish. SHunday qilib, munozarani o'tkazishning ma'lum bosqichlarini ajratib olish mumkin:

1. Tayyorlov bosqichi, munozara uchun zarur axborotni izlash va qayta ishlash bilan ifodalanadi. Ishchi dasturda amaliy mashg'ulotga tayyorlanish uchun taklif etilgan topshiriqlar bakalavrlarga savolni asoslangan muhokamasida ishtirok etishga imkon beradi. Amaliy mashg'ulotga bunday tayyorgarlik kerakli materialni strukturalash va tizimlashtirishga va muhokama

qilinayotgan savol (masala) bo'yicha o'z fikrini hosil qilishga imkon beradi.

2. Aniqlik kiritish bosqichi, uni doirasida o'qituvchi muammoni belgilaydi, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha nazariya va amaliyotda tarkib topgan asosiy nuqtai nazarni yoritadi.

Interaktiv shaklda darsni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi tashkiliy jihatlariga etarlicha e'tibor qaratish lozim. SHunday qilib, talabalarni kichik guruhlariga bo'lish maqbul bo'ladi, ular doirasida har bir kishi muhokamada bevosita ishtirok etishi, g'oyalarni ishlab chiqishi va o'z pozitsiyasini himoya qilishi uchun tezislarini shakllantirish mumkin. Ta'lim oluvchilar soni ko'p bo'lganda kichik guruh manfaatlarini ifodalovchi bitta ma'ruzachi tanlanishi mumkin.

O'qituvchi ijroga tayyorgarlik ko'rish va kichik guruhlarining taqdimotlarini bevosita tayyorlash uchun vaqt belgilashi, shuningdek belgilangan reglamentning bajarilishini nazorat qilishi kerak. Bundan tashqari alohida "ekspertlar" guruhini ajratish ham mumkin, ular oldiga eshitilgan chiqishlarni tanqidiy baholash vazifasi qo'yiladi.

YAKuniy bosqich sarhisob bilan tavsiflanadi. O'qituvchi munozarani qisqacha tahlil qiladi. CHiqishlarning afzalliklari va kamchiliklarini qayd etish hamda kelajakda xatolardan qanday qochish kerakligini tushuntirishi kerak. Zamonaviy ta'lim jarayoni ta'limning turli shakllarini qo'llashning variantdorligi bilan tavsiflanadi. Interaktiv ta'lim metodlari orasida alohida o'rinni aynan munozara egallaydi.

Amaliy mashg'ulotlar kontekstida organik ravishda integratsiyalashgan munozara, ta'lim oluvchilarning bilish qobiliyatini rivojlantiradi, fikrlashning moslashuvchanligi va reaksiya tezligini ta'minlaydi. Nazariya va amaliyotda aniq bir echim topmagan masalalarni muhokama

qilish talabalarga o'qituvchi tomonidan taklif etilgan muammolarni turli nuqtai nazarda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Ilmiy va muammoli to'garaklar ko'proq quyi kurslar talabalari bilan ishlashda qo'llaniladi. Ularda ishtirok etish talaba uchun tadqiqotchilik ishi bilan shug'ullanishdagi birinchi qadam hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida to'garak mashg'ulotlarini o'tkazishning eng ko'p tarqalgan shakli - bu ma'ruzalar va referatlar tayyorlash, ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanlarda va fan olimpiadalarida ishtirok etish, olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish, shuningdek oliy ta'lim muassasalari ilmiy to'plamlarida eng yaxshi ishlar tezislarini chop etish va boshqalar hisoblanadi.

Muammoli to'garaklar ilmiy to'garaklardan, turli ta'lim yo'nalishlari va turli kurs talabalarini birlashtirishi bilan farq qiladi. Muammoli to'garaklar uchun tanlangan mavzuni chuqurroq o'rganish va turli tomonlardan ko'rib chiqish xarakterlidir. Buning uchun esa diskussiyalar, aqliy hujum, axborot materiallarini tahlil qilish va taqqoslash metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Talabalar tadqiqotchilik ishining keyingi murakkablik darajasi muammoli talabalar laboratoriyalari hisoblanadi: laboratoriyadagi mashg'u-lotlar talabalarda tadqiqotchilik faoliyatining ma'lum bilim, ko'nikma va tajribalar zahirasini nazarda tutadi. Bunday mashg'ulotlarda talabalar real (aniq) hujjatlarni o'rganish va tahlil qilishga, ilmiy nashrlar, dasturlar, ishbilarmonlik o'yinlarini o'tkazish, vaziyatlarni modellashtirish va tahlil qilishga, ekperimentni tayyorlash va amalga oshirishga jalb etiladi. Talabalarning muammoli laboratoriyalari, talabalar tadqiqotlari kooperatsiyasi va ilmiy kommunikativ ko'nikmalari shakllanishi uchun yaxshi vosita bo'lib hisoblanadi. Malakali o'qituvchilar talabalar muammoli

TIL BILISH DARAJASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

BAISOV AXMAD SABIJONOVICH
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada til bilish darajasi bilan bog'liq muammolar va ularning yechimi haqida so'z boradi. Maqola mazmunini yoritish maqsadida zamonaviy metodologik yondoshuvlar keltirilgan.

Kalit so'zlar; tilshunoslik, muammolar, yechimlar, istiqbollor, aloqalar.

Abstract. The article talks about problems related to the level of language knowledge and their solutions. In order to clarify the content of the article, modern methodological approaches are presented.

Keywords; Linguistics, problems, solutions, perspectives, connections.

Абстракт. В статье говорится о проблемах, связанных с уровнем владения языком и их решениях. В целях пояснения содержания статьи представлены современные методологические подходы.

Ключевые слова; Лингвистика, проблемы, решения, перспективы, связи.

Fan, texnika, san'at va madaniyat, sayyohlik, xalqaro aloqalarda keng qo'llaniluvchi tillar ilg'or tillar bo'lib, bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida chet tili sifatida o'qitilishi tilning faqatgina o'z davlati chegaralarida emas, balki boshqa millat hamda madaniyatlar bilan o'zaro aloqada bo'lishni, uni samarali tarzda tan olinishi va o'rgatilishi nazarda tutiladi. Tadqiqotlarimiz davomida o'rganildiki, xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishning zamonaviy ta'lim metodlari ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramasdan, o'qitishning va til bilishning o'ziga hos muammolari mavjud:

Cheklanuvchi o'quv muhiti: cheklangan o'quv muhiti haqida aytilganda, sinfxonalarda mebel mavjudligi yoki o'quv dargohining joylashuvi nazarda tutilmagan. Ko'plab vaziyatlarda talabalar faqat o'qituvchi nazorati ostida (teacher-centred method) bo'lsagina, ingliz tilida muloqat uchun harakat qiladi. Bundan tashqari, talabalarning atrofida ingliz tilida doimiy ravishda muloqot qiluvchilar etishmovchiligi ham mavjud. Natijada ingliz tilini o'rganish va ushbu tilda muloqot

qilish murakkablashadi. O'quv materiallari, xususan kitoblar, audiomateriallar o'quv jarayonida yordam beruvchi vositalar hisoblanadi. Agar talabalar o'rganilayotgan til yuzasidan berilgan topshiriqlarni audio yoki video orqali kuzatib borishsa, so'zlar va jummalarni qanday talaffuz qilishni o'rganadi. Shuni ta'kidlash kerakki, talabalar filmlar orqali tillarni o'rganishga moyil bo'ladi, lekin filmlar jargon va lahjalarni o'z ichiga oladi.

Jiddiy yondashuv yo'qligi: grammatik qoidalarga bog'lanib qolish va til bilan bog'liq to'siqlarkabi vaziyatlartilo'rganuvchilarining til o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirib, jiddiy yondashmaslikka sabab bo'ladi. Talaba va o'quvchilar har doim ham mashg'ulotda o'rgangan qoidalarga rioya qilmaydilar va rioya qila olmaydilar. Bundan tashqari, nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalar xorijiy tillarga ikkinchi darajali fan sifatida munosabat bildiradilar. Afsuski, aksariyat hollarda talabalar tilni mashg'ulot payti o'rganadishadi. Dars mashg'ulotlaridan so'ng mustaqil ravishda talaffuzni, insho yozishni mashq qilib, yangi so'zlarni

o'rganishga harakat qilmaydilar.

Til o'qituvchisi ona tilidan ortiqcha foydalanish: til o'rganuvchilar undan foydalanishga majbur bo'lganidagina chet tilni yaxshi o'rganadilar. O'qituvchi talabalar o'rganilayotgan xorijiy tilda muloqot qilishlarini talab qilishi kerak (Direct method) va o'zi ham ushbu tilda dars mashg'ulotlarini olib borishi muhim. Shu holatdagina til organishda o'sish, talaffuzda ravonlik kabi ko'nikmalari oshadi. Til o'rganuvchilarning til o'qituvchisiga qaramligi: o'z ustida mustaqil ishlash, muammolarni mustaqil hal qilish va izlanish (Inquiry based learning) har qanday fanni yaxshi o'zlashtirishga xizmat qiladi. Talaba har bir kichik muammo yuzasidan o'qituvchiga murojaat qilishi o'quvchining qaramligidan dalolat beradi. Bundan tashqari auditoriyada o'qituvchi asosan o'zi dars mashg'ulotlarini tashkil etish va til o'rganuvchilar ishtiroki sustligi o'quvchi va talabalarning o'z ustida

ishlash imkoniyatini kamaytiradi.

Kuchli talabalarning auditoriyadagi hukmronligi: har bir auditoriyada til o'rganuvchilar yashi saralanmasin, o'zlashtirishda farqlar mavjud bo'ladi.

Auditoriyada kuchli o'quvchilar sust o'zlashtiruvchilarni ortda qoldiradi. Sust o'zlashtiruvchi talabalar mashg'ulot paytida faol ishtirok eta olmaydi. Shu sabab debat va mashg'ulotlar payti sust talabalar unutilmasligi kerak.

Ushbu qayd etilgan til o'zlashtirish darajasi bilan bog'liq muammolarda xorijiy tillarni, hususan ingliz tilini klasterliyondashuv asosida o'qitish muhim hisoblanadi. Taklif etilayotgan klasterli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish – tizimli ravishda mavzulashtirilgan modullardan (bosqichlar) iborat bo'lib, bunda til o'rganuvchi mutaxassisligi va qiziqishlariga ko'ra va amaliyot hamda fan bilan integrallashgan holda ingliz tili darslari tashkil etiladi.

Belgilab olingan vazifalarga ko'ra respondentlarning (umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari va ingliz tili o'qituvchilari, akademik litsey o'quvchilari va ingliz tili o'qituvchilari, Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik ta'lim yo'nalishi biologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda ingliz tili fani o'qituvchilarining CEFR mezonlari bo'yicha til bilish darajalarini aniqlab olish asosiy vazifa edi.

Tadqiqotlar davomida sinflar kesimida belgilangan bilim, ko'nikma va malaka darajalarining boshlang'ich sinflar uchun belgilangan A1 darajasi talabini bajarishda o'quvchilarning qiyinchilikka uchrashi kuzatildi.

Oliy ta'lim tizimining Nofilologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavriat bitiruvchilaridan amaldagi Chet tillari Davlat standartida belgilangan B2 talab qilinsa-da, ushbu ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilarining darajasi A2 va B2 darajalari orasida ekanligi aniqlandi.

O'rta maxsus ta'lim muassasalarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning B1 va B1+ darajalariga belgilangan talablarni bajarishda o'quvchilarda grammatika va leksika, o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalari bo'yicha topshiriqlar ta'lim yo'nalishlariga mos emasligi aniqlandi.

Nafaqat Oliy ta'lim muassasalaridagi bitiruvchi kurs

talabalar, balki boshqa bosqich talabalar uchun ham til bilish darajasi talablari joriy qilinishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Chet tillari chuqurlashtirib o'qitiladigan maktablar uchun qo'yilgan talablar va foydalaniladigan qo'shimcha adabiyotlar bilan bog'liq jarayondagi muammolar sababli Respublika bo'ylab ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qitiladigan qo'shimcha dars soatlarida har hillik vujudga kelgan. Bu esa ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining

bilim va ko'nikmalarini tashqi nazorat qilishda qiyinchiliklar keltirib chiqardi. Masalan:

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

- O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda chet tili orqali o'quvchilarda kerakli kompetentsiyalar shakllantiriladi.

Shunga ko'ra xorijiy tilni o'qitish va o'rganishda klasterli yondashuvga asoslangan tizimni qo'llash, ta'lim sifatini oshiribgina qolmay yuqori malakali mutaxassis kadr tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir. Odatda, xorijiy tilni samarali o'rgatish tizimini oliy ta'lim faoliyati bilan bog'liq,

deb tushuniladi. Shuning uchun xorijiy tilni o'qitishga oliy ta'lim tizimining ajralmas komponenti va kadrlar tayyorlashning muhim ko'rsatkichi sifatida qarash maqsadga muvofiq¹.

Tadqiqotlarimiz davomida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida xorijiy tilni yuqori darajada o'qitishning samarali modelini ishlab chiqish uchun, klasterli-tizim nazariyasidan, ya'ni xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini maktab, o'rta ta'lim va oliy ta'limda uzluksizligini ta'minlagan holda bir- birini to'ldiruvchi dastur va darsliklar orqali o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim manbalarda o'quv jarayonini tashkil qilish asosida sifat ko'rsatkichiga erishish uchun klasterli tizimga asoslangan modeldan foydalanish tavsiya etiladi. Klasterli modelga asoslangan tajribaviy faoliyat natijalarida har bir klaster maqsadli tarzda ekstensiv parametrlarga ega bo'lish uchun ma'lum ishlanma yoki texnologiya asosida joriy etiladi.

¹ N.H.Kushieva. Talabalarga ingliz tilini o'qitishda klasterli yondashuv xususiyatlari.: Avtoref. diss. ...ped. fan.fal.dok. – Toshkent.

БИОЛОГИК ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИ, ЎҚИТИШДА ИНТЕГРАТИВ ТАЪЛИМНИНГ АҲАМИЯТИ

ИСАБАЕВА М.М. Қўқон ДПИ биология кафедраси доценти,
ЭРГАШЕВА Н.А. ДПИ биология кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Талабаларнинг интегратив ёндашувининг талабалар билими ва малакалари сифатига таъсири очиб берилган. Таълим-тарбия жараёнида бўлажак биология ўқитувчиларининг касбий-педагогик фаолиятга тайёрлаш жараёнида бевосита педагогик билимлар интеграциясининг ўзига хос хусусиятларига алоқадорлигини таъминлайди. Мақола мазмунида бўлажак биология ўқитувчиларини касбий-педагогик фаолиятга тайёрлашда бевосита педагогика назарияси ва методикаси, педагогик технологиялар, психология ва педагогик маҳорат фанларига оид билим, кўникма ва малакаларга эга бўлиш йўллари ёритиб ўтилган.

Таянч сўз ва иборалар: биология ўқув фанларининг ўқитишнинг дидактик асослари, интеграцион ёндашув, педагогик билим, кўникма ва малака, касбий педагогик фаолият.

Аннотация. Выявлено влияние интегративного подхода учащихся на качество знаний и умений учащихся. Обеспечивает непосредственное отношение процесса подготовки будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности в учебно-воспитательном процессе к особенностям интеграции педагогических знаний. В содержании статьи освещены пути приобретения знаний, умений и навыков, относящихся непосредственно к теории и методике педагогики, педагогическим технологиям, психологии и дисциплинам педагогического мастерства при подготовке будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности.

Ключевые слова и фразы: биология дидактические основы изучения учебных предметов, интеграционный подход, педагогическое образование, знания и навыки, профессиональная педагогическая деятельность.

Annotation. The impact of the integrative approach of students on the quality of students knowledge and skills has been revealed. In the educational process, the future biology ensures the involvement of teachers in the process of preparing them for professional-pedagogical activity directly in the specifics of the integration of pedagogical knowledge. In the content of the article, the ways of obtaining knowledge, skills and qualifications related to the theory and methodology of direct pedagogy, pedagogical technologies, psychology and pedagogical skills in the preparation of future biology teachers for professional and pedagogical activity are highlighted.

Base words and phrases: didactic fundamentals of teaching biology educational subjects, integrative approach, pedagogical knowledge, skills and qualifications, professional pedagogical activity

Кириш. Сўнгги йилларда мамлакатда таълим-тарбия тизимининг сифати ва самарадорлигини ошириш, боғча тарбияланувчилари, ўқувчи ва талаба ёшларда замонавий билим ва кўникмаларни шакллантириш, таълим тизимлари ҳамда илм-фан соҳаси ўртасида яқин ҳамкорлик ва интеграциясини, таълимнинг узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш борасида

тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм - фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тоғрисида”ги ПФ-6108-сон фармони ҳамда “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорида таълим тизимини

тубдан такомиллаштириш бўйича фанларро алоқадорлик ёндашувидан фойдаланишни методик жиҳатдан такомиллаштириш каби вазифалар белгилаб берилган. Мазкур вазифаларни амалга ошириш мақсадида узлуксиз таълимни барча бўғинларида интеграцион таълимни йўлга қўйиш, барча фанлар каби биологик таълим мазмунида ҳам интеграл ёндашувга асосланган инновацион технологиялар асосида ўқитишни методик жиҳатдан тадқиқ этилиши педагогика соҳасининг ривожлантиришга оид долзарбликни белгилайди.

Замон талабларига кўра, ривожланган мамлакатларнинг иш тажрибасига таяниб, педагогика олий таълимлардаги мутахассислик фанларни интегратив ўқитиш муаммосини бартараф этиш борасида анчагина тадқиқот ишлар қилинди. Ушбу йўлдаги уринишларга биз тавсия қилаётган биологик таълимнинг интеграл технологиялари сезиларли даражада ижобий таъсир қилиши назарда тутилади. Муаммонинг ижобий ҳал этилиши талабаларни фанлар моҳиятини комплекс ўрганишга, бир бутун мукамал билимлар тизимини таркиб топтиришга, баркамол шахснинг шаклланишига имкон беради.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. (Литературе ревию). Интегратив ёндашув асосида таълим тизимини ташкил этишнинг ўзига хос педагогик ва психологик жиҳатларини Б.Абдуллаева, З.Е.Азимова, Г.Р.Алиматова, С.Алихонов, С.Т.Алиқулов, И.В.Макухина, Х.Б.Норбўтаев, А.А.Саломов, А.Ч.Чориев, А.В.Усоваларнинг илмий-тадқиқот ишларида ёритиб ўтилган бўлиб, дидактиканинг асосий тамойилларидан фойдаланиш йўлларида изоҳ бериб ўтилган. МДҲ мамлакатларида бўлажак мутахассис ўқитувчини тайёрлашнинг назарий ва амалий масалалари В.М.Баляйкина, Т.А.Маскаева, М.В.Лабутина, Н.Д.Чегодаева, М.Г.Данильченко, И.Г.Кулагин,

Н.В.Малехов, Л.М.Панчешниковалар ишларида ўрганилди.

Р.Б.Лотштейн ва Н.И.Горбачоваларнинг тадқиқот ишлари бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда интеграцион ёндашув асосида мустақил билим олишга, олинган билимлардан ўқитиш ва тарбиялаш амалиётида фойдаланишга тайёрлаш самарадорлигини оширишда ўқитувчиларининг оғзаки ва ёзма нутқни касбий даражада эгаллашларида тарих факультетида ўқитиладиган ижтимоий фанларнинг имкониятлари ўрганилган [1]. Фанларни ўқитишдаги боғланишлар ҳақида И.Песталоцци, И.Гербарт, А.Дистерверг ва бошқа педагоглар ҳам ўз фикрларини билдиришган. Улар ўқув фанлари орасидаги боғланишларни таълим олувчилар ўзларини ўраб турган оламнинг хилма-хиллиги ва яхлитлигини кўра олишлари учун янада чуқурроқ билим олиш усули деб тушунган. Мактаб таълим олувчиларининг ақлий фаолияти ўқув фанлари орасидаги боғланишга тўғридан-тўғри боғлиқ деб ҳисоблайди. А.Дистерверг ҳам турли ўқув фанларини ўрганишда фанларро боғланишнинг зарурлиги ҳақида гапирган [2]. Олий таълим муассасалари талабаларининг келажакда, мактаблардаги фаолиятида лозим бўладиган, инновацион таълим методлари асосида таълим жараёни ташкиллаштириш масалаларини инобатга олиш муҳим ўрин тутди [3]. Мамлакатимиз педагог олимлари А.Абдуқодиров, У.Ш.Бегимкулов, Р.Жўраев, Н.С.Сайидахмедов, Ш.С.Шарипов, Р.Г.Исянов, Н.А.Муслимов, Э.Р.Юзликаеванинг илмий ишларида ҳам олий таълим муассасаларида замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан таълим жараёнидан кенг фойдаланиш, таълим самарадорлигини таъминлашда мотивациянинг ўрни ҳақидаги инновацион ёндашув; илмий тадқиқотда эмпирик ва назарий ғояларнинг бирлиги ва бошқа

муаммоларнинг илмий назарий асослари ўз аксини топган.

Тадқиқот методологияси. Республика-мизда барқарор рақобатбардош кадрларни тайёрлашни таъминлашда “таълим сифатини баҳолаш жараёни ва воситаларини такомиллаштириш, эришилган натижаларни аниқлаш имконини берувчи механизмларни амалиётга жорий этиш”¹, бўлажак биология ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш мақсадида “биология йўналишларида интегрatív технологик ёндашувга асосланган самарали ўқув жараёнини ташкил этиш”² муаммоси касбий тайёргарликни такомиллаштиришда муҳим долзарбликни талаб этади. Зеро, талабаларни интеллектуал қобилиятини ривожлантириш мақсадида интегрatív ёндашувга асосланган таълимни жорий этиш ўзига хос педагогик технологик ёндашувни белгилайди. Бизга маълумки, таълимдаги интеграцияси - фанлараро алоқанинг юқори даражаси, бир бутун интеграллашган билимларни яратишга имкон берувчи технологик механизмни бажаришга таъсир этувчи педагогик омил бўлиб хизмат қилади. Интегрatív технологиялар асосини фанлараро алоқадорлик ташкил этади ва предметларни ўрганиш мутахассислар билими, иш услублари, шахсий фазилатлари яхлит, бир бутунлигини таъминловчи омил сифатида қаралади.

Биология фанларини ўқитишда қўлланиладиган педагогик технологияларнинг

¹ Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 48 p.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 августдаги ПҚ-4805-сон «Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.08.2020 й., 07/20/4805/1174-сон.

ўзига хос хусусиятлари, даражалари, гуруҳлари, талабаларнинг билиш фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш йўллари, талабаларга тавофутлаб индивидуал ёндошиш, биологияни ўқитишда локал ва хусусий методик даражадаги: дидактик-ўйинли, модулли, муаммоли таълим, ҳамкорликда ўқитиш, лойиҳалаш технологияларидан фойдаланиш йўллари ўргатади. Демак, фанларни мазмунан таҳлил қиладиган бўлсак талабаларда педагогик фаолиятни шакллантирувчи билим, кўникма ва малакалар узвийлик ва изчиллик таъминли асосида таркиб топтиришни талаб этади. Педагогикада узвийлик, предметлараро алоқадорлик, ўзаро алоқадорлик интегрatív алоқадорлик даражаларида талқин этилади. Узвийлик - ўзлаштирилган билим кўникма ва малакаларни чуқурлашиб, мукаммаллашиб боришини кўзда тутаяди.

Таҳлил ва натижалар. Интегрatív ёндашув эса бўлажак ўқитувчиларнинг мутахассисликка оид билим, кўникма, амалий иш-харакат усуллари ва шахсий сифат ҳамда фазилатларни яхлитлигини таъминлаш хоҳиш-истаклари, эҳтиёжлари ҳамда уларга таълим-тарбия бериш мақсад ва вазифаларига мос қулай таълим муҳитини ташкил этишга қаратилган яратувчанлик ва изланишли-тадқиқотчилик фаолиятидир [4]. Ўтмиш педагогикасида дидактик таъсирининг руҳий-педагогик хусусияти ҳамда психологик-педагогик боғлиқлик тўғрисида К.Д.Ушенский шундай дейди: “Ҳар қандай фан томонидан хабар қилинаётган билим ва ғоя дунё ва хаётга кенг нигоҳ ва ёритувчан ҳолатда берилиши лозим”. Педагог У.Мусаев интеграциянинг қуйидагича турли даражаларини таклиф этади [5]. Мавзуларни кетма-кет тақдим этиш асосидаги интеграция; бунда ўқув материалларини баён қилишда концентрризм принципига амал қилинади, яъни

олдинги ўқув-материали кейингисини тўлдиради. Ўрганилган адабиётлар таҳлилидан маълумки, интегратив ёндашувга асосланган таълимни жорий этиш ўқув фани ўртасидаги алоқаларни ўрнатишда ва уларнинг интеграциясида вақти-вақти билан у ёки бу фан таянч бўлиб хизмат қилади.

Бизнинг фикримизча, интегратив таълим технологиясига ёндашувга асосланган таълимнинг ташкил этишда ўқув фанла-

рига уйғунлаштирган интегратив режалар, муаммоли ва креатив мазмундаги маъруза матн, ўқув воситаларини танлаш асосида ўқув жараёнини ташкиллаш муҳим аҳамият касб этади. Бу жараёнда талаба ўрганиши лозим бўлган биологик билимларни мустақамлаш ва ўқув билиш фаолиятини ривожлантирувчи интегратив таълим технологиясида қуйидагича дидактик функциялар тизими белгилаб олинishi зарур (1-расм).

Интегратив таълим технологиясининг дидактик функциялар тизими

Интегратив таълим технологияси мазмуни

Вазифаси: янги билимларни ўзлаштириш, фанлараро алоқадорлик асосида ўқув-билиш фаолияти усуллари бўйича мангикан, таҳлилий фикрлаш, ижодкорлик, ва ўз-ўзини назорат қилиш, мустақил фаолият каби ўқишнинг умумлашган малакаларига эга бўлиш

Дидактик мақсади: таълим назоратини амалга ошириш, билимларни тизимлаштиришни давом эттириш, материални ўзлаштириш, малака ва кўникмаларнинг шаклланганлик даражасини аниқлаш

Таълимий мақсад: дарслардаги мавзулардан олинган билим ва кўникмаларни эгаллаш даражаси ва сифатини аниқлаш; материални билимлар тизими сифатида умумлаштириш; ижодий, фикран ва мустақил фаолият олиб бориш қобилиятини текшириш, тест топшириқлари билан ишлаш

Тарбиявий мақсад: ўқишга масъулият билан ёндашишни шакллантиришга, фанлараро боғланишли топшириқларни хатосиз бажариш ва кучларни сафарбар қилишга ёрдам бериш; ўқув меҳнати маданиятини, мустақил таълим кўникмаларини, вақтни тежамкорлик билан сарфлашни тарбиялаш;

ривожлантирувчи мақсад: мантиқий фикрлашни, хотирани, анализ ва синтез қилиш қобилиятини кучайтириш; ўз-ўзини назорат қилиш, жамоада ишлаш (кўникмаларини шакллантириш

Интегратив таълим технологияси методлари: бумеранг методи, эксклюзив методи, композицион метод, йўл харитаси методи ва синхрон характердаги методлар

Ўқитиш шакллари: маъруза дарси, лаборатория ва амалий ишлар, мустақил таълим

Воситалар: дарслик, интегратив мазмундаги дидактик тарқатмалар, кўргазмали куруллар, тасвирий видеолар, тақдмот ва х.зо

Мазкур дидактик тизимда белгиланган педагогик вазифа ўқитиш жараёнини интегратив технологик тизимли бошқаришни йўлга қўйиш орқали биологик тушунчаларни мотивацион, креатив, про-

дуктив ва адаптив даражада ёритиш билан бирга талабаларда биологик билим, кўникма ва малакаларни таркиб топтиришга имконият яратиши назарда тутилган.

Хулоса ва таклифлар. Талабалар ин-

IJTIMOYIY HAMKORLIK ASOSIDA TALABALARNING PEDAGOGIK MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

ABJALOVA HILOLA RAXMAT QIZI
Termiz Davlat Universiteti stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya: Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabanning bilim olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglashini, mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, bilim olishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro fikr almashishga zamin tayyorlashi haqida ma'lumot berilib o'tildi. Maqolada talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda motivlashtirish va motivatsiyaning o'rni hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning ahamiyati ilmiy asoslangan holda tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, ijtimoiy faollik, shaxs tushunchasi, insonparvarlik, bilim-tarbiya jarayonlari, ijtimoiy faoliyat, o'qish, o'rganish, pedagogik jarayonlar, metod, yondashuv, takomillashtirish.

Annotation: Cooperative teaching technology allows each student to understand that the success of learning leads to the success of the group, to independently and diligently work intellectually, to acquire knowledge, to complete educational tasks fully and qualitatively, to master the educational material thoroughly, to study information was given on how to become a partner and prepare the ground for mutual exchange of ideas. In the article, the role of motivation and motivation in the formation of social activity skills in students, as well as the importance of their practical application, is researched on a scientific basis.

Key words: Motivation, social activity, concept of personality, humanitarianism, educational processes, social activity, reading, learning, pedagogical processes, method, approach, improvement. Sovershenstvovanie pedagogicheskoy podgotovki studentsov na osnove sotsialnogo sotrudnichestva.

Аннотация: Технология кооперативного обучения позволяет каждому студенту понять, что успех обучения ведет к успеху группы, самостоятельно и усердно работать интеллектуально, приобретать знания, полно и качественно выполнять учебные задания, основательно усваивать учебный материал, В ходе исследования была дана информация о том, как стать партнером и подготовить почву для взаимного обмена идеями. В статье на научной основе исследуется роль мотивации и мотивации в формировании навыков социальной деятельности у студентов, а также важность их практического применения.

Ключевые слова: Мотивация, социальная активность, концепция личности, гуманизм, образовательные процессы, социальная активность, чтение, обучение, педагогические процессы, метод, подход, совершенствование.

Kirish: Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin, Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson, Koliforniya universiteti professori – SH.SHaron tomonidan ishlab chiqilgan edi. Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni

shakllantirish, Isroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq talabalar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi. Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi masalan didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi. Hamkorlikda

o'qitish g'oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlarining ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir. Hamkorlikda o'qitish har bir talabanikundalikqizg'inaqliymehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabalarda shaxsiy qadr qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, rivojlantirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, bilim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabani bilim olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, bilim olishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro fikr almashishga zamin tayyorlaydi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida talabalarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

Adabiyotlar tahlili: Komandada o'qitish (R.Slavin) bunda talabalar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir talaba mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, talabalarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. Talabalar tom ma'nodagi hamkorlik ishlarini, har bir talabani erishgan muvafaqqiyatidan

quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissini shakllantirish va qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarurdir. Bu texnologiyada talabalarning bilimlarini o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir talabani kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina talabalar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilgan holda, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin, 1986). Bu yondashuvda kichik guruhlar to'rtta talabadan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra talabalarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. Talabalarga berilgan o'quv topshiriqlari to'rt qismga ajratilib, har bir talaba topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir talaba o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. Talaba har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. Talabalarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin, musobaqa shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. O'qituvchi va talabani hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi. Psixolog A.V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonidagi o'qituvchining talabalar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi. O'zaro hamkorlikning muhim omili va talabalarning

o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan talaba hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va talaba munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi. Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli talabalar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan talabaning birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday xatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi; Talabalarining faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi munosabati esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi. Dunyoda oliy bilim muassasalari talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish va ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo'llab quvvatlashga oid yangi pedagogik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning eng asosiy omillari sifatida talabalarda axloqiy-estetik dunyoqarash va siyosiy ijtimoiylashuvni tarkib toptirish alohida e'tirof qaratilmoqda. SHuningdek, ijtimoiy faollikning pedagogik mexanizmlari sifatida talabalar axloqiy, kasbiy va kommunikativ tayyorgarligining ma'naviy-madaniy asoslarini, taraqqiyot g'oyalariga ongli munosabati va ilmiy

fikrlashini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Respublikamizda oliy bilim mazmuni va kadrlar tayyorlash jarayonlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim yo'nalishlari sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga talabalarining bo'lajak kasbiy faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini to'liq anglanishiga erishish, ijtimoiy talab va majburiyatlarga mas'uliyatni munosabatni qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT bosh Assambleyasi 2017 yil 19 sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz", – degan fikrlari talabalarining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida bir qator aniq vazifa va chora-tadbirlarni belgilashga asos bo'ladi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, yaratilayotgan imkoniyatlar ularning o'z ustida ishlashini, tinmay izlanish olib borishi va yangiliklarni tez o'zlashtirishi hamda zamon talablari darajasida bilim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida oddiydan-murakkabga, eskilikdan-yangilikka qarab harakat qiluvchi, yangicha fikrlaydigan, ijodiy tafakkur va qobiliyatga ega bo'lgan ijtimoiy

1 "Xalq ta'limi" ilmiy –metodik jurnali 2022 №6 Hilola Abjalova "Ijtimoiy hamkorlik asosida talabalarining pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish"

faol yoshlarni, mutaxassislarni tarbiyalashga alohida yondashilmoqda. Bunday vazifalar o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, shu o‘rinda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning qiziqishlarini, ehtiyojlarini va imkoniyatlarini o‘rganish, o‘quv faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish orqali ularda ijtimoiy faollikni shakllantirish muhim sanalib, bunda motivlashtirishga xos ahamiyat kasb etadi. Insonning qobiliyati bevosita motivlashgan mexanizmlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning muhitini belgilaydi va dinamik ma‘naviy ta‘sir etish munosabatini o‘zida aks ettiradi.

Motiv bilan munosabatlari psixik faollikning bevosita bajarilishi negizini

hisoblangan faoliyat orqali namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natija. Adabiyotlarda hamkorlik haqida keng ma‘lumotlar berilgan. Demak, ijtimoiy hamkorlik– faollikning yuksak shakli sifatida qaralgan. “Ijtimoiy hamkorlik atamasi ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimida insonlarning ijtimoiy faoliyatini belgilash uchun qanday bo‘lsa, uni amalga oshirishga qobiliyatni belgilash uchun ham shunday ishlatiladi. Shunday qobiliyat bo‘la turib, ijtimoiy faollik murakkab, integral fazilat sifatida mavjud. U qandaydir alohida xususiyatni, balki hayotiy faoliyat xususiyatlarining butun majmuini ifodalaydi”. Talabalarning ijtimoiy faolligi ular o‘qiydigan, ishlaydigan, hayot tajribasini egallaydigan bilim jamoalarining ijtimoiy faolligi bilan bog‘liq.²

Bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ qobiliyatlarni oshirish va rivojlantirish, ushbu qobiliyatlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda didaktik o‘yinlarni tashkil etish texnikasini shakllantirish muhim vazifalardan

2 “Xalq ta‘limi” ilmiy –metodik jurnali 2022 №6 Hilola Abjalova “Ijtimoiy hamkorlik asosida talabalarning pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish”

biridir. [1]

Ijtimoiy faol talaba va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jamiyatimizda milliy istiqloq g‘oyasi asosida olib borilayotganligi bilan demokratik va milliy xususiyat

kasb etadi. Bu borada hukmronlikka, bo‘ysunishga va itoatkorlikka asoslangan pedagogika o‘rnini bilimni insonparvarlashtirish, ijodkorlik, ilmiylik, hamkorlik,

ijtimoiy faollik va do‘stona munosabatlar ustuvorligini tamoyillariga amal qilinmoqda. Buyruqbozlikdan xolib o‘lgan boshqarish usuli yo‘lga qo‘yilmoqda. Jamoada inson omiliga e‘tibor kuchaytirilmoqda, mehr-muruvvat, ijtimoiy himoya, sofdillik, haqqoniylik va adolat kabi insoniy fazilatlarga asoslangan ma‘naviy-ruhiy muhit yaratilmoqda. Ijtimoiy faollik murakkab jarayon bo‘lib, insonda birdaniga vujudga kelmaydi. Olib borilgan tadqiqotlar talaba shaxsida ijtimoiy hamkorlik shakllanishi uning ushbu kasbni tanlagan davriga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi. O‘qituvchi o‘z kasbining mas‘uliyati va qiyin tomonlarini, ayniqsa, xalq manfaati uchun qanchalik erta anglab etsa, unda ijtimoiy faollik kurtaklari shunchalik tez shakllanib boradi. Bu holatni boshqa kasblarda ham aytish mumkin. Shu asosida aytish mumkinki, kasbiy faoliyat jarayonida intiluvchanlik pozitsiyasida tura oladigan talabaga ijtimoiy jihatdan faol talaba deyiladi. Ijtimoiy faollikka undovchi “motiv” talabaning shaxsiy istaklarini, qiziqishini va kelajagini orzuniyatlarini, kasbiga qiziqishini belgilovchi omil vazifasini o‘tashi mumkin.

Oxirgi 10 yilliklarda ijtimoiy hamkorlik tushunchasi, ilmiy tadqiqot

mazmuniga va pedagogik faoliyat amaliyotiga yanada kengroq va chuqurroq kirib

bormoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu tushuncha ijtimoiy-iqtisodiy sohadan,

pedagogik sohaga koʻchmoqda. Taʼlimda hamkorlik nuqtai-nazaridan, oldin iqtisodiy va huquqiy masalalar tahlil qilinadi (pedagogik xodimlarning manfaatlari va ularning huquqiy himoyasi, ish beruvchining, kasaba uyushmasi va jamoaning oʻzaro munosabati, hamkorlik asosida taʼlimda qonunchilikning amalga oshirilishi, taʼlimda halqaro hamkorlikning modernizatsiya qilinish va h.k.). [2]

Talabalarning oʻquv-bilish jarayonidagi faolligini unga kasbiga boʻlgan qiziqishi yoʻlidagi maqsadini oydinlashtirishini koʻrsatadi. Bu jarayonda intizomlilik, tashkilotchilik va masʼuliyatning past darajasi hukm surgan guruhlarda toʻxtab qolishi mumkin. Boshqa tomondan, talabalarning faolligi rivojlanishining muvaffaqiyati ularning har birining individual fazilatlariga va shaxsiy intilishlari motivatsiyasiga bogʻliq. Ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayonini motivatsiyasiz tasavvur etish qiyin. Albatta, mazkur jarayonni tadqiq qilishda motivatsion yondashuv samarali hisoblanadi. Motivatsion yondashuv ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega boʻlib, uning nazariy ahamiyati shunda koʻrinadiki, oʻquvchini oʻqishga jalb qilishning, samarali bilim berishning psixologik mexanizmlarini, oʻziga xosliklarini oʻrganishga qaratilsa, amaliy ahamiyati esa nazariy bilimlarga asoslangan holda talabalarda ijobiy motivlarni shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Demak, motivatsion yondashuv talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarga koʻrsatilayotgan gʻamxoʻrlik, yaratilayotgan imkoniyatlar ularning oʻz ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi va yangiliklarni tez oʻzlashtirishi hamda zamon talablari darajasida bilim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. [3]

Talabalarning ijtimoiy faollik

koʻnikmalarini shakllantirish jarayonida motivlashtirish ularni ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati, insonparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, xalq va millatiga munosib farzand boʻlib shakllanishga, sadoqat va eʼtiqod, irodaviylik, erkinlik va bagʻrikenglik, rostgoʻylik kabi qadriyatlarni eʼzozlashga oʻrgatish kabi tushunchalarni oʻzlashtirish va ularni mazkur tushunchalarni oʻrganish uchun qiziqishlarni vujudga keltiruvchi ijobiy motivlarni shakllantirish muhim sanalib, ular talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, motiv oʻzi nima?

Motiv deganda nimani tushunish mumkin?

Ijtimoiy faollikni shakllantirishda qaysi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi?

Talabalarda motivlar oldindan shakllangan boʻlishi mumkinmi?

Motivlarning qanday turlari mavjud?

Motiv – bu insonning xulq-atvorini ichki psixologik boshqarish boʻlib, yoʻnaltirilganlikni, tashkil qilinganlik, qoʻllab-quvvatlanganlikni oʻz ichiga oladi. Motiv tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. A.Maslou motivni ehtiyoj, qiziqish bilan bogʻlasa, A.N.Leontev motivni ehtiyojlarni qanoatlantirishga xizmat qiladi va inson faoliyatini yoʻnaltiradigan va uni qoʻzgʻatadigan obyektivlik deb qaraydi. L.I.Bojovich esa, motivni nafaqat tashqi obyektiv omillar, balki tasavvurlar, gʻoyalar, his-tuygʻular, bir soʻz bilan aytganda, ichki subyektiv omillar koʻrinishi deya taʼrif beradi. Shuningdek, bir guruh olimlar Dj.Gilford, B.R.Xilgard, K.Obuxovskiy, A.Levitskiy, P.I.Ivanovlar motivni faollikni boshlovchi va uni qoʻllab-quvvatlab turuvchi omil, shaxsni muayyan bir xatti-harakatga undovchi, zaruratni his qilinishi, u ichimizda maqsadni qoʻyishga qoʻzgʻatadi va xatti-harakatni

amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni qabul qilishga olib keladi, deb ta'kidlaydi. Yuqorida keltirilgan olimlarning motiv haqidagi fikr va mulohazalariga to'xtaladigan bo'lsak, ular shaxsni xatti-harakatga keltiruvchi, turtki bo'lib xizmat qiluvchi, ularning maqsadi, qiziqishi, orzu-istagi, niyati, intilishi, manfaati, ehtiyoji va e'tiqodlarini motiv deb qaraydi. Ayrim olimlar motivni jarayon sifatida qarab, insonlarni xattiharakatga keltiruvchi, ya'ni ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar deb hisoblaydi. Demak, motiv psixologik adabiyotlarda insonni ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga undaydigan, yo'naltirilgan harakat yoki qo'zg'atadigan kuchquvvat deb keltirilgan. Y.P.Ilinning fikriga ko'ra, motiv – odamni muayyan xattiharakatlarga undaydigan bosh sabab. Odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir. Binobarin, ehtiyojlarning turiga qarab motivlar ham har xil bo'ladi. Psixologiyada motivlar ikkita katta kategoriyaga bo'linadi: tabiiy motivlar hamdama'naviy motivlar. Motivlar ularning mazmunini aks ettirish shakliga qarab ham birbiridan farq qiladi: hissiyot, tasavvur, fikr, tushuncha, g'oya, ma'naviy ideal va boshqa motivlar. Ba'zi hollarda motiv alohida harakatlarga undab, bu harakatning maqsadi bilan bevosita mos keladi. Ko'pincha, murakkab faoliyatda motiv harakat maqsadiga bevosita mos kelmay, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha harakatlarni bajarishga to'g'ri keladi. Shuning uchun faoliyat predmeti motiv harakatining o'zidir. Haqiqatda, motivlar faollashgan, maqsadga qaratilgan, faqat xayolda amalga oshuvchi yoki idrok qilingan bo'lishi mumkin. Asosan, bularning zaminida u yoki bu ehtiyojlar turadi. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga tayyorlashda motivlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularda ijtimoiy faollikning shakllanishi va rivojlanishi bilimtarbiya jarayoni samaradorligiga bog'liq

bo'lib, mazkur jarayonlarning muvaffaqiyati o'quv faoliyatining natijaviyligini ifodalaydi. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga tayyorlashga ta'sir ko'rsatuvchi motivlarni o'rganish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, bunday motivlarni o'quv motivlari deb ham aytish o'rindidir. O'quv faoliyatlari har xil bo'lishi mumkin, ammo asosiy motiv bo'lib (maxsus) o'rganishga qiziqishi hisoblanadi. O'quv faoliyatining asosiy vazifasi o'quvchining ilmiy nazariyalari asosida mustaqil fikr yuritilgan o'rgatish hisoblanadi.

³ Bilim olishga, kasb-hunar egallashga undovchi motivlar haqida fikr yuritilganda Abu Rayhon Beruniyning ilm olish haqidagi fikrlarini keltirish asosida talabalarda intilish va qiziqish, ehtiyoj kabi o'quv motivlarining ijobiy ta'sir ko'rsatishini aytish mumkin. Mutafakkirning ta'kidlashicha, bilim olish va insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o'quvchida intilish va qiziqish bo'lishi kerak. Ilm olishning muhim yo'llaridan biri kishi o'zini hammaga do'st tutishi va yaxshilik qila bilish darajasiga yetkazishdan boshlanadi. U ilm olish uchun dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, bilim bilan tarbiyaning bir butunligini ko'rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlarga kamolat sari intiladi, deb ishontiradi. A.Fayzullayev motivlashtirish jarayonini besh bosqichga bo'lib o'rganadi. ⁴

Xulosa va tavsiyalar: Xulosa qilib aytganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash bugungi

³ Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlar ilmiy nazariy jurnali 2023 1-son Abjalova Hilola "Ijtimoiy hamkorlik asosida talabalarning pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish"

⁴ Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlar ilmiy nazariy jurnali 2023 1-son Abjalova Hilola "Ijtimoiy hamkorlik asosida talabalarning pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish"

kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Xatti-harakatlarning vujudga kelishi va anglanishi. Xattiharakatlarning to'liq anglanishi harakat qanday vosita ta'sirida amalga oshganligini

anglash hamda mazkur harakatni amalga oshirishning usullari va natijalarini oldindan aniqlash orqali belgilanadi. Motivlarning qabul qilinishi bo'lib, bu xatti-harakatlarni ichki motivlar asosida amalga oshirishni ifodalaydi. Bu bosqichda inson o'zining axloqiy prinsiplari va qadriyatlarini tahlil qilib, vujudga kelgan ehtiyoj, mayl va uning uchun qanchalar muhimligi va ularni qondirish zaruriyati to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu motivning amalga oshirilish bosqichi bo'lib, mazkur jarayonda vaziyatlarga ko'ra motivlarning mazmuni o'zgarishi mumkin. Motivning mustahkamlanish bosqichi bo'lib, bu bosqich natijasida motiv xarakter belgisiga aylanadi. Xatti-harakatlarning faollashuv jarayoni bo'lib, mazkur jarayonda mustahkamlangan motiv(xarakter)ning ma'lum bir xususiyati anglangan yoki anglanmagan holda maydonga chiqadi. Demak, motivlashtirish ma'lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, talabalar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib tadqiqotlar jarayonida talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda motivatsiya va motivlashtirishning o'rnini, ahamiyati hamda uning o'ziga xos xususiyatlaridan keng foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, haqiqatdan ham shaxsni qaysi bir faoliyat turiga yo'naltirmang bunda motivatsiya, motivlashtirish muhim omil bo'lib xizmat qilishi va shaxsni turli sohalarga yo'naltiruvchi faoliyat jarayonini samarali tashkil etishda esa motivatsiya va motivlar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Natijada talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda motivatsiyaning o'rnini qanday tushinasiz? Degan savolga 100 nafar respondentlardan 72 nafaridan ortig'i ijobiy javob berdi. Ayniqsa, ular motivatsiya insonni muayyan ehtiyojlardan kelib chiqib har qanday faoliyatga undovchi, yo'naltiruvchi, qiziqtiruvchi, kerak bo'lsa shaxsni qo'zg'atuvchi alohida takidlab o'tishdi. Shuni alohida aytish kerakki, motivlashtirish jarayonida talaba ehtiyojlari yoki ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME Scientific Journal Impact Factor "Zamonaviy ta'limda ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish faoliyatining mazmuni va xususiyatlari" B. Q. Mamanazarov, U. R. Rustamov, Sh. Bekzatova
2. "Science and Education" Scientific Journal "OLYI TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA IJTIMOY FAOLLIK KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISHNING MUHUM OMILLARI" M.Q.Raxmanova Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute
3. "Xalq ta'limi" ilmiy –metodik jurnali 2022 №6 Hilola Abjalova "Ijtimoiy hamkorlik asosida talabalarning pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish"
4. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlar ilmiy nazariy jurnali 2023 1-son Abjalova Hilola "Ijtimoiy hamkorlik asosida talabalarning pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish"

TALABALAR VALEOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

YADGAROVA DINORA BAHODIROVNA

Sport va san`at fakulteti o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada universitet talabalarining valeologik madaniyatini rivojlantirishda valeologik jarayonlar tufayli talabalarning bilim va tajribasining ijtimoiy-madaniy vaqt va makonda o'z-o'zidan va maqsadli uzatilishi muhokama qilinadi.

Annotation: This article discusses the spontaneous and purposeful transfer of students' knowledge and experience in socio-cultural time and space due to valeological processes in the development of valeological culture of university students.

Аннотация: В данной статье рассматривается стихийный и целенаправленный перенос знаний и опыта студентов в социокультурное время и пространство благодаря valeологическим процессам в развитии valeологической культуры студентов вуза.

Kalit so'zlar: talabalar , tashabbuskorlik ,tashkilotchilik ,rivojlantirish ,pedagogik mexanizm ,sifatlar ,kompetensiya ,yondashuv.

Keywords: students, initiative, organization, development, pedagogical mechanism, qualities, competence, approach.

Ключевые слова: студенты, инициатива, организация, разработка, педагогический механизм, качества, компетентность, подход.

Jahon amaliyotini kuzatish natijasida shunga amin bo'lish mumkinki, sportga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning jismoniy sifatlari, sport turlari bo'yicha texnik-taktik harakatlari yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Aynan aholining barcha qatlamlarini ommaviy sport bilan shug'ullanishga jalb qilishni takomillashtirish, shu bilan bir qatorda sportga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarni jismoniy tayyorgarligida asosiy gimnastika vositalarini amaliyotga joriy qilish talabini qo'yimoqda. Jumladan, talaba-yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga qiziqishlariga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Shu sabab talaba yoshlarni funktsional, jismoniy tayyorgarligini oshirish yuzasidan ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini

modernizatsiya qilish yangi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda amalga oshirilmoqda va uning oldiga raqobatbardosh, jismonan va ma'nan yetuk, keng doiradagi intellektual salohiyatga va yuqori ishchanlik qobiliyatiga ega malakali kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyaga ajratilgan soatlarning muntazam kamayib borishi kuzatilmoqda, vaholanki jismoniy tarbiya darslari ko'pchilik talabalar uchun harakat faolligini saqlab qolishning yagona yo'lidir. Undan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlarning yagona uslubiyati yo'q, talaba-yoshlarning jismoniy rivojlanish darajasi va salomatligida og'ishlari bo'lgan o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan. Jismoniy tarbiya vositalari yordamida talaba-yoshlar organizmining ichki zahirasi darajasini

ancha oshirish, salomatligida uchraydigan turli o'zgarishlarni oldini olish yoki rivojlanish sur'atini kamaytirish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.


Talabalarning sog'lom turmush tarzi bu – bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik madaniyatini shakllantirishning asosidir. Talaba-yoshlarning sog'lom turmush tarzi birinchi navbatda xususiy sog'lom turmush tarziga asoslangan ya'ni sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy bilimlarga ega bo'lish, sog'lom turmush tarziga intilish va insonni o'zi kundalik faoliyatida o'z sog'ligini asrashga intilishidir.

Bugungi kunda raqobatdosh talabalarni tayyorlash jarayonini ko'p jihatdan talabalarda tashabbuskorlik sifatlarini shakllantirish asosida o'z-o'zini o'zi tashkillashtirish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi namoyon etish qobiliyatiga ega fuqaroni tarbiyalashga bog'liqdir. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida talabalarda tashabbuskorlikni rivojlantirish ijtimoiy buyurtma va malaka talablari

natijalarining o'zaro muvofiqligini ta'minlashga yo'naltirilgan, hayotiy zarur, shaxslilik xususiyatlarini namoyon etish asosida ta'lim oluvchi va butun jamoa uchun zarur ijtimoiy qadryatlarga yo'nalganlik ega amaliy faoliyatni tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik jarayon degan xulosaga kelindi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida talabalarda tashabbuskorlikni rivojlantirishda axloqiy, irodaviy, sifatlar, emotsional xislatlarning namoyon bo'lishi va ko'rinishlari ham tadqiq etildi.

Tahlillar natijasida talabalarda rivojlantirishi lozim bo'lgan tashabbuskorlik sifatleri tizimi aniqlashtirildi. Tashabbuskorlikka doir kompetensiya o'zida bilim, ko'nikma va malakalarni aks ettirishi aniqlandi.

Kompyuter axborot bazasining tahlili talabalarni sog'lomlashtirish uchun mo'ljallangan sog'lomlashtiruvchi, rivojlantiruvchi va profilaktika tadbirlarining samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Jismoniy salomatlik va harakat rivojlanish



holatini dinamik nazorat qilishni tashkil etish va o'tkazish nafaqat jismoniy tarbiya uslublari va vositalarini optimallashtirishni taqozo etadi, balki, eng asosiysi, talabalarda sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarga bilimlar berish va ularning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi uchun jismoniy tarbiyaning umumiy pedagogik uslublari bilan bir qatorda faol harakat faoliyatiga asoslangan maxsus uslublari mavjud:

1. Tartiblashtirilgan mashqlar uslubi – mashqlarning qat'iy tartibga solinishi, ya'ni aniq belgilangan yuklama bilan aniq bir shaklda bajarilishi.

2. O'yin uslubi – u nafaqat sport o'yinlarida, balki jismoniy mashqlarda ham qo'llaniladi.

3. Musobaqa uslubi – amaliy jismoniy tarbiyada musobaqalar shaklida yoki jismoniy tarbiya mashg'uloti elementi sifatida namoyon bo'ladi.

4. So'zlash uslublari – so'zlar orqali axborotni idrok etish.

5. Sensor uslublari – ko'z orqali idrok etish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, talabalarining butun o'qish davri davomidagi salomatlik holati ko'rsatkichlarining kompleks pedagogik monitoringini ommaviy jismoniy tarbiya va sportga joriy etish, shuningdek, jismoniy mashqlarning sog'lomlashtiruvchi ta'siri mexanizmlarini va salomatlik holatidagi mavjud kamchiliklarni korrektsiyalash maqsadida ulardan foydalanish imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun valeologiya bo'yicha o'quv jarayonini aniq tashkil qilishni ta'minlash zarur.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar va nashriy


ishlarni tahlil qilish, ularni aksariyati talabalarining sog'lom turmush tarzi asoslariga bag'ishlanganligini, sportga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarining salomatlik holatini maqsadli monitoring qilishga yo'naltirilgan tadqiqotlar deyarli yo'qligini ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda, talabalar yoshlarning salomatlik holatini umumiy jismoniy rivojlanish mezonlari bilan bog'liq holda majmuaviy baholashga qaratilgan tadqiqotlar mavjud emas.

Talabalarni testlash jismoniy tarbiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda o'tkaziladi, shuningdek, talabalarining o'z salomatligi funktsional holatini yaxshilashga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini o'rgatish nazarda tutiladi.¹ Test texnologiyalari yordamida talabalarining o'z salomatliklariga, jismoniy faollikka bo'lgan munosabatlari, valeologiya bo'yicha asosiy nazariy qoidalarni bilishlari, sog'liqni bashoratlash uslublari va mezonlariga doir bilimlarni egallaganliklari, eng asosiysi, turmush tarzi, xususan, salbiy va ijobiy omillarning salomatlikka qanday ta'sir ko'rsatishini bilishlari aniqlandi.²

1-test – Kettle indeksi bo'yicha tana massasining yetishmasligi me'yorda ekanligi yoki ortiqchaligini aniqladik. Kettle indeksining me'yorga mos keluvchi katta foizi 66,7% qizlarda, o'rtadan past darajasi 14,8% qizlarda, 11,1% da esa o'rtadan yuqori darajasi va 7,4% qizlarda tana vaznining yetishmasligi aniqlandi. Tana

1 Сафарова Д.Д., Гулямов Н.Г., Мусаева У.А.- Валеология : избранные лекции, Издательско-полиграфический отдел УзГИФК, 2006г

2 Сафарова Д.Д., Гулямов Н.Г. – Аспекты спортивной медицины: восстановление организма спортсменов. // Фан-Спортга, Ташкент, 2006, №1.



Izoh: 1-test –Ketleindeksi, 2-test – HI, 3-test – kuch indeksi, 4-test–Robinsonindeksi, 5-test – tiklanish vaqti

1-rasm Talaba qizlarining somatik salomatligi darajasini ekspress-baholash

vazni ortiqcha bo'lgan qizlar topilmadi (1-rasm qarang).

2-test, ya'ni HI ko'rsatkichi bo'yicha quyidagi taqsimlanish aniqlandi: 55,5% qizlarda HI ning past darajasi, 18,5% da o'rtadan past, 11,2% da o'rta daraja va 7,4% qizlarda o'rtadan yuqori, 7,4% qizlarda hayotiy indeks rivojlanishining yuqori darajasi aniqlandi. Qolgan darajalar aniqlanmadi. Shunga qaramay, aksariyat qizlarda qo'llar kuchi ko'rsatkichlari me'yor ko'rsatkichlaridan pastroq va qo'llar mushaklarini rivojlantirish uchun kuchga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirishi lozim.

3-test, kuch indeksini ifodalovchi test bo'yicha 81.5% qizlarda qo'llar kuchi o'rtadan past darajada, 18,5% da me'yorga mos o'rta darajada, 0% qizlarda past, o'rtadan yuqori, yuqori darajadagi kuch indeksi aniqlandi. Ushbu qizlar guruhi uchun, huddi

yigitlar kabi, yelka kamari va bo'sh qo'l segmenti mushaklarini rivojlantirish uchun kuch xususiyatiga ega bo'lgan mashqlarni tavsiya etish mumkin.

4-test, ya'ni Robinson indeksi bo'yicha, u organizmning zaxira imkoniyatlari yoki energiya salohiyatini ifodalaydi, 62,9% qizlarda bu indeks o'rtadan yuqori, 18,5% o'rta yoki me'yor darajada, 14,8% qizlarda yuqori darajada va 3,8% qizlarda indeks ko'rsatkichi o'rtadan past darajada ekanligi aniqlandi.

5-test, ushbu qizlar guruhi uchun 30 sek ichida bajarilgan 20 ta o'tirib-turishlardan so'ng YUQSning tiklanish vaqti bo'yicha farqlar aniqlandi. Yuqori darajadagi tiklanishlar 74,1% qizlarda, 25,9% da esa o'rtadan yuqori ko'rsatkich aniqlangan bo'lib, bu tiklanish ko'rsatkichlari yaxshi ekanligidan dalolat beradi.

E'tirof etish lozimki, ushbu ko'rsatkich

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNING QIYOSIY TAHLILI VA UNING AHAMIYATI

NE'MATJONOVA YULDUZ O'TKIRJON QIZI

Termiz davlat universiteti maqsadli
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oily ta'lim tizimi sifatini oshirish va uni yanada takomillashtirishda xalqaro tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va O'zbekiston tajribasi bilan solishtirish asosidagi tahlilga yo'naltirilgan. Bugungi kunda dars sifatini oshirish va uni jahon standartlariga asoslangan holda tashkillashtirish va yetuk sifatli bilimga ega kadrlarni tarbiyalash masalasi asosiy masala sifatida ko'tarilmoqda shu sababli yirtimizda ta'lim sohasi aynan oily ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Maqolada jahon tajribasi, oily ta'limning yutuq va kamchiliklari ta'lim berish sohasidagi muammolar keng yoritilgan.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу, основанному на изучении, анализе и сравнении зарубежного опыта повышения качества системы семейного воспитания и его дальнейшего совершенствования с опытом Узбекистана. Сегодня вопрос повышения качества уроков и организации его на основе мировых стандартов и воспитания кадров с качественными знаниями ставится как основной, поэтому в сфере образования в нашей стране большое внимание уделяется сфере семьи. образование. В статье широко освещен мировой опыт, достижения и недостатки семейного воспитания, проблемы в сфере воспитания.

Abstract. This article focuses on the analysis based on the study, analysis and comparison of international experiences in improving the quality of the family education system and its further improvement with the experience of Uzbekistan. Today, the issue of improving the quality of lessons and organizing it based on world standards and educating personnel with high-quality knowledge is raised as the main issue, therefore, the field of education in our country is paying great attention to the field of family education. In the article, world experience, achievements and shortcomings of family education, problems in the field of education are widely covered.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim sifatini oshirishning shakllari, metodlari, xalqaro hamkorlik, ta'lim samaradorligini baholash, Interfaol metodlar, innovatsiya, standartlashtirish, individuallashtirish, Vebinar, Dual ta'lim tizimi, Binar dars

Ключевые слова: качество образования, повышение качества образования, формы и методы повышения качества образования, международное сотрудничество, оценка эффективности образования, интерактивные методы, инновации, стандартизация, индивидуализация, вебинар, дуальная система обучения, бинарный урок.

Key words: quality of education, improving the quality of education, forms and methods of improving the quality of education, international cooperation, evaluation of educational effectiveness, interactive methods, innovation, standardization, individualization, Webinar, **Dual education system**, Binary lesson

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda aholining oliy

ta'lim bilan qamrab olinganlik darajasi muttasil oshirib boriladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, xorijiy universitet hamda institutlarning filiallari tashkil etilib, ularning soni 200 tadan oshdi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyati yanada kengaytirilmoqda. Bosqichma – bosqich masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Ayni paytda o'z sohasidagi chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan zamonaviy mutaxassislar milliy iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dars berishdan iborat bo'lib qolmasligi, balki universitet va institutlarimiz ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga, katta-katta loyihalarga jalb etishi kerak.

Turli mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilinish, ta'lim sifatini oshirish sohasida eng samarali usul va texnologiyalar belgilab olindi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Interfaol darslar, onlayn kurslar, kompyuter dasturlaridan foydalanish va boshqalar kabi innovatsion uslub va texnologiyalarni qo'llash.

2. Talabalarning tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish.

3. Har bir talabaga individual yondashish, uning talab va qiziqishlarini hisobga olish.

4. Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash tizimini ishlab chiqish.

Mamlakatimizda xalqaro tajribalar asosida ta'lim sifatini oshirishning bir qator vazifalarini amalga oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda, ular quyidagilar:

1. Hozirgi tendentsiyalar va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlari va o'qitish usullari sifatini oshirish.

2. Pedagogik kadrlarning malakasi va kasbiy darajasini oshirish, shu jumladan seminarlar, treninglar va mahoratsaboqlarini

tashkil etish orqali.

3. Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, jumladan, kompyuter texnologiyalari, elektron darsliklar va onlayn kurslardan foydalanish.

4. Ta'lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan, o'quv xonalari, kutubxona va laboratoriyalarni ta'mirlash.

5. Ta'lim sifatini baholash tizimini ishlab chiqish, shu jumladan o'quv dasturlari va o'qitish uslublarini har yili baholash, shuningdek, bitiruvchilarning bilim sifati monitoringini yuritish.

6. Aholining barcha qatlamlari, jumladan, nogiron bolalar va kam ta'minlangan oilalar farzandlarining ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish.

7. Ta'lim muassasalari, biznes va davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini, shu jumladan, qo'shma loyiha va dasturlar yaratish orqali rivojlantirish.

8. Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shu jumladan infratuzilmani yangilash va pedagog kadrlar malakasini oshirish uchun mablag'lar ajratish.

Xalqaro tajribalar asosida ta'lim sifatini oshirishning bir qator shakllari mavjud, ular quyidagilar:

1. Xalqaro talabalar almashinuvi dasturlari talabalarga boshqa mamlakatlar madaniyati, tili va ta'lim tizimi bilan yaqindan tanishish imkonini beruvchi ta'lim sifatini oshirish shaklidir. Bunday dasturlar talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, kasbiy saviyasi va umumiy madaniyatini oshirish imkonini beradi.

2. Onlayn kurslar va Massive Open Online Courses (MOOCs) dan foydalanish o'quvchilarga o'z vaqtida va o'z joyida bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini

beruvchi ta'limni yaxshilash shaklidir. Onlayn kurslar va MOOClar dunyoning istalgan nuqtasidan va istalgan miqdordagi talabalar uchun ta'lim olish imkoniyatini beradi.

3. O'quv jarayonida texnologiyadan foydalanish ta'lim sifatini oshirish shakli bo'lib, u o'rganish samaradorligini oshirish va o'quvchilarning o'rganilayotgan fanlarga qiziqishini oshirish imkonini beradi. Bular interaktiv darsliklar, o'yin dasturlari, virtual haqiqatdan foydalanish va boshqa innovatsion usullar bo'lishi mumkin.

4. Pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va kasbiy saviyasi ta'lim sifatini oshirish shakli bo'lib, o'quvchilarga yuqori darajada ta'lim berish imkonini beradi. Bular seminarlar, treninglar, mahorat darslari, malaka oshirish kurslari va kasbiy tayyorgarlikning boshqa shakllari bo'lishi mumkin.

5. Ta'lim muassasalari, tadbirkorlik va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish shakli bo'lib, qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish imkonini beradi. Bunday hamkorlik o'qitishning innovatsion uslublarini rivojlantirishga, pedagog kadrlar malakasini oshirishga va umumiy ta'lim darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

6. Ta'lim sifatini baholash ta'lim sifatini oshirish shakli bo'lib, ta'lim tizimidagi muammo va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Baholash ta'lim muassasalarida ham, davlat darajasida ham amalga oshirilishi mumkin. Bu ta'lim sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishga yordam beradi.

Xalqaro tajribalar asosida ta'lim sifatini oshirishning metodlari quyidagilar:

1. Ta'limga sarmoya kiritish: Hukumatlar ta'lim sharoitlarini yaxshilash, o'quv dasturlarini yangilash va malakali o'qituvchilarni jalb qilish uchun ta'limga ko'proq mablag' ajratishi kerak.

2. O'quv dasturlarini yangilash: O'quv dasturlari yangi texnologiyalar va mehnat bozori talablariga muvofiq o'z vaqtida yangilanishi kerak.

3. Ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: o'qitishning interfaol usullari va o'quv dasturlarini qo'llash ta'limni yanada jozibador va samarali qiladi.

4. Ota-onalar va jamoatchilik ishtiroki: ota-onalar va jamoatchilik o'quvchilar va maktablarni qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim jarayoniga faol jalb qilinishi kerak.

5. O'qish madaniyatini rivojlantirish: O'qish o'rganish va shaxsiy rivojlanishning eng muhim vositalaridan biridir. Shuning uchun kitobxonlikni rag'batlantirish, uning rivojlanishi uchun sharoit yaratish zarur.

6. Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash: iqtidorli o'quvchilarning o'z salohiyatini yuzaga chiqarishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi uchun sharoit yaratish zarur.

7. Amalda o'rganish: Amalda o'rganish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Bu esa talabalarga nazariyani yaxshiroq tushunish va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

8. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ko'proq e'tibor berish: Ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ko'proq e'tibor berishi kerak, shunda o'quvchilar kelajakda bu muammolarni yaxshiroq tushunishlari va hal qilishlari mumkin.


9. Ta'lim samaradorligini baholash: Qayerda o'zgartirish va takomillashtirish zarurligini aniqlash uchun ta'lim

samaradorligini muntazam ravishda baholash kerak.

10. Xalqaro hamkorlik: Xalqaro hamkorlik turli mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirishga olib keladigan bilim va tajriba almashishga yordam beradi.

Interfaol metodlar - o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladigan, ularning bir-biri bilan va o'qituvchi bilan

o'zaro munosabatda bo'lishiga imkon beradigan o'qitish usullari. Ular talabalarga materialni yaxshiroq tushunish va eslab qolish, shuningdek, muloqot qilish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Eng mashhur interaktiv usullardan ba'zilari:



1 rasm: Interfaol metodlar

S.Turg'unovning fikricha, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsion salohiyatiga ko'ra yangiliklar modernizatsiya, unifikatsiya, faoliyatni takomillashtirish, shaklan o'zgartirish, rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan modifikatsion innovatsiyalar; oldindan ma'lum bo'lgan metodlarning elementlarini yangi tizimga birikishini nazarda tutuvchi birikkan innovatsiyalar; o'xshashlikka va umumiylikka ega bo'lmagan radikal innovatsiyalar innovatsion jarayonlarning asosi sifatida belgilanishi mumkin.

Innovatsiyalarning xususiyatlariga ko'ra ularni turli xil asoslar bilan turlicha tasniflash mumkin, ya'ni bugungi kunda

yangilik kiritishning tugallangan tasnifi mavjud emas. Shu bilan birgalikda bizning tadqiqotlarimiz doirasida aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, pedagogik jarayonlarni tashkil etishda va samaradorligini ta'minlashda eng avvalo, yangiliklarni pedagogik jarayonlarning qaysi bo'g'iniga tegishli ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi ¹.

M.V.Klarin ta'limga innovatsion

1 Турғунов С.Т., Мақсудова Л.А. Умумий ўрта таълим муассасаларида педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришда инновациялар. // ж. Мактаб ва ҳаёт. – Т., 2009. - №1. – Б.7.

yondashuvning ikkita turini ajratib ko'rsatadi: 1) o'quv jarayonining an'anaviy reproduktiv yo'nalganligi doirasida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga yo'naltirilgan modernizatsiyalashgan innovatsiyalar; 2) an'naviy o'quv jarayonini qayta tashkillashtirishga yo'naltirilgan transformatsiyalangan innovatsiyalar. Olim birinchi yondashuvni texnologik, ikkinchisini tadqiqotchilikka doir yondashuv deb nomlaydi.

V.I.Belyaev ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni ularning yuzaga kelish tavsifiga ko'ra quyidagi ikki guruhga bo'ladi: 1) innovatsion jarayonning barcha shart-sharoitlar tizimi, vosita va yo'llarini to'liq anglamagan holda yuzaga keluvchi innovatsiyalar. Bunday turdagi innovatsiyalarni empirik innovatsiyalar deb nomlash mumkin: pedagog innovatsiyaga o'zining noan'anaviy tajribasi orqali boradi, tashkiliy qismi esa, stixiyali tarzda amalga oshadi; 2) ongli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyat natijasi sifatida yuzaga keluvchi innovatsiyalar. Bunday turdagi innovatsiyalarni ilmiy tashkillashtirilgan innovatsiyalar deb atash mumkin. Mazkur innovatsiya birinchi turdagi innovatsiyadan o'zining nazariy asoslanganligi, natijalarning aniq ahamiyatga egaligi va keng ommalashganligi bilan yuqori turadi.

O.G.Xomeriki o'quv-tarbiya jarayonining u yoki bu tarkibiy qismi bilan bog'liqlikda innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatadi:

- 1) ta'lim mazmuniga doir innovatsiyalar;
- 2) o'quv-tarbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnologiyasiga doir innovatsiyalar;
- 3) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir innovatsiyalar;
- 4) ta'lim tizimini boshqarishga doir

innovatsiyalar ².

M.M.Potashnik va V.S.Lazarevlar ta'limda qo'llanilish ko'lamiga ko'ra innovatsiyalarni quyidagi turlarga ajratib ko'rsatishadi:

- 1) lokal, alohida, o'zaro bog'lanmagan xususiy innovatsiyalar;
- 2) o'zaro bog'langan, xususiy innovatsiyalar majmuini ifoda etuvchi modulli innovatsiyalar;
- 3) butun ta'lim muassasasini qamrab oluvchi tizimli innovatsiyalar ³.

Interfaol usullar turli fan yo'nalishlarida va ta'limning turli bosqichlarida, boshlang'ich maktabdan tortib oliy ta'limgacha qo'llanilishi mumkin. Ular talabalarga o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishga yordam beradi, bu ularning muvaffaqiyati va o'qishdan qoniqishiga hissa qo'shadi.

Oliy ta'lim jarayoni bilan tanishish raqobatbardosh kadrlar tayyorlash amaliyotida quyidagi ta'limiy innovatsiyalardan keng foydalanilayotgani haqida guvohlik beradi:

1. Ta'lim maqsadi va vazifalarini oydinlashtirish bilan bog'liq innovatsiyalar.

O'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishda o'quv maqsadlarini kutiladigan natija bilan bog'liqlikda qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv-tarbiya maqsadini bu tarzda belgilash o'zida innovatsion yondashuvni aks ettirib, identiv o'quv maqsadini o'quv vazifalariga aylantirishni talab etadi.

2 Хомерики О.Г. Системное управление инновационным процессом в общеобразовательной школе: дисс. ... канд.пед.наук. – М., 1996.

3 Поташник М.М., Лазарев В.С. Управление развитием школы. – М.: Новая школа, 1995.

Boshqacha aytganda, ta'lim maqsadi talabani harakatlarida aks etgan o'qish-o'qitish natijalari orqali ifodalanishi va bu harakatlarni o'qituvchi yoki biror ekspert ko'rib, eshitib bilishi va o'lchashi mumkin bo'lishiga erishilmoqda. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishda esa, Blum taksanomiyasida ifodalangan toifalar (bilish, tushunish, qo'llash, analiz, sintez, baholash)ga mos fe'llardan foydalaniladi. Masalan, pedagogika nazariyasi fanidan yaratilgan ta'lim texnologiyasida "Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari" mavzusini o'rganish jarayonida identiv o'quv maqsadini, u bilan bog'liqlikda o'quv vazifalari quyidagi tarzda belgilab berilgan:

O'quv faoliyati natijalari: 1) shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq nazariyalarning mohiyatini anglab oladilar; shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bilib oladilar; "individ", "inson", "shaxs" tushunchalarining farqli jihatlarini anglab olishadi; shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni qiyoslaydilar; rivojlanish yosh davrlari tasnifini o'rganadilar.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: talabalarda shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuviga doir bilimlarini tarkib toptirish.

Pedagogik vazifalar: "individ", "inson", "shaxs" tushunchalarining farqli jihatlarini ajratib ko'rsatish; shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq nazariyalarning mohiyatini tushuntirib berish; shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tavsiflash; rivojlanish yosh davrlarini tasniflash va o'ziga xosliklarini ochib berish.

2. Ta'lim mazmunini tanlash olish va uning me'yoriy ta'minotini yaratish bilan bog'liq innovatsiyalar.

Ta'lim mazmunini tanlab olishda

quyidagi innovatsion g'oyalarga asoslanilmoqda: integratsiyalash (bir-biriga o'xshash fanlarni, bir-biriga yaqin bo'lgan mavzularni qo'shib o'qitish); standartlashtirish (yo'nalish va mutaxassislar bo'yicha asosiy ta'lim dasturini o'zlashtirishni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari uchun yagona talablar majmuini belgilash); axborotlashtirish (talabalarni o'qitish jarayonida hisoblash texnikasi va axborot texnologiyalaridan ommaviy va keng foydalanish); individuallashtirish (ta'lim-tarbiya jarayonida talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning hamma turlaridan foydalangan holda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va rivojlantirish); uzluksizlik (fanlar, o'quv kurslari va bir fan doirasida mavzular o'rtasida bog'lanishlar va aloqadorliklarni hisobga olish).

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarining quyidagi turlaridan keng foydalaniladi:

1) ijtimoiy-rolli turdagi o'quv dasturlari. Bunday turdagi o'quv dasturlari talabalarining o'zlashtirishi uchun qulay pedagogik sharoit yaratishga yo'naltiriladi. Ularning aniqlovchilari turlicha bo'lishi mumkin, biroq asosiy maqsad talabani o'zlashtirishiga ko'maklashishdan iboratdir. Shuningdek, talabani insoniy, ijtimoiy munosabatlar doirasida rolli nuqtai nazarni o'zlashtirishi nazarda tutiladi. Bu talabani pedagogik sohaga oid bilimlarni o'zlashtirishiga ko'maklashadi. Bunday dasturlar yordamida pedagoglik kasbi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar shakllantiriladi.

2) talabani xatti-harakati va xulq-atvorini tartibga soluvchi o'quv dasturlari. Bunday dasturlar o'quv mavzularini imitatsion (o'xshatib) modellashtirishga

yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday dasturlarda ko'zda tutiladigan asosiy maqsad va vazifalar o'quvchining turli muammoli vaziyatlarda qarorlar qabul qilishini ta'minlashda ifodalangan bo'ladi. Ular muammolar, vaziyatlarning modeli, ta'lim mazmuni, mashg'ulotlarning ssenariysini o'zida ifodalagan bo'lib, ushbu vaziyatlarni yechish uchun muayyan bilimlarni o'zlashtirish talab etiladi.

3) axborotli-kognitiv yo'nalishga ega o'quv dasturlari. Ushbu turdagi o'quv dasturi talaba bilan o'qituvchi orasida diologik muloqot, o'quvchilarning hayotiy vaziyatlarni o'zgartirishga qaratilgan o'zaro munosabatga kiritishlariga imkoniyat yaratadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish ehtiyojining kuchayayotganligi tufayli ham mamlakatimiz ta'lim tizimida bunday dasturlarni qo'llash zaruriyati vujudga kelmoqda.

4) modulli o'quv dasturlari. Modulli o'qitishga o'tish uchun, eng avvalo, maqsadga erishishni ta'minlaydigan kompleksli didaktik maqsad va modullar yig'indisidan iborat modulli dastur ishlab chiqish kerak. Buning uchun o'qituvchi kursning asosiy ilmiy g'oyalarini ajratib olishi kerak.

Masalan, pedagogika kursida qo'yidagi g'oyalar ajratib olinadi: pedagogika nazariyasi –pedagogikaning umumiy masalalari, ta'lim nazariyasi, ta'limning metodik asoslari, tarbiya nazariyasi, tarbiya turlari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ta'lim tizimi menejmenti. Keyin shu g'oyalar asosida o'quv mazmunini muayyan bloklarda tuzib chiqish kerak. Bundan so'ng kompleks didaktik maqsadshakllanadi. Maqsadga asoslanib xarakterlar rejasi ishlab chiqiladi. Rejada aniq usullar, ijodiy

o'ylash, o'zini-o'zi nazorat qilish kabi o'quv elementlarini jamlagan modullar yaratiladi. O'quv elementlarini bilish ta'lim oluvchiga maxsus didaktik maqsadlarni ham, avtonom maqsadlarni ham egallashiga yordam beradi.

3. Ta'limni tashkil etish shakllari bilan bog'liq innovatsiyalar. Hozirgi vaqtda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish bilan bog'liq quyidagi innovatsiyalardan keng foydalanilmoqda:

- 1) ma'ruza ta'lim texnologiyasi;
- 2) seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi;
- 3) mustaqil ta'limni tashkil etish texnologiyasi.

Ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etishda kirish, ma'lumotli, muammoli, vizual, anjuman-ma'ruza kabi ma'ruza turlaridan keng foydalaniladi. Professor-o'qituvchilar va talabalar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasidan ayniqsa, pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida muammoli, vizual va anjuman ma'ruza turlaridan foydalanish samarali ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Mazkur ma'ruza turlarining har biri uchun L.V.Golish tomonidan taklif etilgan metodika⁴ asosida alohida-alohida model va texnologik kartalar ishlab chiqilib, o'quv jarayonini algoritmlashtirish, qadamlar ketma-ketligini aniqlashtirish amalga oshiriladi.

Ta'lim texnologiyasi asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar an'anaviy pedagogik amaliyotdanqator xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

- mashg'ulotlar talabalarning o'quv maqsadlarini oydinlashtirishdan boshlanadi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni oldindan qayd

4 Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. – Т.: ТДИУ, 2010.

etilgan natijaga mo'ljallab tashkil etiladi;

- har bir talaba o'z faoliyati xususiyatlariga mos keladigan sur'atda ishlaydi;

- jamoa a'zolarining har biri o'zlari erishgan natijadan tez-tez ogohlantirib turiladi; erishilgan natija ta'limning har bir bosqichida etalonga birlashtirib turiladi;

- natija talabalarning asosiy o'quv maqsadlariga ko'ra aniqlanadi;

- o'quv materialini to'liq o'zlashtirgan o'quvchi-talaba keyingi mavzuni o'rganishga o'tadi;

- etalondan past o'zlashtirgan talabalar uchun ta'lim o'xshash sharoitlarda takrorlanadi;

- talaba uchun o'qish-o'rganish harakatiga teng maqsadlarni amalga oshirishdan boshlanadi;

- talaba harakatga teng maqsadlardan oraliq maqsadga – bilimlarga, undan umumiy o'quv maqsadiga qarab boradi;

- harakatga teng maqsaddan umumiy o'quv maqsadiga qarab borish o'qish-o'rganishning siklligini ta'minlaydi;

- yakuniy (nazorat) baho o'quv kursi to'liq o'rganilgach chiqariladi.

Ma'ruza jarayonida o'tilgan materiallar asosida talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida seminarlarning faqat dokladli va dialogli turlaridan emas, balki pedagogika fanlari doktori, professor N.M.Egamberdiyeva tomonidan taklif etilgan seminar-illyustratsiya, seminar-refleksiya, seminar-fikrlar almashinuvi kabilardan ham keng foydalanilmoqda. Olima fanlararo modulli ta'lim texnologiyasi doirasida 2007-2009 yillar davomida pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida mazkur seminar turlarini amaliyotga tatbiq etgan va ommalashtirgan. Jumladan, Amir Temurning shaxsi va

faoliyati masalasini o'rganish jarayonida seminar-illyustratsiya, seminar-refleksiya, "Intellektuallar kechasi" seminarlarini tashkil etish metodikasi ko'rsatib berilgan:

1. Seminar-illyustratsiya. Seminarni o'tkazish oldidan talabalarga "Amir Temur haqidagi bir nechta manbalar bilan tanishish topshirig'i berilgan. Seminarining boshida o'qib-o'rganilganlari asosida o'qiganlari va o'z fikrlariga tayanib, Amir Temur shaxsida namoyon bo'lgan sifatlarni namoyish etish so'ralgan. Talabalarning javoblari uchun quyidagi namuna keltirib o'tilgan.

4. Talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq innovatsiyalar. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish bilan bog'liklikda individual, guruhli va jamoaviy ish shakllaridan foydalanishga keng e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, talabalarning guruhlarda ishlash ko'nikmasini shakllantirish orqali ularni pedagogik kasbiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, T.E.Djarlepsovning "Ijodiy guruhni qanday shakllantirish kerak?" nomli metodik qo'llanmasida pedagogik fanlarni o'qitish bilan bog'liqlikda talabalarni guruhlarda ishlash faoliyatini tashkil etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Jumladan, "Ta'limiy muhit" mavzusidagi amaliy mashg'ulot ishlanmasida guruhli faoliyatni tashkil etishning quyidagi texnologiyasi yoritib berilgan:

Texnologiyaning "Tayyorlov bosqichi" alohida loyihalangan bo'lib, bir hafta avval talabalarga birinchi kursda o'qitilgan "Pedagogika tarixi" faniga doir materiallarni takrorlash, Yan Amos Komenskiy, Jon Lokk, Jon-Jak Russo va Yanush Korchaklarning pedagogik faoliyati bilan tanishish va konspekt qilib kelish topshirig'i berilgan.

Soʻngra talabalarni oltitadan toʻrtta kichik guruhga boʻlish koʻzla tutilgan.

Mashgʻulot toʻrt bosqichda amalga oshirilgan:

1-bosqich – kirish qism. Mazkur qismning samarali amalga oshirilishi uchun “Aqliy hujum” interfaol metodidan foydalanilgan.

2-bosqich – asosiy qism. Mazkur bosqichda toʻrtta kichik guruhga matnlar tarqatilgan. Bir guruh talabari uchun bir xil mazmundagi material taqdim etilgan. Soʻng talabalarga matn bilan individual ishlash, yaʼni matndagi har bir soʻz, atama va fikrni tahlil qilish topshirigʻi berilgan. Talabalar individual tarzda matn bilan tanishganlaridan soʻng ularning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashlari tashkil etilgan. Yaʼni ular birgalikda matn yuzasidan umumiy chiqish nutqini tayyorlashlari belgilab berilgan. Mazkur jarayonda munozara metodidan foydalanish yaxshi samara berishi alohida taʼkidlab oʻtilgan.

3-bosqich – harakatlarni rivojlantirish. Ushbu bosqichda professor-oʻqituvchi kichik guruhlarni qayta shakllantirish orqali har bir guruhning toʻrtta matn bilan tanishishlariga erishadi. Buning uchun “Bir-biriga oʻrgatish” interfaol metodidan foydalanilgan.

4-bosqich – egallangan bilimlarning taqdimoti. Mazkur bosqichda professor-oʻqituvchi talabalar bilan hamkorlikda markazda “taʼlimiy muhit” mavzusi, uning atrofidan asosiy mavzu mazmunini yoritib

beruvchi birinchi va ikkinchi darajali mavzular ajratib koʻrsatiladi. Talabalarning bilimlarini mustahkamlash maqsadida “Blits-oʻyin” interfaol metodidan foydalanish lozim ⁵.

Qiyosiy pedagogika fanlarini oʻqitish jarayonini bevosita kuzatish asosida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish orqali nafaqat talabalarning yangi bilimlarni oʻzlashtirishlari, amaliy koʻnikma va malakalar hosil qilishlari, balki ularning bilim, koʻnikma va malakalarini tashxis etish imkoniyatini yuzaga keltirish lozim, degan xulosaga keldik. Mavjud innovatsiyani takomillashtirish maqsadida “Kichik guruh – qayta aloqa” testini taklif etdik.

Maqsadi:

- talabalarning axborotni oʻzlashtirganlik darajasini nisbatan tez oʻlchash;

- taʼlim jarayonida talabalarning oʻzlarining ishtiroklari asosida oʻtilgan materialni oʻzlashtirilganligini nazorat qilishning taʼlimiy funksiyasini faollashtirish.

1. Oʻqituvchi savolni shakllantiradi.

2. Talabalar yozma javob yozishadi.

3. Oʻqituvchi ikkinchi savolni shakllantiradi, talabalar javob berishadi va xuddi shu tarzda besh, oʻn va undan ortiq savollar taqdim etiladi.

5 Джарлеспесов Т.Е. Как создать творческую группу? – Т.: «Fanvatehnologiyalar» нашриёти, 2011. – Б.15-29.

Talaba (ismi va familiyasi) – Men	Guruh	Etalon
1.		
2.		
3..... va boshqalar		

2 rasm: “Kichik guruh – qayta aloqa” testi

5. Mashg'ulotning keyingi bosqichida javoblar etaloni taqdim etiladi. Agar bu talabalar tomonidan materialni yaxshi eslab qolishga yordam bersa, javoblar etalonini yozma ravishda berish mumkin. Talabalar etalon bilan "Men" o'z javoblarini taqqoslab ko'rishadi va o'ziga nuldan beshgacha birlikda ball qo'yishadi. Keyin etalondagi javoblar bilan "guruh" ustunidagi javoblarni taqqoslaydi va yana o'ziga nuldan beshgacha birlikda ball qo'yadi.

6. Oxirida mustaqil javoblar ("Men" ustunidagi) va guruhda ish ("guruh" ustuni) uchun qo'yilgan ballar hisoblab chiqiladi. Nazoratning mazkur metodi o'tilgan material bo'yicha guruhdagi ta'limiy ishni faollashtirishga yordam beradi. Guruhda javoblarni tahlil qilishda alohida talabalarning javoblari korreksiyalanadi.

5. Ta'lim metodlari bilan bog'liq innovatsiyalar. Bugungi kunda pedagogik fanlarni o'qitishga qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri – ta'limning interfaol metodlaridan foydalanishdir. Pedagogik fanlardan o'tkazilayotgan seminar mashg'ulotlari tahlili asosida eng samarali interfaol metodlar "Bir necha manbalardan foydalanib ma'ruza tayyorlash", "Yozma va og'zaki davra suhbat", "Erkin yozish", "Besh minutlik esse", "Asoslangan esse", "Chalkashtirilgan zanjirlar ketma-ketligi", "T-chizma", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Xulosalash", "Ikki qismli kundaliklar", "Zanjir", "Blits-o'yin", "Charxpalak" kabilar degan xulosaga keldik. Mazkur interfaol metodlar orasida "Erkin yozish", "Besh minutlik esse", "Asoslangan esse", "Chalkashtirilgan zanjirlar ketma-ketligi", "Blits-o'yin"lardan barcha seminar mashg'ulotlarida foydalanish mumkinligi kuzatildi.

Dual ta'lim - ta'lim tashkilotida

o'qitishni korxonada (tashkilotda) ishlab chiqarish ta'limi va kasbiy amaliyotning majburiy davrlari bilan o'quvchilarni ish bilan ta'minlash va korxonada (tashkilot) ning teng javobgarligi bilan kompensatsiya to'lash bilan birlashtirgan o'qitish shakli.[3]

Nazariya va amaliyot uyg'unligi butun dunyoda talabga ega bo'lgan Germaniya dual ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Yoshlar o'rtasidagi ishsizlikning pastligi - bu ko'pchilik mamlakatlarda kasb-hunar egallashdan oldin bo'lgan sof maktab ta'limidan farq qiladigan dual kasbiy ta'lim tizimining savobidir.

Dual ta'lim tizimi o'quvchilarning o'rganishi va ishlab chiqarishdagi kasbiy rivojlanishi o'rtasidagi yaqin munosabatlarni nazarda tutadi. Jamiyatning kerakli miqdordagi mutaxassislariga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy talabi ularni tayyorlashning eng aniq miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga tenglashtiriladi.

Dual ta'lim tizimi – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa bevosita ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta'limining asosiy maqsadi ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning sa'y-harakatlari amaliy mashg'ulotlarning asosiy omili sifatida birlashtirib, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdan iborat.[4]

Germaniyada yoshlarning qariyb yarmi dual tizim bo'yicha o'rta maktabni tugatgandan so'ng davlat tomonidan tan olingan 326 ta kasbdan birini o'rganmoqda. Amaliy qism haftasiga 3-4 kun korxonada, 1-2 kun kasb-hunar maktabida nazariy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Dual kasbiy ta'lim, qoida tariqasida, ikki yoki uch yilga mo'ljallangan va haq to'lashni o'z ichiga

oladi. Germaniyada har yili 500 000 ga yaqin yangi stajyorlar kasbga kirishadi, ularning taxminan uchdan ikki qismi dual tizim bo'yicha.

Dual ta'lim tizimi - bu ta'lim muassasasida o'qitishning ishlab chiqarish faoliyati davrlari bilan uyg'unligini ta'minlaydigan ta'lim tizimi. Dual ta'lim tizimi ta'lim muassasasida o'qitishning ishlab chiqarish faoliyati davrlari bilan uyg'unligini ta'minlaydi. Ushbu tizimda o'qitish quyidagicha tuzilgan: kollej yoki boshqa kasb-hunar ta'limi muassasasida (umumiy ta'lim) muntazam mashg'ulotlar bilan parallel ravishda. Talabalar ma'lum bir korxonaga ishlash uchun boradilar va u yerda amaliy tajriba orttirishadi.

Dual ta'lim tizimi quyidagi bosqichlardan iborat:

- ta'lim muassasai va korxonalar o'rtasida shartnoma imzolash;
- kadrlar borasida ehtiyojlarni aniqlash;
- kadrlar tayyorlash yo'nalishini tashkil etish;
- mehnat bozorida talabga muvofiq o'quv dasturlarini yaratish va ularni doimiy ravishda yangilash;
- dual ta'limda tahsil olgan tayyor kadrlarning malakasini baholash.

Germaniyadagi bir qator ta'lim muassasalari dual kasbiy tayyorgarlikni targ'ib qiladi va uning sifatini ta'minlaydi. Shunday qilib, Savdo-sanoat palatalari ta'lim muassasalariga maslahat beradi va korxonalarining jihozlarini tekshiradi, shuningdek, imtihonlarni tashkil qiladi va o'tkazadi. Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar birlashmalari amaliyot uchun to'lanadigan haq miqdorini kelishib oladilar, korxonada o'qitish standartlarini shakllantirishda ishtirok etadilar. Hukumat davlat kasb-hunar ta'limi tizimini

moliyalashtiradi va nazorat qiladi, ishsiz yoki kam ta'minlangan yoshlarga o'qish uchun munosib o'rin topishda yordam beradi.

Nazariy bilim va amaliy ish tajribasining uyg'unligi ko'plab kompaniyalarda katta talabga ega. Xalqaro miqyosda ham shunday bo'lmoqda. Hozirda ko'plab davlatlar Germaniyaning dual kasb-hunar ta'limi tizimini o'z ehtiyojlariga moslashtirmoqda. Ushbu yuqori talab tufayli Federal hukumat Kasbiy ta'lim va ta'lim Federal instituti (KTTFI) huzurida Kasbiy ta'lim va ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik bo'yicha Germaniya buyrosini (GOVET) ochdi.

GOVET Germaniya dual kasbiy ta'lim tizimi bo'yicha barcha so'rovlarni qabul qiladi. 2019 yilning o'zida markazga xorijdan 239 ta murojaat kelib tushgan. [5] Germaniya Federal hukumati xalqaro hamkorlik doirasida hamkor-davlatlarni ularning kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlaydi va shu orqali yoshlarning kasb-hunar egallash imkoniyatlarini oshiradi. Ushbu asos 2013 yilda qabul qilingan va 2019 yilda davom etgan kasb-hunar ta'limi va kasb-hunar ta'limi sohasidagi xalqaro hamkorlik bo'yicha Federal hukumatning strategiyasi bilan belgilandi.

Dual ta'lim kontseptsiyasini yaxshiroq ifodalashda quyidagimaqsad, vazifa va tamoyillar asosiy o'rin egallaydi.

Maqsadlar:

- kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish orqali takomillashtirish ishchilarni tayyorlash uchun samarali tuzilma;
- ta'lim tashkilotlarining o'quv dasturlariga zamonaviy metodlarni joriy etish va o'quv qurollari;

– uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish;

- xodimlarning kasbiy darajasini oshirish.

Vazifalar:

– kadrlar tayyorlash tizimining bozordagi talab tarkibiga nomuvofiqligini bartaraf etish

– tegishli kasb-hunar ta'limi muassasalarini tashkil etish, aholi hayotining barcha sohalari va mehnat bozori ehtiyojlari o'rganish.

– o'quv dasturlari mazmuni va tuzilishini o'zgartirish va sifat jihatidan yaxshilash

kadrlarni kasbiy tayyorlash, ularning yuqori professionallik va harakatchanligini ta'minlash.

- tegishli darajada ishlab chiqilgan kadrlar malakasini oshirishni tashkil etishda ilmiy, uslubiy va moddiy-texnik ta'minotlarni joriy etish.

Ta'lim tashkiloti va sanoatni birlashtirgan dual modelkorxonalar o'z faoliyatini bitta maqsadda amalga oshirishi kerak, u qo'shma, rejalashtirilgan foyda. Bu nafaqat har qanday maqsadning yagona maqsadiga ta'lim maydonini chetlab o'tmagan dbirkorlik faoliyati, balki uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishning asosiy omili yoki motivatsiya, shaffof bozor munosabatlarining asosi.

Davlat uchun dual ta'lim, birinchidan, yuqori samarali malakali kadrlar tayyorlash va ularni to'liqsiz ishga joylashtirish bo'lsa, ikkinchidan, iqtisodiy nuqtai nazardan bu ta'lim o'zini o'zi moliyalashtiradi. Yuqoridagi matnga asoslanib, dual ta'lim tizimining aniq ifodalangan afzalliklarini ta'kidlash kerak:

Birinchidan, mutaxassislarning amaliy mashg'ulotlari nafaqat ta'lim

tashkilotlarining ustaxonalari, laboratoriyalari va poligonlarida emas, balki korxonalarda amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, ta'lim dasturlarining mazmuni va tuzilishi ta'lim muassasasi va korxonalar o'rtasida kelishib olinadi, bu barcha tomonlarning talablarini qondirish imkonini beradi.

Uchinchidan, ta'lim muassasasi va korxonalar o'rtasida yaqin aloqalar rivojlanishi mumkin va rivojlanadi.

To'rtinchidan, mehnat jarayonida mehnat jarayoniga tez moslashish ehtimoli bor.

Beshinchidan, Ta'lim muassasasidagi nazariy faoliyatdan korxonadagi amaliy ishlarga doimiy o'zgarish ishlab chiqarish jarayoni katta darajada zarar ko'rmasa, o'rganish uchun eng yaxshi motivatsiya bo'lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, kasb-hunarni aniqroq tushunishni, shuningdek, standartlashtirilgan tayyorgarlik darajasini kafolatlaydi.[6]

Bir qator iqtisodiy erkinliklar berilgan korxonalar talablari zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari bilan belgilanadi, bu esadual ta'lim modelini yaratishda e'tiborga olinishi kerak.

Faoliyat turlari va shakllarini erkin tanlash bu bozorning asosiy tamoyilidir. U har qanday tadbirkorlik sub'ektining o'zi xohlaganini tanlash huquqini beradi, iqtisodiy faoliyatning hayotiy, foydali yoki afzal turi va shu faoliyatni qonun tomonidan ruxsat etilgan har qanday shaklda amalga oshirishni taminlaydi. Dual sheriklik barcha ishtirokchilarning moliyaviy qiziqisgi asosiga qurilishi kerak.

